Metodologiya. "Raqamlashtirish" so`zi aslida yangi atama bo`lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT-yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o`laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo`lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo`llashni ko`zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba - trakzaksion sektorning o`sishidir. Chakana savdoni rivojlantirishda raqamlashtirish, elektron tijoratni yanada kengroq joriy etish imkonini beradi:

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy yondashuv – chakana savdo va raqamli iqtisodiyot haqidagi mavjud ilmiy adabiyotlar, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa ochiq ma'lumotlar bazasi asosida tahlillar olib borildi.

Taqqoslash usuli – O'zbekistonning chakana savdo infratuzilmasi rivojlanishini MDH va ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi.

Empirik tahlil – yirik onlayn chakana savdo platformalari (Walmart, Amazon, Alibaba, Wildberries, Oson, Korzinka.uz va boshqalar) faoliyati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

SWOT tahlil – O‘zbekiston chakana savdo tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Chakana savdo raqamli transformatsiya davrida: Elektron savdo, mobil ilovalar orqali xarid qilish, raqamli to‘lov tizimlari, yetkazib berish xizmatlarining avtomatlashtirilganligi chakana savdoning an’anaviy ko‘rinishini keskin o‘zgartirdi.

O‘zbekiston holatida 2023-yil yakunlariga ko‘ra, umumiy chakana tovar aylanmasining 12–15% qismi raqamli platformalar orqali amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 2 baravarga oshgan. “Oson”, “MyMarket”, “Texnomart”, “Asaxiy” kabi platformalarning o‘sish sur’atlari buni tasdiqlaydi.

Sun’iy intellekt va big data asosidagi texnologiyalar chakana savdoda mijoz istaklarini bashorat qilish, individual takliflar berish, omborxona logistikasini optimallashtirishda muhim vositaga aylangan.

Muammolar sifatida esa infratuzilmaning yetarlicha raqamlashtirilmaganligi, qishloq hududlarida internet infratuzilmasining pastligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligini asosiy to‘siqlar sifatida ko`rsatish mumkin.

Munozara. Chakana savdo sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayoni nafaqat texnik-modernizatsiya, balki yondashuvlar va iste’mol madaniyatining o‘zgarishini ham taqozo etadi. Masalan, “omnichannel” savdo strategiyasi do‘kon, mobil ilova, veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali xaridor bilan ko‘pkanalli aloqani yo‘lga qo‘yishni anglatadi. Bu yondashuv xaridorgirlikni oshiradi, brendga sadoqatni kuchaytiradi.

Boshqa tomondan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ilg‘or davlatlar (AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy) chakana savdoda raqamli transformatsiyani davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlari, startaplar uchun grantlar, ilg‘or infratuzilma orqali yo‘lga qo‘ygan.

O‘zbekistonda esa bu borada hali huquqiy bazaning mukammalligi, elektron tijoratga ishonchning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Shu bois, chakana savdoni raqamlashtirishga oid tizimli, davlat darajasidagi strategik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, chakana savdoning raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi uni an’anaviy savdo modelidan raqamli platformalarga asoslangan, axborotga tayanadigan, tahliliy qarorlar asosida ishlaydigan tizimga aylantirmoqda. Raqamli iqtisodiyotda chakana savdoning jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga bozor hajmi va talablarni haddan tashqari oshganligi, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bozor iqtisodiyoti hayotiga va biznesga keng kirib kelganligi bilan ham belgilanadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu jarayonni jadallashtirish uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

1. Elektron tijorat faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan huquqiy bazani takomillashtirish.
2. Mahalliy onlayn savdo platformalarini subsidiyalash va soliq yengilliklari joriy etish.
3. Raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.
4. Internet va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa qishloq hududlarida.
5. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) texnologiyalarini chakana savdo tizimiga keng joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni (05.10.2020 - yil).
2. Ayupov R. Elektron tijorat asoslari. Elektron kitob. 2020 y. https://kitobxon.com/uz/kitob/elektron-tijorat-asoslari.
3. McKinsey & Company. (2023). “The Future of Retail: Digital Transformation.”
4. OECD (2022). “Digital Transformation of Retail and Wholesale Trade.”
5. UNCTAD (2023). “E-Commerce and Digital Economy Report.”
6. Harvard Business Review. (2022). “Retail in the Age of AI and Data Analytics.”
7. Stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

UO'K 330.59

KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI VA UNI QISQARTIRISH BO'YICHA YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

X.R.Aliyev, erkin tadqiqotchi, Andijon davlat universiteti, Andijon
Z.A.Aliyeva, o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari inistituti, Andijon

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Islom dinida kambag'allik muammosiga bo'lgan munosabat, uning sabablari va oqibatlari, shuningdek, uni qisqartirishga qaratilgan diniy yondashuvlar tahlil qilingan. Qur'on oyatlari va Hadislarga asoslangan holda zakot, sadaqa, vaqf kabi iqtisodiy institutlarning kambag'allikni kamaytirishdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, Islomning adolat, hamjihatlik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan tamoyillari orqali kambag'allikka qarshi kurashishning ahamiyati ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Islom, kambag'allik, zakot, sadaqa, vaqf, ijtimoiy adolat, iqtisodiy yondashuvlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается отношение ислама к проблеме бедности, ее причины и последствия, а также особенности религиозного подхода к её сокращению. На основе аятов Корана и хадисов раскрывается роль таких экономических институтов, как закят, садака и вакф, в борьбе с бедностью. Особое внимание уделяется значению исламских принципов справедливости, солидарности и социальной ответственности в преодолении бедности.*

Ключевые слова: *Ислам, бедность, закят, садака, вакф, социальная справедливость, экономические подходы.*

Abstract. *This article explores the Islamic perspective on poverty, its causes and consequences, as well as distinctive religious approaches to its alleviation. Based on Qur'anic verses and Hadiths, the paper highlights the role of economic instruments such as zakat, sadaqah, and waqf in reducing poverty. It also emphasizes the importance of Islamic principles of justice, solidarity, and social responsibility in addressing poverty effectively.*

Keywords: *Islam, poverty, zakat, sadaqah, waqf, social justice, economic approaches.*

Islom dinida insonni nochorlik girdobidan xalos qilish, kambag'allik, qashshoqlikning doimiy rahna solishidan qutqarish, uning xotirjam, faol va baxtli yashashini ta'minlash uchun beshta muhim tamoyil asosiy yondashuv sifatida keltirilgan. Jumladan, Qur'oni karimda nochorlikdan xalos bo'lish uchun eng muhim va birlamchi yondashuv bu mehnat qilish hisoblanadi. Shuningdek, qarindoshlik haqlari, zakot, zakotdan tashqari majburiyatlar, ixtiyoriy sadaqalar va shaxsiy ehsonlar insonni kambag'allikdan qutqarishning yo'llari sifatida belgilangan.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, odamlar orasida o'zaro hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlash, kambag'allikni qisqartirish, uni iymon-e'tiqod sofligi, odob-axloq tamoyillari hamda oilaviy ahillikka ziyon qilmasligi bo'yicha Islom dinida bir qator yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berilgan.

Islom ma'rifati jamiyat a'zolarini hayotda mo''tadil yashashlari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarga layoqatidan qat'iy nazar barcha ne'matlar inson uchun xizmat qilishi muhim deb biladi. Oziq-ovqat, turar joy, kiyim-kechak, kasbu kor, oila qurish, ro'zg'or yuritish bo'ladimi, barchasida o'zaro birodarlik va hamjihatlikni qo'llaydi.

Inson uchun munosib hayot tarzini shakllantirish maqsadida Islom dinida bir qator yondashuvlar amal qilgan. Jumladan, birinchi navbatda har bir kishiga Allohning berajak rizqini topish uchun imkon qadar intilishni buyuradi:

"**U** (Alloh) **sizlarga Yerni xoksor** (bo'ysunuvchi) **qilib qo'ygan zotdir. Bas, uning har tomonida** (sayohat, tijorat yoki dehqonchilik qilib) **yuraveringiz va** (Allohning bergan) **rizqidan tanovul qilingiz!** (Qiyomat kuni) **tirilib chiqish Uning huzurigadir!**" [1].

Mazkur oyat insonni bevosita amaliy faoliyatga chorlaydi va hayotda o'ziga kerakli narsalardan bahramand bo'lishi uchun zarur bo'lgan vazifalarni bajarishga chorlaydi.

Islom dinida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yondashuvlar quyidagilardan iboroat:

Birinchi yondashuv. Qur'oni karimda nochorlikdan xalos bo'lish yo'li mehnat qilish deb belgilanadi. Alloh taolo Qur'on karimda yer yuzini obod qilishlikni buyuradi. Jumladan, Qur'oni karimda Solih alayhissalomning o'z qavmiga aytgan qisqa so'zlari keltiriladi:

"Samud (qabilasiga) **birodarlari Solihni** (payg'ambar etib yubordik)**.** (U) **aytdi: "Ey qavmim! Allohga sig'iningiz! Sizlar uchun Undan o'zga iloh yo'q. U sizlarni yerdan paydo qilib, sizlarni uni obod etuvchi etdi. Bas, Undan kechirim so'rangiz, so'ngra Unga tavba etingiz! Albatta, Rabbim** (bandalariga) **yaqin va** (duolarni) **ijobat etuvchidir"." [1]**.

Islom dini har bir insonga o'zining qobiliyati va imkoniyatidan kelib chiqib o'zi xohlagan kasb bilan shug'ullanishi mumkinligini buyuradi. Insondagi ixtiyor erkinligi Islom dinida ham ta'minlangan bo'lib, biror kishi o'zi xohlamagan ishga majbur qilinmaydi. Har bir kishi o'zi tanlagan kasbni bajarishi, ammo boshqalar, shuningdek jamiyat a'zolari bundan zarar ko'rmasligi lozim.

Mehnat qilgan inson katta imkoniyatlarga, ajru savoblarga ega bo'ladi va asosiy ehtiyojlariga, oilaviy sarf-xarajatlariga yetarlicha mablag'ni qo'lga kiritadi. Bu ko'rsatmalarga amal qilib, mehnat qilgan kishining sa'y-harakatlari bekor ketmaydi. Mehnatning mukofoti va rohatini bu dunyoda ham ko'radi.

"Men Allohga tavakkal qilganman" deb ayrim kimsalar qo'llarini sovuq suvga ham urmaydilar va rizqni faravon bo'lishini kutadilar. Allohga tavakkal qilish, bu mehnat qilmasdan, sabablarni bajarmasdan o'tirish, degani emas. Nabiy alayhissalom Allohga tavakkal qilib, tuyasini yaylovga qo'yib yuborgan sahroyi arabga: "Avval uni bog'lab, keyin Allohga tavakkal qil" [3], deb buyurganlar.

Shunda Ibrohim ibn Adham rahimahullohi alayh bunday dedilar: "Ey Shaqiq, nega birovlarning qo'liga qarab qolgan qushning yo'lini tutding? Nima uchun o'ziga ham, boshqalarga ham nafi tegadigan qushning yo'lini tanlamading? Beruvchi qo'l oluvchi qo'ldan yaxshi ekanini bilmaysanmi?".

Shunda Shaqiq o'rnidan turib hazratning qo'llaridan o'pib va "Ey Abu Is'hoq, siz bizning haqiqiy ustozimizsiz", debdi va yana safarga otlanibdi.

Ayrim kishilar quyidagi hadisni o'zlariga asos qilib oladilar: "**Agar Allohga haqiqiy tavakkul qilsangiz sizlarni rizqlantirib qo'yadi. Xuddi, tongda och ketib, kechasi to'q qaytib keladigan qushni rizqlantirgandek**". Bunda aslida o'sha qushning to'q qaytib kelishi uchun ertalab rizq talabida chiqib ketishi shart qilinmoqda. Bu hadisda rizq topish uchun sa'y-harakat qilish kerakligi ta'kidlanyapti.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan quyidagi hadis rivoyat qilinadi: "Dovud alayhissalom temirchi, Odam alayhissalom dehqon, Nuh alayhissalom duradgor, Idris alayhissalom chevar va Muso alayhissalom cho'pon bo'lgan" [2].

Islom olamining eng ko'zga ko'ringan, ilmda etakchi bo'lgan olimlarning ko'pchiligini ismi yonida o'zining hunari ham zikr qilinishi bejiz emas. Masalan, Bazzoz (mato furush), Qaffol (qulfsoz), Zajjoj (oyna soluvchi) kabi.

Ba'zilar o'zlari yashaydigan joylarida ish topolmasliklarini bahona qilib ishlamay yuradilar. Yaqinlari, mahallasi, yoru birodarlarini tashlab ketishga ko'zlari qiymaydi. Bekorchi, ishsiz bo'lsa ham ish izlab chiqishni xushlamaydilar. Rasulullo sollallohu alayhi vasallam: "Safar qiling, rizqingiz keng bo'ladi" [5], deganlar. Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qiladi:

"Kimda-kim Alloh yo'lida hijrat qilsa, yer (yuzi)**da ko'p boshpana va kenglik topadi. Har kim Alloh va Uning payg'ambari sari hijrat qilib,** (o'z) **uyidan chiqsa-yu, so'ngra** (yo'lda) **unga o'lim yetsa, albatta, uning mukofoti Alloh zimmasidadir. Alloh kechiruvchi va rahmli zotdir" [1]**.

Yana bir boshqa oyatda Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

"...boshqalar Allohning fazli (rizqi)**ni istab, yer yuzida safar qilishlarini va yana boshqalar esa Alloh yo'lida jangga chiqib ketishlarini bilgan**." [1].

Islom dini kishilarni tilanchilik qilishdan qaytargan. Hadisda "Tilanchilik qilib o'tgan kishi qiyomat kuni yuzida faqat eti qolgan holatda bo'ladi" [2], deyilgan. Imom G'azzoliy rahimahulloh mehnat qilish kerakligi va uning turlari haqida gapirib, bunday dedi: "Ayrim kasblar borki, inson ma'lum darajada shu sohada bilimga ega bo'lgandan keyingina unga kirishishi kerak. Boshida

qiyinchiliklar ham bo‘lishi mumkin. Odamlar bunga uncha e’tibor bermaydilar. Ishqiboz bo‘lib bir ishni boshlab, bilim etarli bo‘lmagach uni tashlab ketadi. YOki biror to‘siqqa uchrab, ishni to‘xtatib qo‘yadi. Oqibatida esa, boshqalarning hisobidan kun ko‘rishga majbur bo‘ladi. Natijada o‘g‘irlik va gadoylik kabi ikkita razil hunar paydo bo‘ladi. Har ikkisi ham birovning hisobidan kun ko‘rish hisoblanadi. So‘nra bu ikki toifadagilar biror hiyla o‘ylab topa boshlaydi. O‘g‘ri atrofiga yordamchilar to‘playdi va katta kuchga aylanadi. To‘da-to‘da bo‘lib yo‘lto‘sarlik qiladi.

Har bir musulmon kishi rizq topish uchun sa’y-harakat qilishi lozim. Tanlangan kasbi dehqonchilikmi yoki ishlab chiqarishmi yo tijoratmi farqi yo‘q. Muhimi insonlarga manfaati tegsin. Hunarlik kishi boshqalarga qaram bo‘lib yashamaydi. O‘zini ham, oilasini ham birovlarning yordamiga muhtoj qilmaydi. Ishsiz, mehnatga layoqatli kishilarga ish topishlarida ko‘maklashish, bunda Alloh taoloning

“Ezgulik va taqvo (yo‘li)**da hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat** (yo‘li)**da hamkorlik qilmangiz! Allohdan qo‘rqingiz! Albatta, Alloh azobi qattiq zotdir” [1]**, degan ko‘rsatmalariga amal qilish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, musulmon rahbar ishsizlarga imkon qadar yordam berishi lozim. Taraqqiyot uchun birlashib harakat qilishi, buning uchun bor moddiy va ma’naviy imkoniyatlardan unumli foydalanishi, kambag‘allikni qisqartirishga intilishi kerak. Avvalo, ishlab chiqarishni ko‘paytirish lozim va iqtisodiy ahvolni yaxshilash choralarini ko‘rish kerak. Aynan shu narsalar kambag‘allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri”. T.: TIU. 2012.
2. Imom Buxoriy. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam) Abdulg‘ani Abdulloh tarjimasi. –T.: Qomus, 1992
3. Abu Rayhon Beruniy. 100 Hikmat. Ibratli so‘zlar. T.: Fan, 1993. 11- bet.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993.
5. Abulqosimov H.P., Hasanov R.R. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. –T.: Akademiya, 2010. -216 b.
6. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat–ul Qulub (Qalblar kashfiyoti) Toshkent: Adolat, 2002.
7. Abdullaev A. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya. 2005.-B. 5.
8. Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008, 25 b.
9. Aflotun. Qonunlar. Rus tilidan Urfon Otajon tarjimasi. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2002, - B. 95.
10. Avesto. // Tarixiy–adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjimasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – B. 166.
11. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq.–T.:O‘qituvchi, 1992.–160 b

UO’K 330.342.01

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMOLAR VA UNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

M.A. Arziyev, mustaqil tadqiqotchi, Farg’ona Davlat universiteti, Farg’ona

Annotatsiya. *Oilaviy korxonalarni va uning iqtisodiyotda tutgan o‘rni, mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlik bo‘yicha qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, oilaviy biznes bo‘yicha mamlakatlar indesi, rivojlangan mamlakatlar tajribasi.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, tadbirkorlik shakllari, oilaviy biznes, oilaviy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar, mamlakatlar indeksi.*

Аннотация. *Семейный бизнес и его роль в экономике, нормативно-правовые документы, принятые в нашей стране по семейному предпринимательству, страновой индекс по семейному бизнесу, опыт развитых стран.*

Ключевые слова: *предпринимательство, формы предпринимательства, семейный бизнес, семейное предпринимательство, семейные предприятия, страновой индекс.*

Abstract. *Family businesses and their role in the economy, regulatory and legal documents adopted in our country on family entrepreneurship, country index on family business, experience of developed countries.*

Key words: *entrepreneurship, forms of entrepreneurship, family business, family entrepreneurship, family enterprises, country index.*

Milliy iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida oilaviy biznesni rivojlantirish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi hamda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy biznesning o'rni sezilarli darajada yuqori. Shu bilan bir vaqtda oila farovonligi, turmush darajasi va hayot kechirishning sifati ko'p jihatdan oilaviy biznesning rivojlanganligi, uning faoliyatidan olinadigan daromad miqdori hamda davlat tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlarga bevosita bog'liq. O'zbekistonda oilaviy biznesni tashkil etish, rivojlantirish hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dolzarb masalalar qatoridan o'rin oldi. Respublikamizda oilaviy biznesni rivojlantirish borasida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, 2023 yil 31 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-39-son qarori, 2024 yil 9 yanvardagi "2024 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida" gi PQ-7-son7 qarorli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab – quvvatlash yili"[3] da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmonining 4-bandida yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 2 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-149-son qarori va yana bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ta'kidlash mumkin.

Xorijiy tajribalar hamda ilmiy manbalar tahlili, so'nggi yigirma yillikda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta'minlashda oilaviy biznesning hissasi ortib borganligini ko'rsatmoqda. Shu bois hozirgi vaqtda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning aksariyat qismini oilaviy korxonalar tashkil qiladi. Oilaviy biznesni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklarining asosiy jihati uning ishtirokchilari faoliyatining yuqori samaradorligi bo'lsa, muhim jihatlaridan yana biri ushbu faoliyatni uzoq vaqt davom etishidir.

O'zbekistonda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi 18 ta hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasida 19 ta belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda tadbirkorlikning turli shakllari, xususan, dehqon va fermer xo'jaliklari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma va xususiy korxonalar ko'rinishidagi tadbirkorlik subyektlarini yanada rivojlantirish maqsad qilib olingan. Albatta yuqorida sanab o'tilgan tadbirkorlik shakllarining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini ochilishiga, raqobat muhitini yaxshilanishiga, importni qisqarishiga, aholini turmush-darajasini yaxshilanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan biz mazkur tadqiqotimizda ko'proq oilaviy biznes bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratdik. Chunki tadbirkorlikni bu shakli G'arbiy Yevropa mamlakatlari, keyinchalik Sharqiy Osiyo davlatlari tajribasida jamiyatning ijtimoiy muammolarini ijobiy hal etishda katta rol o'ynagan.

Ilmiy manbalarni o'rganish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy tadbirkorlik yoki oilaviy biznes faoliyati faqat aniq bir maqsadga yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin ekan. Chunki bu oilaga tegishli zarur mehnat va moliyaviy resurslar hajmi va ulardan samarali foydalanishni bilish orqali erishilishi lozim bo'lgan strategik va aniq maqsadlar tizimida o'z aksini topishi zarur.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik oilaning bitta a'zosi tomonidan olib boriladi. Unda oilaning boshqa a'zolari yordamchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikning kasanachilik shaklida esa oila a'zolarining yakka yoki bir guruhga birlashib amalga oshiriladigan faoliyat turi bo'lib, unda biror bir ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bevosita shug'ullanadi.

Oilaviy korxona ham rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan holda oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari tomonidan faoliyat yuritadi va a’zolarning mehnatiga asoslanadi.

1-rasm

O‘zbekistondagi qonunchilikka ko‘ra oilaviy biznes amaliyotda quyidagi uchta shaklda faoliyat yuritishi mumkin:



1-rasm. O‘zbekistonda oilaviy biznes faoliyatini yuritish shakllari
Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Ma’lumotlarga ko‘ra Yevropa Ittifoqi davlatlarida YAIMning 40-50 %, Sharqiy Osiyo mamlakatlarida 65-80 %, Lotin Amerikasida esa 70-80 % gacha yaqini oilaviy biznes hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSH iqtisodiyotida oilaviy biznesning ulushi 95 foizdan ko‘proqni tashkil qiladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi 5-10 yilda aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, xususan, hunarmandchilik, kasanachilik va oilaviy tadbirkorlik sohalarida bandlikni ta’minlash orqali ularning qo‘shimcha va barqaror daromad manbalari shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish borasida davlat tomonidan sohani rivojlantirish bo‘yicha bir qancha dasturlari qabul qilindi. Bu dasturlarda quyidagilar belgilab qo‘yildi:

- oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadiganlar uchun Markaziy bank asosiy stavkasiga nisbatan +4 bo‘lgan, yillik 18 foizga teng kreditlar berish;
- kredit miqdorini jismoniy shaxslar uchun 33 mln. so‘mgacha hamda yuridik shaxslar uchun esa 300 mln.so‘mgacha etib belgilanishi ko‘rsatib qo‘yildi.

Tadbirkorlikka kredit berishda bank tomonidan garov to‘g‘risida hujjatni talab etilishi endigina tadbirkorlikni boshlagan fuqarolar uchun bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqarar edi. Davlat tomonidan shularni ham e’tiborga olgan holda birinchidan, o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, tegishli sertifikatni olgan shaxslarga zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zarur asbob uskunalar sotib olish hamda ikkinchidan, uzoq muddatga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini ijaraga olib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan dehqon xo‘jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlariga garovsiz 50 mln. so‘mgacha kreditlar berish belgilab qo‘yildi. Albatta bu shartlar O‘zbekistonda tadbirkorlikni yanada kengayishiga, ularning sonini ortishi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2023 yil yakuni bo‘yicha respublikamizda jami 44935 ta oilaviy korxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Bu korxonalarni hududlar kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, eng ko‘pi Samarqand viloyatiga (7964 ta) to‘g‘ri kelgan. Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keladigan oilaviy korxonalar soni jami respublikadagi oilaviy korxonalarning 17,7 % ni tashkil etgan. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarda mos ravishda Xorazm viloyatiga 14,8 % hamda Qashqadaryo viloyatiga 8,0 % to‘g‘ri kelgan.

O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning yana muhim bir jihati tadbirkorlikni rivojlantirish, uni qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitni yaxshilash orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash hisoblanadi. Albatta mazkur vazifani amalga oshirishda hududlarda oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim masalalardan biridir. Chunki oilaviy tadbirkorlik hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim instrumentlaridan biridir. Buning uchun hududlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlanish tendensiyalarini doimiy o‘rganish, tahlil qilish va baholash o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan оилавий корхоналар

№	Hududlar	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2023 yil 2019 yilga nisbatan (+,-)
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1013	1602	1932	2172	2173	+571
2.	Andijon	1451	2560	2919	2962	1483	-1077
3.	Buxoro	1836	2867	3320	3450	3052	+185
4.	Jizzax	733	1357	1661	2140	1512	+155
5.	Qashqadaryo	1297	2306	4235	5226	3614	+1308
6.	Navoiy	2933	3673	4010	4157	3418	-255
7	Namangan	523	968	1165	1337	960	-8
8.	Samarqand	4311	6756	9041	1049	7964	+1208
9.	Surxondaryo	1445	4831	5400	5847	3742	-1089
10.	Sirdaryo	185	331	354	356	279	-52
11.	Toshkent	2820	3901	4540	5073	3848	-53
12.	Farg‘ona	3687	5134	5778	6608	5009	-125
13.	Xorazm	2464	3578	4682	5488	6608	+3030
14.	Toshkent sh	2814	3258	3458	3795	2992	-226
Respublika bo‘yicha		**27512**	**43122**	**52495**	**59110**	**44935**	**+1813**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ma’lumot o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish shart-sharoitlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Chunki, O‘zbekistondagi hozirgi mavjud oilaviy korxonalar faoliyatini rag‘batlantiruvchi tizim eskicha yondashuvlarga asoslangan bo‘lganligi sababli mazkur yo‘nalishda kutilgan natijalarga erisha olganimiz yo‘q. 2-jadval ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, 2019 yilda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 27512 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bu ko‘rsatkich 44935 taga etgan yoki 2019 yilga nisbatan 1813 taga ko‘paygan. Biroq, 2022 yilda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 59110 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 14175 taga kamayib, 44935 tani tashkil etdi. Hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak 2023 yil yakunlariga ko‘ra eng past ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan.

Surxondaryo viloyatida 2022 yilda oilaviy korxonalar soni 5847 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib oldingi yilga nisbatan 2105 taga kamayib, 2742 tani tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, oilaviy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni etarli emas. Bunday holatni oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ajratilayotgan mablag‘lar va oilaviy biznes uchun yaratilayotgan sharoit hamda infratuzilma bilan bog‘liq deb o‘ylaymiz. Shuning uchun kelgusi o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda hududlarda oilaviy korxonalarni rivojlantirishga oid tadqiqotlarni yanada rivojlantirish talab etiladi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarimizda mamlakatimizda oilaviy biznesni hududlar xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish davlatning asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi muhimligini alohida ta’kidlashimiz mumkin. Yuqoridagi shaxsiy munosabatlarimiz hamda mualliflik yondashuvlarimiz hududlar iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash hamda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat ega deb o‘ylaymiz. SHu jihatdan qaraganda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash, ularni tizimli hal etish konseptual ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida oilaviy biznesni rivojlantirishning turli xil yondashuvlari va uslubiyotlari mavjud bo‘lib, ular mamlakat iqtisodiyotining u yoki bu sohasini yanada faollashuviga imkoniyat beradi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekistonda oilaviy

tadbirkorlikni rivojlantirish uchun birinchi navbatda hududlarning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, ikkinchidan, biznes qilish uchun qulay muhitni yaratish hamda uchinchidan joylarda infratuzilma holatini yaxshilash zarur hisoblanadi.

Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- hududlarda foydalanilmay turgan davlatga qarashli hamda ayrim fuqarolarga tegishli noturar joylarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- tadbirkorlik subyektlari nisbatan kam bo‘lgan viloyatlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va tizimlashtirish zarur;

- har bir mahallada bittadan kasanachilikni rivojlantirishga salohiyati bo‘lgan tadbirkorlarni aniqlash va unga kamida 15-20 nafar fuqarolarni biriktirgan holda kasanachilik faoliyatini rivojlantirish;

- qishloq joylarida ekin maydonlaridan unumli foydalanish, mavsumiy ish o‘rinlarini yaratgan tadbirkorlarni rag‘batlantirish mexanizmini joriy qilish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “O‘zbekiston-2030 strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab – quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. 2024 yil 21 fevral.PF-37-son.

2. Kuvondikov.Sh.O. Oilaviy tadbirkorlik: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2020. – 164 bet.

3.https://lex.uz/docs/6374137 (“Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида аҳолининг бизнес ташаббусларини қўллаб-қувватлашни янги босқичга олиб чиқишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори).

4. Rasulov N.M. O‘zbekistonda oilaviy biznes muammolari va uni rivojlantirish istiqbollari.Maqola.-Toshkent.”Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali 8-son.740-752 b. WWW.INFOCOM.US

5. Arziyev M.A. O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalar tahlili. Maqola.Journal Head. 02-son. 02.2025.55-59 b

UDK: 312.314

DEMOGRAFIK JARAYONLARNI IQTISODIY-STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Sh.E. Dusnayev, PhD, i.f.f.d., O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi boshqarmasi, Toshkent

Annotasiya. *Ushbu maqolada demografik jarayonlarni iqtisodiy-statistik tadqiq etishning nazariy-uslubiy jihatlari, demografik vaziyatlar bo‘yicha xorijiy olimlarning qarashlari, demografik jarayonlarni tadqiq etishda ma’lumotlar manbalari, aholining tabiiy va mehanik harakati ko‘rsatkichlarining ta’riflari, aholi tarkibining iqtisodiyot samaradorligiga ta’siri, demografik jarayonlarning asosiy elemantlari, o‘sib boruvchi, o‘zgarmas va kamayib boruvchi aholi guruhlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *aholi tarkibi, demografik jarayon, tabiiy harakat, mehanik harakat, nazariy-uslubiy jihatlar, o‘sib boruvchi, o‘zgarmas, kamayib boruvchi, statistik tahlil, demografik vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, oilalar.*

Аннотация. *В данной статье освещены теоретико-методологические аспекты экономико-статистического исследования демографических процессов, взгляды зарубежных ученых на демографические ситуации, источники данных при исследовании демографических процессов, определения показателей естественного и механического движения населения, влияние структуры населения на эффективность экономики, основные элементы демографических процессов, возрастающие, неизменные и убывающие группы населения.*

Ключевые слова: *состав населения, демографический процесс, естественное движение, механическое движение, теоретико-методологические аспекты, возрастающий, постоянный, убывающий, статистический анализ, демографическая ситуация, социально-экономические процессы, семьи.*

Abstract. *This article covers the theoretical and methodological aspects of economic and statistical research of demographic processes, the views of foreign scientists on demographic situations, data sources in the study of demographic processes, definitions of indicators of natural*

and mechanical movement of the population, the influence of population composition on economic efficiency, the main elements of demographic processes, increasing, constant and declining population groups.

Key words. *population composition, demographic process, natural movement, mechanical movement, theoretical and methodological aspects, increasing, constant, declining, statistical analysis, demographic situation, socio-economic processes, families.*

Demografik jarayonlar – bu tug‘ilish, o‘lim, migratsiya va boshqa omillar ta’sirida aholi soni, tarkibi va tuzilmasidagi o‘zgarishlar majmuasidir. Demografiyaning asosiy nazariy yo‘nalishlari bular, klassik demografiya – aholi sonining miqdoriy xususiyatlarini o‘rgansa, ijtimoiy demografiya – ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarning ta’sirini o‘rganadi, iqtisodiy demografiya – demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi va ekologik demografiya – atrof-muhitning demografik ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘rganaib boradi. Demografiyaning metodologik asoslarida ma’lumotlarni tahlil qilish usullari va yondashuvlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Jumladan, statistik tahlilda guruhlash usullari, o‘rtacha miqdorlar, indeks usuli bo‘ldsa, matematik modellashtirishda aholi takror ishlab chiqarish modellari va prognozlash usullari hisoblanadi, demografik tahlil usullariga esa kogort tahlil va demografik koyeffitsiyentlarni hisoblashlarni o‘z ichiga oladi shuningdek, sotsiologik usullarga reproduktiv xulq-atvor va migratsiya kayfiyatini o‘rganish uchun so‘rovlar hamda anketa tadqiqotlari asos bo‘la oladi.

Demografik jarayonlarni tadqiq qilish uchun ma’lumot manbalar sifatida milliy statistikaning aholini ro‘yxatga olish, aholining joriy hisobi, xalqaro ma’lumotlar bazalaridan BMT va Jahon banki ma’lumotlari hamda tanlanma tadqiqotlarda ijtimoiy-demografik so‘rovlar kiradi. Bu nazariy-metodologik yondashuvlar demografik vaziyatni ob’ektiv baholash, qonuniyatlarni aniqlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish bo‘yicha prognozlar ishlab chiqishga imkon beradi.

Bugungi kungacha ilm-fan taraqqiyotida demografik vaziyatning o‘zgarmas ta’rifi yaratilmagan va demografik jarayonlarda ilmiy va amaliy tadqiqotlar yuritayotgan ko‘plab tadqiqotchilar mazkur tushunchani ifodalashda turli xildagi jihatlarni hisobga oladilar. Ko‘pincha ilmiy adabiyotlarda demografik vaziyatning “aholi rivojlanishidagi umumiy tendensiyalarning yaqqol namoyon bo‘lishi, bir-birini almashtiruvchi demografik sharoitlarning izchilligi, aholi takror barpo bo‘lishi asosiy qonuniyatlarining ifodalanishi”ga o‘xshash fikrlar keltirilgan [1]. Xuddi shunga yaqin fikrni mashhur demograf olim A.L.Kvasha ham bildirib o‘tgan: “Demografik vaziyat – bu demografik jarayonlar, aholi tarkibi va uning ma’lum bir davrda, ko‘pincha qaysidir yilda joylashuvining holati bo‘lib, u aholi rivojlanishidagi uzoq muddatli tendensiyaning bosqichini o‘zida namoyon etadi. Odatda, bir butun mamlakatga yoki uning alohida qismlariga nisbatan ko‘rib chiqiladi” [2].

Taniqli geograf A.I.Alekseyev o‘tmishning tendensiyalarini va kelgusida rivojlanishning ehtimoliy variantlarini hisobga olmagan holda bir muncha boshqacha ta’rif beradi: “Demografik vaziyat – bu mazkur hududda yuzaga kelgan, aholining ushbu payt uchun muayyan yosh-jinsiy tarkibi va uning sonining dinamikasini yaratuvchi tug‘ilish, o‘lim va migratsion harakatchanlik nisbatidir” [3]. “Ba’zan demografik vaziyat mamlakat yoki mintaqadagi ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarning ma’lum bir davrdagi holatini bilvosita belgilab beruvchi tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan iqtisodiy-demografik vaziyat sifatida kengroq tushuniladi. Bu mintaqa aholisining muayyan, ma’lum bir davr uchun rivojlanish modelini beruvchi va uni boshqarishni ta’minlaydigan tarkibiy qismlarning butun bir majmuidir” (B.N.Volinskaya) [4]. Odatda bir qator aholi demografiyasiga aloqador jarayonlar va ijtimoiy-iqtisodiy holatlarning yig‘indisi demografik vaziyatni keltirib chiqaradi, jarayonlar bir vaqtda teng kuchlilikda o‘z ta’sirini o‘tkazadi va qandaydir omilning ta’sirini ajratish mushkul hisoblanadi. Biroq barcha hollarda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning ushbu davr demografik vaziyatining shakllanishiga ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Shunga o‘xshash fikrni angliyalik statistik olim S.G.Strumilin ham bildirgan: “Aholi soni va tarkibining o‘zgarishiga tug‘ilish va o‘lim, shuningdek, migratsiyalar tufayli bir avlodning boshqa avlod bilan almashinuvi sabab bo‘ladi. Har ikkisi ham ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq va ijtimoiy hayotning ko‘plab boshqa hodisalari bilan chambarchas bog‘liq” [5].

Ham tabiiy, ham mexanik harakat yoki migratsiya aholi o‘sishining manbai hisoblanadi. Umuman aholining takror barpo bo‘lish xususiyatini tahlil qilishda nafaqat tug‘ilish va o‘lim jarayonlarining tarkibiy qismlarini, balki migratsiyaning (bevosita va bilvosita) ta’sirini ham hisobga olish muhim. Aynan migratsiya so‘nggi yillarda tadqiq etilayotgan mintaqada nafaqat aholi sonining, balki tarkibi va sifatining o‘zgarishiga ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim tadqiqotchilar (shu jumladan, yuqorida tilga olingan S.G.Strumilin va B.N.Volinskaya) tomonidan aholining sifati ba’zan, ayniqsa, aholining istiqbolli modellarini qurishda demografik vaziyat tahliliga kiritiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tushunchani batafsilroq ko‘rib chiqish lozim. “Aholining sifati – bu ijtimoiy va tabiiy munosabatlar tizimida aholining takror barpo bo‘lishini tavsiflovchi uning xususiyatlari majmuidir. Aholining sifati muayyan hududda yashovchi odamlarning hayoti va faoliyatidan hamda aholining yuzaga kelgan tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarga munosabat bildirish va ularni o‘zining o‘zgargan ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatini tavsiflaydi. Aholining xususiyatlari kuzatiladigan va miqdoriy jihatdan o‘lchanadigan sifat xususiyatlari (tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajrim, ma’lumot va malaka darajasi) shakliga ega bo‘lib, ular takror barpo bo‘lishning barqaror turi doirasida rivojlanishi va uning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Aholining sifati hayotning ijtimoiy takror barpo bo‘lishida muayyan funksiyalarni bajaradi: aholi sonining saqlanishi va o‘zgarishi (tug‘ilish va o‘lim), atrof-muhitning o‘zgarishiga moslashish (aholi salomatligi), oilaviy ittifoqlarni hosil qilish (nikoh va tug‘ilish), aholining ijtimoiylashuvi, bilimlarni o‘zlashtirish, hayot va faoliyatning moddiy sharoitlarini yaratish” [6]. Hozirgi vaqtda ko‘rib chiqilayotgan mintaqada va umuman mamlakatda aholi sifatining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida o‘rtacha umr ko‘rish va bolalar o‘limi ko‘rsatkichini olish mumkin.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishida demografik jarayonlarning o‘rni muhim hisoblanadi. Avlodlar almashinuvining ijobiy dinamikasi ijtimoiy-iqtisodiy yuksaklik, davlat organlarining aholini takror ishlab chiqarish muammolarini hal qilish sohasidagi siyosati, ijtimoiy farovonlik darajasi, ekologik vaziyat va h.k. bilan asoslanadi. Mazkur holatlarda demografiya sohasidagi yuzaga kelayotgan muammolar davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuksalishiga, sohalarda muammolar kelib chiqishida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatib, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni yomonlashtirishi mumkin. Mehnat resurslarining son va sifat belgilari bo‘yicha qayta tiklanishi demografik jarayonlar ta’sirida ro‘y beradi, bu kengaytirilgan takror barpo bo‘lishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlar jamiyatdagi iqtisodiy faoliyat natijalariga, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy jihatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatning demografik holati va jamiyat barqarorligining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘rtasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish, aholi jon boshiga kun ko‘rish uchun zarur bo‘lgan minimum kabi ko‘rsatkichlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan mustahkam bog‘liqlik mavjud. Bu bog‘liqlik doim ham yaqqol ko‘zga tashlanmaydi, chunki demografik jarayonlar juda sekinlik bilan ro‘y beradi. Ammo vaqt o‘tishi bilan ular moslashadi, o‘z o‘rnida, mazkur jarayon tiklab bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin, ularni bartaraf etish uchun tegishli choralar ko‘rish talab qilinadi. Demografik jarayonlar, yuqorida so‘zlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida ustuvorlikni belgilab beradi. Oqibatda bugungi kunda mazkur jarayonlarni tahlil qilish muhim masala hisoblanadi. Mamlakat aholisining son va sifat o‘zgarishlari hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining turli yosh guruhlari o‘rtasidagi nisbat, uning ijtimoiy, kasbiy, ma’lumoti bo‘yicha tarkibi va boshqa tavsiflari o‘zgaradi. Iqtisodiyotga nisbatan ma’lum hududda yashovchi aholi guruhi bir paytning o‘zida moddiy tovarlarning ham ishlab chiqaruvchisi, ham iste’molchisi sifatida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Aholi sifat tarkibining iqtisodiyot samaradorligiga ta’siri

1-rasmdan shuni anglash mumkinki aholi tarkibini tahlil qilish orqali uning iqtisodiyot samaradorligiga ta’sirini atroflicha o‘rganishni taqoza etadi. Umuman olganda, aholi holati va harakati ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “demografik jarayonlar” tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud bo‘lib, ularni uch yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari “demografik jarayonlar deganda odamlar hayotida ularning avlod almashinuvi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan bir nomdagi hodisalar ketma-ketligini, ya’ni tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarini, shuningdek, nikoh va ajralish ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqadilar” [7]. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari yuqorida sanab o‘tilgan aholining harakat shakllaridan tashqari demografik jarayonlar qatoriga “aholining mexanik harakatini ham kiritadi”. Demografik jarayonlar tarkibidagi uchinchi yo‘nalish aholi harakatining uch shaklini o‘z ichiga oladi: “tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, nikoh va ajralishlar bilan bog‘liq tabiiy harakat; aholining yashash joyini o‘zgartirish va hudud bo‘ylab ko‘chishi bilan bog‘liq migratsiya harakati; aholining ijtimoiy harakatchanligi bilan bog‘liq hamda aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ma’lumotga oid, kasbiy va malakaviy tarkibi bilan bog‘liq ijtimoiy harakat”. Xulosa qilganda, demografik jarayonlar jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari ta’sirida ma’lum bir hudud aholi sonining tarkibiy o‘zgarishini tahlil qilish va tabiiy hamda mexanik harakat ta’sirini o‘rganishni taqozo etadi.

Demografik jarayonlarning asosiy elementlariни ўрганиб чиқадиган бўлсак буларга қуйидагилар киради:

- aholi sonining o‘zgarish dinamikasi. Aholi soni haqida ma’lumotlar aholini ro‘yxatga olishlar davomida, ularning oralig‘ida esa – ro‘yxatga olish ma’lumotlariga tayanadigan hisob-kitoblar yo‘li bilan olinadi. Hozirgi paytda deyarli barcha mamlakatlar aholi soni holatini hisobga olish maqsadida hech bo‘lmasa bir marta ro‘yxatga olishni amalga oshirgan. Turli vaqt davrlarida yashab o‘tgan odamlar soni haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash asosida u yoki bu mintaqa yohud mamlakat aholisining o‘zgarishi eng katta qiziqish uyg‘otadi.

- “Tug‘ilish ko‘rsatkichlari bu – u yoki bu aholi guruhida farzand tug‘ishlar chastotasidir”. Tug‘ilish ko‘rsatkichlari dinamikasi va darajasini o‘rganish uchun turli ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Farzandlar tug‘ilishi ko‘lami haqida umumiy tasavvurni bir yil davomida tug‘ilgan bolalar soni haqidagi ma’lumotlar olishga yordam beradi. Biroq nisbiy ko‘rsatkichlar tug‘ilish ko‘rsatkichlari darajasining to‘liq tasavvurini beradi. Ular yangi avlod shakllanish jarayonining intensivlik darajasini tavsiflaydi. Odatda tug‘ilishning umumiy, maxsus va xususiy koyeffitsiyentlari ajratib ko‘rsatiladi.

- o‘lim ko‘rsatkichlari va umr davomiyligi. O’lim ko‘rsatkichlari aholini takror ishlab chiqarishning qisqarishini, yo‘q bo‘lib ketishini tavsiflaydigan salbiy jihati hisoblanadi. O’lim ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun qator ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ularning eng birinchisi o‘lim holatlarining mutlaq soni hisoblanadi. Biroq bu ko‘rsatkich, xuddi qolgan barcha demografik ko‘rsatkichlar kabi, aholining umumiy soniga ham, aholi tarkibiga, eng avvalo, jins va yosh tarkibiga

ham bog‘liq bo‘ladi. Mos ravishda, o‘limning umumiy koyeffitsiyenti, jins va yoshga oid o‘lim ko‘rsatkichlari koyeffitsiyenti, go‘daklar o‘limi koyeffitsiyenti kabi nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. O’lim ko‘rsatkichlarini o‘rganish uchun, shuningdek, umumlashtiruvchi ko‘rsatkich – ushbu avlodning butun hayoti davomida o‘lim ko‘rsatkichlari darajasi har bir yoshda ko‘rsatkich hisoblab chiqilgan yil bilan bir xil bo‘lib qolaveradigan shartlarda kishi o‘rtacha yashashi lozim bo‘lgan o‘rtacha umr davomiyligi ham hisoblab chiqiladi. O’lim ko‘rsatkichining yana bir jihatini ilmiy tomondan o‘rganganimizda shuni ko‘rsatmoqdaki, jarayonni ijobiy baholashimiz mumkin, sababi o‘lim ko‘rsatkichi aholi tarkibining yangilanishiga va demografik bosimning kamayishiga xizmat qilib natijada aholi jon boshiga tushadigan yalpi ichki mahsulot hajmining ortishiga erishilishiga hissa qo‘shmoqda.

- oilaviy tarkib. BMT tavsiyalariga muvofiq, oila deganda birgalikda yashayotgan, qarindoshlik aloqalari va umumiy budjet bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar guruhi tushuniladi. Oila tarkibiga asosan jarayonlar – nikoh qurish va ajralishlar ta’sir ko‘rsatadi. Oila bu aholini takror barpo bo‘lishi, avlodlar almashishi va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beruvchi uzviy bog‘liq bo‘lgan jamiyat qo‘rg‘onidir.

- aholining nikoh harakati. Keng ma’noda bu yerda nikoh tuzish va uni bekor qilishni tavsiflaydigan barcha jarayonlar tushuniladi. Shaxslarning nikoh holati quyidagi gradatsiyalarni qamrab oladi: a) hech qachon nikohda bo‘lmaganlar: b) nikohdagilar (ushbu gradatsiyada ro‘yxatga olinmagan nikohdagilar ham qatnashadi); v) bevalar va tullar; g) ajrashganlar d) ajrashmagan alohida yashaydi. Aholining nikoh harakati haqida ma’lumotlar joriy hisob, ya’ni nikohlarni qayd qilish asosida olinadi. Fuqarolik nikohlari statistikasi bilan bog‘liq vaziyat ancha murakkab.

- ajralishlar. Qoidaga ko‘ra, ajralishlar rasmiy statistikasi asl vaziyatni aks ettirmaydi. Ko‘plab mamlakatlarda rasman ajralish murakkab bo‘lib, bu jarayon ancha murakkablashtirilgan. Biroq umumiy tendensiya shunda namoyon bo‘ladiki, aksariyat mamlakatlarda ajralishlar soni keskin o‘sgan va bu ko‘rsatkich o‘sishda davom etmoqda. Ajralishlar jamiyatda aholining ma’lumotlilik darajasiga, yashash farovonligiga, aholining kichik guruhlariga yoki qarindoshlik munosabatlariga o‘zining salbiy ta’sirini bildiradi.

- aholining jins va yosh tarkibi. Aholining tabiiy va mexanik harakati natijasida aholining jinsi va yosh tarkibida o‘zgarishlar vujudga keladi. Bevosita mazkur jarayon aholining tabiiy o‘sishiga, tabiiy va mexanik harakatiga ta’sir ko‘rsatadi.



2-rasm. Demografik jarayonlar

- aholi migratsiyasi. Migratsiya – fuqarolarning doimiy yoki vaqtincha yashash joyini o‘zgartirish maqsadida jismoniy harakatlanishidir. U bir davlat ichida ham, turli mamlakatlar o‘rtasida ham amalga oshiriladi. Migratsiya jarayonlari bir qator omillarni keltirib chiqaradi, eng asosiy va birinchi sababi moddiy manfaatdorlik, ish izlash, qishloq xo‘jaligi yerlarini o‘zlashtirish, dehqonchilik bilan shug‘ullanish, yashash sharoitini yaxshilash maqsadida ko‘chib yurish: siyosiy jarayonlarda migratsiyani o‘rni – siyosiy, diniy va irqiy kamsitishlar bilan bog‘liq ko‘chib o‘tish;

harbiy sabablar – evakuatsiya, reyevakuatsiya, deportatsiya; tabiiy sabablar; shuningdek, shaxsiy sabablar.

- demografik jarayonlarning asosiy elementlari qatoriga: mamlakatning urbanizatsiya holati, oilaviy ahvoli, ma'lumot darajasi, tili, fuqaroligi, millati va diniy tarkibi kabi indikatorlar kiradi. Xulosa qilganda, aholi demografiyasi jarayonlarini uch guruhga ajratish mumkin. Bular birinchisi – o'sib boruvchi, ikkinchisi – o'zgarmas va uchinchisi – kamayib boruvchi aholi soni (2-rasm).

Mazkur uch bosqichli jarayonlar, umumiy holatda mamlakatning demografik rivojlanishidagi omillarga o'z ta'sirini bevosita ko'rsatadi, aholining tabiiy va mexanik harakatini ta'minlaydi hamda mazkur jarayonlar aholining yashash sharoiti, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi, tibbiy madaniyat, shaharlashish (urbanizatsiya) darajasi, oilaviy holati, ma'lumot darajasi, daromad manbalari, bandlik holati, ishsizlik darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik, siyosiy, tabiiy-ekologik, madaniy, diniy va boshqa omillar ta'siri ostida taraqqiy topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Народонаселение. Энциклопедический словарь. – М.: Большая российская энциклопедия, 1994. – С.104.
2. Демографический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1985. – С.40.
3. Алексеев А.И. Социально-экономическая география России. – М.: Новый хронограф, 2013. – С.73.
4. Волынская Б.Н. Региональная демография. // Система знаний о народонаселении. / Под ред. Д.И. Валентея. – М.: Высшая школа, 1991. – С.124.
5. Струмилин С.Г. Статистика. – М.: "Статистика", 1969. – С.277-278.
6. Медков В.М. Качество населения. // Народонаселение современное состояние научных знаний. – М.: "Высшая школа", 1991. – С.59-62.
7. Демография / Под ред. Н.А. Волгина. - М.: РАГС, 2003. - 280 с, 79. Национальная безопасность и демографический рост / Под ред. Рыбаковского Л.Л.; РАН. Ин-т социал.-полит, исслед. - М., 2004. - 95 с., 129. Харченко Л.П. Демография / Л.П. Харченко. - М: Омега-Л, 2009. - 350 с.

UO'K 330

SOLIQ TIZIMIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

U.J.Ergashev, mustaqil tadqiqotchi, Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan holi hududda ishlash imkoniyatini yaratadi, chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o'ta muhim va dolzarb vazifalar qo'yilgan.*

Kalit so'zlar: *Robototexnika, manipulyator, texnologiya, byudjet, ekspert, korrupsiya, kompyuter, funksiya, marketing, didaktik, slayd, diagramma.*

Аннотация. *Цифровая экономика в первую очередь дает возможность работать на территории, свободной от коррупции, ведь цифры все запечатывают, хранят в памяти. Данная статья ставит перед министерством развития информационных технологий и коммуникаций чрезвычайно важные и актуальные задачи.*

Ключевые слова: *робототехника, манипулятор, технология, бюджет, Эксперт, коррупция, компьютер, функция, маркетинг, дидактика, слайд, схема.*

Abstract. *The digital economy, first of all, creates the opportunity to work in a region free from corruption, because the numbers seal everything up, keep it in memory. This article outlines the most important and urgent tasks facing the Ministry of Information Technologies and Communications.*

Key words: *Robotics, manipulator, technology, budget, expert, corruption, computer, function, marketing, didactics, slide, diagram.*

Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi.[1]

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas. Davlat dasturida belgilangan

vazifalar ijrosini ta'minlash borasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o‘ta muhim va dolzarb vazifalar qo‘yilgan.

Asosiy qisim. Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, soliqlarning o‘z vaqtida to‘g‘ri hisoblanishi va to‘lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar, maktablar, shifoxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq o‘z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo‘l, deya atash g‘oyat oqilona va odilona ta'rifbo‘ladi. Robototexnika sohasi. Ma`lumki, ‘‘robot” so‘zi bizning tilimizga ilmiy fantastikadan kirib kelgan bo‘lib, ‘‘qul” degan ma`noni bildiradi.[2] Birinchi bor bu so‘zni oltmish yil oldin taniqli Chex fantast yozuvchisi Karl Chepek ishlatgan. Ammo ‘‘mexanik odamlar” undan oldinroq ham ma`lum edi. O‘rta asrlarda inson iste`dodlariga ega bo‘lgan musiqachi qo‘g`irchoq yoki rassom-qo‘g`irchoqlar paydo bo‘lganligi ma`lum. Kompyuter asri boshlanishi bilan insonni og`ir va zararli mehnatdan ozod etadigan robotlar paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda robotlar mashinasozlik zavodlarida, po‘lat quyish sexlarida, kimyoviy laboratoriyalarda, qurilishda keng qo‘llanilmoqda. Robotlarni yaratish bilan shug`ullanadigan texnikaning maxsus shahobchasi-robototexnika paydo bo‘ldi. Robotlar orasida keng tarqalgani bu robot manipulyatorlardir. Manipulyatorlaro‘ta sezgir va kuchli mexanik qo‘ldir.

Kompyuterlar ko‘pgina texnologik jarayonlarni boshqarishi, ular yordamida yangi mahsulotning chizmasini yaratishdan toki tayyor mahsulot bo‘lib chiqquniga qadar bo‘lgan barcha jarayonlarni avtomatlashtirishi, mahsulot shaklini konstruktor kompyuter ekranida chizib, tegishli o‘zgartirishlar yasab, qog`ozga chop etishi va boshqa amallarni bajarishi mumkin. Bundan tashqari mahsulotniishlab chiqarish uchun kerakli barcha qurilmaning imkoniyatlari, unga ketadigan sarf-xarajatlarni hisob-kitob qilishda ham kompyuter eng yaxshi yordamchidir. Mahsulotni ishlab chiqarishda axborot asosiy kompyuterdan ishlab chiqarish liniyalariga yetkaziladi.

U yerda axborotni qabul qilishga tayyor turgan robotlar kompyuter uzatgan dastur asosida mahsulotni yig`a boshlaydi.[3]

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar milliy xo‘jaliklar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu texnologiyalar, eng avvalo, boshqaruv samaradorligini oshiradi, aholining ijtimoiy shart-sharoitlarini yaxshilaydi. Ayni vaqtda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish asosida ularning tannarxini pasaytiradi.

Mazkur texnologiyalarning yana bir asosiy afzalliklaridan biri korrupsiyagabarham berishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishidir.Jahon bankining ‘‘Raqamli dividendlar” nomli tadqiqoti xulosalariga ko‘ra, internet tezligining 10 foizga o‘sishi mamlakat YaIM o‘sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizgateng. Demak, internet tezligi 2 barobar oshadigan bo‘lsa, YaIM hajmi 13-14 foiz ortishiga erishish mumkin.Jahondagi globallashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, IT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur'atlariga ta'sir etadi.[4]

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o‘sishini misol qilib keltirish mumkin. ‘‘Elektron hukumat”, ‘‘Elektron boshqaruv”, ‘‘Telekommunikatsiya”, ‘‘Internet”, ‘‘Veb-sayt” kabi ko‘plab iboralar hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylandi.

IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda.Hozirgi paytda jahondagi bir qancha rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Xitoy, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya va h.k.), jahon iqtisodiyotida ro‘y berishi boshlangan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, iqtisodiyotning ko‘pchilik tarmoqlarini raqamlashtirish bo‘yicha jadal harakatni boshlamoqda. Lekin bu ma'lumotlarni nazarda tutgan holda shuni qayd etishga majburmizki, bironta, jumladan, yetakchi mamlakatlarda ham raqamli iqtisodiyot o‘zi nima ekanligi va u kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida to‘laqonli falsafiy tushunchalar mavjud emas.

Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda ilmiy sig‘imkorlik yuqori bo‘lgan tarmoqlar ravnaq topadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIM hajmi ham, YaIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining bu masalaga katta e’tibor qaratishi bir maqsadni ko‘zlaydi, u ham bo‘lsa, birinchidan, aholining Raqamli iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ma'lumotlar o'qitish, almashish va o'zaro aloqani samarali ravishda ta'minlaydigan texnologiyalardir. Quyidagi raqamli iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'llaniladi[5]:

Internet Protokol (IP) Telefoniyasi: IP telefoniyasi, internet protokol orqali o'zaro aloqani yaratadi va shu orqali o'zaro ishlab chiqish, ma'lumot almashish va boshqa telefoniyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Bu, qulay va samarali bir qarorlash vaqti usuli bo'lib, ishlab chiqish va boshqa tashqi xizmatlar uchun katta foydalanishga ega.

Elektron pochta (Email): Elektron pochta, elektron xatlar orqali xabar almashish va ma'lumot almashishga imkon beradi. Bu, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, axborot almashish va mijozlar bilan munosabatlarni o'rganish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Avtomatlashtirish va boshqaruv: Texnologiyalar, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Bu, ishlab chiqarishning samarali va to'g'ri boshqarilishini ta'minlaydi va ishlab chiqarishni o'zgartirish va optimallashtirish imkonini beradi.[5] Mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va ishlab chiqish jarayonlarini optimallashtirish: Raqamli iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Bu, ishlab chiqarishni tezlashtiradi, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqaradi va ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyotda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompaniyalar va tashqi iqtisodiy faoliyatlar uchun muhim bir qo'llanma va asosdir. Bu texnologiyalar, kompaniyalar uchun samarali va innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi va ularning islohotlarni tezlashtiradi.

Hozirgi davrda turli joylarda, mintaqalarda, hatto qit’alarda yashaydigan insonlar ishtirokida telekonferensiyalar o‘tkazish an`anaga aylanib qolmoqda. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalarining maqsadi – iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari tushunchalarining mohiyatini tushuntirish hamda talabalarda iqtisodiyotning turli sohalarida iqtisodiy jarayonlarga zamonaviy axborot komplekslarini, kommunikatsiya vositalarini tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kodirov A. Raxmatov Sh. ta’lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi. “pedagogs” international research journal. 2023/6/12. Ст 157-161

2. Shuxratovich, Kodirov Akbar. "katta ma’lumot bazalarini parallel ishlov berish usullarini va modellarini o’rganish." journal of new century innovations 43.4 (2023): 93-95.

3. Tursunova, luiza, and marjona ro‘ziqulova. "veb-sayt yaratish asoslari va veb-saytlarni ta’limda qo’llanilishining afzalliklari va kamchiliklari." инновационные исследования в современном мире: теория и практика 3.3 (2024): 117-120.

4. Tursunova L.K., Raximberganov N.M. “Raqamli ta‘lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollar” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman, samdu. 2023/7

5. Sh.Musirmonov s. jurayev. multimedia texnologiyasi va ularning pedagogikada qo‘llanilishi. 2023/6/2.

UO‘K: 338.45.01

“O‘ZBEKNEFTGAZ” AJ KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Z.S. Ibragimov, boshqarma boshlig‘i, Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “O‘zbekneftgaz” AJ korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanish tendensiyalari tahlilga tortilgan.. Neft-gaz sanoatida modernizatsiya jarayonlari, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari atroflicha ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari baholangan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekneftgaz, neft-gaz sanoati, ishlab chiqarish tendensiyalari, modernizatsiya, innovatsion texnologiyalar, samaradorlik, optimallashtirish.*

Аннотация. *В данной статье анализируются тенденции развития производственной деятельности предприятий АО «Узбекнефтегаз». Рассматриваются процессы модернизации в нефтегазовой промышленности, внедрение инновационных технологий и направления повышения эффективности. Кроме того, оцениваются возможности оптимизации производственных процессов на основе зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *Узбекнефтегаз, нефтегазовая промышленность, тенденции производства, модернизация, инновационные технологии, эффективность, оптимизация.*

Abstract. *This article analyzes the development trends of production activities in the enterprises of "Uzbekneftegaz" JSC. The study examines modernization processes in the oil and gas industry, the implementation of innovative technologies, and ways to improve efficiency. Additionally, the potential for optimizing production processes based on foreign experience is evaluated.*

Key words: *Uzbekneftegaz, oil and gas industry, production trends, modernization, innovative technologies, efficiency, optimization.*

Jahon iqtisodiyoti o'z rivojlanishining hozirgi bosqichida raqobatning sezilarli darajada kuchayishi bilan tavsiflanadi. Mahalliy sanoat sektori byudjet tuzuvchisi sifatida asosiy xorijiy raqobatchilar tomonidan katta bosim ostida qolmoqda. Mahalliy sanoat korxonalarining samarali ishlashi va doimiy rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli darajasiga ta'sir qiladi. [1]

"O'zbekneftgaz" AJ ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish tendensiyalarini o'rganishdan asosiy maqsad – kompaniyaning hozirgi holatini baholash, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish yo'nalishlarini aniqlash va samaradorlikni oshirish bo'yicha istiqbolli takliflarni ishlab chiqishdir. Ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy samaradorligini oshirish bugungi kunda neft-gaz sanoati korxonalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, kompaniya faoliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar vujudga keldi.

Kompaniyaning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari bir necha asosiy omillarga bog'liq. Birinchidan, bu – yangi qazib olish texnologiyalarini tatbiq etish va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilishdir. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish samaradorlikni oshirish bilan birga, mehnat unumdorligini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Uchinchidan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali ilg'or tajribalarni o'zlashtirish ishlab chiqarish faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi texnologiyalar asosida qazib olish jarayonlari optimallashtirilib, gazni qayta ishlash hajmi oshirilmoqda hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha strategik dasturlar ishlab chiqilmoqda. Kelgusida kompaniyaning global bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalar hajmini yanada kengaytirish lozim.

Ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish kompaniyaning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashga imkon beradi. Bu jarayonda ilmiy izlanishlar, xorijiy tajriba va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kelajakda kompaniyaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Korxonada zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish, energiya tejamkorlik texnologiyalaridan foydalanish hamda ekologik barqaror ishlab chiqarish strategiyalarini shakllantirish asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tannarxni kamaytirish va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish kabi muhim omillarni o'z ichiga oladi. Quyida, qayd etilgan yo'nalishlarni atroflicha ko'rib chiqamiz.

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Hozirgi vaqtda neft-gaz sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan tejamkor foydalanishga qaratilgan.

2. *Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish jarayonlari.* Raqamli transformatsiya – ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida optimallashtirish va avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan muhim yo‘nalishdir. “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarida quyidagi raqamlashtirish texnologiyalari tatbiq etilmoqda:

3. Energiya tejamkorlik texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy neft-gaz sanoatida energiya tejamkorlik muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan energiya sarfini optimallashtirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

4. Ekologik barqaror ishlab chiqarish strategiyalari. Neft-gaz sanoati ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan barqaror ishlab chiqarish strategiyalarini rivojlantirish zarurati bilan yuzlashmoqda. Shu bois, “O‘zbekneftgaz” AJ ekologik xavfsizlikni oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda:

5. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari. Neft-gaz sanoatida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, tannarxni pasaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro tajribani qo‘llash orqali raqobatbardoshlikni oshirishni o‘z ichiga oladi. “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan bu borada bir qator strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **i**shlab chiqarish tannarxini pasaytirish neft va gaz sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Neft-gaz sanoatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish korxonalarning modernizatsiyasini jadallashtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirishga imkon beradi. Bu borada “O‘zbekneftgaz” AJ xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirimoqda. Dunyoning yetakchi neft-gaz kompaniyalari, jumladan, Shell, Total, Lukoil, CNPC va Gazprom kabi yirik korxonalar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

So‘nggi yillarda xorijiy moliyaviy institutlardan kredit va investitsiyalarni jalb qilish keng yo‘lga qo‘yildi. Neft-gaz loyihalarini rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar, masalan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) [2], Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki [3] kabi institutlar bilan hamkorlik olib borilmoqda. Shuningdek, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Investitsiyalarning katta qismi ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilib, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy investorlar uchun soliq va iqtisodiy imtiyozlar yaratish, hukumat tomonidan xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay soliq rejimlari va imtiyozlar joriy qilsh ishlari ham korxonani rivojlantirucvhi yo‘nalishlardan biridir. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishga ham xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda operatsion xarajatlarni kamaytirish korxonalarning samarali ishlashiga va iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. “O‘zbekneftgaz” AJ bu borada quyidagi yo‘nalishlarda ishlamoqda:

- Logistik xarajatlarni optimallashtirish. Neft va gaz transport tizimlarini modernizatsiya qilish orqali yoqilg‘i yetkazib berish jarayonlari tezlashtirilmoqda.
- Ta’minot tizimini takomillashtirish. Yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik shartnomalari tuzish orqali xomashyo va materiallar narxining barqarorligini ta’minlash. [4]
- Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi. IoT (Internet of Things) va SCADA tizimlari asosida real vaqt rejimida monitoring olib borish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali boshqarish.
- Neft va gazni qayta ishlash samaradorligini oshirish. Zamonaviy katalitik texnologiyalarni joriy etish va yuqori sifatli yoqilg‘i ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali qo‘shimcha daromad olish.
- Mehnat unumdorligini oshirish. Ishchilarning malakasini oshirish va ilg‘or ish yuritish usullarini joriy qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Shunday qilib, "O'zbekneftgaz" AJ korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish tendensiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'nalishlari tahlili natijasida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, neft-gaz sanoatini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya tejamkorlik choralarini kuchaytirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali kompaniyaning raqobatbardoshligi ortishi mumkin.

Kelgusida sanoat korxonalarining samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilishi lozim. Jumladan, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish; neft-gaz sanoatida ekologik xavfsizlikni oshirish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy etish; uglevodorod resurslarini qazib olish va qayta ishlashning innovatsion usullarini ishlab chiqish; raqamli texnologiyalar yordamida neft-gaz sohasidagi biznes jarayonlarini optimallashtirish "O'zbekneftgaz" AJning ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorligini oshirish va xalqaro bozorlar bilan raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Olimov. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanish holati tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2024.-№4. - 334 b.

2. International Monetary Fund (IMF). *Strategic Allocation of Financial Resources in the Energy Sector.* IMF Publications, 2022.

3. Asian Development Bank. *Investment in Oil and Gas Infrastructure for Economic Stability.* ADB Reports, 2023.

4. Chopra, Sunil, and Peter Meindl. *Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation.* Pearson, 2019.

UDC 338.24

INNOVATION AND INVESTMENT IN TOURISM STARTUPS: EXPLORING THE ROLE OF TECHNOLOGY AND SUSTAINABILITY

Sh.N. Irisboyev, PhD student, Namangan State University, Namangan
N.M. Davranova, teacher, Namangan State University, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm sohasida innovatsiyalarni rag'batlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda startaplarning ro'li o'rganilgan. Bir nechta holat tahlillari va investorlar so'rovlari asosida hozirgi turizm startaplar ekotizimini shakllantiruvchi asosiy texnologik va barqaror innovatsiyalar aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, startaplarning 80% sun'iy intellekt va virtual haqiqat kabi raqamli texnologiyalardan foydalanadi, 30% esa ekologik yechimlarga e'tibor qaratadi. Investitsiya oqimlari texnologiyaga asoslangan loyihalarni afzal ko'rsa-da, barqarorlikka yo'naltirilgan startaplar mijozlar sonining yuqori o'sish sur'atlariga ega. Moliyalashtirish cheklovlari va tartibga solish muammolari ham muhokama qilingan. Tadqiqot xulosasida texnologiya va barqarorlik sohalaridagi innovatsiyalarni rivojlantirish turizm tadbirkorligining barqaror o'sishi va investitsion jozibadorligi uchun muhimligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *Turizm startaplari, innovatsiya, investitsiya imkoniyatlari, barqaror turizm, raqamli transformatsiya, tadbirkorlik ekotizimi, texnologiyalarni qabul qilish, venchur kapital, ekoturizm, sun'iy intellekt, virtual haqiqat, biznes modellar, moliyalashtirish muammolari, mijozlar tajribasi, bozor tendensiyalari.*

Аннотация. *В этом статье роль стартапов в стимулировании инноваций и привлечении инвестиций в туристическую отрасль. На основе качественного анализа нескольких кейс-стади и опросов инвесторов выявлены ключевые технологические и устойчивые инновации, формирующие современную экосистему туристических стартапов. Результаты показывают, что 80% стартапов используют цифровые технологии, такие как искусственный интеллект и виртуальная реальность, а 30% ориентированы на экологически чистые решения. Инвестиционные тенденции демонстрируют предпочтение технологическим проектам, хотя стартапы с упором на устойчивость характеризуются более высоким ростом клиентской базы. Также обсуждаются проблемы, такие как*

ограниченность финансирования и регуляторные барьеры. В заключение подчеркивается, что развитие инноваций в области технологий и устойчивого развития имеет ключевое значение для устойчивого роста и инвестиционной привлекательности туристического предпринимательства.

Ключевые слова: *туристические стартапы, инновации, инвестиционные возможности, устойчивый туризм, цифровая трансформация, предпринимательская экосистема, внедрение технологий, венчурный капитал, экотуризм, искусственный интеллект, виртуальная реальность, бизнес-модели, проблемы финансирования, клиентский опыт, рыночные тенденции.*

Abstract. *This article explores the role of startups in driving innovation and attracting investment in the tourism industry. Through qualitative analysis of multiple case studies and investor surveys, the research identifies key technological and sustainable innovations that shape the current tourism startup ecosystem. Results indicate that 80% of startups leverage digital technologies such as AI and virtual reality, while 30% focus on eco-friendly solutions. Investment patterns show a preference for technology-driven ventures, although sustainability-focused startups demonstrate higher customer growth rates. Challenges such as funding constraints and regulatory issues are also discussed. The study concludes that fostering innovation in both technology and sustainability is crucial for sustainable growth and investment in tourism entrepreneurship.*

Key words: *Tourism startups, innovation, investment opportunities, sustainable tourism, digital transformation, entrepreneurial ecosystem, technology adoption, venture capital, eco-tourism, artificial intelligence, virtual reality, business models, funding challenges, customer experience, market trends*

Introduction. The tourism industry has become one of the fastest-growing sectors worldwide, contributing significantly to global economic development and employment generation. In recent decades, the increasing demand for personalized and unique travel experiences has prompted significant changes in the way tourism services are delivered. Startups, characterized by their agility, innovation, and disruptive potential, have emerged as key players in reshaping the tourism landscape by offering novel solutions tailored to evolving traveler preferences and leveraging advanced technologies. These entrepreneurial ventures not only foster innovation but also open new avenues for investment, driving both economic growth and technological advancement within the tourism sector.

The concept of startups in tourism encapsulates a wide range of innovative business models, including but not limited to digital platforms for booking and itinerary management, virtual and augmented reality experiences, eco-tourism initiatives, and AI-powered personalized travel assistants [1]. These solutions have not only enhanced customer experience but also increased operational efficiency and market reach for tourism service providers. Moreover, startups are crucial in addressing some of the pressing challenges faced by the tourism industry, such as sustainable resource management, seasonality effects, and the need for real-time information dissemination.

Investment in tourism startups has gained momentum due to their high growth potential and capacity to generate attractive returns. Venture capitalists and angel investors are increasingly recognizing the strategic importance of supporting innovation in tourism, especially in emerging markets where digital transformation is rapidly progressing [2]. However, despite the apparent opportunities, tourism startups often face challenges related to securing funding, market competition, and regulatory environments. Understanding the dynamics of innovation and investment within this niche is essential for stakeholders, including entrepreneurs, investors, and policymakers, aiming to foster a sustainable and competitive tourism ecosystem.

This study aims to explore the innovative solutions introduced by startups in the tourism industry and to identify the associated investment opportunities. Through qualitative analysis of successful case studies and market trends, this research seeks to contribute to the growing body of knowledge on tourism entrepreneurship and investment dynamics. Insights derived from this study

are expected to assist in formulating strategies that promote innovation-led growth and attract sustainable investment in the tourism sector.

Methods. This study employs a qualitative research design aimed at exploring the innovative solutions introduced by startups in the tourism sector and assessing the investment opportunities they present. Qualitative methods are well-suited for this research due to their ability to capture in-depth insights into entrepreneurial strategies, investor motivations, and market dynamics within a rapidly evolving industry [3]. The research methodology focuses on collecting and analyzing primary and secondary data to develop a comprehensive understanding of the current landscape of tourism startups.

Research Design. The study uses a multiple case study approach to examine successful startups operating in various segments of the tourism industry, including digital booking platforms, eco-tourism ventures, and AI-driven travel services. This approach enables a detailed exploration of diverse business models and innovation strategies within their real-life contexts [4]. Case studies are selected based on criteria such as startup age (less than 10 years), evidence of innovative products or services, and documented funding rounds or investment activities.

Data Collection. Primary data collection involves semi-structured interviews with founders and key executives of selected tourism startups. The interviews are designed to elicit detailed information regarding the nature of innovations introduced, challenges faced, funding strategies, and perceptions of investment opportunities. Semi-structured interviews allow flexibility for respondents to elaborate on relevant topics while ensuring that core research questions are addressed consistently across cases.

In addition to interviews, surveys are distributed to investors actively funding tourism-related startups to gather quantitative data on investment patterns, risk assessment criteria, and expected returns. This dual approach ensures triangulation of data sources, enhancing the reliability and validity of the findings.

Secondary data is collected through analysis of publicly available business documents, including startup websites, press releases, investment reports, and market analyses. These documents provide contextual information on company performance, market positioning, and strategic partnerships.

Data Analysis. Data analysis follows a thematic approach, wherein interview transcripts, survey responses, and secondary data are coded to identify recurring themes and patterns related to innovation and investment in tourism startups. NVivo software is employed to facilitate systematic coding and organization of qualitative data. Themes such as types of innovation (technological, business model, service), investment sources, and barriers to funding are analyzed to draw comprehensive conclusions.

The integration of qualitative and quantitative data allows for a richer interpretation of the entrepreneurial and investment landscape in tourism. The findings are further contextualized by comparing them with existing literature on tourism entrepreneurship and startup financing [5].

Results. The analysis of data collected from 15 tourism startups and 30 investors revealed several significant trends regarding innovative solutions and investment opportunities in the tourism sector. The startups studied covered diverse subsectors including digital platforms, eco-tourism, and AI-based personalized travel services.

Innovative Solutions. Among the startups surveyed, 80% (12 out of 15) have introduced technology-driven innovations such as mobile booking applications, AI-powered recommendation engines, and virtual reality tours. Specifically, 53% of startups developed personalized customer experience platforms, while 27% focused on sustainable tourism solutions integrating eco-friendly practices. For example, one eco-tourism startup implemented blockchain technology to verify and promote sustainable accommodations, representing a novel approach within the sector.

Furthermore, 67% of startups reported leveraging data analytics to optimize marketing strategies and improve service delivery. This reflects a growing trend toward data-driven decision-making in tourism startups, enhancing customer satisfaction and operational efficiency.

Investment Opportunities and Patterns. Investor data showed that 60% of respondents had invested in startups that focus primarily on digital innovation, reflecting confidence in technology-driven growth potential. Meanwhile, 30% preferred ventures that emphasized sustainability and eco-tourism, citing increasing consumer demand for environmentally responsible travel options [6]. Only 10% invested in traditional tourism service models without significant innovation.

Regarding funding stages, 40% of startups successfully secured seed funding, 33% received Series A investments, and 27% were still in bootstrapping phases. The average investment amount reported was approximately $500,000, with digital platform startups attracting higher median funding than eco-tourism ventures.

Challenges identified by startups included difficulty in accessing large-scale funding (reported by 73%), navigating regulatory requirements (60%), and intense market competition (53%). Investors highlighted risk associated with early-stage ventures and uncertain returns as major barriers to increased investment.

Correlation Between Innovation and Investment. A positive correlation ($r = 0.68$) was observed between the level of technological innovation and the amount of investment secured. Startups with integrated AI and VR components attracted 25% more investment on average compared to those with only conventional online booking services.

The results underscore that innovation serves as a key determinant for attracting investment in tourism startups. Additionally, sustainability-focused startups, while currently attracting less funding overall, demonstrated higher growth rates in customer base (average annual increase of 18%) compared to their tech-only counterparts (12%), indicating growing market potential.

Discussion. The results of this study highlight the pivotal role of innovation in driving the growth and investment appeal of tourism startups. The finding that 80% of startups introduced technology-driven innovations aligns with global trends indicating that digital transformation is central to contemporary tourism development [7]. This adoption of AI, VR, and data analytics not only enhances customer experience but also improves operational efficiencies, which is critical in a highly competitive and dynamic industry.

The significant investor preference for technology-focused startups (60%) confirms the increasing confidence in tech-enabled business models as key growth drivers in tourism. However, the noteworthy investment in sustainability-oriented ventures (30%) reflects the rising consumer awareness and demand for environmentally responsible travel options. This dual focus on technology and sustainability echoes current academic discourse emphasizing that the future of tourism entrepreneurship hinges on integrating innovation with ecological responsibility.

Challenges such as limited access to large-scale funding (73%) and regulatory hurdles (60%) underscore the barriers startups face despite their innovative potential. These challenges mirror broader systemic issues in emerging markets where institutional support and financing mechanisms for startups remain underdeveloped. The 25% higher investment received by startups incorporating advanced technologies like AI and VR demonstrates that investors reward higher innovation levels, corroborating previous findings that innovation intensity is positively correlated with funding success.

Interestingly, although sustainability-focused startups currently attract less capital, their faster customer base growth rate (18% annually) compared to technology-only startups (12%) suggests a shifting market dynamic. This trend may indicate that investors and entrepreneurs should pay closer attention to sustainability-driven models, which promise long-term growth and resilience amid increasing environmental concerns.

Overall, this study affirms that innovation is a critical determinant of investment success in tourism startups. However, balancing technological innovation with sustainability, while overcoming funding and regulatory challenges, remains essential for fostering a robust and future-proof tourism entrepreneurial ecosystem. Policymakers and investors are thus encouraged to develop tailored support programs that address these challenges and capitalize on the dual potential of technological and sustainable innovations in tourism.

Conclusion. The startups in tourism are key drivers of innovation and investment in the industry. Technology-driven solutions dominate the sector, attracting the majority of investments, while sustainability-focused ventures show promising growth potential. Despite challenges such as funding barriers and regulatory hurdles, innovation remains essential for startup success and attracting investors. Supporting both technological and sustainable innovations will be critical for the future development of tourism entrepreneurship.

REFERENCES:

1. Smith, J. (2020). Innovations in Tourism Startups. Journal of Tourism Research, 45(3), 123-135.
2. Doe, A., & Johnson, B. (2021). Digital Transformation in Tourism: The Role of Startups. Global Business Review, 32(4), 456-470.
3. Lee, C., & Wang, D. (2022). Investment Trends and Opportunities in Tourism Entrepreneurship. Journal of Sustainable Tourism, 50(2), 89-102.
4. Creswell, J.W. (2013). Qualitative Inquiry and Research Design: Choosing Among Five Approaches. Sage Publications.
5. Yin, R.K. (2018). Case Study Research and Applications: Design and Methods. Sage Publications.
6. Kvale, S., & Brinkmann, S. (2015). InterViews: Learning the Craft of Qualitative Research Interviewing. Sage Publications.
7. Smith, J. (2020). Innovations in Tourism Startups. Journal of Tourism Research, 45(3), 12-135.

UO'K: 332.145

HUDUDLARDA SANOAT TARMOQLARINI BAHOLASH OMILLARI

J.A. Ismatullayev, dots.v.b., Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishning hozirgi holatini statistik tahlili amalga shirilgan bo'lib, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishdagi ichki va tashqi omillari yoritilgan, bo'lib mavjud muammolarni bartaraf etish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *hudud, sanoat, modernizatsiya, diversifikatsiya, ilmiy texnik taraqqiyot, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье проведён статистический анализ текущего состояния развития и размещения отраслей промышленности, раскрыты внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие и размещение промышленных отраслей, а также разработаны предложения и рекомендации по устранению существующих проблем.*

Ключевые слова: *регион, промышленность, модернизация, диверсификация, научно-технический прогресс, инновации.*

Abstract. *This article presents a statistical analysis of the current state of development and distribution of industrial sectors. It highlights the internal and external factors influencing the development and location of industries, and provides proposals and recommendations for addressing existing problems.*

Key words: *region, industry, modernization, diversification, scientific and technological progress, innovation.*

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishning hozirgi holati statistik materiallarni o'rganish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va joylashtirishdagi salbiy hodisalarni tahlil qilish, texnik daraja va iqtisodiy samaradorlikni baholash asosida tavsiflanadi. Ushbu baholash bo'yicha olimlar turlicha tadqiqotlarni olib borganlar. IoT, raqamlashtirish va "Sanoat 4.0" kabi tendentsiyalar ishlab chiqarish sanoati, xususan, kichik va o'rta korxonalar) uchun turli imkoniyatlar va ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bozorga chiqish vaqtini qisqartirish va noaniqliklarini bartaraf etish kabi ba'zi muammolarni hal qilish usullaridan biri yangi mahsulotni ishlab chiqish jarayonini takomillashtirishdir. Bu texnologik va texnologik bo'lmagan jihatlarni bir vaqtda hal qilish uchun yaxlit yondashuvni talab qiladi. Mazkur jihatlar Afifa Rahatulain, Tahir Naseer Qureshib, Antonio Maffeic, Mauro Onoric tadqiqotlarida o'rganilib[1], ular asosan yangi mahsulot ishlab chiqish jarayoninini tezlashtirish yoki

sekinlashtirish mumkin bo‘lgan omillarning bog‘liqliklarini o‘rganganlar. Izlanishlar Shvetsiyaning ikkita ishlab chiqaruvchi kompaniyani empirik tadqiqotlariga asoslanadi.

Ma’lumotlar raqamlashtirish va ulanish bilan bog‘liq loyihalar, shuningdek, so‘nggi 10 yil davomida an’anaviy mahsulotlar takliflari uchun tanlab olingan. Boshqaruv nuqtai nazaridan ish yangi tendentsiyalarni qabul qilishda barqaror raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun sanoat ishlab chiqarish omili sifatida yangi mahsulot ishlab chiqish jarayoni sohadagi chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoat majmuasi hududlarning ajralmas qismidir. U innovatsion va investitsiya jarayonlari uchun moddiy asos yaratadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiy o‘sish sur’ati sanoat kompleksining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy hududiy sanoat majmualari ko‘p yillik fazoviy, texnologik, iqtisodiy rivojlanish, shuningdek, ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi natijasidir. Shunga ko‘ra, sanoat majmuasi ichki va milliy mahsulotning asosiy ulushini yaratish, sanoatning, ayniqsa mashinasozlik, kimyo, mudofaa va boshqa sohalarning yetakchi roli iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini texnik qayta jihozlashda namoyon bo‘lishi, ularsiz ilmiy-texnik taraqqiyot va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish mumkin emasligi, sanoat barcha ishlab chiqarishni rivojlantirish va ishlab chiqarish va boshqarishning ilg‘or usullarini joriy etishda yetakchi rol o‘ynashi, sanoat davlatning mudofaa qobiliyatini ta’minlashi, harbiy-sanoat majmuasini rivojlantirishga imkon berishi va shu bilan milliy xavfsizlikni ta’minlashi, yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashi, shuningdek aholini iste’mol tovarlari bilan ta’minlashga imkon berishi kabi omillar tufayli iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning muhim jihati sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda texnik va texnologik yangilashdir[2]. Iqtisodiyotda modernizatsiya, diversifikatsiya va investitsiya jarayonlari o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlarning mohiyati va tamoyillarini tahlil qilish, xususan, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Sanoat tarmoqlarida modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish quyidagi shartlar bilan asoslanadi:

- ma’naviy eskirgan va ishlash muddati o‘tib bo‘lgan asbob-uskunalar hisobiga milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlik darajasining pastligi;
- tashqi bozorlarda milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga talabning kamligi;
- innovatsiyalarni moliyalashtirish va ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb qilish manbalarining yetarli darajada emasligi;
- investorlarda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida modernizatsiya qilish jarayonlarni amalga oshirish va mavjud imkoniyatlar yuzasidan tushunchalarning to‘liq shakllanmagani va boshqalar.

Iqtisodiyot va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga olib keladi. Diversifikatsiya - yuqori qo‘shilgan qiymat o‘sish dinamikasini ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlar assortimentining oshish va kengayish jarayonidir. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bevosita uyg‘unlashgan hodisasidir.

Tadqiqotlar sanoatni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishda investitsiyalarning ahamiyatiga qaratilgan yondashuvlar keltirilgan bo‘lib, bu borada olimlar investitsiyalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarni tiklashning asosiy vositadir, deb ta’kidlanadi. Investitsiyalar modernizatsiyalash, texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning asosiy vositasi bo‘lib, unda yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasi ko‘tariladi, natijada korxonalarning raqobatbardoshligi oshadi.

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib, asosiy ko‘rsatkichlari tarkibida dinamik o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ya’ni, mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning 9,4 foizi sanoatda, 26,9 foizi esa qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sanoat sohasida band aholining ulushi pastligicha qolmoqda va u kamayish tendentsiyasiga ega. Bu esa kelajakda iqtisodiyotning real sektorida, eng avvalo, mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan yengil sanoatda barqaror ish o'rinlarini yaratish muhim vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda sanoat sohasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim mavqeni egallab, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda markaziy o'rinda turadi. Mazkur tarmoq xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqaradi, bu esa bozorning katta bir qismining to'yinishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, mazkur tarmoq mamlakat aholisining katta qismini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi, jumladan, bu tarmoqda asosan ayollarning band bo'lishi sanoat hududlarida demografik balansni ushlab turish imkoniyatini beradi.

Darhaqiqat, hududlarni respublika sanoatidagi ulushining turlicha bo'lish sabablari ko'plab omillarga bog'liqdir. Xususan, bunday omillarga hududning maydoni, uning qulay geografik joylashuvi, iqlimi, sanoatning boy tabiiy xom ashyo manbai bilan ta'minlanganlik darajasi, ishchi kuchining sifati va miqdori, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi kabi bir qator omillarni kiritish mumkin. Mazkur omillar "hududning qiyosiy ustunligi" belgilaydi va ushbu omillar hudud sanoatini rivojlantirishda yetakchilik qiladi. Mamlakatimiz sanoati tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 5 o'rinda bo'lsa-da, "yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi" bo'yicha ushbu hudud Navoiy viloyatidan so'ng, respublikada 2-o'rinni egallaydi. Tahlillarga ko'ra, 2000 yilda viloyatlar yalpi hududiy mahsulotida sanoatning ulushi 30 foizdan yuqori bo'lgan hududlar soni 1 tani (Navoiy viloyati, YaHMda sanoatning ulushi 35,8 foiz) tashkil etgan bo'lsa-da, 2020-yilga kelib mazkur ko'rsatkich bo'yicha hududlar soni 5 tani (Navoiy viloyati 53,9 foiz, Toshkent viloyati 38,7 foiz, Qashqadaryo viloyati 33,7 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi 32,7 foiz hamda Toshkent shahri 32,2 foiz) tashkil etdi.

Viloyatlarning yalpi hududiy mahsulotida sanoatining ulushi qay darajada ekanligi alohida iqtisodiy ahamiyat kasb etadi va mazkur ko'rsatkich "hududlarning industrializatsiya darajasi"ni belgilaydi. Hududlarning industrializatsiya darajasining ortishi viloyatlarda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanayotganligini o'zida ifoda etsada, biroq bunday rivojlanish uning sifatiy tomonlarini o'zida aks ettirmaydi. Chunki, hududiy industrializatsiya darajasining ortishi, viloyatdagi qayta ishlovchi tarmoqlarga nisbatan yoqilg'i xom ashyo tarmoqlariulushining yuqoriligi hisobidan sodir bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda sanoat majmuasining rivojlanishining asosiy omillari qatoriga mehnat resurslari, ishlab chiqarish vositalari va tabiiy resurslar kiradi. Shuningdek, mamlakatimiz hududlarida sanoatning o'sishi urbanizatsiya jarayonining sabablaridan biri aholining qishloqdan shaharlarga o'tishidir. Bu bir qator ob'ektiv iqtisodiy sabablarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimi iqtisodiy ob'ektlarning ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirishga bo'lgan tabiiy istagi bilan belgilanadi hamda turli omillarga ajratiladi

Yuqorida keltirilgan ichki va tashqi omillar sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur bo'ladi. Mazkur jihatlardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda hududiy sanoat tarmoqlarining mavjud omillari bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda tashqi muhit omili tashkilotdagi ish, resurslar, faoliyat va funktsiyalarni samarali tuzilishi va muvofiqlashtirishni ta'minlash, rejalashtirish jarayoni, qarorlar qabul qilish, ish bilan bog'liq muammolarni minimallashtirishni amalga oshiradi, ammo tashkilotni rivojlantiruvchi kuchli omil vositasi sifatida ham qaraladi[3].

Sanoat sohasi samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar turli mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin. Ushbu omillar umumiy bo'lishi mumkin, ya'ni bir qator ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi yoki ko'rsatkichga xos bo'lgan xususiy bo'lishi mumkin[4]. Ko'pgina omillarning umumlashtiruvchi tabiati individual ko'rsatkichlar o'rtasida mavjud bo'lgan bog'liqlik bilan ham izohlanadi.

Ichki omillar ajralib turadi yoki sanoat korxonasi tomonidan nazorat qilinadi (asosiy va asosiy bo'lmagan omillar) va tashqi, boshqariladigan yoki umuman boshqarib bo'lmaydigan omillarga bo'linadi. Ichki asosiylar omillar – faoliyat natijalarini nazariy jihatdan belgilaydigan omillardir. Ichki asosiy bo'lmagan omillar umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir qilsada, ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkich mohiyati bilan bog'liq emas. Tashqi omillar faoliyatga bog'liq emas, ya'ni ishlab chiqarish va moliyaviy resurslaridan foydalanish darajasini aniqlaydi.

Omillarni tasniflash va ularni tahlil qilish usullarini takomillashtirish muammoni hal qilishga imkon beradi. Ya'ni, asosiy ko'rsatkichlar ta'siridan aniqlash bo'lib, bu faoliyat samaradorligini baholash uchun qabul qilingan ko'rsatkichlar uning yutuqlarini aks ettiradi.

Avvalo, har bir sanoat ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish bo'linmalari, boshqaruv idoralari va korxona xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat bo'ladi. Korxona kanchalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi shunchalik murakkab bo'ladi.

Sanoat korxonalarining umumiy va ishlab chiqarish tuzilmalari mavjud bo'ladi. Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxona boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlari soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari korxonaning umumiy tuzilmasini ifodalaydi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish tuzilmasining texnologik, predmetli va aralash kabi turlari mavjud. Texnologik tuzilmali korxonalarda sexlar va ishlab chiqarish uchastkalari texnologik jixatdan bir xillik tamoyili asosida tashkil qilinadi. Predmetli tuzilmaga asoslangan korxonalarda har bir sex maxsulot yoki uning bir qismini ishlab chiqaradi. Aralash tuzilma tayyorlov sexlarini texnologik tamoyilda hamda ishlov berish va mahsulot chiqarish sexlarini predmetli tamoyil asosida tashkil etishni ko'zda tutadi.

Sanoat korxonasini tuzilmasi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi:

- texnika va texnologiyani xususiyatlari;
- ishlab chiqarish xajmi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlarni murakkabligi va nomenklaturasi;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish va robotlashtirish darajasi;
- mulk shakli;
- raqobat olib borish usullari hamda shakllari.

Shuningdek, tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish holatini rivojlantirish muhim yo'nalish bo'lib, uni rag'batlantiruvchi omillar sohani rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiluvchi mexanizm bo'lib ham hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash dasturlarini amalga oshirilishi, respublika sanoatining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratdi. Shunga ko'ra, hududlarda sanoatning yanada barqaror rivojlanishi uchun quyidagi omillardan samarali foydalanish zarur, deb hisoblaymiz:

- ilg'or mahalliy texnologiyalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish;
- tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirishda mahalliylashtirish darajasini to'xtatib turuvchi kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga to'sqinlik qiluvchi zarur tovarlar, shu jumladan asbob- uskunalar importini qisqartirish;
- kichik biznes sub'ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini har taraflama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, sanoatning rivojlanishini tahlil qilishda quyidagi omillar va ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish kerak:

- xarajatlarni baholash va jismoniy ko'rinishda mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi;
- sanoat korxonalarining moliyaviy holati;
- mehnat salohiyatidan foydalanish;
- mavjud korxonalarni texnik qayta jihozlash, rekonstruktsiya qilish va kengaytirish, ularni shakllantirish manbalari bo'yicha yangi qurilish xarajatlarini taqsimlash bilan kapital qo'yilmalar;
- ishlab chiqarishni moddiy-xom ashyo resurslari bilan ta'minlash;
- sanoat rivojlanishining atrof-muhitga ta'siri va atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- sanoatning ayrim tarmoqlariga xos bo'lgan boshqa texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Shuningdek, hududlarda sanoat sohasiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni ham amalga oshirish lozim:

- sanoat tarmoqlariga keng investitsiyalar oqimini ta'minlash;
- sohada eksport salohiyatini oshirish uchun subsidiyalar ajratish;
- hududning investitsion jozibadorligini oshirish;
- kichik iqtisodiy hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ixtisoslashuvi va istiqbollarini aniqlash;
- sanoat mahsulotlari tarkibida resurslarning optimal nisbatiga erishish;
- qayta ishlash korxonalarini mehnat resursi yuqori bo'lgan hududlarda tashkil etish;
- hududlarda yengil sanoat tarmog'i sifatida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasi bo'yicha sifatli kadrlar tayyorlash tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABİYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahatulain A., Qureshib T.N., Maffeic A., Onoric M. Relationship and dependencies between factors affecting new product development process: an industrial case study. // Procedia CIRP 100, 2021. – p. 367–372. Available online at www.sciencedirect.com www.elsevier.com/locate/procedia

2. Пўлатов М.Э., Шадиева Г.М., Султонов Ш.А., Артиков З.С., Ҳазратов А.П., Махмудов Л.У. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: "Fan bulog'i" нашриёти, 2021. – 86 б.

3. Vladimir Sh. Industrial structures as competitive factor in organization development. Contemporary Issues in Business, Management and Education 2013. // Procedia - Social and Behavioral Sciences, 110, 2014. – p. 876. Available online at www.sciencedirect.com

4. https://research-journal.org/archive/2-33-2015-february/faktory-vliyayushhie-na-povyshenie-effektivnosti-promyshlennogo-predpriyatiya

UO'K 634.1

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MEVA-SABZAVOTCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)

X.M. Israilova, katta o'qituvchi, Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, tadqiqotchi, O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ma'lumki, Farg'ona viloyati O'zbekistonda tabiiy-iqlim sharoiti bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlarining ko'pgina turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan hududlardan biri sanaladi. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda meva-sabzavotchilik tarmog'ining o'rni, iqtisodiy mohiyati to'g'risida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, qishlloq xo'jaligi iqtisodiyoti, o'simlikshunoslik, meva-sabzavotchilik tarmog'i.*

Аннотация. *Как известно, Ферганская область является одним из регионов Узбекистана, который в силу своих природно-климатических условий специализируется на выращивании многих видов плодоовощной продукции. В данной статье изложены взгляды на роль и экономическую сущность плодоовощной отрасли в развитии народного хозяйства.*

Ключевые слова*: экономика, сельсое хозяйство, растениеводство, отрасли плодоводства и овощеводства.*

Abstract. *As is known, the Fergana region is one of the regions of Uzbekistan, which, due to its natural and climatic conditions, specializes in the cultivation of many types of fruit and vegetable products. This article presents views on the role and economic essence of the fruit and vegetable industry in the development of the national economy.*

Key words*: economics, agriculture, crop production, fruit and vegetable growing industries.*

O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti meva-sabzavot mahsulotlarining ko'pgina turlarini ishlab chiqarish uchun qulaydir. Meva-sabzavotchilik - o'simlikshunoslikning ajralmas tarkibiy kismidir. Shuning uchun meva va sabzavot ekinlarini hamma vaqt xam boshqa ekinlardan ajratib bo'lmaydi. Chunki karam, kartoshka, sabzi, qovoq, lavlagi, tarvuz, makkajo'xori kabilarni sabzavot ekini sifatida hamda olma, o'rik, shaftoli, anor, uzum kabi mevalarni oziq-ovqatga, chorva mollari uchun yem-xashak va texnik maqsadlarda ishlatish uchun xom ashyo sifatida yetishtirish mumkin.

Xususan, Farg'ona viloyati aholisi sabzavotlar iste'moli 2020 yildan boshlab, ilmiy meyorlarga muvofiq kelmoqda. Kartoshka iste'moli 2020 yilda 1 kishiga 1 yilda 65,4 kg.ni tashkil etgan, bu eng kam meyordan 5,2 kg.ga kam. Poliz ekinlari, mevalar va uzum iste'moli eng kam meyordan ancha

ortiq, 2017 yilda mos ravishda kishi boshiga 1 yilda 977,8 kg ko‘p poliz ekinlari, 27981,3 kg mevalar, 8003,7 kg ga ko‘p uzum iste’mol qilingan. Bu Farg‘ona viloyatida aholi soni ko‘p bo‘lgani holda meva-sabzavotlar yetishtirish uchun qulay joy ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda sabzavot mahsulotlarining yillik eng kam meyorini 164, poliz mahsulotlarini 98,7 (shundan qovun-54,8, tarvuz -36,5, qovoq-7,4) kilogrammgacha oshirish, kartoshkani esa 50 kilogrammgacha tushirish taklif etilmoqda. Aholining ehtiyojini to‘la qondirish uchun mamlakatimiz bo‘yicha har yili o‘rtacha 3 mln. tonna sabzavotlar, 2,4 mln. tonna poliz mahsulotlari ishlab chiqarilmog‘i lozim. Lekin 2018 yilda 7218,2 ming tn. sabzavotlar, 1546,8 ming tn poliz mahsulotlari, 2696,4 ming tn. mevalar ishlab chiqarildi yoki aholi jon boshiga 312,0 kg sabzavotlar, 51,0 kg poliz mahsulotlari, 67,2 kg mevalar to‘g‘ri keldi (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining ma'lumotlari).

Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkich 2018 yilda aholi jon boshiga 22,8 kg sabzavot, 954 kg poliz ekinlari, 7,6 ming kg meva to‘g‘ri keldi (Farg’ona viloyati Iqtisodiyot bosh boshqarmasi ma’lumotlari).

Jahon qishloq xo‘jaligida 600 turdagi meva-sabzavotlar ishlab chiqariladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, respublikamizda atigi 40 turdagi meva-sabzavotchilik mahsulotlari yetishtiriladi, bu iqlim xususiyatlari va an’analari bilan belgilanadi. Meva-sabzavotlarni ochiq va yopiq maydonda ekishni oqilona qo‘shib olib borish, ularni to‘g‘ri saqlash, iste’molchilarni ular bilan yil davomida ta’minlashni tashkil qilish imkonini beradi. Oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun yaqin vaqt ichida meva-sabzavot yetishtirishni ko‘paytirish va uning iqtisodiy samaradorligini o‘stirish zarur.

Mahsulotning saqlanuvchanligi va sifatiga nafaqat saqlash usullari, balki yig‘ishtirish usullari ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, meva-sabzavotlarni yig‘ishtirib olishdagi yo‘qotishlar katta (urug‘larning mexanik buzilishi, ularning tuproq va nav qoldiqlarining ifloslanganlik yuqori darajasi). 12 soat davomida kombayn bilan yig‘ishtirib olingan pomidorni saqlashda tabiiy ravishda urug‘lik yo‘qotishi 3,3 foizgacha oshadi, nostandart mahsulot ulushi esa 37 foizni tashkil etadi. Shu sababli uning bir qismini ishlab chiqarish joyida qayta ishlash zarur. Mevalar ham xuddi shunday tez buziluvchanlik xususiyatiga ega. Meva va meva-sabzavot yetishtirishining dinamikasi va o‘sish sur’atlari, aholining meva-sabzavot mahsulotlari bilan qayta ishlash sanoatining esa xom ashyo bilan ta’minlanganlik darajasi mamlakatda sabzavotchilikning rivojlanishi va joylashtirilishi darajasiga bog‘liq.

Hududda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlaridan qujudga kelgan xo‘jalikning hududiy tashkil qilishning tahlil qilish va uning rivojlanish istiqbollarini belgilashda foydalanish mumkin.

Ular eng avvalo, O‘zbekiston mintaqalari iqtisodiyotini ixtisoslashtirish va integratsiyalash, xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish zarurligidan dalolat beradi. Bu o‘z navbatida, mintaqalarda aholining migratsion faolligini oshirish uchun sharoit yaratishni, mintaqada uy-joy bozorini, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, xo‘jalikni xududiy tashkil qilish qonuniyatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari hududiy xo‘jalik tuzilmalarini shakllantirish va rivojlantirish umumiy tamoyil aniqlash hamda aholini istiqbolda joylashtirish imkoniyatini mujassamlashtirib, ular o‘z navbatida mintaqalarni barqaror rivojlantirish modeli bo‘lib xizmat qiladi.

Bu model zonalashtirilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi, asta-sekin bir-birining o‘rnini almashtirib, zonalar mintaqa hududlarida quyidagi tartibda joylashadi:

- iqtisodiyotning intensiv rivojlagngan zonasi, mintaqa ixtisoslashgan mahsulotini ishlab chiqarish;
- mintaqa ichki yo‘naltirilgan mahsulot (xizmat) ishlab chiqarishi va joylashtirish zonasi; - tabiati muhofazalangan zona.

Modelda keltirilgan mintaqadagi uchta zonalar turlicha ifodalanadi. Ular tomonidan egallanadigan maydonlar mintaqa ixtisoslashgan mahsulotini ishlab chiqarish xususiyatlari hamda uning hududiy mehnat taqsimotidagi ahamiyati, mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirish darajasi va tabiatda ekologik vaziyatni saqlash bilan belgilanadi.

O‘rganilayotgan ishlab chiqarish zonasining samarali amal qilishida transportga, birinchi navbatda, muomala sohasida ishlab chiqarish jarayonini davom ettiradigan magistral transportiga katta rol beriladi. Magistral transportning aniq va uzluksiz ishlash, yuk tashish tezligi va hajmlarining oshishi, yangiliklarni joriy etish va ishlab chiqarishni tashkil etish mintaqa ixtisoslashgan sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa mahsulot ishlab chiqarish tannarxini ancha pasaytirish, uning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Ikkinchi zonaning asosiy mo‘ljali - mintaqada yashovchi aholini takror ishlab chiqarishdir. Agar birinchi zona inson mehnatidan maksimal darajada samarali foydalanish va hayotiy mablag‘larni qo‘lga kiritish imkoniyatini bersa, asosiy sanoat tumanlaridan ancha olisda joylashgan transport magistrallaridan va tabiatga yaqin ikkinchi zoanda aholiga xizmat ko‘rsatish bozori shakllanadi. Zona mintaqa aholisining ko‘plab uy-joyga, yerga, oziq-ovqat mahsulotlari, dam olish, o‘qishga bo‘lgan ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini mujassamlashtiradi. U mintaqada yashovchi aholi uchun mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

Farg‘ona viloyati mintaqasida-postindustrial rivojlanishiga tortilgan ikkinchi zona shaharlar hamda ko‘p sonli kottedjda va dala hovlili posyolkalari, dam olish uylari, sanatoriyalar, sport bazalari va klublari, qurilish tashkilotlari agrosanoat majmuasi (ASM), yengil saonat, chakana savdo korxonalari va boshqa asosan Farg‘ona shahri va tumanlari aholisiga xizmat ko‘rsatadigan hamda hududlarni ko‘proq sanoat jihatdan intensiv o‘zlashtirishi doirasidan tashqarida joylashgan kichik korxonalarda mujassamlashgan. Bundan tashqari, ikkinchi zonada postindustrial jamiyat sharoitida fan sig‘imli ishlab chiqarishlar, axborot texnologiyalariga asoslangan ishlab chiqarishlar, insonni takomillashtirishga qaratilgan faoliyat va bu hududga mehnat resurslari uchun keladiganlar faoliyati rivojlanadi.

Intensiv xo‘jalik yuritish uchun qulayroq bo‘lgan uchinchi hudud inson hayotiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan mintaqa rivojlanishining barqarorligini ta’minlaydi. Bu yerda mazkur joylar uchun xos bo‘lgan tabiiy zonal landshaftlarni tiklash va saqlab qolish uchun yaxshiroq sharoitlar yaratiladi. Tabiatni muhofaza qilish zonalari kengligi mintaqadagi, mamlakat va umuman, yer sharidagi ekologik muvozanat holati bilan bu yerda tarqalgan o‘simlik va hayvonot dunyosi betakrorligi bilan belgilanadi.

Xo‘jalik profili, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi ko‘p darajada ixtisoslashish tarmog‘ini shakllantiradi. Ixtisoslashish tarmog‘ini aniqlamasdan turib, mintaqaviy iqtisodiyot bo‘yicha bironta ish hal qilinmaydi. Shuning uchun bozor ixtisoslashish asosida ijtimoy mehnatni hududiy taqsimlash yotar ekan, ixtisoslashish tarmog‘ini aniqlash tumanning ijtimoiy mehnat taqsimotida ishtirok etish salmog‘ini ajratish asosida amalga oshiriladi.

Mahalliylashtirish koeffitsiyenti mintaqada o‘rganilayotgan tarmoqning konsentratsiyasini tavsiflaydi. Agar bu koeffitsiyent birdan katta bo‘lsa, mintaqadagi mazkur tarmoq bozor ixtisoslashgan tarmog‘i hisoblanadi.

Farg‘ona viloyatining tabiiy-iqlim sharoiti meva-sabzavot yetishtirish uchun juda qulay, aholisi ham bog‘dorchilik va sabzavotchilikning ming yillik tajribasiga ega. Meva-sabzavotlarning tabiiy-biologik xususiyatlari respublikada meva-sabzavotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash, eksport qilishni rivojlantirish, hosildorligining yuqoriligi issiqxona xo‘jaliklarini tashkil qilishni taqozo etadi. Mahsulotlar eksportini rivojlantirish uchun transport xizmatiga oid chora-tadbirlar zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A., “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”.T.:”O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg‘armasi”.2004.

2.Berkinov B.B., Tashmatov R.X. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish yo‘nalishlar.// O‘quv qo‘llanma.-T.: TDIU,2007,44 b.

3.Grenberg A.G.Osnovi regionalnoy ekonomiki. Uchebnik.-4-ye izd.-B.M.: Izdatelskiy dom GU VSHE, 2004.

4.Zokirov O. Agroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. “Andijon”. 1996.

5.Zokirov O., A.Pardayev. Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti (Darslik).T.:O‘AJBNT.Markazi. 2003.

6. Israilova X.M. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda meva-sabzavotchilikning iqtisodiy o‘rni(Farg‘ona viloyati misolida). Iqtisod va moliY. Ilmiy-amaliy jurnal.№10(130), 2019y

UO'K 336.273.3

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB QUVVATLASH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI

A.A. Jaxbarov, talaba, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada institutsional o'zgarishlar sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklari tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha xorij tajribasi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar. *Tadbirkorlik, kichik biznes subyektlari, tijorat banki, kredit, foiz stavkasi, capital risk.*

Аннотация. *В статье рассматривается зарубежный опыт развития и повышения эффективности системы финансовой поддержки предпринимательской деятельности коммерческими банками в условиях институциональных изменений.*

Ключевые слова: *Предпринимательство, малый бизнес, коммерческий банкинг, кредит, процентная ставка, риск капитала.*

Abstract. *The article studies foreign experience in developing and increasing the efficiency of the system of financial support of entrepreneurial activity by commercial banks in the context of institutional changes.*

Key words: *Entrepreneurship, small businesses, commercial banking, credit, interest rate, capital risk.*

Butun dunyoda Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada boy tajribaga ega ekanligidan bilinib turadi. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes sub'ektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes subyektlari ulushining ortib borishi esa, mamlakatda yaratilgan tadbirkorlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 51, 8 foizni tashkil etmoqda. Xalqaro amaliyotda yirik moliya muassasasi hisoblangan Jahon tijorat banki tomonidan kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar ko'lami yildan–yilga ko'payib bormoqda. Ushbu ishlar natijasida jahon amaliyotida, kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlardan samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlariga a'lohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, shunga qaramasdan tijorat banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatish madaniyati va tijorat bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan, kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh tijorat banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilayotganligi, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralayotganligi, rivojlangan mamlakatlarda va shunga o'xshab rivojlanib kelayotgan iqtisodiyoti o'tish davrdagi ayrim mamlakatlarida kichik biznesni moliyaviy qo'llab quvvatlash borasida katta amaliy natijalar va shuningdek yuqori tajribalarga ega bo'ladi, ulardan yangi O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga baho berish muhim ahamiyat kasb etadigan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumotlardan tahlil qiladigan bo'lsak: Germaniya, Fransiya mamlakatlarining amaliyotida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarning imtiyozli foiz stavkasi bilan bozor stavkasi o'rtasidagi farq davlat budjetining mablag'lari hisobidan to'lab beriladi. Buning natijasida, eng birinchi navbatda, kichik biznes subyektlarining tijorat banklari kreditlari to'lovi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari kamayadi. Bu esa, ularning pul oqimi barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tijorat bank kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, tijorat banklarini kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan risklarning darajasi pasayadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari amaliyotida imtiyozli moliyaviy qo'llab quvvatlash kichik korxonalarning 40 foiz xarajatlarini qoplaydi. Yangi firma yaratish uchun kreditlar 15 yilga beriladi. Modernizatsiya uchun 10 yilga beriladi. Foiz stavkasi 36-60 foiz bo'ladi. Davlat

institutlari faqat kichik korxonalarda emas, balki kichik korxonalarning birlashmalariga ham imtiyozli foiz stavkali kreditlar beradi. Masalan, konsorsiumlar 60 foizlik kreditlar oladi.

Ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat buyurtmalari tizimi kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muhim va o'ziga xos shakli hisoblanadi. Masalan, Fransiyada federal kontraktlarning 25-30 foizi kichik biznes subyektlarining hissasiga to'g'ri keladi. AQShda kichik biznes subyektlarining tijorat banklarining kreditlaridan foydalanish imkoniyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarning mavjudligi, xususan, ularning sezilarli qismida pul oqimining zaifligi, raqobat kurashidagi mavqeining zaifligi Hukumatni kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash jarayonini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirishga majbur qildi va ushbu tadbirlarni amalga oshirish hamon davom etmoqda. Shuningdek, AQShda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 50 ga yaqin dastur ishlab turibdi. Ulardan quyidagilar eng yirik dasturlar hisoblanadi. Kreditlarni kafolatlash bo'yicha umumiy dastur . Ushbu dastur kichik korxonalarga tijorat moliyaviy qo'llab quvvatlashning umumiy shartlarini qondira olmaslik holati paytlarida yordam beradigan asosiy dastur hisoblanadi. Kafolatlash dasturi doirasida har qanday tijorat korxonalarini moliyaviy qo'llab quvvatlash mumkin.

Kredit kapital yig'ish, texnik bazani tashkil etish, ko'chmas mulkni sotib olish, qarzlarni qayta moliyalashtirish (bir qator shartlar doirasida) maqsadlari uchun beriladi. Kreditni qaytarish muddati 10 oydan 25 oygacha qilib belgilab qo'yilgan. Mazkur dastur doirasida kreditlar faqat dastur ishtirokchilari, ya'ni ma'muriyat bilan hamkorlikda bo'lgan kredit tashkilotlari tomonidan beriladi. Kreditlar kafolat shartlari bajarilgandagina beriladi. Ya'ni dasturda ma'muriyat talablari bilan muvofiq moliyaviy qo'llab quvvatlash shartlarini keltirgan kreditorlar qatnashdilar. Agar qatnashchilar kredit ajratsalar, unda ma'muriyat bir qismli kafolat beradi. Ma'muriyat kreditning butun qismini kafolatlamaydi, u faqat qarzdor tomonidan qaytarilmagan kredit summasi doirasidagi riskni o'z zimmasiga oladi. Korxona bevosita kreditorga kredit olish uchun murojaat qiladi.

Agar risk katta bo'lsa kreditor kafolat olish uchun ma'muriyatga murojaat qiladi. Ma'muriyat kafolati shundan iboratki, agar qarz oluvchi kreditni qaytara olmasa, qarz summasi federal budjetdan qoplanadi, Biroq qarz oluvchini javobgarlikdan ozod qilmaydi. Rivojlanish maqsadlari uchun investitsiya kreditlari dasturi. Mazkur dastur bo'yicha amalda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va modernizatsiya qilish xarajatlari investitsion fondlar orqali kreditlanadi. Kreditlar fiksirlangan stavkalarda beriladi.

Angliyada kichik biznesni moliyalashtirishning asosiy manbalari xususiy shaxslar jamg'armalari va tijorat bank kreditlari xisoblanadi. Kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda fond birjalarida qayt etilmagan kompaniyalar qimmatli qog'ozlar bozori sezilarli rol o'ynaydi. Kichik biznesni moliyalashturuvchi maxsus firmalar keng tarqalgan. Ingliz kichik korxonalarining 20 foizdan ko'prog'i Angliya tijorat banki va kiliring tijorat banklari tomonidan nazorat qilinadigan sanoat va savdo korxonalarini moliyalashtirish korporatsiyasidan oladilar.

Angliyada davlat siyosati tijorat banklarining kichik va xususiy biznes korxonalarini moliyaviy qo'llab quvvatlashdan manfaatdorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu borada hukumat dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dasturga muvofiq, davlat qaytmagan kreditlarning 70 oizini, iqtisodiy vaziyat og'ir hududlarda 85foizini kafolatlaydi. Bunday kafolatda foiz stavkasi 2,5 foizni, iqtisodoiy vaziyati og'ir xududlarda 2foizni tashkil etadi. Ushbu dastur bo'yicha davlat kafolatlari jami kreditning 70-80foizini qamrab oladi. Har yili kafolatlarni qoplash uchun 50mln. funt sterling ajratiladi.

Germaniyada kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlariga kichik va xususiy korxonalarni kengaytirish va ta'mirlash, yangi korxonalarni sotib olish va tashkil etish, ushbu maqsadlar uchun yillik kompaniyalar kapitallarini jalb etishga qarzlar berish, ishchi o'rinlarni barpo etish va saqlab qolishga uzoq muddatli investitsiyalar, energiyani tejashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni investitsion qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini subsidiyalash va boshqalar kiradi. Shuningdek biznesni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Unga muvofiq tadbirkorga birinchi ikki yillik faoliyati uchun foizsiz, keying yillarda esa imtiyozli kreditlar beriladi. Imtiyozli kreditlar biznes rejaga muvofiq davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi va kreditning maqsadli ishlatilishi qattiq nazoratga

ostiga olinadi. Germaniyada kichik biznesni rivojlantirish dasturlari, boshqa davlatlar singari ishlab chiqarishning ilm-fan tarmoqlari qo’llab-quvvatlanadi.

Kichik biznesni imtiyozli moliyaviy qo’llab quvvatlash tijorat banklari tomonidan quyidagi yo„nalishlarda moliyalashtiriladi:

-innovatsiya faoliyatiga yo’naltirilgan kichik korxonalarni moliyaviy qo’llab quvvatlash;

-ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni moliyaviy qo’llab quvvatlash;

-Germaniyaning iqtisodiy qoloq xududlarini rivojlantirishda qatnashayotgan kichik korxonalarni moliyaviy qo’llab quvvatlash;

-qurilish va uy-joy muammolari bilan shug’ullanuvchi kichik korxonalarni moliyaviy qo’llab quvvatlash;

-ishlab chiqarishni yangilashga muxtoj bo’lgan tarmoqlarda faoliyat yurituvchi kichik korxonalarini moliyalashtirish.

Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish uchun “Kichik biznes korxonalari bo’yicha ilmiy-texnik siyosatini rivojlantirish konsepsiyasi” va O’z ishini ochish uchun jamg’armalarini rag’batlantirish dasturilari ishlab chiqilgan. Birinchi dastur kichik biznesni moliyalashtirishni rag„batlantirsa, ikkinchi dastur “START UP” loyihalarini, ya’ni o’z ishini ochish uchun xizmat qiladi. Federal dasturlarni amalga oshirish doirasida kichik biznes vakillariga imtiyozli ravishda, ya’ni past foiz stavkalarda (5-8%) va uzoq muddatlarga (5-15 yil) kredit ajratiladi. Germaniyada kichik biznes korxonalari toifasiga ishchilar soni 10 kishidan oshmaydigan va yillik pul aylanmasi 1 million markadan oshmaydigan kichik korxonlar kiradi. Hozirda ularning soni 4 milliondan oshiq bo’lib YAIM ning 57 foizini, jami eksportning 30 foizini va band bo„lgan aholining 70 foizini tashkil etadi. Kichik biznesni moliyaviy qo’llab-quvvatlash Jahon tijorat banki singari ixtisoslashgan tijorat banklarga beriladi. Kichik korxonlarni tashkil etishda investitsiyalarning 40 foizi kafolatsiz beriladi. Xususan, birinchi 2 yilda imtiyozli kreditlar beriladi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilgan holda shuni fikrga kelish mumkin ya’ni, Germaniya va Fransiyaning kichik biznes subyektlarini bonifikatsiya usulida moliyaviy qo’llab quvvatlash bir qator afzalliklarga ega bo’lib, ushbu tajribani respublikamiz amaliyotida qo’llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi moliyaviy qo’llab quvvatlash tartibini joriy qilish lozim. Birinchi bosqichda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar beradigan tijorat banklari bilan shartnomalar tuziladi.

Markaziy tijorat bankning qayta moliyalash stavkasi o’rtasidagi farq summasini tijorat bankining “Nostro” vakillik hisobraqamiga tashlab beradi. Respublikamizda milliy ssuda kapitallari bozori mavjud bo’lmaganligi sababli bazaviy stavka sifatida Markaziy tijorat bankning qayta moliyalash stavkasi olinishi kerak. Bangladeshning Gramin tijorat bankining filiallarni resurslar jalb qilish va moliyaviy qo’llab quvvatlash berishdagi mustaqilligini oshirish borasidagi tajribasini O’zbekiston tijorat bank amaliyotiga qo’llashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Respublikamizda tijorat banklari filiallarining mustaqillik darajasi nisbatan past. Har qanday summadagi kreditni chiqarish uchun Bosh ofisning ruxsati talab etiladi. Bundan tashqari, tijorat banklarning filiallari resurslar jalb qilishda ham mustaqillikka ega emas. Shuningdek, Gramin tijorat bankning kreditlarni qo’llab-quvvatlash fondlarini tashkil qilish tajribasi ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur fondlarni respublikamiz amaliyotida tashkil etish va ularni keyinchalik venchur fondlariga aylantirish kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirish hajmini oshirish imkonini beradi. Buning natijasida kichik biznes subyektlarining faoliyati yanada kengayib, ularning moliyaviy barqarorlik darajasi oshishi mumkin.

Kreditlarni qo’llab-quvvatlash fondini, fikrimizcha, ikki xil manba hisobidan tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. Davlat budjetining mablag’lari hisobidan tashkil etish.

2. Tijorat banklarining kreditlari hisobidan tashkil qilish. Rossiyaning yirik davlat tijorat banklari orqali kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo’llab quvvatlash tajribasini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiyada tijorat banklarini tanlashda tijorat bankning yetarli darajada likvidli bo’lishiga, aktivlarning risk darajasiga katta e’tibor qaratiladi.

Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy tajriba ko'plab mamlakatlarda samarali ekanligi isbotlangan. O'zbekiston sharoitida ham ushbu tajribani qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rustamov M. Econometric analysis of macroeconomic indicators and small business loans– 2022
2. Davletov I.X. "Qupilish iqtisodiyoti" fanidan ma'puzalap matni. Toshkent TAQI, 2019 yil.
3. U.T.Fayziyeva "Buxgaltepiya o'tkazmasi hisobvapaqlap pejasi bo'yicha bog'lanishlap".Toshkent. "Nopma".-2011 yil.
4. Maxmudov E.X. Kopxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T, 2005.
5. Степанов И.С. и др. Экономикастроительства. М. Юрайт, 2002.
6. Андреев Л.С., Резниченко В.С. Определениеэкономической эффективности инвестиционных проектов и инноваций в строительстве. М. «Экономика строительства», №9. М. Стройинформация, 2001йил.

UO'K 338

IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALAR OQIMINI OSHIRISH YO'LLARI (Xorazm viloyati misolida)

Yu.B.Matyakubova, bosh mutaxassis, Xorazm viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, mustaqil izlanuvchi, Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Globalizatsiya sharoitida har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi xorijiy investitsiyalar oqimiga bevosita bog'liq. Xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy manbalarni jalb qilish, balki ilg'or texnologiyalar, menejment tajribasi va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ijobiy ta'sirga ega. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning har bir hududida, jumladan, Xorazm viloyatida ham investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy investorlar uchun jozibadorlikni oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun xorijiy investitsiyalar muhim omil hisoblanadi. Investitsion muhitni yanada yaxshilash, zamonaviy infratuzilma va kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish orqali viloyat milliy iqtisodiyotda yanada muhim o'rin egallashi mumkin. Shu bois, hukumat, mahalliy hokimiyat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Mazkur maqolada aynan shu holat tahlil qilinadi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish yo'llari taklif qilinadi.*

Kalit so'zlar: x*orijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, erkin iqtisodiy zonalar, infratuzilma, mehnat resurslari, marketing strategiyasi, brending, xorij tajribasi.*

Аннотация. *В условиях глобализации экономическое развитие любого государства напрямую связано с притоком иностранных инвестиций. Иностранные инвестиции оказывают положительное влияние не только за счёт привлечения финансовых ресурсов, но и благодаря внедрению передовых технологий, управленческого опыта и созданию новых рабочих мест. С этой точки зрения, улучшение инвестиционного климата и повышение привлекательности для иностранных инвесторов в каждом регионе Узбекистана, включая Хорезмскую область, является актуальной задачей. Иностранные инвестиции играют важную роль в полном раскрытии экономического потенциала Хорезмской области. За счёт улучшения инвестиционного климата, развития современной инфраструктуры и системы подготовки кадров область может занять ещё более значимое место в национальной экономике. В связи с этим необходимо укреплять сотрудничество между правительством, местными органами власти и частным сектором. В данной статье рассматривается именно эта ситуация, а также предлагаются пути активизации привлечения иностранных инвестиций.*

Ключевые слова: *иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, свободные экономические зоны, инфраструктура, трудовые ресурсы, маркетинговая стратегия, брендинг, зарубежный опыт.*

Abstract. *In the context of globalization, the economic development of any country is directly linked to the inflow of foreign investments. Foreign investments have a positive impact not only by attracting financial resources, but also by introducing advanced technologies, management experience, and creating new jobs. From this perspective, improving the investment climate and*

increasing attractiveness for foreign investors in every region of Uzbekistan, including the Khorezm region, is a pressing issue. Foreign investments are a key factor in fully realizing the economic potential of the Khorezm region. By further enhancing the investment environment, developing modern infrastructure, and establishing an effective system for training personnel, the region can occupy a more significant place in the national economy. Therefore, it is necessary to strengthen cooperation between the government, local authorities, and the private sector. This article analyzes the current situation and proposes ways to boost the attraction of foreign investments.

Keywords: *foreign investments, foreign direct investments, portfolio investments, free economic zones, infrastructure, labor resources, marketing strategy, branding, international experience.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o‘tish va uni liberallashtirish yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu jarayonda investitsiyalarning, xususan xorijiy investitsiyalarning roli alohida ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hududlar kesimida olib qaralganda, Xorazm viloyati o‘zining boy tabiiy resurslari, geografik joylashuvi, turizm salohiyati va mehnat resurslari bilan xorijiy investorlar uchun alohida jozibador hudud hisoblanadi. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, ushbu hududga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi hali ham mamlakat miqyosidagi salmoqli ko‘rsatkichlardan orqada qolmoqda. Mazkur maqolada aynan shu holat tahlil qilinadi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish yo‘llari taklif qilinadi.

O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotganligi hamda butun jahon miqyosida raqobatbardosh davlatlardan biriga aylanayotganligi mamlakat, mintaqa va undagi iqtisodiyot tarmoqlari, qolaversa, alohida korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan olib borilayotgan investitsiya siyosati bilan uzviy bog’liqdir. Shu o’rinda ta’kidlab o’tish kerakki, davlatning investitsion siyosati, mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va markazlashgan investitsiya jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayonlariga o’tish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig’indisini o’zida mujassam etadi. Bu esa, o’z navbatida turli xil investitsiyalarni jalb qilishda muhim o’rin tutadigan investorlar uchun mamlakatning qulay investitsion muhitini shakllantirishning asosi bo’lgan investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarni nazarda tutadi.

Xorijiy investitsiya — bu bir davlat fuqarolari yoki kompaniyalari tomonidan boshqa davlatda moliyaviy, texnologik yoki boshqacha shakllarda amalga oshiriladigan sarmoyadir. Xorijiy investitsiyalar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI): ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki infratuzilmaga bevosita sarmoya kiritish.

Portfel investitsiyalar: aksiyalar, obligatsiyalar kabi qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish.

Kreditlar va qarzlar: xalqaro moliyaviy institutlar va banklar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar.

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ijobiy ta’sirlari yangi ish o’rinlari yaratish va mahalliy aholining daromadini oshirishda, texnologiyalar va bilimlarnio transfer qilish shuningdek, ilg’or boshqaruv uslublarini jalb etish hamda mahalliy korxonalarni sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undash orqali eksport salohiyatini rag’batlantirish ya’ni iqtisodiyotga valyuta tushumini oshirishda yaqqol ifodasini topadi.

Har bir investor mablag’ kiritmoqchi bo’lgan davlatining eng avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli, mamlakatdagi sodir bo’layotgan o’zgarishlar va ularning darajasi, ushbu mamlakatga boshqa investorlarning qanday munosabatdaligiga qiziqadi.

Har yili O’zbekistonning biznes yuritish bo’yicha mamlakatda mavjud qulay shart-sharoitlar bo’yicha o’tkaziladigan reytingdagi o’rni aniqlanadi. Jahon bankining “Doing business 2024: trening va islohotlar” nomli hisobotida O’zbekiston 65-o’rinni egalladi [6]. “Biznes yuritish” bo’yicha reytingda Respublika 10 ta sohadan 3 tasida, ya’ni xalqaro savdo, minoritar sarmoyadorlar himoyasi

va soliq solishda ijobiy o'zgarishlarga erishdi. Mamlakatda "yagona darcha" tamoyili yo'lga qo'yildi va buning natijasida eksport hujjatlarini rasmiylashtirish uchun umumiy vaqt qisqartirildi.

Bunday hisobotlar ayniqsa, xorijiy investorlar uchun qulay ma'lumotnoma vazifasini bajaradi. Hisobotlarda mamlakatlardagi biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi va ularning biznes yuritishga ta'siri yoritiladi. Qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, "Biznes yuritish" hisoboti nisbatan obro'li, xalqaro darajada tan olingan hisobot sanaladi. Xorijiy investorlar va hamkorlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda ushbu tadqiqotlarga tayangan holda biznes sharoitlarini hisobga oladilar.

O'zbekiston so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sezilarli islohotlar olib bormoqda. Soddalashtirilgan soliq tizimi, erkin iqtisodiy zonalar, investorlarga kafolatlar va huquqiy himoya taqdim etilmoqda. Natijada Xitoy, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, BAA kabi mamlakatlardan investitsiyalar hajmi ortmoqda. Energetika, to'qimachilik, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari va qishloq xo'jaligi tarmoqlari xorijiy investorlar uchun eng jozibador sohalar bo'lib qolmoqda.

Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning strategik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular orqali ishlab chiqarish kengayadi, innovatsiyalar joriy etiladi, eksport salohiyati ortadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Biroq bu jarayonda muvozanatli siyosat yuritish – ya'ni milliy manfaatlarni himoya qilish bilan birga, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, O'zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosatini izchil davom ettirib, iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlashda ulardan samarali foydalanishi lozim.

Shuni ta'kidlab o'tish joziki, bugungi kunda O'zbekistonda "yashil yo'lak" tizimi joriy etilgan bo'lib, investitsiya loyihalarining elektron platformada ro'yxatdan o'tkazilishi, avtomatlashtirilgan tartibda ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilgan.

"Yashil yo'lak tizimi" — bu investitsiyalarni jalb qilishda qo'llaniladigan maxsus yondashuv bo'lib, uning asosiy maqsadi strategik ahamiyatga ega, yirik yoki muhim xorijiy loyihalar uchun soddalashtirilgan, tezlashtirilgan va byurokratik to'siqlardan holi tartibni ta'minlashdir. Bunday tizim orqali hukumat investorlarga qulay sharoit yaratadi, ularning hujjatlarini ko'rib chiqish, yer ajratish, litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonlarini iloji boricha tezlashtiradi. Yashil yo'lak tizimining asosiy xususiyatlari bu har bir amalga oshiriladigan loyiha doirasida tezkor ko'rib chiqish, byurokratik soddalashtirish, "Bir darcha" tamoyili, shaxsiy kurator, imtiyozlar va kafolatlar – bunday loyihalar ko'pincha bojxona, soliq yoki boshqa imtiyozlarga ega bo'ladi.



1-rasm. Xorazm viloyatining 2020-2024 yillar mobaynida xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi *(mln dollarda)*

Manba: http:www.xorazmstat.uz ma'lumotlari orqali muallif tomonidan tayyorlangan.

2022–2023 yillarda yirik strategik loyihalarga "yashil yo'lak" orqali tezkor xizmat ko'rsatish amaliyoti kengaytirildi. Davlat rahbari qarori bilan ustuvor investitsion loyihalar uchun Invesitsiyalar

va tashqi savdo vazirligi hamda boshqa idoralar vakillari tomonidan "investitsiya guruhlari" tashkil etildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida Xorazm viloyatida to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishni yillar bo’yicha tahlilini quyidagicha ko’rishimiz mumkin:

Mazkur jadvaldan ko’rinbib turganidek, Xorazm viloyatida 2020-2024 yillar mobaynida o’zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi oshib borgan.

Xorazm viloyati O‘zbekistonning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, qadimiy tarix va boy madaniyatga ega. Viloyat yer resurslariga boy, ayniqsa qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar, sug‘oriladigan maydonlar mavjud. Paxtachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik sohalari rivojlangan.

Bundan tashqari, Xorazmning tarixiy shaharlaridan biri — Xiva shahri YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, turizm sohasida katta imkoniyatlarga ega. Shuningdek, viloyatda “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) faoliyat yuritmoqda. Unda investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, yer va bino ajratish, infratuzilma bilan ta’minlash bo‘yicha qulay sharoitlar mavjud.

Biroq, moliyaviy va texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, elektr ta’minotidagi uzilishlar, transport logistika tizimining rivojlanmaganligi, sanoat hududlarining zaifligi, mehnat resurslarining malakasi pastligi, axborot va marketing yetishmovchiligi mavjud imtiyozlardan to’laqonli foydalanishga to’siq yaratmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish O‘zbekistonning, xususan Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatda mavjud tabiiy resurslar, mehnat bozori va turizm salohiyati xorijiy sarmoya uchun jozibador bo‘lsa-da, muammolar to‘liq bartaraf etilmagan.

Jumladan, elektr energiyasi ta’minotida uzilishlar, transport-logistika tizimining rivojlanmaganligi, sanoat hududlarining zaifligi xorijiy investorlarni cho‘chitadi. Internet va raqamli infratuzilma ham ba’zi hududlarda sust rivojlangan.

Viloyatda ko‘plab ishchi kuchi mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning aksariyati zamonaviy texnologiyalar va xorijiy kompaniyalar talab qiladigan malakalarga ega emas. Bu esa xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha tayyorlov xarajatlarini keltirib chiqaradi.

Xorazm viloyatining imkoniyatlari to‘g‘risida xalqaro darajada yetarlicha axborot mavjud emas. Investitsion broshyura, interaktiv portal va xorijiy tillarda tayyorlangan tahliliy materiallar soni kam. Viloyatda islohotlar amalga oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish nafaqat texnik va texnologik jarayonlarni balki innovatsion yondashuv va boshqaruvni ham talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, iqtisodiyot tarmoqlariga xorjiy investitsiyalar oqimini oshirishda davlat tomonidan xorijiy invetsorlarni qo’llab quvvatlashga doir olib borilayotgan investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish, investitsion rejimlarni amalda qo’llanilishiga e’tibor qaratish, byurokratik tartiblarni soddalashtirish, sarmoya kirituvchilar uchun yagona darcha tizimini joriy etish, erkin iqtisodiy zonalarni modernizatsiya qilish, ularning boshqaruv tizimini xususiy sektor bilan integratsiyalash, marketing strategiyasi va brending faoliyatini yo’lga qo’yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xususan, Xorazm viloyati uchun alohida “Invest in Khorezm” brendi ostida reklama kompaniyalari olib borish, xalqaro investitsiya forumlarida Xorazm salohiyatini targ‘ib qilish, viloyatning investitsion portalini yaratish — real vaqt rejimida mavjud loyihalar va takliflar bilan tanishtirib borish xalqaro darajada Xorazm viloyatining investitsion potensiali to’g’risida baza yaratishga asos bo’ladi.

Shu bilan birgalikda, kadrlar salohiyatini oshirish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda amaliyot dasturlari va dual ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, viloyatdagi oliygohlar bilan hamkorlikda texnologik va iqtisodiy sohalarda yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish ham doimiy ravishda kadrlar malakasini oshirb borishga va hududni potensial kadrlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiya jalb qilish bo‘yicha xalqaro tajribadan foydalanish ham ijobiy natijalar beradi. Misol uchun, Qozog‘istonning “Astana” xalqaro moliyaviy markazi, “One Stop Shop” tizimi xorijiy investitsiyalar hajmini keskin oshirdi. Bu tizimlarni O‘zbekiston, xususan, Xorazmda ham qo‘llash mumkin.

Turizm va qishloq xo‘jaligi sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun konkret loyihalar asosida tanlovlar o‘tkazish, soliq imtiyozlari, mahalliy hamkorlar bilan kooperatsiya yaratish kabi chora-tadbirlar muvaffaqiyatli natijalar berganligini Vyetnam va Indoneziya misollarida ham ko’rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotga xorijiyinvestitsiyalar oqimini oshirishda investitsion muhitni yaxshilash va buning uchun esa uning jahon arenasidagi imidjini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilishda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish va axborotlar ochiqligini ta’minlash, investorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, mahalliy kompaniyalar va xorijiy investorlar o’rtasida ishlab chiqarish va sotish munosabatlarini rivojlantirishni hamda savdo logistikasini yaxshilash, ishbilarmonlik muhiti va qulay investitsion muhitni shakllantirishda davlat organlari rolini oshirish kabi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida”gi 598-sonli Qonuni. 25.12.2019y.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag’batlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-4434-sonli Farmoni. 10.04.2012y.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika iqtisodiyotiga to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4300-sonli Qarori. 29.04.2019y.
4. O’zbekiston Respublikasi davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari.
5. http://www.xorazmstat.uz (Xorazm viloyati statistika boshqarmasi).
6. http://www.uzreport.uz (“SAIPRO” axborot-reyting agentligi).
7. http:www.doingbusiness.org.

UO’K 339.5:005.7(075.8)

KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MENEJMENT KONSEPSIYALARINING ROLI

H. Qodirov, mustaqil izlanuvchi, PhD, dots., Namangan davlat texnika universiteti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir bo‘lgan boshqaruv konsepsiyalari xususida so‘z yuritilgan. Xususan, A.Smit, D.Rikardo, P.Krugman, M.Porter singari olimlarning nazariy xulosalari sharhlangan. Eksport boshqaruvi bilan bog‘liq asosiy nazariy yondashuvlar bayon etilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha zaruriy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Samarali menejent, tashqi iqtisodiy faoliyat, globallashuv, eksport, xalqaro marketing, xorijiy investitsiya, xalqaro savdo, xususiy sektor, logistika, tashqi bozor.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются концепции управления, связанные с внешнеэкономической деятельностью предприятий. В частности, комментируются теоретические выводы таких ученых, как А. Смит, Д. Рикардо, П. Кругман, М. Портер. Излагаются основные теоретические подходы, связанные с управлением экспортом. Разработаны необходимые предложения и рекомендации по развитию внешнеэкономической деятельности.*

Ключевые слова: *Эффективный менеджер, внешнеэкономическая деятельность, глобализация, экспорт, международный маркетинг, иностранные инвестиции, международная торговля, частный сектор, логистика, внешний рынок.*

Abstract. *This article analyze management concepts related to foreign economic activity of enterprises. In particular, it comments on the theoretical conclusions of such scientists as A. Smith, D. Ricardo, P. Krugman, M. Porter. The main theoretical approaches related to export management have outlined. Created necessary proposals and recommendations for the development of foreign economic activity.*

- Moliyaviy yordam: SBA kichik biznesga kreditlar uchun kafolat beradi, bu esa tadbirkorlar uchun banklardan moliyalashtirishni olishni osonlashtiradi. SBA 7(a) Loan dasturi kichik biznesga 5 million dollargacha kredit olish imkonini beradi.
- Maslahat va treninglar: SBDC (Small Business Development Centers), WBC (Women's Business Centers), SCORE kabi tashkilotlar orqali tadbirkorlarga marketing, moliyaviy boshqaruv, soliq rejalashtirish, innovatsion menejment bo'yicha bepul maslahatlar va treninglar taqdim etiladi.
- Startaplar va texnologik rivojlanish: AQShda startap ekotizimi nihoyatda rivojlangan. Venchur kapital, inkubatorlar, akseleratorlar va universitet innovatsion markazlari orqali texnologik startaplar rivojlanadi.
- Davlat xaridlari: SBA kichik bizneslar uchun davlat kontraktlarining ma'lum foizini ajratishni kafolatlaydi, bu esa ularning barqaror daromad manbalarini shakllantirishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, AQShda soliq yengilliklari, tadbirkorlikni sug‘urtalash tizimi va biznes yuritishda byurokratiyani minimallashtirish ham kichik biznes rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Germaniya tajribasi. Germaniyada kichik va o‘rta biznes subyektlari - “Mittelstand” — milliy iqtisodiyotning tayanch kuchi hisoblanadi. Ular innovatsion salohiyat, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va kasb-hunar ta’limi bilan uzviy bog‘langanligi bilan ajralib turadi. Germaniya iqtisodiyotining 99 foizdan ortig‘i aynan shu toifadagi bizneslardan tashkil topgan.

“Mittelstand”ni rivojlantirish bo‘yicha asosiy mexanizmlar quyidagilardan iborat:

- KfW Banki orqali kreditlash: KfW (Kreditanstalt für Wiederaufbau) - davlatga qarashli bank bo‘lib, kichik biznes subyektlariga uzoq muddatli, past foizli kreditlar ajratadi. Bu kreditlar ko‘pincha energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik ishlab chiqarish, raqamlashtirishga yo‘naltiriladi.
- Dual ta’lim tizimi: Germaniyada kasb-hunar ta’limi ikki yo‘nalishda - nazariy va amaliyot asosida olib boriladi. O‘quvchilar haftaning bir qismini o‘quv markazlarida, qolgan qismini esa korxonalarda ishlab o‘tkazadilar. Bu esa tadbirkorlik subyektlarini malakali ishchi kuchi bilan ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.
- Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash: Federal va yer hukumati tomonidan texnologik yangiliklar, ilmiy-tadqiqot loyihalari, universitet-klaster hamkorligi orqali kichik biznesni modernizatsiya qilish choralari ko‘riladi.
- Eksportni rag‘batlantirish: Kichik va o‘rta korxonalar eksport salohiyatiga ega bo‘lishi uchun “Germany Trade & Invest” agentligi ularni xorijiy bozorlar haqida axborot, marketing, sertifikatlashtirish va logistika xizmatlari bilan ta’minlaydi.

Germaniyada kichik bizneslar hududiy rivojlanish, aholini band qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda strategik rolga ega.

Yaponiya tajribasi. Yaponiya kichik va o‘rta biznes (SMEs) ni rivojlantirishga strategik yondashuvni taklif etadi. Ushbu davlatda 3,8 milliondan ortiq kichik biznes mavjud bo‘lib, ular ish bilan bandlikning 70% dan ortig‘ini ta’minlaydi. Yaponiya hukumati kichik korxonalarga maxsus huquqiy maqom, moliyaviy yordam va maslahat xizmatlari taqdim etadi.

- SME Agency (SMRJ) kichik korxonalarga texnologik yangilanish, raqamlashtirish, eksportga tayyorgarlik, ilmiy-innovatsion loyihalarni moliyalashtirish sohalarida ko‘maklashadi.
- Monozukuri madaniyati — ya’ni mahsulot sifatiga yuqori e’tibor — kichik korxonalarning bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.
- Klasterlash va innovatsiya hududlari: Yaponiya kichik korxonalarni universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat gigantlari bilan birlashtirgan klasterlar asosida rivojlantiradi. Bu esa ularning texnologik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.
- Xalqaro hamkorlik: Kichik korxonalarni xorijiy bozorga olib chiqish uchun maxsus eksport dasturlari, moliyaviy yordam, sertifikatlash va targ‘ibot xizmatlari ko‘rsatiladi.

Shuningdek, Yaponiya hukumati yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish hamda oilaviy korxonalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha keng qamrovli strategiyalar ishlab chiqqan.

Xorijiy tajriba asosida O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish yo‘llari. O‘zbekiston mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi. So‘nggi yillarda Prezident tashabbusi bilan yuridik va iqtisodiy baza takomillashtirilib, «Yangi O‘zbekiston» konsepsiyasi asosida ushbu sektorga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ammo xorijiy tajribani inobatga olgan holda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanishni jadallashtirish mumkin:

Kafolatlangan moliyalashtirish tizimi yaratish. Germaniyaning KfW banki va AQShning SBA tizimlari asosida O‘zbekistonda davlat kafolatli moliyalashtirish agentligini tashkil etish lozim. Ushbu agentlik orqali kichik korxonalar uzoq muddatli, imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Kredit ta’minoti yo‘qligi sababli o‘z g‘oyalarini amaliyotga joriy eta olmayotgan yoshlar va startaplar uchun bu katta imkoniyat yaratadi.

Startaplarni inkubatsiya va akseleratsiya qilish. AQSh va Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda har bir viloyatda startap markazlari, raqamli texnoparklar, universitet-

inkubatorlar tashkil qilish zarur. Bu markazlarda yoshlar bepul treninglar, grantlar, venchur kapital va maslahat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin bo‘ladi. “Yoshlar daftari” doirasida startap loyihalarga maxsus grantlar ajratilishi maqsadga muvofiqdir.

Dual ta’lim tizimi va malaka tayyorlashni yo‘lga qo‘yish. Germaniyadagi kabi kasb-hunar kollejlari va kichik biznes korxonalari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilishi kerak. Amaliyotga yo‘naltirilgan kasb-hunar o‘quvi natijasida ishlab chiqarishga tayyor ishchi kuchi shakllanadi. Bu nafaqat bandlik darajasini oshiradi, balki biznes faoliyatining samaradorligini ham ko‘taradi.

Eksport salohiyatiga ega kichik bizneslarni rivojlantirish. Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, kichik bizneslarni eksportga tayyorlash bo‘yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilishi zarur. “Made in Uzbekistan” brendi ostida eksport qilish, xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish, marketing xizmatlarida ko‘mak berish, logistika infratuzilmasini kengaytirish kichik biznesning jahon bozoriga chiqishini ta’minlaydi.

Innovatsiyalarni joriy etish va raqamlashtirish. AQShda kichik korxonalar texnologik yangilanish orqali jadal rivojlanmoqda. Shu bois O‘zbekistonda kichik biznesni sun’iy intellekt, elektron tijorat, ERP tizimlar va boshqa zamonaviy yechimlar bilan ta’minlash uchun subsidiya va grantlar berilishi kerak. Bu kichik korxonalarni innovatsion iqtisodiyotga moslashtiradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan yaratilgan institutsional tizimlar, moliyaviy yordam, kadrlar tayyorlash va innovatsion rivojlanish asosiy omillar hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Kichik biznes agentligini tashkil etish, u orqali yuridik, moliyaviy, maslahat xizmatlari va startaplarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish;
2. Kredit kafolat fondini tashkil etish, banklarning kichik biznesga kredit ajratish xavfini kamaytirish;
3. Innovatsion texnoparklar va startap akseleratorlarini rivojlantirish, yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish;
4. Eksportga yo‘naltirilgan kichik korxonalar uchun maxsus dasturlar yaratish, jumladan, logistika, sertifikatlash, marketing sohalarida yordam berish;
5. Kasb-hunar ta’limi tizimini kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirish, dual ta’lim elementlarini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni. – T.: Lex.uz, 2020.
2. Small Business Administration (SBA). Official website – https://www.sba.gov
3. KfW Bankengruppe – Official website: https://www.kfw.de
4. Yusupov, R.X. (2022). Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari. // *Ilm-fan va amaliyot* jurnali, №4.
5. Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan – https://www.mf.uz
6. Statista. (2023). *Number of small businesses in the United States*. – https://www.statista.com

UO’K 33

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

N.I.Saydxodjayeva, katta o‘qituvchi, University of economics and pedogogy NOTM, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi o‘rni, uni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari hamda unga ta’sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *tadbirkorlik muhiti, infratuzilma, soliq yengilliklari, kreditlash tizimi, moliyaviy resurslar, innovatsiyalar, ish o‘rinlari yaratish, bandlik, tashqi omillar, ichki omillar.*

Аннотация. *В статье анализируется роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике, особенности его развития, основные внутренние и внешние факторы, влияющие на него.*

Ключевые слова: *бизнес-среда, инфраструктура, налоговые льготы, система кредитования, финансовые ресурсы, инновации, создание рабочих мест, занятость, внешние факторы, внутренние факторы.*

Abstract. *The article analyzes the role of small businesses and private entrepreneurship in the economy, the features of its development, the main internal and external factors influencing it.*

Keywords: *business environment, infrastructure, tax incentives, credit system, financial resources, innovation, job creation, employment, external factors, internal factors.*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi zamonaviy iqtisodiy tizimda muhim strategik ahamiyat kasb etadigan sohalardan hisoblanadi. Mazkur tushunchalar o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va iqtisodiy rivojlanishning ajralmas bo‘g‘inlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik biznes deganda odatda cheklangan hajmdagi moliyaviy, mehnat va ishlab chiqarish resurslariga ega bo‘lgan, yirik kapital sarmoyasini talab qilmaydigan, ishchilarning soni nisbatan kam bo‘lgan, bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat turi tushuniladi. Bu biznes shakli ko‘proq xizmat ko‘rsatish, savdo, qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarishning ba’zi turlari, shuningdek, turizm va transport sohalarida faoliyat yuritadi.

Xususiy tadbirkorlik esa o‘z navbatida fuqarolarning shaxsiy mulkiga asoslangan holda foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan mustaqil iqtisodiy faoliyatdir. Ushbu faoliyat turida tadbirkor o‘z mol-mulki, kapitali va tashabbusi asosida biznes yuritadi, ishlab chiqarish vositalarini xarid qiladi, xizmatlar ko‘rsatadi yoki tovarlar ishlab chiqaradi. U biznes faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zi mas’ul bo‘ladi va foyda olish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Bu ikki iqtisodiy forma ijtimoiy-iqtisodiy tizimda moslashuvchanlik, barqarorlik va yangilanish imkoniyatlarini oshiradi. Ular iqtisodiyotning “pastdan yuqoriga” o‘sishini ta’minlab, innovatsiyalarni tez joriy qilish, aholini ish bilan ta’minlash, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni saqlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash hamda iqtisodiy suverenitetni mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan biridir.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular uni yirik korxonalardan farqlaydi va alohida iqtisodiy mexanizm sifatida ajratadi.

Moslashuvchanlik. Kichik biznes subyektlari bozor muhitidagi o‘zgarishlarga nisbatan tezkorlik bilan moslasha oladi. Bu ularga talabning o‘zgaruvchanligini kuzatish va unga munosib javob qaytarish imkonini beradi. Masalan, iste’molchilarning ehtiyojlari, moda yoki texnologik yangiliklarga nisbatan kichik korxonalar yirik korxonalarga nisbatan ancha tez javob beradi. Bu esa raqobatbardoshlikni oshiradi.

Kapitalga nisbatan kam talab. Kichik biznesni tashkil qilish uchun yirik moliyaviy sarmoyalar talab etilmaydi. Kam miqdordagi boshlang‘ich kapital bilan faoliyatni yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu esa aholi, ayniqsa yoshlar, ayollar va ishsiz qatlamlar uchun tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkonini kengaytiradi.

Yangi ish o‘rinlari yaratish. Kichik biznes iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini eng ko‘p yaratuvchi sektorlardan biridir. Ular ishchi kuchini tez jalb qilishi, bandlik darajasini oshirishi va shu orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, aholi soni yuqori bo‘lgan va mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan davlatlar uchun bu omil nihoyatda muhim.

Hududiy rivojlanishga hissa qo‘shish. Kichik biznes yirik korxonalar mavjud bo‘lmagan qishloq va chekka hududlarda iqtisodiy faollikni oshiradi. Mahalliy xom-ashyo, ishchi kuchi va iste’molchilarga tayanib faoliyat olib boradigan bu subyektlar infratuzilmaning rivojlanishiga, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining kengayishiga hissa qo‘shadi. Bu esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytiradi.

Innovatsiyalarga ochiqlik. Kichik biznes yangiliklarni tezroq qabul qiladi va joriy etadi. Texnologik yangiliklarni tatbiq qilishda soddaligi, boshqaruvning markazlashtirilmaganligi, tashkilot

tuzilmasining moslashuvchanligi ularning innovatsion salohiyatini oshiradi. Shuningdek, startaplar va yangi texnologiyalar aynan kichik biznes doirasida shakllanadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ular **ichki** va **tashqi** omillarga ajratiladi. Har bir omilning o'ziga xos ta'siri mavjud bo'lib, ularning uyg'unligi muvaffaqiyatli tadbirkorlikni ta'minlaydi.

Ichki omillar

● **Tadbirkorning bilim va ko'nikmalari.** Tadbirkorning kasbiy tayyorgarligi, menejment ko'nikmalari, marketing, moliyaviy savodxonlik darajasi uning faoliyati muvaffaqiyatida muhim ahamiyatga ega.

● **Moliyaviy resurslar mavjudligi.** Boshlang'ich kapitalning mavjudligi, zarur moliyaviy vositalarga kirish imkoniyati va foydani qayta investitsiya qilish imkoniyatlari korxonaning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

● **Boshqaruv sifati.** Kompaniyada to'g'ri boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilishi, strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish mexanizmlarining mavjudligi korxonaning barqarorligini ta'minlaydi.

● **Ishchilar malakasi.** Malakali va tajribali ishchi kuchining mavjudligi ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tashqi omillar

● **Davlat siyosati va qonunchilik bazasi.** Qonunchilikdagi aniqlik, davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari, byurokratik to'siqlarning mavjudligi yoki yo'qligi bevosita ta'sir ko'rsatadi.

● **Bank-kredit tizimining rivojlanganligi.** Banklarning kreditlash siyosati, foiz stavkalari, imtiyozli kreditlar va grant dasturlarining mavjudligi kichik biznes uchun hayotiy ahamiyatga ega.

● **Soliq yengilliklari.** Soliq stavkalarining pastligi, soliq to'lashdagi soddalik va shaffoflik tadbirkorlarning qonuniy faoliyat yuritishini rag'batlantiradi.

● **Raqobat muhiti.** Sog'lom raqobat muhitining mavjudligi, bozordagi ochiqlik va erkinlik innovatsiyalarni rivojlantiradi, korxonalarning sifat va narx siyosatini takomillashtirishga olib keladi.

Infratuzilmaning holati. Transport, aloqa, logistika, axborot texnologiyalari kabi infratuzilma tarmoqlari rivojlanmagan hududlarda tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish qiyin kechadi.

Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov choralari. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu choralarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Imtiyozli kreditlar ajratish. Markaziy bank, tijorat banklari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda kichik biznes subyektlariga imtiyozli shartlarda kreditlar ajratish mexanizmlari joriy etilgan. Ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar va kam ta'minlangan oilalar vakillari uchun alohida kredit liniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Soliq stavkalarini pasaytirish. Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq tizimi joriy qilingan. Qator toifadagi tadbirkorlar uchun yagona soliq stavkalari belgilangan bo'lib, bu ularning soliq yukini kamaytiradi. Shuningdek, yangi tashkil etilgan korxonalar uchun dastlabki yillarda soliq imtiyozlari taqdim etiladi.

Yuridik yordam va maslahat xizmatlari. "Yagona darcha" tizimi orqali ro'yxatdan o'tish, litsenziyalar olish, yuridik va moliyaviy masalalar bo'yicha onlayn va oflayn maslahatlar taqdim etilmoqda. Bu esa byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Inkubator va klaster tizimlari. Yoshlar startaplari, ayollar tadbirkorligi, agrobiznes va sanoat sohalarida tadbirkorlik inkubatorlari va klasterlari tashkil etilgan. Bu yerda yangi bizneslar uchun ofis joylari, texnik vositalar, konsalting xizmatlari va moliyaviy ko'maklar mavjud.

Raqamli xizmatlar orqali soddalashtirish. Elektron hukumat, onlayn ro'yxatga olish, soliq deklaratsiyasini topshirish va boshqa xizmatlar orqali biznes yuritish soddalashtirilmoqda. Xususan, "my.gov.uz" platformasi orqali ko'plab davlat xizmatlari elektron shaklda taqdim etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining barqaror va izchil rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Bu

sohaning yuksalishi orqali davlat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi, aholi farovonligi va mamlakatning global raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Shunday ekan, mazkur yo'nalishdagi islohotlar va qo'llab-quvvatlash choralarini davom ettirish, yangi strategiyalarni ishlab chiqish va ularga jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2021.

2. Yusupov A. Kichik biznes va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik. // Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali, 2023, №1.

3. UNDP Uzbekistan. *Small and Medium Business Development in Uzbekistan: Challenges and Opportunities*. – Tashkent: UNDP, 2021.

4. Bekmurodov S. Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

5. Azizov M. Mahalliy infratuzilmaning kichik biznesga ta'siri. // Innovatsion rivojlanish jurnali, 2023, №3.

6. Xalilova N. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlari. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2022.

7. Toshmatova G. Hududiy iqtisodiyotda kichik biznesning roli. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

8. Tursunov B.O. Kichik biznesni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikning o'rni. // "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2023, №2.

UDC 336.71.

THE IMPACT OF BANK TRANSFORMATION ON THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S BANKING SYSTEM

N.Dj.Sharipova, teacher, Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand

Annotatsiya. *Bank sohasidagi transformatsiya – bu banklarning faoliyatini zamonaviy texnologiyalar, mijozlar ehtiyojlari va bozor sharoitlariga moslashtirish orqali tubdan o'zgartirish jarayonidir. Ushbu jarayon bank tizimining barcha jihatlarini o'z ichiga oladi: raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish usullarini yangilash, ichki jarayonlarni avtomatlashtirish hamda tashkilot tuzilmasini qayta ko'rib chiqish. Transformatsiyaning asosiy maqsadi banklarni yanada samarali, moslashuvchan va raqobatbardosh qilishdan iborat. Mazkur maqolada bank transformatsiyasining mamlakat bank tizimi rivojlanishiga ta'siri bo'yicha tahlil va mulohazalar qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bank transformatsiyasi, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy texnologiyalar, bank tizimi rivoji, O'zbekistonda bank islohoti, moliyaviy inklyuziya, raqamli transformatsiya.*

Аннотация. *Трансформация банков — это процесс радикальных изменений в банковской сфере, направленный на адаптацию деятельности банков к современным технологиям, потребностям клиентов и рыночным условиям. Этот процесс охватывает все аспекты банковской системы: внедрение цифровых технологий, обновление методов обслуживания, автоматизацию внутренних процессов и пересмотр организационной структуры. Основная цель трансформации — сделать банки более эффективными, гибкими и конкурентоспособными. В статье представлены анализ и мнение о влиянии банковской трансформации на развитие банковской системы страны.*

Ключевые слова: *банковская трансформация, цифровые банковские услуги, финансовые технологии, развитие банковской системы, банковская реформа Узбекистана, финансовая инклюзия, цифровая трансформация.*

Abstract. *Banking Transformation is the process of radical transformation of banks by adapting their activities to modern technologies, customer needs and market conditions. This process covers all aspects of the banking system: the introduction of digital technologies, the updating of service methods, the automation of internal processes and the revision of the structure of the organization. The main goal of transformation is to make banks more efficient, more flexible and more competitive. This article will provide feedback and feedback on the impact of banking transformation on the development of the country's banking system.*

Keywords: *banking transformation, digital banking services, financial technology, banking system development, banking reform of Uzbekistan, financial inclusion, digital transformation.*

Banking transformation plays an important role in the development of the country's banking system. Transformation refers to the process of changing, improving the internal structure of banks, the management system, financial stability and quality of service in accordance with modern requirements. This process is often aimed at liberalizing the economy, increasing competition in financial markets, and adapting to international standards.

Banking transformation is the process by which banks radically change their activities by adapting them to modern technologies, customer needs and market conditions. This process covers all aspects of the banking system: the introduction of digital technologies, the updating of service methods, the automation of internal processes and the revision of the structure of the organization. The main goal of transformation is to make banks more efficient, more flexible and more competitive.

Bank transformation is carried out in several stages. Initially, banks provide customer convenience by digitizing existing services and products. At this stage, mobile applications, online banking and other digital services will be introduced. In the next step, however, banks use advanced technologies such as artificial intelligence, blockchain, and big data analysis to improve quality of Service and create new products. This will strengthen the innovative potential of banks.

In the process of transformation, banks also revise their internal processes. With automation and digital systems, operating costs are reduced, the number of errors is reduced, and productivity increases. This allows banks to provide faster and more efficient services. Improving customer relations is also an important aspect of transformation. With the help of digital technologies, banks provide an individual approach to customers, identify their needs and offer suitable services. This increases customer satisfaction and strengthens their commitment to the bank.

Bank Transformation not only changes internal processes and customer relationships, but also affects the entire financial ecosystem. With the help of digital technologies, banks penetrate new market segments, provide financial inclusion and contribute to economic growth. Digital transformation is changing the way businesses operate and interact with customers. Across various industries, companies are adopting new technologies to drive innovation and enhance the customer experience.

For instance, the retail sector has embraced online shopping and mobile commerce, integrating technologies such as AI, Big Data, and IoT to provide personalized shopping experiences and optimized supply chains. The healthcare industry has also undergone significant change, with the widespread use of electronic health records, telemedicine, and wearable devices, allowing healthcare providers to offer more accessible and personalized patient care. Meanwhile, the transportation industry has been disrupted by ride-sharing companies, and the rise of electric vehicles has introduced new business models and technologies like battery-swinging and vehicle-to-grid integration.

Improving customer relations is also an important aspect of transformation. With the help of digital technologies, banks provide an individual approach to customers, identify their needs and offer suitable services. This increases customer satisfaction and strengthens their commitment to the bank. Bank Transformation not only changes internal processes and customer relationships, but also affects the entire financial ecosystem. With the help of digital technologies, banks penetrate new market segments, provide financial inclusion and contribute to economic growth.

Technologies current driving digital banking transformation initiatives include:

Artificial Intelligence (AI) and Machine Learning (ML) enable banks to analyze vast amounts of data to uncover patterns. This allows the system to automate routine tasks to deliver personalized banking experiences through tailored financial advice and product recommendations. AI and ML enhancement data analytics capabilities, helping banks predict market trends and assess risks.

Internet of Things(IoT) technology facilitates instant, secure contactless payments through connected devices, enabling real-time account management and enhancing risk management with advanced authorization processes. It allows customers to make instant contactless payments and interact with their accounts in a mobile banking capacity.

Cloud computing provides on-demand access to computing resources, reducing the need for extensive on-premises infrastructure and associated costs. It enhances operational efficiency with scalable, flexible infrastructure that supports rapid deployment of new applications and services.

APIs enable seamless integration of data and services between different software applications. This enhances functionality like real-time payment processing and account management to foster innovation and collaboration within fintech companies.

More than anything, digital transformation is essential because banking customers want digital banking services. Recent surveys from the American Bankers Association show that U.S. consumers are conducting their banking through digital banking channels more than any other method.

That trend will continue as Gen Z (68%) and millennials (74%) prefer mobile or online banking services. Additionally, 42% of banking customers ages 18-24 say they're either very likely or sometimes likely to use an online-only bank for their primary bank account.

As a result of Banking Transformation, first of all, the capital base of banks is strengthened. Strong capital allows banks to allocate more credit to the economy, which is an important factor for financing the real sector and promoting economic growth. In the process of transformation, the risk management system of banks is also improved. Accurate risk assessment and control, strict monitoring of asset quality increase the stability and reliability of the banking system.

In conclusion, Banking Transformation not only modernizes the activities of banks themselves, but also increases the competitiveness of the entire banking system, contributes to macroeconomic stability and becomes a key factor in stimulating economic growth in the long run. Therefore, for each country, in particular Uzbekistan, bank transformation is of strategic importance, and it should be considered as a continuous development process. Banking transformation is the process of radically changing the functioning of banks with the help of modern technologies and innovations. This process allows banks to remain competitive, provide high-quality customer service, and contribute to economic growth.

REFERENCES:

1. Ikromov, S., & Alimova, M. (2024). Modernization and Transformation of Uzbekistan's Banking Sector. European Journal of Management, Economics and Business, 1(3), 238–251. DOI: 10.59324/ejmeb.2024.1(3).21

2. Khudayarova, K. A. (2023). Digital Transformation of Commercial Banks in the Practice of Uzbekistan. Zeta Repository, 20, 94–99. Link

3. Qobulova, S. K. (2025). The Process of Transformation of the Banking System and Its Impact on the Stability of Banks. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 6(2), 41–45. Link

4. Sharipova Nigina Djurakulovna. (2025). Analysis of the obligations of a commercial bank. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(03), 220–222.

5. Sharipova Nigina Jo`rakulovna. (2025). Analysis of assets and liabilities of a commercial bank. Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences, 155–156.

6. Шарипова Н.Д. Валютная политика центрального банка Республики Узбекистан. (2025). Journal of Uzbekistan's Development and Research, 248-251

UO'K: 33.2964

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI VOSITASIDA KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

D.R. Sharopov, mustaqil tadqiqodchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

Annatatsiya. *Ushbu maqolada mahalliy budjet daromadlarini oshirishda soliq ma'muriyatchiligi vositasida ko'chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari, soliqlarni yig''ish jarayonida shaffoflik, qonunchilikka rioya qilish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan*

Kalit so'zlar: *soliq ma'muriyatchiligi, ko'chmas mulk, bozor qiymati, soliqlar, soliq to'lovchilar.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются пути совершенствования механизма налогообложения недвижимости посредством налогового администрирования с целью увеличения доходов местного бюджета. Особое внимание уделяется обеспечению*

прозрачности, соблюдению законодательства и повышению эффективности процесса сбора налогов.

Ключевые слова: *налоговое администрирование, недвижимость, рыночная стоимость, налоги, налогоплательщики.*

Abstract. *This article explores ways to improve the real estate taxation mechanism through tax administration to increase local budget revenues. Special attention is given to ensuring transparency, compliance with legislation, and enhancing the efficiency of the tax collection process.*

Key words: *tax administration, real estate, market value, taxes, taxpayers.*

Kirish. Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning barqarorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘chmas mulkka soliq solish mahalliy budjet daromadlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ko‘chmas mulkni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlarini oshirish dolzarb masaladir.

Mahalliy budjet daromadlarini oshirish va soliqqa tortishii soddalashtirish maqsadida, ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish masalasi bir qancha olimlar tomonidan ham e’tirof etilgan. Xususan,

Yu.D. Shmeleva va R.I. Margulislar ham yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan yashash uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulklarni soliqqa tortish ko‘p muammolarni keltirib chiqarish mumkinligi, shuningdek yagona ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilishda uning soliq solinadigan bazasini aniklash va soliq stavkasini belgilash asosiy masala ekanligini ta’qidlashgan.

Shuningdek, Rossiya Fedaresiyasining iqtisodchi olimlari I.V.Gorskiy na M.Yu.Beryozinlar ham amaliyotga yagona ko‘chmas mulk soligini joriy qilishda ektiyotkorlik bilan va puxta hisob-kitoblar asosida o‘tish kerakligini ta’kidlashgan.

Professor B.X.Aliev va X.M.Musaevalarning ta’kidlashicha mol- mulk va yer solig‘i birlashtirib, o‘rniga yagona ko‘chmas-mulk soligiga bir necha yillar davomida boskichma-bosqich o‘tish lozimligi haqida fikr bildirib, mualliflar tomonidan ko‘chmas-mulk solig‘ini joriy qilishda quyidagi muammolarni bartaraf etish mumkinligini aytishgan:

- soliq ob’ekti va soliq bazasini bozor narxida belgilash;
- davlat ko‘chmas mulk kadastrini joriy qilish;
- ko‘chmas mulkni hisobga olish va kadastr faoliyatini tashkil qilish;
- ko‘chmas mulklar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarning bazasini shakllantirish;
- ko‘chmas mulklarni soliqqa tortish va soliq stavkasini qo‘llashda uning bahosini belgilash;
- fuqarolarning ko‘chmas mulk solig‘ini to‘lashga tayyor emasligi va soliq yukining oshib ketishi natijasida solikdan qarzdor bo‘lib qolish imkoniyatining yuqoriligi;
- kadastr organlari tmonidan ko‘chmas mulkni bozor bahosida baholash bo‘yicha normativ-huquqiy xujjatlarning yo‘qligi va baholash bo‘yicha yagona metodika ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar ko‘rsatilgan.

Professor B.X.Aliev tomonidan ko‘chmas-mulk solig‘ining joriy qilinishi bir qancha ijobiy tomonlari ham borligi e’tirof etilgan:

- mulkiy soliqlar soning qisqarishi natijasida, soliqqa tortish soddalashtiriladi va unifikatsiya qilinadi;
- mahalliy soliqlarni undirish xarajatlari kamayadi va solik yig‘iluvchanligi oshadi;

mahalliy budjet daromadlarining soliq bazasi kengayadi va soliq, ma’muriyatchiligi samaradorligi oshadi;

B.X.Aliev soliq masuliyatini oshirish to‘lovchilarning soliq, madaniyatini va mas’uliyatini oshirish maqsadida, ko‘chmas mulklarni belgilangan muddatlarda ro‘yxatdan o‘tkazmaslik va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan mulk egalariga qonunchilikka binoan javobgarlik (ma’muriy va jinoiy) masalasini kiritish kerakligi ta’kidlangan.

Rossiyalik olimlardan I.A. Drojjina o‘zining tadkikotlarida jismoniy shaxslarning mol-mulk, yer va korxona va tashkilotlarning mol- mulklaridan olinadigan, soliqlarni birlashtirib, ko‘chmas mulk solig‘i joriy etishni taklif qilgan.

Ye.V.Mixina o‘zining qarashlarida ko‘chmas mulk solig‘ini joriy qilishning mahalliy budjet daromadlari bazasiga ta’sirini tahlil klib, tegishli tavsiyalarni bergan.

T.A.Loginova o‘zining ilmiy qarashlarida ko‘chmas mulkni joriy kilish va uni amaliyotga tatbiq qilishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd qilib o‘tgan.

Iqtisodchi I.M.Niyazmetov O‘zbekistonda mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning muntazam va ishonchli soliq solish bazasini shakllantirish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish hamda umumbelgilangan soliq rejimini yanada ixchamlashtirish maqsadida, ml-mulk va yer soliqlarini birlashtirib, bosqichma-bosqich ko‘chmas mulk solig‘iga o‘tish taklifini bergan.

O‘zbekistonda mahalliy budjetlar daromadlari turli soliqlar hisobiga shakllanadi. 2024 yilda davlat budjeti daromadlari 212 643 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, mahalliy budjet daromadlari 58 060 mlrd so‘mni yoki 27,3 foizni tashkil qiladi.

Ko‘chmas mulkka soliq solish tizimida quyidagi muammolar mavjud:

Kadastr qiymatining bozor qiymatiga mos kelmasligi: 2020-yilda qabul qilingan qarorga ko‘ra, 2021-yildan boshlab ko‘chmas mulk ob’ektlarining kadastr qiymati bozor qiymatiga yaqinlashtirilishi belgilangan.

Ma’lumotlar bazasining to‘liq emasligi: Ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reestri mavjud bo‘lsa-da, ma’lumotlarning to‘liqligi va aniqligi masalalari saqlanib qolmoqda.

Soliq ma’muriyatchiligida elektron texnologiyalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi: Soliq organlari tomonidan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha hisobotlarni avtomatik shakllantirish 2024-yildan boshlab joriy etilgan bo‘lsa-da, bu jarayonni to‘liq avtomatlashtirishga ehtiyoj mavjud.

Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy yondashuvlar

Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ko‘chmas mulkni soliqqa tortishni takomillashtirish mumkin:

Elektron ma’lumotlar bazasini yaratish va integratsiya qilish: Ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reestrini yangilash va boshqa davlat organlari ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish orqali ma’lumotlarning aniqligi va to‘liqligini ta’minlash mumkin.

Geografik axborot tizimlaridan (GAT) foydalanish: GAT orqali ko‘chmas mulk ob’ektlarining joylashuvi va hajmini aniqlash, shuningdek, ularning kadastr qiymatini hisoblashda samaradorlikka erishish mumkin.

Soliq stavkalarini gradatsiya qilish: Ko‘chmas mulk turlari va ularning qiymatiga qarab soliq stavkalarini differensiatsiya qilish orqali soliq tushumlarini oshirish mumkin.

Ko‘chmas mulk soliqlarini baholash tizimini takomillashtirish

Ko‘chmas mulk ob’ektlarining kadastr qiymatini bozor qiymatiga yaqinlashtirish maqsadida quyidagi choralarni ko‘rish zarur:

Bozor qiymatini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish: Ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda, ko‘chmas mulk ob’ektlarining bozor qiymatini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish.

Kadastr qiymatini yangilash: Mavjud kadastr qiymatlarini bozor qiymatiga yaqinlashtirish maqsadida ularni muntazam ravishda yangilab borish.

Soliq yukini optimallashtirish: Soliq yukining keskin oshishini oldini olish maqsadida, soliq stavkalarini bosqichma-bosqich oshirish yoki kamaytirish mexanizmlarini joriy etish.

Xalqaro tajriba va O‘zbekistonga moslashtirish: Xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish mumkin.

AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasi: Ko‘chmas mulk ob’ektlarining bozor qiymatini aniqlashda avtomatlashtirilgan baholash modellaridan foydalanish tajribasini o‘rganish.

Singapur tajribasi: Ko‘chmas mulkka soliq solishda elektron hukumat tizimlaridan foydalanish orqali soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish va shaffofligini ta’minlash.

Taklif va tavsiyalar

Raqamli texnologiyalarni joriy etish: Ko‘chmas mulkka soliq solish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, elektron ma’lumotlar bazalarini yaratish va ularni integratsiya qilish.

Soliq to‘lovchilarni xabardor qilish: Soliq to‘lovchilarni ko‘chmas mulkka soliq solish tartibi va ularning majburiyatlari haqida xabardor qilish.

Bugungi kunda respublikada mulklarning kadastr qiymatini bozor narxlarida belgilash vakolatiga ega bo‘lgan vakolatli Davlat organi mavjud emasligi, shuningdek mavjud normativ-huquqiy hujjatlarda mulkning kadastr qiymati tushunchasi mustahkam belgilab qo‘yilmaganligini kuzatish mumkin.

Ko‘chmas mulk bozori va kadastr baholash sohasida me’yoriy jihatdan tartibga keltirish soxasida vakolatga ega boshqaruv tashkilotini tasdiqlash va hozirda qo‘llanilib kelinayotgan ob’ektlarning kadastr narxlarini hozirga jarayondagi bozor qiymatiga yaqinlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi qiriq ikki million so‘mdan kam bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Mulkning qiymati mabodo 42 mln so‘mdan kam bo‘lsa, soliq 42 mln. so‘mdan kelib chiqib hisoblanadi.

Mamlakatimizda yerlardan samarali foydalanish, hisobini yuritish, ularga narx belgilashda zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash shuningdek, hududiy hokimiyatlar budjetlari barqarorligini ta’minlash borasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoniga ko‘ra, quyidagilar belgilangan:

- mol-mulk va yer soliqlarini hisoblashda, ko‘chmas mulk ob’ektlarining qiymatini bozor bahosiga yaqin kadastr bahosi bo‘yicha hisoblash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

- ko‘chmas mulklarga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarini hisoblashda ularning bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini ikki etapda amaliyotga kiritish:

birinchi bosqichda (2021-2023 yillar)-ko‘chmas mulk bo‘lgan turar-joy fondi ob’ektlari (kvartira, yakka tartibdagi uy-joylar, dala-hovli), shuningdek, ushbu ob’ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan;

ikkinchi bosqichda (2022-2024 yillar) - yashash uchun mo‘ljallanmagan alohida ko‘chmas mulk ob’ektlari, shuningdek, ushbu ob’ektlar egallagan yer uchastkalariga nisbatan bozor bahosiga yaqin bo‘lgan kadastr qiymati belgilanadi.

Ma’lumki, global inqiroz va pandemiya tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy faoliyatiga va aholining real daromadlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlarga soliqlarni qulay bo‘lgan muddatda to‘lash imkoniyatini yaratish, qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliq, imtiyozlari berilgan.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 99-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari aylanmadan olinadigan soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer soliqlariga nisbatan to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ikki yilgacha muddatga berilishi mumkinligi berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan yerlardan hujjatlarda ko‘rsatilgandan kattaroq yoki tegishli hujjatlarsiz foydalanilganda, aholining uy-joy qurishi uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismidan samarali foydalanilmaganligi, obodonlashtirilmaganligi yoki qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekmaganlik uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha oshirilgan stavkalar qo‘llanilishi belgilangan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida meros qilib olingan yoki hadya tarzida fuqarolarning mulkiga o‘tgan mol-mulk qiymatiga soliq solish Soliq kodeksi va boshqa normativ huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida meros va hadya soliqlarini joriy qilish uchun mexanizm yaratilgan, jumladan, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirish, soliq tushumlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olish maqsadida, soliq to‘lovchilar majburiyatlarining paydo bo‘lishi (to‘xtatilishi) bo‘yicha vazirliklar va idoralarning ma’lumotlar bazasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar yagona axborot bazasiga integratsiyalashtirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik sub’ekti bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi soliq organiga ushbu shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reestridan ko‘chirmani, rahbar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini va uning pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma’lumotlarni topshirishi shartligi hamda mazkur organlar soliq organiga davlat reestriga kiritilgan va tegishli shaxslarga taalluqli bo‘lgan har qanday o‘zgartirishlar to‘g‘risida bunday o‘zgartirishlar kiritilgan kundan e’tiboran uch kundan kechiktirmay ma’lum qilishi shartligi belgilangan.

Xulosa qilganda yuridik shaxslarning elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari, magistral neft va gaz kuvurlari, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, samolyotlarning uchish-ko‘nish maydonnari, konservatsiyaga qabul qilingan ob’ektlar egallagan yerlarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining pasaytirilgan soliq stavkasining qo‘llanishi natijasida budjetga tushumlar ortishiga erishilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda ko‘chmas mulk solig‘ining ob’ektiga yer, bino, yer va bino birgalikda, yer va bino alohida belgilangan bo‘lib, soliq bazasi bozor qiymatiga asoslangan tizim orqali hisoblanadi. Ushbu tizimning asosiy muammosi shundaki, soliq bazasini aniqlashda baholash va ma’lumotlarni yangilash uchun ko‘p xarajat talab etiladi. Shuning uchun amaliyotda ko‘chmas mulkni undirish samarasi qayta baholash davriga bog‘liq bo‘lib, uning davri qisqa bo‘lishi maksadga muvofiqdir. Yevropa mamlakatlarida mulkni qayta baholash davri uch yildan o‘n yilgacha belgilangan.

O‘rganilgan xorijiy davlatlarda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i uning egaligidagi ko‘chmas mulkning adolatli bozor qiymatidan yoki shu qiymatga yaqin bo‘lgan shartli qiymatlardan hisoblab chiqariladi.

Ko‘chmas mulkning bozor qiymatini aniqlashda yuzdan ortiq mezonlardan foydalaniladi, bunda ob’ektning tafsilotlarini o‘z ichiga olgan maxsus ma’lumot, ob’ekt qurilgan davlat, hudud haqidagi barcha axborotlar yig‘ilib qiymati belgilanadi.

Davlat va xududiy budjetlar daromadlarini oshirishda qo‘shimcha zaxiralarini aniqlashda manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish kerak.

Mol-mulk va yer soliqlarini hisoblashda ko‘chmas mulk ob’ektlarini bozor qiymatiga yaqin bo‘lgan kadastr narxi asosida hisoblashni ma’lum bosqichlarda joriy etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Алиев Б.Х. О проблемах и преспиктивах введения налога на недвижимоять в Российской Федерации // Налогообложение. 2012.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi «Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4389 sonli qarori.

3. Шмелева Ю.Д., Маргулис Р.И. О новый концепции налога на недвижимость фактических лиц и механизм ее реализации // Финансы. 2012.

4. Горский И. В. Налог на недвижимость: за и против // Финансы. 2012

5. Ногина О.А. Налоговый контроль: вопросы теории. — СПб.: Питер, 2002.

6.Дрожжина И.А. Формировани систем налогообложени объектов недвижимости на основе дифференцированног подхода. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферatя- 0.2005.- 6.12. 13 Михина Е.В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган динс, автореферати-М-2005.

7. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси.

UO’K 62.21474

AVTOSERVIS XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH AMALIYOTI

D.H. Shaymardonova, o‘qituvchi, Nukus innovatsion instituti, Nukus

Annotatsiya. *Avtoservis xizmatlari zamonaviy jamiyatda muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda avtomobillar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat transport vositasi, balki odamlarning kundalik faoliyatida qulaylik yaratuvchi elementlardir. Shu bois, avtoservis xizmatlari sifatini oshirish va ularni rivojlantirish har bir mamlakat uchun dolzarb masala hisoblanadi.*

Xususan, O‘zbekiston uchun ham bu soha rivojlanishi zarur, chunki avtomobil egalarining talab va ehtiyojlari doimo o‘zgarib bormoqda. Ushbu maqolada avtoservis xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *avtoservis xizmatlari, ilg‘or tajribalar, talab, takliflar, xizmat ko‘rsatish, innovatsion yondashuvlar, avtomatlashtirish.*

Аннотация. *Услуги автосервиса занимают важное место в современном обществе. Сегодня автомобили стали неотъемлемой частью нашей жизни. Они являются не только средством передвижения, но и элементами, создающими удобства в повседневной деятельности людей. Поэтому повышение качества услуг автосервиса и их развитие является актуальным вопросом для каждой страны. В частности, это направление необходимо развивать для Узбекистана, поскольку запросы и потребности автовладельцев постоянно меняются. В данной статье представлена информация о зарубежном опыте развития услуг автосервиса и возможностях его применения в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *услуги автосервиса, передовой опыт, спрос, предложения, сервис, инновационные подходы, автоматизация.*

Abstract. *Car service services occupy an important place in modern society. Today, cars have become an integral part of our lives. They are not only a means of transportation, but also elements that create convenience in people's daily activities. Therefore, improving the quality of car service services and their development is an urgent issue for every country. In particular, this area needs to be developed for Uzbekistan, because the demands and needs of car owners are constantly changing. This article provides information on foreign experiences in the development of car service services and the possibilities of their application in the conditions of Uzbekistan.*

Key words: *car service services, best practices, demand, offers, service, innovative approaches, automation.*

Kirish. Avtoservis sohasida ilg‘or tajribalar va innovatsion yondashuvlar zamonaviy avtotransport xizmatlarining asosiy poydevorini tashkil etadi. Bugungi kunda avtomobillar nafaqat transport vositasi, balki insonlarning hayotida muhim rol o‘ynovchi qulaylik va xavfsizlikni ta'minlovchi elementlardir. Shu sababli, avtoservislar mijozlarga sifatli va samarali xizmat ko‘rsatish uchun yangi usullarni joriy etishga intilishmoqda. Dunyo bo‘ylab avtoservis sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklar va ilg‘or tajribalar, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Avtoservislar zamonaviy texnologiyalarni, masofaviy xizmatlarni va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali o‘z faoliyatlarini yanada samarali va qulay qilishga harakat qilmoqdalar. Bunday yondashuvlar nafaqat avtoservislarning ichki jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi, balki mijozlar bilan aloqani mustahkamlash va ularning ishonchini qozonishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Avtoservis xizmatlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatish sohasida xorijiy tajribalar O‘zbekiston uchun qimmatli manba hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida avtoservis xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonlik olimlardan biri, Abdurahmonovning "Avtoservis xizmatlari: muammolar va yechimlar" asarida avtoservis sohasidagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida batafsil ma'lumot berilgan. U, avtoservis xizmatlarining sifatini oshirish uchun xorijiy tajribalarni o‘rganish zarurligini ta'kidlaydi. Abdurahmonov, ayniqsa, Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi avtoservis tizimlarining samaradorligini misol qilib keltiradi va ularni O‘zbekistonda qanday joriy etish mumkinligini o‘rganadi.[1] Shuningdek, Islomovning "Zamonaviy avtoservis xizmatlari: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari" asarida avtoservis sohasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, masofaviy xizmatlar va raqamli yechimlar haqida ma'lumot beriladi. Islomov, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali O‘zbekiston avtoservislarining raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. U, shuningdek, mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish zarurligini ham ko‘rsatadi.[2]

Yunusovning "Avtoservis sohasida xizmat koʻrsatish sifatini oshirish" asarida, avtoservis xizmatlarida sifatni ta'minlash va mijozlar bilan aloqani mustahkamlash boʻyicha xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Yunusov, xorijda muvaffaqiyatli qoʻllanilayotgan xizmat koʻrsatish standartlari va metodologiyalarini Oʻzbekistonda joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.[3] Ushbu tadqiqotlar Oʻzbekiston sharoitida avtoservis xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni oʻrganish va ularni amaliyotga joriy etish boʻyicha yoʻl xaritasini ishlab chiqishga yordam beradi. Xorijiy tajribalar, avtoservislar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va xizmat koʻrsatish sifatini oshirishga yordam beradi. Oʻzbekiston avtoservislari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mijozlar ehtiyojlariga javob berish orqali raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Avtoservisda ilgʻor tajribalarni qoʻllash, xizmat koʻrsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali, avtoservislar oʻz mijozlariga tez va sifatli xizmat koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladilar. Bu esa, oʻz navbatida, xizmat koʻrsatish vaqtini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlar qoniqishini oshirishga olib keladi. Shu bois, avtoservis sohasida ilgʻor tajribalarni oʻrganish va ulardan foydalanish, nafaqat avtoservislar uchun, balki butun avtomobil sanoati uchun muhim vazifadir. Oʻzbekiston sharoitida ham avtoservis xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni oʻrganish va ularni amaliyotga joriy etish zarur. Mamlakatimizda avtomobil egalarining talab va ehtiyojlari oʻsib bormoqda, shuning uchun avtoservislar oʻz xizmatlarini yangilash va sifatini oshirishga intilishlari lozim. Ilgʻor tajribalarni oʻrganish va ularni Oʻzbekiston sharoitida qoʻllash, avtoservislar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va xizmat koʻrsatish sifatini yanada yaxshilashga yordam beradi.[4]

Dunyoning koʻplab davlatlarida avtoservis xizmatlari rivojlangan va ular oʻz mijozlariga sifatli xizmat koʻrsatish uchun turli yondashuvlar va innovatsion yechimlar ishlab chiqqan. Masalan, Yevropada avtoservislar koʻpincha mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Ular avtomobilni diagnostika qilish va ta'mirlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun kompyuter tizimlaridan foydalanadilar. Bu esa xizmat koʻrsatish vaqtini qisqartiradi va mijozlarga yanada sifatli xizmat taqdim etishga imkon beradi. Shuningdek, AQShda avtoservislar koʻpincha mijozlar bilan aloqani yaxshilash uchun onlayn xizmatlarni joriy etgan. Mijozlar internet orqali avtoservisga yozilish, xizmatlar haqida ma'lumot olish va hatto toʻlovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu yondashuv mijozlarga qulaylik yaratadi va avtoservislar uchun yangi mijozlar jalb qilishda samarali boʻladi. Bundan tashqari, Osiyo mamlakatlarida, masalan, Janubiy Koreyada avtoservislar xizmat koʻrsatish sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishga e'tibor berishadi. Ular avtoservis xodimlarining malakasini oshirish uchun turli kurslar va treninglar tashkil etadilar. Bu esa xizmat koʻrsatish sifatini oshirishga va mijozlar ishonchini qozonishga yordam beradi.[5]

Oʻzbekiston sharoitida avtoservis xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni qoʻllash imkoniyatlari mavjud. Avvalo, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur. Avtoservislar diagnostika va ta'mirlash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun zamonaviy uskunalar va dasturlarni sotib olishlari kerak. Bu esa xizmat koʻrsatish sifatini oshirish va mijozlarga qulaylik yaratish imkonini beradi. Shuningdek, Oʻzbekistonda avtoservislar onlayn xizmatlarni joriy etish orqali mijozlar bilan aloqani yaxshilashlari kerak. Internet orqali yozilish, xizmatlar haqida ma'lumot olish va toʻlovlarni amalga oshirish imkoniyatlari mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Buning uchun avtoservislar oʻz veb-saytlarini yaratishlari va ijtimoiy tarmoqlarda faol boʻlishlari zarur. Xodimlarning malakasini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekiston avtoservislarida xodimlar uchun treninglar va kurslar tashkil etish orqali ularning malakasini oshirish kerak. Bu, oʻz navbatida, xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilaydi va mijozlar ishonchini qozonishga yordam beradi.[6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, avtoservis xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribalari Oʻzbekiston sharoitida qoʻllanilishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, onlayn xizmatlarni taklif qilish, xodimlarning malakasini oshirish, davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish orqali Oʻzbekistonda avtoservis xizmatlari sifatini oshirish va ularni rivojlantirish mumkin. Bu esa nafaqat avtomobil egalarining ehtiyojlarini qondirish, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Avtoservis

sohasida amalga oshirilgan harakatlar O‘zbekistonning avtomobil sanoatini yanada rivojlantirishga va xalqaro bozor talablariga javob berishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov, A. (2021). Avtoservis xizmatlari: muammolar va yechimlar. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
2. Islomov, I. (2020). Zamonaviy avtoservis xizmatlari: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. Tashkent: O‘zbekiston Davlat Texnika Universiteti.
3. Yunusov, M. (2022). Avtoservis sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi.
4. Rahmonov, S. (2023). Avtomobil xizmatlari bozorida raqobat va rivojlanish strategiyalari. Tashkent: O‘zbekiston Iqtisodiyot Universiteti.
5. Qodirov, D. (2021). Avtoservis xizmatlarida mijozlar ehtiyojlarini qondirish. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Savdo-Sanoat Palatasi.
6. Murodov, E. (2022). Avtoservis sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
7. Tursunov, R. (2020). Avtoservis xizmatlarining samaradorligini oshirish yo‘llari. Tashkent: O‘zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya Universiteti.
8. Abdullayev, O. (2023). Avtoservis sohasida xalqaro tajribalar va ularni O‘zbekistonda qo‘llash. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi.
9. Salimov, F. (2021). Avtoservis xizmatlari: marketing va menejment asoslari. Tashkent: O‘zbekiston Iqtisodiyot Universiteti.
10. Bobojonov, A. (2022). Avtoservis tizimlarida sifatni boshqarish va innovatsiyalar. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

UO'K 33

KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH INVESTITSIYALARI TAHLILINI O'TKAZISH

Z.N.Shukurov, o'qituvchi, Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
A.A.Ostonaqulov, o'qituvchi, Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov
B.N.Safaraliev, o'qituvchi, Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korxonalarda ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy mohiyati, ularni tahlil qilish usullari hamda investitsiya samaradorligini baholash mezonlari yoritilgan. Yengil sanoat korxonasi misolida investitsiya hajmi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik real statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Maqolada investitsiya tahlilining asosiy usullari – NPV, IRR, PB kabi ko‘rsatkichlar orqali loyihalarning iqtisodiy samaradorligi aniqlanib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berildi.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya, ishlab chiqarish, tahlil, samaradorlik, NPV, IRR, yengil sanoat, investitsion loyiha.*

Аннотация. *В статье рассматривается экономическая сущность производственных инвестиций на предприятиях, методы их анализа и критерии оценки эффективности инвестиций. На примере предприятия легкой промышленности на основе реальных статистических данных проанализирована взаимосвязь между объемом инвестиций и производственными показателями. В статье определяется экономическая эффективность проектов с использованием основных методов инвестиционного анализа - таких показателей, как NPV, IRR, PB, и даются предложения по решению существующих проблем.*

Ключевые слова: *инвестиции, производство, анализ, эффективность, NPV, IRR, легкая промышленность, инвестиционный проект.*

Abstract. *This article discusses the economic essence of production investments in enterprises, methods of their analysis, and criteria for assessing investment efficiency. On the example of a light industry enterprise, the relationship between investment volume and production indicators was analyzed based on real statistical data. The article identifies the economic efficiency of projects using*

the main methods of investment analysis - indicators such as NPV, IRR, PB, and provides proposals for solving existing problems.

Keywords: *investment, production, analysis, efficiency, NPV, IRR, light industry, investment project.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror va dinamik rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish tarmoqlarining texnik va texnologik yangilanishiga, zamonaviy investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga bevosita bog‘liq. Investitsiyalar ishlab chiqarish faoliyatining negizi bo‘lib, ularning samarali yo‘naltirilishi korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’minlaydi va innovatsion yondashuvlar joriy etilishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalar qatorida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsion muhitni yanada yaxshilash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda ishlab chiqarish investitsiyalarining tahlili muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali ishlab chiqarish samaradorligi, foyda va risk darajasi, investitsiya loyihasining iqtisodiy asoslanganligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish investitsiyalari bugungi kunda har qanday korxonaning iqtisodiy o‘sishi, raqobatbardoshligini ta’minlashi va texnologik rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga o‘tish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi strategik vazifalarni bajarishda muhim omil sanaladi.

Asosiy qism. Investitsiya atamasi keng ma’noga ega bo‘lib, u korxona tomonidan real aktivlarga – ya’ni binolar, uskunalar, infratuzilma obyektlari va boshqa ishlab chiqarish vositalariga yo‘naltirilgan mablag‘larni anglatadi. Bu mablag‘lar bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va vaqt o‘tishi bilan korxonaga foyda keltiradi. Shu sababli, ishlab chiqarish investitsiyalari odatda uzoq muddatli xarakterga ega bo‘ladi.

Korxona miqyosida investitsiyalar ikki asosiy shaklda amalga oshiriladi: asosiy kapitalga va aylanma mablag‘larga yo‘naltirilgan holda. Asosiy kapitalga investitsiyalar yangi texnologiyalarni joriy qilish, mavjud ishlab chiqarish vositalarini almashtirish yoki kengaytirish, zamonaviy uskuna va texnika bilan ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Aylanma mablag‘lar esa ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa muomalaviy resurslarga yo‘naltiriladi.

Ishlab chiqarish investitsiyalarining samarali tashkil etilishi korxonaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, zamonaviy texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar mahsulot sifatini yaxshilaydi, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va ishlab chiqarish quvvatlarini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, korxonaning bozor talablari va raqobat sharoitlariga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish investitsiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarga, davlatning investitsion siyosatiga, soliq va kredit imtiyozlariga, xorijiy investorlar ishtirokiga ham bog‘liq. Shu bois, korxonalar investitsiyaviy faoliyatda ishtirok etar ekanlar, bozordagi risklar, narx o‘zgarishlari, valyuta kursi tebranishlari va boshqa tashqi omillarni chuqur tahlil qilishlari talab etiladi.

Korxonalarda investitsiya faoliyatining samaradorligini aniqlash va uni moliyaviy jihatdan asoslash uchun investitsiya tahlili muhim rol o‘ynaydi. Investitsiya tahlili jarayonida turli usullar va iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bu usullar investitsiya loyihalarining foydalilik darajasi, rentabellik, to‘lov muddati va risklarini baholash imkonini beradi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bu **to‘lov muddati usuli (Payback Period – PB)** bo‘lib, u investitsiyalarning dastlabki sarflarini qoplash uchun zarur bo‘lgan vaqtni aniqlashga xizmat qiladi. Bu usul sodda va tez natija beruvchi bo‘lsa-da, u foyda miqdorini va investitsiyaning vaqt bo‘yicha qiymatini inobatga olmaydi. Shunga qaramay, PB usuli qisqa muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Investitsiya tahlilida keng qo‘llaniladigan yana bir usul – bu **sof joriy qiymat (Net Present Value – NPV)** usulidir. U investitsiyadan kutilayotgan kelgusi daromadlarni hozirgi qiymatga keltirib, ulardan dastlabki sarmoyani ayrish orqali hisoblanadi. Agar NPV musbat bo‘lsa, loyiha rentabelli hisoblanadi. Ushbu usul investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda ancha ishonchli hisoblanadi, chunki u pul oqimlarining vaqt bo‘yicha qiymatini e’tiborga oladi.

Yana bir muhim ko‘rsatkich – bu **ichki rentabellik normasi (Internal Rate of Return – IRR)**. IRR – bu investitsiyaning yillik rentabellik darajasini ifodalaydi va u orqali loyiha qanchalik samarali ekani aniqlanadi. Agar IRR qiymati kutilayotgan daromad normasi yoki kapital qiymatidan yuqori bo‘lsa, loyiha investitsiya kiritish uchun ma’qul deb topiladi.

Shuningdek, **foydalilik indeksi (Profitability Index – PI)** ham keng qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkich NPV va dastlabki investitsiya o‘rtasidagi nisbatni bildiradi. Agar PI > 1 bo‘lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan maqbul deb hisoblanadi.

Amaliyotda investitsiya tahlilining murakkabligi, bir qator noaniqlik va risklar mavjudligi sababli, yuqoridagi ko‘rsatkichlardan bir nechtasini birgalikda qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Risklarni tahlil qilishda esa ssenariy tahlili, sezuvchanlik tahlili (sensitivity analysis) va stress-testlardan foydalaniladi.

Mazkur metodlar asosida ishlab chiqarish investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Natijada korxonalar investitsiya qarorlarini asosli, raqamlarga tayanilgan holda qabul qilishlari, foydali loyihalarni tanlashlari va kapitalni oqilona taqsimlashlari mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston yengil sanoati respublika iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, to‘qimachilik, tikuvchilik, poyabzal va trikotaj mahsulotlari eksporti orqali yurtimiz eksport salohiyatining salmoqli qismini ta’minlab kelmoqda. Yengil sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishida ishlab chiqarish investitsiyalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular asosan texnologik modernizatsiya, yangi uskunalar xaridi va ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo‘naltiriladi.

Statistik misol sifatida Toshkent viloyatidagi “Textile Innovators” MCHJ faoliyatini ko‘rib chiqamiz. Korxona 2022–2024 yillarda quyidagi investitsion loyihalarni amalga oshirgan:

Yil	Investitsiya hajmi (mlrd so‘m)	Yangi uskuna soni	Ishlab chiqarish hajmi (ming dona)	O‘sish foizi (%)
2022	12,5	5	480	-
2023	17,0	8	590	22,9
2024	22,3	10	705	19,5



1-grafik. Investitsiya hajmi va ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Bu jadval va grafikdan ko‘rinib turibdiki, investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarining oshishiga bevosita ta’sir qilgan. 2022 yildan 2024 yilgacha investitsiya hajmi 78,4

foizga o‘sgan bo‘lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 46,9 foizga ortgan. Bu esa har bir sarmoyalangan so‘mning ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

Endi ushbu investitsiyalarni **sof joriy qiymat (NPV)** va **ichki rentabellik normasi (IRR)** asosida baholaymiz. Korxonaning 2022 yilda boshlagan loyihasiga 12,5 mlrd so‘m sarmoya kiritilgan bo‘lib, yillik pul oqimlari quyidagicha shakllangan:

Yil	Pul oqimi (mlrd so‘m)
2023	5,8
2024	7,2
2025	8,1

Hisob-kitoblarga ko‘ra:

- **NPV = 6,2 mlrd so‘m** (15% diskont stavkasi asosida),
- **IRR = 28,7%**,
- **To‘lov muddati (PB) = 2,1 yil**.

Ushbu ko‘rsatkichlar loyihaning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. IRR korxonaning o‘rtacha kapital qiymatidan (15%) yuqori bo‘lgani sababli, bu loyiha foydali hisoblanadi. Shuningdek, to‘lov muddati 3 yildan kam bo‘lgani — investitsiyaning tezda o‘zini oqlashini bildiradi.

Shu bilan birga, investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- xomashyo narxlarining o‘zgaruvchanligi;
- elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar;
- tayyor mahsulotga bo‘lgan tashqi bozordagi talab tebranishi;
- mahalliy banklar kredit siyosatining qat’iyligi.

Bu omillarni e’tiborga olgan holda, korxona o‘z investitsiya siyosatini ehtiyotkorlik bilan shakllantirishga harakat qilmoqda.

Xulosa. Korxonalarda ishlab chiqarish investitsiyalarini tahlil qilish ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yengil sanoat misolida ko‘rilganidek, sarmoyaviy faoliyat to‘g‘ri yo‘naltirilganda ishlab chiqarish hajmi, rentabellik va daromad sezilarli darajada ortadi. Investitsiya samaradorligini baholashda NPV, IRR, PI kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish, loyihalarning foydaliligini aniq belgilash imkonini beradi. Shu sababli, investitsiya qarorlarini puxta iqtisodiy tahlil asosida qabul qilish — zamonaviy korxonaning muvaffaqiyat garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hisobotlari, 2022–2024 yillar.
2. Soliyev B., Turg‘unov A. “Investitsiyalar iqtisodiyoti”, Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Xodjiev B.A. “Korxona iqtisodiyoti”, Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Ross S.A., Westerfield R.W., Jaffe J. “Corporate Finance”, McGraw-Hill Education, 2018.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
6. Brealey R.A., Myers S.C. “Principles of Corporate Finance”, McGraw-Hill, 2017.

UO’K 343.7

PUL MUOMALASIDAGI KRIMINAL HOLATLARNING YUZAGA KELISHI

M.X. Xamidullayeva, talaba, O’zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada pul muomalasining zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o‘rni, barqarorligi va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash istiqbollari tahlil qilindi. Pulning iqtisodiyotdagi asosiy funksiyalari, Markaziy bankning monetar siyosat orqali muomaladagi pul massasini tartibga solishi hamda raqamli to‘lov tizimlarining dolzarbligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada pul muomalasi bilan bog‘liq kriminal holatlar – pul yuvish, firibgarlik, soxta valyuta ishlab chiqarish va moliyaviy piramida kabi jinoyatlar tahlil qilinib, ularning iqtisodiy xavfsizlikka va investitsiyaga salbiy ta’siri keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pul muomalasi, monetar siyosat, inflyatsiya, moliyaviy xavfsizlik, pul yuvish, firibgarlik, soxta valyuta, moliyaviy piramida, raqamli to‘lov tizimlari.*

Аннотация. *В статье проанализирована роль денежного обращения в современной экономической системе, его устойчивость и перспективы обеспечения финансовой безопасности. Освещены основные функции денег в экономике, регулирование денежной массы Центральным банком посредством монетарной политики, а также актуальность цифровых платёжных систем. Кроме того, в статье рассмотрены криминальные аспекты, связанные с денежным обращением - такие как отмывание денег, мошенничество, подделка валюты и финансовые пирамиды, а также их негативное влияние на экономическую безопасность и инвестиционный климат.*

Ключевые слова: *денежное обращение, монетарная политика, инфляция, финансовая безопасность, отмывание денег, мошенничество, фальшивая валюта, финансовая пирамида, цифровые платёжные системы.*

Abstract. *The article analyzes the role of money circulation in the modern economic system, its stability, and the prospects for ensuring financial security. It highlights the main functions of money in the economy, the Central Bank's regulation of the money supply through monetary policy, and the relevance of digital payment systems. The paper also examines criminal activities related to money circulation - including money laundering, fraud, counterfeit currency production, and financial pyramid schemes - and their negative impact on economic security and investment.*

Key words: *money circulation, monetary policy, inflation, financial security, money laundering, fraud, counterfeit currency, financial pyramid, digital payment systems.*

Pul muomalasi iqtisodiy tizimning markaziy elementlaridan biri bo‘lib, tovar va xizmatlar almashinuvi, resurslarning taqsimlanishi, investitsiyalar oqimi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Pulning asosiy funksiyalari – almashinuv vositasi, hisob birligi, qiymat o‘lchovi va jamg‘arma vositasi bo’lib, ushbu funksiyalar iqtisodiy jarayonlarning to‘g‘ri ishlashini ta’minlaydi.

Pul - ishlab chiqaruvchi va iste’molchi, bozor va davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tartibga soladi. Narx- talab va taklif muvozanatining shakllanishida asosiy rol o‘ynasa, pul iqtisodiyotni boshqaruvchi ko’rinmas qo’l vazifasini bajaradi vas shu bilan birgalikda, resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi.

Markaziy bank monetar siyosat orqali muomaladagi pul miqdorini tartibga soladi. Inflyatsiya, foiz stavkalari va iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari pul muomalasining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga bevosita bog‘liq. Muomaladagi ortiqcha pul – inflyatsiyaga, kam pul esa iqtisodiy pasayishga olib keladi. Muomaladagi pul hajmini optimal darajada ushlab turish davlatning iqtisodiy siyosatidagi muhim vazifasi bo’lib, bu makroiqtisodiy barqarorlikni qo’llab quvvatlash vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yilda asosiy stavkani 14% darajasida saqlab, pul-kredit siyosati vositalari orqali inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan strategiyani davom ettirishi muomaladagi pul miqdori va iqtisodiy faollik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qildi.

Pul moliyaviy vositalarning (kredit, obligatsiya, depozit va boshqalar) faoliyat ko‘rsatishi uchun zarurdir. Yirik investitsiya loyihalari, banklararo operatsiyalar, xalqaro savdo – barchasi samarali pul muomalasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda aholining 90% dan ortig‘i moliyaviy xizmatlardan foydalansa, rivojlanayotgan davlatlarda bu ko‘rsatkich hali 40–60% oralig’ida. Bu esa pul muomalasi infrastrukturasi va ishonchli moliyaviy muhitning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri darajasi salmoqli ekanligini ko‘rsatadi.

Pul muomalasi faqat rasmiy iqtisodiyotda emas, balki xufiyona iqtisodiy faoliyat uchun ham asos bo‘lishi mumkin. Naqd pulning nazoratsiz aylanmasi korrupsiya, soliqdan bo‘yin tovlash va "kliring", “tolling”, kapitalni qochishi kabi jinoyatlar uchun qulay zamin yaratadi. Shuning uchun zamonaviy iqtisodiyot tizimida raqamli to‘lov tizimlari va pul o’tkazmalarining shaffofligi ta’minlanishi zarur.

So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar va pul muomalasi shakllarining o‘zgarish tendensiyasi yuzaga kelib, kriptovalyutalar, elektron pul, fintech xizmatlari shakllana boshladi. Masalan, O‘zbekiston 2020-yildan buyon raqamli to‘lovlar hajmini 4 barobarga oshirganligi iqtisodiyotni raqamlashtirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Pul muomalasining barqarorligi va xavfsizligi har qanday davlat iqtisodiyotining sog‘lom ishlashi uchun zarur bo‘lgan strategik omillardandir. Bu ikki jihat nafaqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki aholining kundalik hayoti, tadbirkorlik muhitining rivojlanishi va davlatga bo‘lgan ishonch darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Agar muomaladagi pul hajmi iqtisodiyotdagi haqiqiy tovar va xizmatlar miqdoriga mutanosib bo‘lmasa, bu inflyatsiyaga yoki deflyatsiyaga olib keladi. Inflyatsiya esa aholining real daromadlarini kamaytiradi, investitsiya faoliyatini susaytiradi va iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun pul muomalasining barqarorligi narxlar barqarorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi tahlillariga ko‘ra, inflyatsiya darajasini 9% atrofida ushlab turish uchun monetar siyosat vositalari orqali muomaladagi pul massasining nazorat qilinishi ko’zda tutilgan.

Pul muomalasi xavfsiz bo‘lishi uchun birinchi navbatda u firibgarlik, soxta valyuta, pul yuvish (kliring) va boshqa kriminal faoliyatlardan yiroq bo‘lishi kerak. Shuningdek, bank tizimining axborot xavfsizligi, tranzaksiyalarning himoyalanganligi va mijozlarning ma’lumotlarini yashirin saqlash kabi omillar ham xavfsizlik tushunchasiga kiradi. Raqamli to‘lov tizimlari kengayib borayotgan davrda kiberxavfsizlik masalalari yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Har bir muvaffaqiyatli tranzaksiya orqasida - ishonch, himoya va tartibga soluvchi mexanizm turadi.

Investorlar va tadbirkorlar uchun asosiy talab - iqtisodiy muhitning barqarorligi va moliyaviy tizimning ishonchliligidir. Pul muomalasidagi beqarorlik (masalan, keskin devalvatsiyalar yoki inflyatsion portlashlar) investorlarni sarmoya kirishiga to’sqinlik qiladi. Xalqaro reyting agentliklari (Moody’s, Fitch, Standard & Poor’s) mamlakatlarning suveren kredit reytingini baholashda aynan pul muomalasining barqarorligi va moliyaviy xavfsizlik ko‘rsatkichlarini muhim mezon sifatida ko‘radi.

Pul muomalasining xavfsiz va barqaror bo‘lishi aholining o‘z mablag‘larini bankda saqlashi, elektron to‘lovlarga o‘tishi, jamg‘arma qilish va investitsiya kiritishga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ya’ni ijtimoiy ishonchning oshishiga muhit yaratadi. Bu holat, o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda rasmiy sektor ulushining kengayishiga olib keladi.

Pul muomalasidagi kriminal holatlar – bu pul va moliyaviy vositalardan foydalanish jarayonida sodir etiladigan, qonunchilikka zid bo‘lgan iqtisodiy jinoyat shakllaridir. Bu turdagi jinoyatlar iqtisodiy tizimning ishonchliligi va barqarorligiga jiddiy zarar yetkazadi, shuningdek, davlat byudjeti tushumlarining kamayishiga, moliyaviy institutlarga bo‘lgan ishonchning susayishiga olib keladi.

Kriminal pul muomalasi deganda noqonuniy yo‘l bilan olingan yoki noqonuniy maqsadlarda ishlatilayotgan mablag‘larning iqtisodiy muomalaga kirib kelishi, yashirin aylanishi yoki rasmiy tizim orqali “chiqib ketishi” tushuniladi. Bu holatlar nafaqat jinoyatga asoslangan foydaning aylanishini ta’minlaydi, balki real iqtisodiy ko‘rsatkichlarning buzilishiga ham olib keladi.

Pul muomalasidagi asosiy kriminal holatlarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Pul yuvish (money laundering) – jinoyat yo‘li bilan topilgan daromadlarni qonuniy ko‘rinishga keltirish.
- Soxta valyuta ishlab chiqarish va tarqatish – iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi og‘ir jinoyat turi.
- Firibgarlik (moliyaviy manipulyatsiyalar) – banklar, moliyaviy institutlar yoki investorlarga noto‘g‘ri axborot berish orqali noqonuniy daromad olish.
- Korrupsiya va poraxo‘rlik – davlat resurslari va byudjet mablag‘larining noqonuniy o‘zlashtirilishi. Noformal pul aylanishi – hisobga olinmaydigan (xufiyona) daromadlar orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat.

Ushbu kriminal holatlar statistik ma’lumotlarga ishonchni kamaytirib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Noqonuniy tranzaksiyalar moliyaviy institutlarga bo’lgan ishonchni susaytiradi. Noqonuniy pul muomalasi mavjud bo‘lgan yoki yuqori darajalarda qayd etilgan davlatlar xalqaro reytinglarda past baholanadi va natijada, investitsiyaviy xavf oshadi. Noqonuniy daromadlar ortidan iqtisodiy tabaqalanish va tengsizlik holatlari yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasida pul muomalasiga doir kriminal holatlarning oldini olish maqsadida Jinoyat kodeksining 177, 184, 243-moddalarida firibgarlik, pul yuvish va soxta valyutachilik uchun

javobgarlik belgilangan. Shu bilan birga, Markaziy bank, Moliyaviy monitoring departamenti, Ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati ushbu jinoyatlarning oldini olish va fosh etish bo‘yicha faoliyat olib boradi.

O’zbekiston va Jahonda yuzaga kelgan ba’zi kriminal voqealarga quyidagilarni keltirish mumkin:

O’zbekistonda 2021-yil Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan 2 million AQSh dollari miqdorida soxta valyuta ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan guruh qo‘lga olingan. Ushbu mablag‘larni xorijiy investorlar bilan “soxta savdo shartnomalari” orqali qonuniylashtirishga urinishgan. Bu holatda pul yuvish (money laundering) va firibgarlik jinoyatlarining parallel ravishda qo‘llanilishi kuzatilgan.

2022-yilda Rossiyada 250 dan ortiq shaxslar ishtirok etgan “moliyaviy piramida” fosh qilindi. Soxta investitsiya loyihalari orqali aholining jami 5 milliard rublga yaqin mablag‘i noqonuniy yo‘l bilan o‘zlashtirilgan. Bu holatda ham firibgarlik va noqonuniy daromadlar yuvilishi (money laundering) birgalikda sodir bo‘lishi kuzatilgan.

Dunyoning eng yirik banklaridan biri – HSBC (Buyuk Britaniya) 2012-yilda Meksikadagi narkokartellarning pullarini yuvish (money laundering) ga yordam bergani uchun 1,9 milliard dollar jarimaga tortilgan. Bank tizimi orqali milliardlab dollar “yuvilgan”. Bu hodisa moliyaviy monitoring va AML (Anti-Money Laundering) tizimlarining nomutanosib faoliyatini ko‘rsatadi.

Pul muomalasidagi kriminal holatlar tasodifan yuzaga kelmaydi - ular odatda tizimli muammolar, iqtisodiy bosimlar va institutsional zaifliklar natijasidir. Ko‘plab jinoyatlar moliyaviy institutlar tomonidan yetarli darajada monitoring qilinmagan tranzaksiyalar sababli vujudga keladi. Ayniqsa, naqd pul aylanishi ustidan real nazorat yo‘qligi - soxta operatsiyalar uchun qulay muhit yaratadi. Kichik bank yoki firmalarda AML algoritmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan hollarda, shubhali operatsiyalar e’tibordan chetda qoladi.

Ishsizlik, inflyatsiya yoki past daromadlar aholining noqonuniy yo‘llar ta’siriga tushish ehtimolini oshiradi. Noformal iqtisodiyotda esa na pul harakati, na foyda hisobga olinadi - bu jinoyatlarni yashirish uchun ideal muhitdir. Jahon banki ma’lumotiga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda har to’rt ish o‘rnidan biri norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri keladi.

Kriminal pul operatsiyalarining ko‘pchiligi qonunlarda aniqlik yo‘qligi, jazolarning yetarli og‘ir emasligi yoki sud-amaliyotning sustligi sababli kelib chiqadi. Ayrim holatlarda moliyaviy piramida tashkilotchilariga nisbatan jinoiy emas, faqat ma’muriy chora ko‘rilish holatlari kuzatilgan.

Raqamli to‘lov tizimlari, kriptovalyutalar va anonim elektron hamyonlar - texnologik vositalarning nazoratsiz ishlatilishi kriminal holatlarni yashirish imkonini beradi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi shaffof bo‘lsa ham, “mixer services” orqali manbani yashirish mumkin.

Pul muomalasidagi kriminal faoliyatlar nafaqat qonunbuzarlik sifatida, balki iqtisodiy va moliyaviy tizimlar uchun risk sifatida ham qaraladi. Quyida eng keng tarqalgan jinoyat turlari va ularning moliyaviy tizimga salbiy ta’siri keltirilgan:

Pul yuvish (Money laundering) - jarayonida jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlar bir necha bosqichli tranzaksiyalar orqali qonuniy ko‘rinishga keltiriladi. Ya’ni, jinoiy daromadlarni legallashtirish orqali jinoyatchi jinoiy faoliyatdan olingan pul daromadlarini qonuniy manbaga ega bo‘lgan mablag‘larga aylantiradi. Pul yuvish - moliyaviy aktivlarni yashirishni o‘z ichiga oladi. Natijada, bank tizimining ishonchliligi pasayadi, xalqaro moliyaviy aloqalarda ushbu davlatning reytingi zarar ko‘radi. Xalqaro tashkilotlar (FATF) pul yuvish xavfi yuqori bo‘lgan davlatlarga investitsiya oqimini cheklaydi.

Soxta valyutalar yoki moliyaviy hujjatlarning muomalaga kiritilishi haqiqiy pul qiymatini pasaytiradi. 2021-yilda O‘zbekistonning Toshkent viloyatida 1,5 mln AQSh dollari miqdorida qalbaki dollarni muomalaga chiqarishga urinishgan - bu moliyaviy xavfsizlikka bevosita tahdid hisoblanadi.

Moliyaviy firibgarlik (Fraud) - soxta investitsiya loyihalari, piramida sxemalari yoki kredit olishdagi yolg‘on ma’lumotlar orqali daromad olish. Bu holatda ham, bank zaxiralari xavf ostida qoladi, aholining moliyaviy institutlarga bo‘lgan ishonchi keskin pasayadi. Misol uchun, 2022-yilda Farg‘ona viloyatida soxta “foydali sarmoya” loyihasi orqali 200 dan ortiq fuqaroning jami 14 mlrd so‘mi firibgarlar tomonidan o‘zlashtirilgan.

Pul muomalasidagi kriminal faoliyatlar zamonaviy iqtisodiy tizim uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ularni avvaldan aniqlash, to‘g‘ri baholash va oldini olish - davlat moliyaviy siyosatining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, nafaqat jinoyatchilik darajasini kamaytiradi, balki iqtisodiy ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Kriminal operatsiyalarni aniqlashda eng asosiy omil - moliyaviy monitoring tizimi hisoblanadi. Bu tizimlar orqali banklar va moliyaviy institutlar o‘z mijozlarining barcha moliyaviy harakatlarini real vaqt rejimida kuzatib boradi.

Asosiy vositalar:

- KYC (Know Your Customer) – mijozni aniqlash, u bilan bog‘liq xavf omillarini baholash.
- STR (Suspicious Transaction Reports) – shubhali tranzaksiyalar to‘g‘risida majburiy xabar berish.
- CTR (Currency Transaction Reports) – yirik pul operatsiyalarini nazorat qilish.

O‘zbekistonda 2022-yildan boshlab barcha banklar va to‘lov tizimlari uchun KYC (Know your cutomer) tizimi joriy qilinib, shubhali operatsiyalar haqida Markaziy bank va Davlat moliyaviy monitoring xizmati xabardor qilinishi majburiy etib belgilandi.

Jinoyatlarni oldini olishda qat’iy qonunchilik va faol institutsional nazorat muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Jinoyat kodeksi, “Pul yuvishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun va tegishli farmonlar ushbu yo‘nalishda asosiy huquqiy bazani tashkil etadi.

Asosiy subyektlar:

- Davlat moliyaviy monitoring departamenti (Markaziy bank qoshida)
- Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi
- DSQ va Davlat xavfsizlik xizmati
- Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik (FATF, Egmont Group)

Hozirgi kunda kriminal holatlarni aniqlashda sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida ishlaydigan tizimlar tobora keng qo‘llanilmoqda.

Estoniya, Singapur va Buyuk Britaniyada banklar AI asosida shubhali operatsiyalarni aniqlashda 90% aniqlik darajasiga erishgan. O‘zbekistonda esa 2024-yildan AI asosidagi moliyaviy monitoring pilot rejimda sinovdan o‘tkazilmoqda.

Pul yuvish va korrupsiya kabi jinoyatlar ko‘pincha transchegaraviy xarakterga ega bo‘lganligi sababli, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik nihoyatda muhimdir.

Jinoyatlarning oldini olishda faqat rasmiy organlar emas, balki fuqarolarning o‘zi ham faol ishtirok etishi kerak. Odamlar o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq firibgarlikdan qanday himoyalanishni bilsagina, jinoyatchilik darajasi kamayadi.

Banklar tomonidan mijozlarga ogohlantiruvchi SMS/E-mail xabarnomalar yuborilishi, maktab va universitetlarda moliyaviy savodxonlik darslari, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ogohlantirishlar olib borilishini muqobil yechim sifatida ko’rish mumkin.

Pul muomalasida kriminal holatlarni aniqlash - bu faqat jinoyatga javob berish emas, balki uni oldindan aniqlash, avtomatik tahlil qilish va muqobil xavfsizlik muhitini yaratishdir. Texnologiya, qonunchilik va jamiyat ishtirokini uyg’unlashtirish orqali barqaror va shaffof moliyaviy holatga erishish mumkin.

FATF (Financial Action Task Force) - 1989-yilda tashkil etilgan bu tashkilotning asosiy vazifasi - dunyo miqyosida pul yuvish, terrorchilikni moliyalashtirish va yadroviy qurollanishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha standartlar ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilishdir.

Egmont Group - dunyodagi barcha moliyaviy razvedka markazlari (Financial Intelligence Units – FIU) o‘rtasidagi hamkorlik tarmog‘i bo‘lib, 1995-yilda tashkil etilgan. Uning maqsadi – shubhali moliyaviy operatsiyalar haqida davlatlar o‘rtasida xavfsiz va tezkor axborot almashinuvi mexanizmini yaratish.

Interpol (International Criminal Police Organization) – dunyo bo‘yicha 190 dan ortiq davlatlarning jinoyatchilikka qarshi politsiya tashkilotlarini birlashtiruvchi yirik xalqaro tarmoqdir. Bu tashkilot transmilliy jinoyatlarni, jumladan, moliyaviy jinoyatlarni aniqlash va fosh qilishda muhim rol o‘ynaydi.

UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime) BMT tarkibidagi bu tashkilot dunyoda giyohvand moddalar, odam savdosi, pul yuvish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosiy, huquqiy va texnik yordam ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish, xususan pul yuvish, soxta valyutachilik, firibgarlik va korrupsiya ko‘rinishidagi kriminal holatlarni aniqlash va jilovlash borasida aniq choralarni amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda moliyaviy jinoyatlar soni ko‘paygan bo‘lsa-da, ularni aniqlash darajasi ham rivojlangan. Bu statistik ko‘rsatkichlar orqali ham isbotlangan.

Yil	Moliyaviy jinoyatlar soni	Soxta valyuta bilan bog‘liq holatlar	Pul yuvish holatlari	Firibgarlik (moliyaviy)	Aniqlangan mablag‘ miqdori (mlrd so‘m)
2020	1 734	248	27	1 102	51,6
2021	2 086	191	33	1 389	64,2
2022	2 395	164	42	1 568	92,4
2023*	2 720+	139	61	1 807	123,7

*2023-yil ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, IIV va Moliya vazirligi hisobotlaridan yig‘ilgan.

- 2022-yil, Qashqadaryo: 1,8 mlrd so‘mlik qalbaki valyuta bilan savdo qilishga uringan shaxslar qo‘lga olingan. Ular xorijdan keltirilgan yuqori sifatli soxta dollarlar orqali rasmiy konversiya tizimidan foydalanmoqchi bo‘lgan.

- 2023-yil, Toshkent shahri: Yirik investitsiya loyihasi niqobi ostida aholining 3,5 mlrd so‘mlik mablag‘ini o‘zlashtirgan firibgarlik guruhi fosh etildi. Ular “kripto savdo” va “tez boyish” shiorlari bilan odamlarni chalg‘itgan.

- 2021-yil, Andijon viloyati: Xususiy korxona orqali yolg‘on tranzaksiyalar orqali pul yuvish sxemasi aniqlangan. Korxona rasmiy faoliyat yuritmasdan, 400 dan ortiq shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan.

Davlat qonunlar orqali xufyona iqtidodiyotga qarshi kurashishi mumkin. Xususan, O‘zbekistonda:

- 2021-yilda yangi tahrirdagi “Pul yuvishga va terrorchilikni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

- 2022-yildan boshlab Moliyaviy monitoring departamenti vakolatlari kengaytirildi: endilikda notarial idoralar, auditorlar va yuridik xizmatlar ham monitoring tizimiga jalb qilindi.

- 2023-yilda Bosh prokuratura huzurida Xalqaro moliyaviy jinoyatlarni aniqlash bo‘limi tashkil etildi.

Kriminal pul muomalasi - bu jinoyat yo‘li bilan olingan yoki noqonuniy faoliyatlar orqali ishlab topilgan mablag‘larning iqtisodiy tizimga kirib kelishi yoki yashirin aylanish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyotga, balki jamiyatga ham ko‘p qirrali va salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Soxta statistika davlatning budjet siyosati, soliq siyosati va makroiqtisodiy prognozlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Soxta tranzaksiyalar sababli YAIM (Yalpi ichki mahsulot) haqiqiy o‘sishini baholash qiyinlashadi.

Kriminal pul oqimlari ko‘pincha naqd shaklda aylanadi. Muomaladagi naqd pulning haddan ziyod ko‘payishi esa inflyatsiyani oshiradi va iqtisodiy muvozanatni buzadi. 2022-yil Markaziy bank hisobotida muomaladagi naqd pullarning 30% dan ortig‘i norasmiy sektorda aylanayotganligi qayd etilgan.

Xalqaro investorlarda kriminal pul muomalasi mavjud bo‘lgan davlatlarga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Natijada, xorijiy sarmoya oqimi pasayadi, moliyaviy reytinglar tushadi. FATF ro‘yxatiga tushgan davlatlarga investitsiya oqimi o‘rtacha 7–15% kamayadi (IMF ma’lumotlariga ko‘ra). Kriminal faoliyatlar ko‘pincha nafaqat noqonuniy, balki soliqsiz ham amalga oshiriladi. Bu orqali davlat byudjetning muhim daromad manbalarini yoqotadi.

Firibgarlar tomonidan uy-joy, avtomobil, mol-mulkka noqonuniy ega bo‘lish holatlari oddiy fuqarolar orasida norozilik uyg‘otadi. Kriminal pul siyosiy tizimga ham kirib boradi. U turli amaldorlarni sotib olish, korrupsion sxemalarni moliyalashtirish, qonunlarni chetlab o‘tish vositasi sifatida ishlatiladi. Transparency International’ning 2023-yilgi indeksida O‘zbekiston 180 davlat ichida 126-o‘rinni egalladi. Bu holat korrupsiyaning jiddiy ijtimoiy muammo ekanligini ko‘rsatadi.

Noqonuniy boylik orttirishning "muvaffaqiyat belgisi" sifatida ko'rinishi yoshlar ongida "namuna" bo'lib xizmat qiladi. Bu esa huquqiy madaniyatning zaiflashuviga olib keladi. Ba'zida kriminal pul oqimlari bevosita yoki bilvosita terrorchilik, odam savdosi yoki giyohvandlik tarmoqlarini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun qonunchilikni kuchaytirish zarur. Bu uchun moliyaviy jinoyatlar bilan bog'liq barcha moddalarning izchil, aniq va zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda takomillashtirilishi kerak. Pul yuvish, firibgarlik, soxta valyuta va moliyaviy piramida kabi jinoyatlarga nisbatan jazolarni og'irlashtirish, ayniqsa takroriy jinoyatlar uchun o'g'ir siyosat yuritish lozim.

Shuningdek, moliyaviy monitoring tizimlarini yanada kuchaytirish kerak. Sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini keng joriy qilish, real vaqt rejimida shubhali operatsiyalarni aniqlash uchun:

- KYC (Know Your Customer), STR va CTR tizimlarini barcha bank va to'lov platformalarida majburiylashtirish.

- Naqd pul bilan bog'liq tranzaksiyalarga limitlar joriy qilish (xususan yuridik shaxslar uchun).

Bundan tashqari raqamli to'lovlarni kengaytirish va naqd pullarni kamaytirish ham muammoga yechim bo'ladi. Bunda davlat xizmatlari, soliqlar, ish haqi va boshqa to'lovlar faqat raqamli shaklda amalga oshirilishi tartibga solinadi va naqd pul bilan ishlaydigan yirik biznes subyektlarini elektron to'lov tizimlariga majburiy o'tkaziladi.

FATF, Egmont Group, Interpol va UNODC kabi xalqaro tashkilotlar bilan uzluksiz axborot almashinuvi va tajriba asosida hamkorlik qilish va chet elda yashirinib olgan moliyaviy jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish bo'yicha shartnomalarni faollashtirish chora-tadbirlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, transchegaraviy moliyaviy operatsiyalarni tekshirishda xalqaro moliyaviy razvedka tizimlaridan foydalanish lozim.

Davlat sektorida shaffoflikni oshirish - davlat xarajatlari, tenderlar va moliyalashtirish tizimlarining 100% ochiq platformalarda e'lon qilinishi., Amaldorlarning moliyaviy aktivlari va daromadlarini majburiy deklaratsiyalash tizimini joriy etish zarur.

Pul muomalasida xavfsizlik – bu nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki ijtimoiy ishonch, iqtisodiy o'sish va global raqobatbardoshlikning asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi (amaldagi tahriri). – Toshkent: Adolat, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi "Pul yuvishga va terrorchilikni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil, yangi tahrir.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2020–2023 yillar). www.cbu.uz

4. Bosh prokuratura rasmiy statistik hisobotlari. www.prokuratura.uz

5. Transparency International. *Corruption Perceptions Index 2023*. www.transparency.org

6. FATF (Financial Action Task Force). *40 Recommendations – 2023 Update*. www.fatf-gafi.org

7. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). *Global Programme Against Money Laundering*. www.unodc.org

8. Egmont Group. *Financial Intelligence Units Guidelines*. www.egmontgroup.org

9. The Economist. *The war against money-laundering is being lost*, April 2021. www.economist.com

10. The Guardian. *NatWest fined £264m over money laundering failures*, December 2021. www.theguardian.com

11. International Monetary Fund (IMF). *Financial Sector Assessment Reports – Uzbekistan*, 2023. www.imf.org

12. Zokirov, S. Sh. (2022). *Moliyaviy jinoyatlar va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri*. Iqtisodiyot va moliya, №2.

13. Karimova, D. A. (2023). *O'zbekistonda pul muomalasi va firibgarlik xavflari*. TDIU ilmiy jurnali, №1.

14. Khalilov, A. M. (2021). *Pul muomalasini boshqarish va kriminal holatlarning profilaktikasi*. Ilmiy-amaliy iqtisodiy jurnal.

UO'K 330

OILAVIY TADBIRKORLIK KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH MASALALARI

I.M.Xasanov, PhD, dots., Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, Farg'ona

Annotatsiya. *Maqolada oilaviy tadbirkorlik korxonalarining faoliyatini samarali amalga oshirilishiga ta'sir etuvchi omillar, oilaviy korxonalarni boshqarishni takomillashtirish masalalari, korxonalar rivojlanishida boshqaruvchilar malakasi va tajribasining ahamiyati, sohada investitsiya jarayonini samarali tashkil etish va natijadorlikni oshirishga olib boradigan asosiy masalalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Oilaviy tadbirkorlik, iqtisodiy resurslar, menejment, elektr energiya va yonilg'i ta'minoti, investitsiya, boshqaruv hokimiyati va san'ati, sug'urtalash mexanizmi, biznes inkubator.*

Аннотация. *В статье изложены факторы, влияющие на эффективное осуществление деятельности предприятий семейного предпринимательства, вопросы совершенствования управления семейными предприятиями, значение квалификации и опыта менеджеров в развитии предприятий, основные вопросы, ведущие к эффективной организации инвестиционного процесса и повышению результативности в отрасли.*

Ключевые слова: *Семейное предпринимательство, экономические ресурсы, менеджмент, электроэнергетика и топливообеспечение, инвестиции, управленческая власть и искусство, страховой механизм, бизнес-инкубатор.*

Abstract. *The article outlines factors influencing the effective operation of family business enterprises, issues of improving family business management, the importance of managers' qualifications and experience in business development, and key issues leading to the effective organization of the investment process and increased efficiency in the industry.*

Keywords: *Family entrepreneurship, economic resources, management, electricity and fuel supply, investment, management power and art, insurance mechanism, business incubator.*

Kirish. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda bozor muhitini yuzaga keltirishning asosiy omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Uning turli yo'nalishlaridan biri bo'lgan oilaviy biznesga ham katta e'tibor berilmoqda. Har bir oila o'zi yuqori darajada foyda olish bilan birga, u jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va xizmat turlarini yaratadi, mamlakat uchun yangi bo'lgan bozorlarni yaratadi, aholini ish bilan band qilishda hissa qo'shadi, boshqa tashkilot va oilalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va yaratilgan xizmatlarni iste'molchisi sifatida yuzaga chiqadi, ma'lum turdagi soliqlarni to'lab, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Ushbu vazifalarni bajarish davomida o'tgan yillarda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq ko'lami hamda hajmi salmoqli darajada o'sdi. Oilaviy biznes bilan shug'ullanayotgan oilalar soni va shunga mos ravishda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib bormoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Oilaviy tadbirkorlik korxonalarining faoliyati samarali tarzda amalga oshirilishi uchun ko'pdan-ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy tadbirkorlik korxonalarining faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichida ushbu korxonalarni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishi muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtda oilaviy korxonalarda boshqaruv faoliyatini tahlil qilgan holda, oilaviy tadbirkorlik korxonalarida boshqaruvni takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi va dastlabki muammolar oilaviy tadbirkorlik korxonalarini iqtisodiy resurslar bilan ta'minlash masalasidir. Agar korxona zaruriy bo'lgan resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlanmas ekan, bu korxona faoliyatidan samarani kutib bo'lmaydi. Biz tomonimizdan tahlil qilingan korxonalarda xom ashyo resursining yetishmasligi, elektr energiya va yonilg'i ta'minotidagi uzilishlar, moliyaviy resurslar taqchilligi, mehnat resurslarini o'z vaqtida ish haqi va boshqa to'lovlarini to'lay olmaslik singari holatlar oqibatida oilaviy korxonalarning faoliyatida samarasizlik yuzaga kelib, natijadorlik pasayib ketishi, hatto, bankrot holatiga ham tushib qolishi kuzatildi. Demak, korxonadagi menejerlar, avvalambor, o'z korxona va tashkilotlarining ta'minotini talab darajasida yo'lga qo'yishlari va bu

faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi xodimlar malakasini doimo oshirib borish, takomillashtirish, yaxshilash bilan shug‘ullanishlari talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun yoki biror bir boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish uchun faqatgina xorijiy texnika va texnologiyalarga tayanib faoliyat ko‘rsatish emas, balki tadbirkor hamda oilaviy korxonada ishlayotgan xodimlarning chuqur bilimga, yuqori malakaga ega bo‘lishlari hamda o‘z ishlarining ustalari bo‘lishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bu talablarga har doim ham rioya qilinmaydi. Ayrim tadbirkorlarning yetarli bilimga ega bo‘lmaganliklari sababli korxona iqtisodiy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatilmoqda. Masalan, ayrim tadbirkorlar pul-kredit masalalarida bilimlarining yetishmasligi tijorat banklarida ko‘rilayotgan o‘z loyihalariga taalluqli muammolarni hal qilishga to‘sqinlik qiladi va xom ashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilishi, ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan texnologik jarayonlar amalga oshirilishida muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu borada tadbirkor o‘zining aybi bilan loyiha puxta o‘ylanmaganligi tufayli kredit olish uchun bo‘ladigan harakatlarning bekor bo‘lishiga ham sababchi bo‘lishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlik korxonalarida investitsiya jarayonini ham samarali tashkil etish kerak. Investitsiyalash jarayonini jadallashuvi uchun investorga qulay investitsiya muhiti yaratish zarur bo‘ladi. Chunki investorning investitsiya muhitini hisobga olishdan asosiy maqsadi investitsiyalash natijasida ko‘zda tutilgan daromadini xatarlilik darajasini aniqlashdan iborat. Bu esa ma’lum omillarning ijobiy yoki salbiy ta’siri natijasida namoyon bo‘ladi. Oilaviy tadbirkorlik korxonalaridagi faoliyat natijasini yaxshilashga, natijadorlikni oshirishga olib boradigan quyidagi masalalarning yechimini topish muhim hisoblanadi:

1. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish jarayonini oldindan aniqlash. Uni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.
2. Infratuzilmani yanada rivojlantirish. Zaruriy infratuzilmalarning barchasini yaratish.
3. Sug‘urta qilish mexanizmini yanada takomillashtirish va kamchiliklarni bartaraf etish.
4. Madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish, uning darajasini oshirish.
5. Investitsiya loyihalari uchun aniq ma’lumotlar bazasini yaratish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning iqtisodiy o‘sishdagi salmog‘ini oshirish uchun quyidagilarga katta ahamiyat berish zarur:

1. Lizing usullarini takomillashtirish.
2. Investitsiya tavakkalchiligini sug‘urtalashni takomillashtirish.
3. Oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat va xususiy banklar tizimini yanada takomillashtirish.
4. Chet el kapitallari orqali chet el investitsiyalarini kafolatlovchi fondlarni tashkil etish.
5. Zamon talabiga javob beruvchi tender usullarini takomillashtirish.
6. Biznes-inkubatorlarini iqtisodiy zonalarda, zarur bo‘lsa, har bir mahallada keng qo‘llash. Mahallabay tushuntirish ishlarini olib borish, tashkil etish va tahlil qilishni amalga oshirish.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish iqtisodiyotimizdagi ushbu zamonaviy bo‘lgan sohaning rivojlanishi uchun zarur shartlardan biridir. To‘g‘ri tashkil etilgan boshqaruv jarayoni mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali daromadlarni ko‘paytirishga olib keladi.

Bizga ma’lumki, har qanday korxonaning boshlang‘ich va eng muhim vazifasi menejment strategiyasini, kelajak uchun bosh yo‘nalishlarini, maqsadini va unga erishish yo‘llarini tanlashdir. Haqiqiy raqobat, kuchli kasaba uyushmalari, iste’molchilarning jamoatchilik tashkilotlari, davlatning monopoliyaga qarshi siyosati hukmronligi sharoitida bunday strategiyani amalga oshirish oson bo‘lmaydi. Yuqori foyda darajasiga tovar sotish hajmini oshirish, aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish, hamkorlik shartlariga rioya etish, yangi bozorlar va yangi texnologiyalarni egallash orqali erishiladi. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchilar uchun nafaqat foydaning ko‘payishi va foyda darajasining yuksalishi, balki yalpi daromadning oshishi ham katta ahamiyatga ega, chunki mehnatga haq to‘lash va boshqa fondlar unga bog‘liq bo‘ladi.

Oilaviy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarish bilan bir qatorda savdo menejmentini ham chuqur yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Ishlab chiqarish va savdo menejmenti

maqsadiga minimal xarajat sarflab shartnoma asosida kelishilgan muddatda tovarlar ishlab chiqarish yoki tovarlar miqdorini yetkazib berish hamda xizmat ko‘rsatishdan ko‘proq foyda orttirish kiradi. Bu yo‘nalishda menejer uchun qiyinchilik tug‘diruvchi masalalarning eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- kompyuter yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatib borish uchun qo‘l keladigan ko‘rsatkichlarning eng zaruriysini tanlash;
- oilaviy tadbirkorlik boshqaruvining eng samarali tartibini yuzaga keltirish;
- mahsulot sifatini boshqarish;
- xodimlarni boshqarish;
- ishlab chiqarish vositalarini yangilab turish va xom-ashyo bilan ishlab chiqarishni beto‘xtov ta’minlashni tashkil etish hamda zahiralarni boshqarish;
- bozorni o‘rganish, xaridorlar talabini, daromadlarini, baholar darajasini kelajak uchun aniqlash;
- loyihalovchilarga baholar limitini va texnik vazifalarini taqsimlab, tovar andozasini yaratish bo‘yicha buyurtma berish;
- reklama, turli ko‘rgazmalar tashkil etish, buyurtmachilarga ma’lumotlar jo‘natish orqali bozor uchun yangi mahsulotni shakllantirish;
- shartnomalar tizimi, ishlab chiqarishni boshlash va mohiyatini yanada takomillashtirish choralarini ko‘rish;
- tovar sotilishini tashkil etish;
- iste’molchilarga qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash, ehtiyot qismlar yetkazib berish hamda ularni foydasi bo‘yicha maslahatlar berish va boshqalar.

Ushbu tadbirlarni samarali tarzda amalga oshirilishi mamlakatimizdagi oilaviy tadbirkorlik korxonalarining iqtisodiy natijadorligini oshirishga olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xasanov I.M. Iqtisodiy taraqqiyot va oilaviy tadbirkorlik. // «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali, 2021 yil, №2-son. 68-69-b.
2. Hamroyev H.R. Tadbirkorlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Yangi nashr, 2010.
3. Xasanov I.M. Oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati. “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnali, №1, 2023 y., 36-37-bet.
4. Xasanov I.M. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni. “Biznes-Ekspert” jurnali, №5, 2023 y., 15-17-bet.
5. Xasanov I.M. Menejment asoslari. O‘quv qo‘llanma, F.: 2024 y., 240 bet.
6. Saidov S. O. va boshqalar. Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari. - T.: Fan, 2002.

УДК 338

ИННОВАЦИОННАЯ ИНТЕГРАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В САМООРГАНИЗУЮЩУЮСЯ ТОРГОВУЮ СИСТЕМУ

У.А. Абдуллаев, PhD, Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Каракалпакский отдел Академии наук Республики Узбекистан, Нукус

Annotatsiya. *Zamonaviy iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi va savdo tizimlari o‘rtasidagi integratsiya tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zini-o‘zi tashkil etuvchi savdo tizimlari (self-organizing trade systems) bu jarayonni yanada samarali va innovatsion qilish imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligining o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi savdo tizimlariga innovatsion integratsiyasi, uning afzalliklari, qiyinchiliklari va kelajakdagi istiqbollari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *savdo, tizim, innovatsiya, integratsiya*

Аннотация. *В современной экономике интеграция сельскохозяйственных и орговых систем становится все более важной. Самоорганизующиеся торговые системы делают этот процесс более эффективным и инновационным. В статье рассматривается инновационная интеграция сельского хозяйства в самоорганизующиеся торговые системы, ее преимущества, проблемы и перспективы на будущее.*

Ключевые слова: *торговля, система, инновация, интеграция*

Abstract. *In the modern economy, the integration of agriculture and trade systems is becoming increasingly important. Self-organizing trade systems offer the opportunity to make this process more efficient and innovative. This article examines the innovative integration of agriculture into self-organizing trade systems, its advantages, challenges, and future prospects.*

Key words: *trade, system, innovation, integration.*

Сформировав самоорганизующуюся торговую систему, можно будет защитить поставки продовольствия на наши рынки и оптимизировать рациональное использование ресурсов в процессе производства. Когда мы анализировали китайский сельскохозяйственный сектор в [1], исследование И. Хуанга и др. показало, что влияние иностранных инвестиций на сельскохозяйственный сектор было очень сильным и значительным. Конечно, инвестиции позволят нам производить качественную продукцию и открывать новые рынки за счет модернизации технологий. Ученые изучили влияние торговых барьеров и строгих стандартов качества, которые затрудняют продажу экспортно-ориентированной продукции, а также их последствия для экономики штата [2]. Некоторые мировые ученые подчеркивают необходимость внедрения устойчивых методов ведения сельского хозяйства для повышения производительности и производства продукции, соответствующей международным экологическим стандартам, при сохранении окружающей среды и рациональном использовании природных ресурсов [3]. Как уже упоминалось выше, сегодня все более очевидной становится важность технологических инноваций в предотвращении загрязнения окружающей среды и снижении себестоимости продукции. Китайские исследователи подчеркивают важность анализа торговых тенденций для выявления и адаптации конкурентных стратегий к экономическому росту [4]. Членство в международных организациях (Всемирная торговая организация, Организация экономического сотрудничества и развития) играет важную роль в формировании аграрной политики каждой страны. Можно подчеркнуть, что членство в этих организациях является основной причиной внедрения новых требований, стандартов и новых технологий. В этом контексте китайские ученые изучили роль Азиатско-Тихоокеанского экономического сотрудничества в развитии торговли сельскохозяйственной продукцией и отметили, что с появлением новых возможностей для страны возникли и новые проблемы [5].

Анализ научных источников и литературы по всему миру показал, что успешное повышение конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции зависит от внедрения инноваций, адаптации к международным стандартам, эффективного использования иностранных инвестиций и устойчивого развития. На основе опыта Китая можно сказать, что роль сельского хозяйства в формировании самоорганизующейся торговой системы уникальна, и в ближайшие годы необходимо внедрять современные технологии производства, устойчиво организовывать инвестиционные потоки, стимулировать технологические инновации.

Рис.1. Структура производства продукции организаций сельского хозяйства и животноводства (Республика Каракалпакстан)

На рисунке 1 представлены доли сельскохозяйственной продукции, произведенной организациями, занимающимися земледелием и животноводством в Республике Каракалпакстан за период с 2010 по 2024 годы. Если взглянуть на картину, то за последние 14 лет фермы демонстрируют практически одинаковые показатели. Практически такие же тенденции роста и спада имеют и личные подсобные хозяйства. В других организациях, занимающихся сельскохозяйственной деятельностью, мы видим значительные интервалы роста с 2017 года, достигающие своего пика в 2022 году.

На представленном выше рисунке фермерские хозяйства, занимающиеся животноводством и земледелием, в среднем за 14-летний период занимают 31,6% сельскохозяйственного сектора, тогда как личные подсобные хозяйства составляют в среднем 64,1%, а прочие организации, занимающиеся сельскохозяйственной деятельностью, в среднем 4,3%.

Рис.2. Структура производства продукции организаций, занимающихся фермерством (Республика Каракалпакстан)

На рисунке 2 представлена доля сельскохозяйственного производства организаций, осуществляющих исключительно сельскохозяйственную деятельность в Республике Каракалпакстан.

Поскольку мы изучаем деятельность организаций, осуществляющих сельскохозяйственную деятельность только за период с 2010 по 2024 год, особое значение имеют организации, осуществляющие сельскохозяйственную деятельность. За последние 14 лет средние показатели этих организаций составили 61,2, 31,6 и 7,2 процента соответственно.

Теперь, рассматривая средние доли организаций, занимающихся только животноводческой деятельностью за 14-летний период, мы видим на рисунке 3, что эти доли составляют 4,2, 94,0 и 1,7 процента.

Рис.3. Структура производства продукции организаций, занимающихся животноводством (Республика Каракалпакстан)

Анализ сельского хозяйства Республики Каракалпакстан за 2010-2024 годы показал, что в аграрном секторе доля фермерских хозяйств, а в животноводческом секторе доля личных

подсобных хозяйств выше других, и формирование интеграции этих хозяйств с самоорганизующимися торговыми системами является актуальным вопросом. Фермерским хозяйствам необходимо оптимизировать процесс от доставки продукции до рынка. Это показывает важность создания интеграции между сельским хозяйством и самоорганизующейся торговой системой.

Основными аспектами интеграции самоорганизующейся торговой системы и сельского хозяйства являются:

- Создание интернет-платформу для торговли: это позволяет анализировать динамику изменения цен на продукцию, что станет преимуществом при открытии новых рынков;

- Статистический набор данных: обеспечивает обмен информацией между торговой системой и сельским хозяйством (на районном уровне);

- Система логистики: Оптимизация процессов хранения, транспортировки и распределения продукции на складах, а также распределения ресурсов. Это предотвращает дефицит продукции на рынке.

Интеграция самоорганизующейся торговой системы и сельского хозяйства дает возможность распределять ресурсы, исследовать новые рыночные возможности и сокращать издержки.

В качестве трудностей в организации инновационной интеграции можно назвать следующие:

-нехватка квалифицированных кадров: в области программного обеспечения и экономического образования;

-отсутствие внедрения современных технологий в производственный процесс;

-ограниченные ресурсы для инновационных проектов.

Вышеуказанные трудности, по-видимому, постепенно преодолеваются по мере создания инновационной интеграции между самоорганизующейся торговой системой и сельским хозяйством.

В заключение можно сказать, что мировой опыт в аграрном секторе показывает, что существует необходимость в налаживании интеграции между самоорганизующейся торговой системой и сельским хозяйством.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Aliyev, M., Guliyev, M., Abdullaev, U., Huseynova, L., & Azizova, G. (2024). Strategies for improving the competitiveness of agricultural products and China's trade policy in the world market. Scientific Horizons, 27(11), 129-140. doi: 10.48077/scihor11.2024.129.

2. Chen, W.-C., & Bao, X. (2023). Technical barriers to trade and China's exports: Firm-level evidence. *Applied Economics*, 55(17), 1919-1938. doi: 10.1080/00036846.2022.2100869.

3. Chandio, A.A., Jiang, Y., Rehman, A., & Rauf, A. (2020). Short and long-run impacts of climate change on agriculture: An empirical evidence from China. *International Journal of Climate Change Strategies and Management*, 12(2), 201-221. doi: 10.1108/IJCCSM-05-2019-0026

4. Zhou, L., Tong, G., Qi, J., & He, L. (2022). China and countries along the "Belt and Road": agricultural trade volatility decomposition and food security. *Agriculture*, 12(11), article number 1850. doi: 10.3390/agriculture12111850.

5. Chen, Q., Xiao, Y., Ma, L., & Su, B. (2018). Agricultural competitiveness in China: Assessment, challenge and options – A summary of CAER-IFPRI 2017 Annual International Conference. *China Agricultural Economic Review*, 10(1), 176-186. doi: 10.1108/CAER-12-2017-0237.

УДК 330

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ

С.Н. Абдулхалилова, доц., Ташкентский государственный экономический университет, Ташкент

Annotatsiya. *Maqolada iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, shu jumladan sanoatni raqamlashtirishni rag'batlantirishda "raqamli O'zbekiston – 2030" davlat dasturining roli tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, sanoat, AKT, avtomatlashtirish, aqlli fabrikalar, sun'iy intellekt, raqamli O'zbekiston 2030, mahsuldorlik, raqobat.*

Аннотация. *В статье анализируется роль государственной программы «Цифровой Узбекистан – 2030» в стимулировании цифровизации различных секторов экономики, включая промышленность.*

Ключевые слова: *Цифровизация, промышленность, ИКТ, автоматизация, умные фабрики, искусственный интеллект, Цифровой Узбекистан 2030, производительность, конкуренция.*

Abstract. *The article analyzes the role of the state program "Digital Uzbekistan – 2030" in stimulating digitalization of various sectors of the economy, including industry.*

Key words: *Digitalization, industry, ICT, automation, smart factories, artificial intelligence, Digital Uzbekistan 2030, productivity, competition.*

Промышленность Узбекистана, являющаяся ключевым драйвером экономического роста страны, сегодня стоит перед необходимостью масштабной модернизации и повышения конкурентоспособности глобального рынка. В третьей четверти промышленной революции (Индустрии 4.0) цифровые технологии становятся не просто результатом повышения эффективности, а фундаментом создания принципиально новых бизнес-моделей и позиций на международной арене.

Внедрение цифровых решений открывают широкие возможности для оптимизации производственных процессов, повышения качества продукции, снижения затрат и расширения рынков сбыта. Настоящая статья посвящена анализу нынешнего состояния цифровой трансформации промышленности Узбекистана, обзору ключевых цифровых технологий, а также измерению роста и проблем, стоящих перед странами в эпоху цифровой экономики.

Тема цифровизации промышленности стала предметом многочисленных исследований как в мировом, так и в региональном контексте. Согласно исследованиям Всемирного экономического форума (2020), страны, активно внедряющие цифровые технологии, имеют значительные преимущества в плане конкурентоспособности и устойчивости экономики. Важность цифровых решений для индустриального развития подчеркивается и в исследованиях международных организаций, таких как ООН и Всемирный банк. Они утверждают, что цифровизация помогает не только оптимизировать процессы на предприятиях, но и ускоряет инновационные преобразования, способствует созданию новых рабочих мест и улучшает качество жизни населения.

В Узбекистане вопросы внедрения цифровых технологий в промышленность стали актуальными с принятием Национальной стратегии цифровой трансформации, которая была анонсирована в 2020 году[1]. Согласно данным Министерства инновационного развития Республики Узбекистан, на этот период было запланировано увеличение доли высокотехнологичных отраслей в общем объеме валового внутреннего продукта (ВВП) страны до 20% к 2030 году[6].



Рисунок 1.Уровень внедрения цифровых технологий в промышленности Республики Узбекистан (2024) [6]

Цифровизация промышленности Узбекистана охватывает несколько ключевых направлений. Одним из самых значимых является внедрение системы автоматизации производства. Многие предприятия начали переходить на системы управления производственными процессами (СУПП), что позволило значительно повысить эффективность и точность операций. В частности, в химической и текстильной промышленности внедрение автоматизированных линий и роботов позволяет ускорить процесс производства и снизить количество брака.

Цифровизация промышленности Узбекистана активно развивается и оказывает влияние на мировые последствия. В последние годы рынок информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в Узбекистане добился роста. В 2021 году объем этого рынка составил 1,5 миллиарда долларов, и он продолжил постепенный рост. Прогнозируется, что к 2027 году он вырастет до 2,836 миллиардов долларов, при этом годовой рост составит примерно 16%[2]. Специальный активно развивающийся сектор программного обеспечения, в котором в стране функционируют более 12 тысяч ИТ-компаний, в которых трудятся более 100 тысяч человек. Это свидетельствует о значительном интересе к цифровым технологиям в различных отраслях, в том числе в промышленности. Экспорт ИТ-услуг и продукции с 2019 по 2021 год увеличился более чем в 7 раз, с 6,2 миллиона долларов до 46 миллионов. Диаграмма на рисунке 1 показывающая уровень развития цифровых технологий в промышленности Узбекистана (рис.1)

В стране внедряются системы автоматизации, умные фабрики и интернет-вещи, которые значительно повышают эффективность Государственной программы «Цифровой Узбекистан – 2030», активно поддерживающей эти изменения, ориентируясь на цифровизацию различных секторов экономики, включая промышленность. Ожидается, что цифровые технологии будут продолжать расти в таких направлениях, как искусственный интеллект, бытовая техника и большие данные, которые откроют новые возможности для промышленности и улучшат ее глобальный уровень. В тренде Узбекистана необходимо значительно развивать умные фабрики и внедрять новые технологии для повышения эффективности производства в таких отраслях, как автомобилестроение и металлургия, что сделает эти компании более конкурентоспособными[3].

Наиболее заметным шагом в цифровизации стало создание индустриальных парков, ориентированных на развитие высокотехнологичных производств. Так, в Ташкенте был открыт Ташкентский технопарк, специализирующийся на разработке и внедрении цифровых решений для промышленности. В этих технопарках молодые компании и стартапы могут разрабатывать инновационные проекты, которые в дальнейшем могут быть внедрены на крупных производственных предприятиях[4].

Цифровизация промышленности в Узбекистане открывает большие перспективы для развития экономики страны, повышения ее конкурентоспособности на международной арене и улучшения качества жизни населения. Внедрение новых технологий, таких как автоматизация, интернет вещей и большие данные, уже дает положительные результаты, однако для дальнейшего развития необходимо решать проблемы, связанные с кадрами, финансированием и инфраструктурой. Важно отметить, что успех в этом направлении во многом зависит от государственной поддержки и создания условий для развития частного сектора в области цифровых технологий. В целом, цифровизация представляет собой стратегически важный шаг для Узбекистана, который может существенно изменить промышленный ландшафт и повысить эффективность производства на долгосрочную перспективу.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

2.Мухамедов, М.М. (2021). Рақамли иқтисодиёт асослари [Основы цифровой экономики]. Ташкент: «Иктисодиёт».

3.Хакимов, У.Х. (2023). «Экономическая эффективность цифровых технологий на промышленных предприятиях». Экономика и инновационные технологии, 2023 (3), 56-67.

4.Юсупов, А.Б. (2022). Основные направления развития процессов цифровизации в промышленности». Журнал Рынок, деньги и кредит , 2022 (12), 23-34.

5.Садыков А.С., Алимова Д.А. (2024). «Использование больших данных в управлении промышленным производством: опыт и перспективы Узбекистана». Центральная Азия и Кавказ , 27 (1), 67-78.

УЎК 379.851

ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

В.О.Азимова, мустақил изланувчи, "Ипак йўли" туризм ва маданий мерос халқаро университети, Самарқанд

Аннотация. *Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида таълим туризмини ривожлантириш, бунда мамлакатимизда таълим туризмини ривожлантиришниг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш йўналишларини белгилаш, таълим туризми борасида амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш асосида ушбу соҳанинг ривожланиш йўналишларини белгилаб олиш ҳамда янги хизмат турларини ишлаб чиқиш бўйича таклиф ва тавсиялар баён этилган.*

Калит сўзлар: *таълим туризми, турист, халқаро ва ички туризм, ташкилий-ҳуқуқий асослар, таълим хаби, ривожланиш, инфратузилма.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития образовательного туризма в Республике Узбекистан с акцентом на определение направлений совершенствования организационно-правовой базы его продвижения. На основе анализа текущих инициатив в сфере образовательного туризма обозначены стратегические направления развития, а также представлены предложения и рекомендации по внедрению новых видов услуг в данной отрасли.*

Ключевые слова: *образовательный туризм, турист, международный и внутренний туризм, организационно-правовая база, образовательный хаб, развитие, инфраструктура.*

Abstract. *This article discusses the development of educational tourism in the Republic of Uzbekistan, with a focus on identifying directions for improving the organizational and legal framework for its advancement. Based on the analysis of current initiatives in the field of educational tourism, the article outlines strategic development directions and presents proposals and recommendations for introducing new types of services within the sector.*

Key words: *education tourism, tourist, international and local tourism, organizational and legal basis, education hub, development, infrastructure.*

Кириш. Жаҳонда кечаётган глобаллашув жараёнлари, иқтисодий рақобат кураш курашларига қарамасдан туризм индустрияси иқтисодиётнинг фаол ривожланаётган соҳалардан бирига айланиб бормоқда. Бунда барча давлатлар ўзи учун қулай бўлган туризм йўналишини, яъни бозорда мавқеини эгаллашга, хизматлар кўрсатишнинг ҳар томонлама қулай бўлган йўналишларини танлашга ҳаракат қилмоқда. Бунинг асосий сабабларидан бири туризм соҳаси ривожланган давлатлар унинг сердаромад соҳалардан бири эканлиги, яъни туризмда топилган даромаднинг 30 фоизи одамларнинг қўлига иш ҳақи бўлиб бориши, саноатда ва бошқа тармоқларда бу 10 фоиздан ошмаслиги, қолаверса туризмни ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири сифатида янги иш ўринларини яратишда намоён бўлиши, яъни туризмда яратилган 1 та иш ўрни бошқа соҳаларда қўшимча 2 та иш ўрнини яратилишига олиб келишини тўғри англаб етмоқда.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда туризм соҳасини ривожлантиришга қаратилган янги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилмоқда, халқаро ва маҳаллий тадбирлар, янги таълим муассасалари фаолиятининг йўлга қўйилиши, туристлар оқимининг ошиши, янги туризм маҳсулотлари, янгича йўналишларни ривожлантириш, инфратузилмани такомиллаштиришга оид саъи-ҳаракатлар, хорижий инвесторларни жалб қилиш, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқ вакилларининг ташрифи ҳамда Ўзбекистоннинг кўплаб халқаро рейтингларда юқори ўринларни эгаллаши амалга оширилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2025 йилнинг 7 февраль куни хизматлар соҳасини

ривожлантириш бўйича 2024 йилда амалга оширилган ишлар ва 2025 йил учун асосий вазифалар юзасидан видеоселектор йиғилишида “Ўтган йили туризм хизматлари экспорти 3,5 миллиард доллар бўлди. Лекин, бу имкониятларимизга мос эмаслиги қайд этилди. Масалан, Малайзия ва Индонезияда 7 миллионга яқин Нақшбандия тариқати издошлари бор. Улар Умрага боришдан олдин зиёратгоҳларимизга саёҳат қилишни истайди. Бу сайёҳларни Куала-Лумпур ёки Жакартадан Самарқанд ва Бухорога камида 2 кунга олиб келиб, кейин ўзимизни самолётда Умрага юбориш учун барча шароитлар мавжуд.

Ўзбекистон Республикасида туризмнинг барча турларини ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, дунёдаги туризм ривожланган давлатлардаги каби таълим туризмини ҳам кенг йўлга қўйиш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Жаҳонда таълим туризми талабалар ва мутахассислар учун глобал миқёсда ўқиш, ўқитиш, ва маданий тажриба алмашиш имкониятларини яратишнинг муҳим йўналишидир.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Таълим туризми бўйича ва уни ривожлантириш борасида бир қатор олимлар томонидан тадқиқотлар олиб борилган, бу бўйича турлича фикр ва мулоҳазалар билдирилган.

Хорижлик олимлардан Н.Литвинованинг фикрича, тил ўрганилаётган мамлакатда дам олиш ва туризм билан уйғунлашув жуда яхши самара беради. Бундай саёҳатлар асосан миллий тиллар дунёда кенг тарқалган мамлакатларда – Англия, АҚШ, Франция, Испания, Германия, Италия, Португалияда ташкил этилади [3].

Ўзбекистонлик олимлардан Г.Саъдуллаева томонидан “Таълим туризми” ибораси одатда ўқиш мақсадида чет элга саёҳат тушунилади, деган фикр билдирилган [4].

А.Боймуродовнинг фикрича, таълим туризми деганда – ўрта, ўрта махсус ва олий таълим муассасаларининг ўқув дастурларида режа ва вазифаларни бажариш мақсадида ташкил этиладиган билим турларини бошқа давлатларда ҳамкорлик асосида олиш тушунилади [5].

Н.Махмудова томонидан таълим туризми хизматларининг бирламчи мақсади таълим бўлганлиги ва мос равишда таълим туристик жараёнда педагог иштирок зарурияти педагогик тамойил талабини шакллантирди. Таълим туризми тушунчаси педагогик фаолият субъектлари билан бевосита алоқадор бўлган таълим компонентларини ўз ичига олади, деган фикр билдирилган [6].

М.Ибрагимова томонидан таълим туризми - бу кишиларнинг доимий яшаш жойидан билим олиш ёки ўргатиш мақсадларида мамлакат ҳудудида ёки хорижий мамлакатда ҳақ тўланадиган фаолият билан шуғулланмаган ҳолда дастур асосида бир йилгача бўлган вақт давомида саёҳат қилиш фаолиятидир, деб талқин қилинади [7].

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда мамлакатимизда таълим туризмини ривожланишини белгилашда келажакда бўладиган ўзгаришларни ҳисобга олиш ва шу орқали туризмнинг ривожланишини бир бутун соҳа тури сифатида ўрганиш методологияси қўлланилиб, бу борада мутахассислар фикрини ўрганган ҳолда, кузатиш, қиёслаш, эмперик тадқиқот, тизимли ва қиёсий таҳлил ҳамда эксперт баҳолаш каби усуллари орқали туризм таълимини ривожлантиришнинг ташкилий-ҳуқуқий йўналишларини белгилаб бериш усули таклиф этилган. Шунингдек, мамлакатимизда таълим туризмини ривожланиши йўналишларининг устувор вазифаларига оид хулосалар қилинган ва уни такомиллаштиришга оид тавсиялар ишлаб чиқилган.

Таҳлил ва натижалар. Ҳозирги кунда таълим туризми бозори энг тез ўсиш суръатига эга туризм турларидан бўлиб, 2033 йилга келиб, жаҳон миқёсида 1,291,50 миллиард долларни ташкил этиши кутилмоқда. Бугунги кунда ривожланган давлатлар таълим туризмини ривожлантиришга катта эътибор қаратишмоқда. Бунинг асосий сабаби таълим туризми ортидан даромад кўриш кўламининг кенглиги, аҳолининг иш билан таъминланганлик даражасининг ошиб бориши, туризм ушбу турини режа асосида йўлга қўйиш имкониятининг мавжудлиги ҳисобланади. Ўзбекистоннинг таълим туризми бозори сезиларли даражада ўсиб бормоқда. Мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш стратегиясининг бир қисми сифатида таълим туризми муҳим ўрин тутади. Таълим туризми нафақат иқтисодиётни диверсификация

қилишда, балки Ўзбекистоннинг глобал таълим майдонидаги ўрнини мустаҳкамлашда ҳам аҳамиятлидир.

Ўзбекистоннинг халқаро таълим тизимини танитиш ва ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш орқали, мамлакатни таълим туризми учун жозибадор манзилга айлантириш мумкин. Бу жараённинг самарадорлигини кўрсатишда қуйидаги статистик маълумотларни келтириш мумкин:

1-жадвал

Ўзбекистондаги таҳсил олаётган хорижий фуқаролар сони

Йиллар	Хорижий фуқаролар сонининг ўсиши (%)
2019	5.0%
2020	6.5%
2021	7.8%
2022	8.2%
2023	9.0%
2024	11,2 %

Ушбу жадвалдан кўриниб турибдики, ҳар йили Ўзбекистонда хорижий фуқаролар сони ортиб бормоқда, бу эса мамлакатнинг таълим туризми бозорига бўлган қизиқишнинг ортишини ва бунинг натижасида хорижий фуқароларнинг сони ўсаётганлигини кўришимиз мумкин. 2024 йил давомида таълим мақсадида Ўзбекистонга келган хорижий фуқаролар сони **19 минг нафар**ни ташкил этди, бу эса умумий туристик оқимнинг **0,3 фоиз**ни ташкил қилади.

2020 йилда таълим мақсадида келганлар сони 4 минг нафарни ташкил қилган бўлса, 2024 йилда бу кўрсаткич 2020 йилга нисбатан 4,4 баробарга ўсган. Бугунги кунда мамлакатимиз олий таълим муассасаларида 11 051 нафар хорижий фуқаролар таълимнинг турли соҳаларида таҳсил олмоқда. Шундан, 10 651 нафари бакалавриат таълим йўналишларида, 400 нафари магистратура мутахассисликларида таҳсил олмоқда. Хорижий талабаларни йиллар кесимида таҳлил қиладиган бўлсак, 2018/2019 ўқув йилида 3 001 нафар, 2019/2020 ўқув йилида 3 642 нафар, 2020/2021 ўқув йилида 4 285 нафар, 2021/2022 ўқув йилида 4 760 нафар, 2022/2023 ўқув йилида 6 941 нафар хорижий фуқаролар таҳсил олган.

Мамлакатимизда таълим олишга бўлган қизиқиш нафақат қўшни давлатлар балки Озарбайжон, Россия, Украина, Ҳиндистон, Покистон, Корея, Хитой, Эрон ва бошқа шу каби таълим тизими ривожланган мамлакат фуқароларида ҳам юзага келмоқда. Статистик маълумотларга эътибор қаратадиган бўлсак, Ҳиндистондан 6 112 нафар, Покистондан 1 248 нафар, Туркманистондан 852 нафар, Россиядан 790 нафар, Қозоғистондан 558 нафар, Қирғистондан 337 нафар , Тожикистондан 319 нафар талаба мамлакатимизда таҳсил олмоқда.

Хорижий фуқароларнинг 10 482 нафари кундузги, 31 нафари кечки, 529 нафари сиртқи, 9 нафари масофавий таълим шаклида таҳсил олмоқда. Улардан 4 897 нафари хотин-қизлар, 6 154 нафари ўғил болалар ҳисобланади. Республикамиз олий таълим муассаларида таълим олаётган хорижий фуқароларнинг 8162 нафари (74%) тиббиёт соҳасида, 3 869 нафари (35%) Тошкент шаҳрида ўқийди.

Шу билан бирга, мамлакатимизда таҳсил олаётган 11 051 нафар хорижий фуқаролардан 4 621 нафари талабалар турар жойида, 6 430 нафари ижара уйида истиқомат қилади. Мамлакатнинг бой маданий мероси ва тарихий обидаларига асосланиб, чет эл талабаларини жалб қилишни кенгайтириш зарур. Бу жараёнда қуйидаги статистик маълумотларни кўришимиз мумкин:

2-жадвал

Ўзбекистонга маданий таълим дастурлари асосида жалб этилаётган талабалар сони

Йиллар	Хориж талабаларининг маданий таълим дастурлари асосида алмашинувга жалб этиш сонининг ўсиши (%)
2020	4.0%
2021	5.5%
2022	6.2%
2023	7.0%

Жадвалдан кўриниб турибдики, маданий алмашинув дастурларига бўлган талаб ҳам ортиб бормоқда. Бу эса мамлакатимизда аҳолининг урф-одатлари, маданияти, этнографик

туризмнинг кўлами ва маданий мерос объектларининг имконияти кенглигидан далолат беради.

Шу билан биргаликда таълим туризми соҳасида технологик инновацияларни жорий этиш, ўзбек талабаларига ва хорижий талабалар учун янги имкониятлар яратади. Онлайн таълим платформалари, виртуал алмашинув дастурлари ва рақамли хизматлар орқали таълим туризмини ривожлантириш мумкин. Глобал таълим туризми бозоридаги ўсиш ва халқаро талабнинг ортиши, Ўзбекистонга кўплаб имкониятларни тақдим этмоқда. Ўзбекистоннинг таълим муассасалари ва илмий инфратузилмасининг ривожланиши, мамлакатни таълим туризми учун жозибадор манзилга айлантиришда муҳим рол ўйнайди.

Хулоса ва таклифлар. Таълим туризми бозорини глобал миқёсда рақобатбардош бўлишида янги ёндашувлар талаб қилинади. Инновацион концепцияларни ишлаб чиқиш, Ўзбекистоннинг таълим туризми бозорини кенгайтиришга имкон яратади. Бу жараённи қўллаб-қувватлаш ва унга туртки бериш, Ўзбекистондаги таълим туризмини жаҳон бозорида янада рақобатбардош қилишга имкон яратади;

Мамлакатимизда туризмнинг муҳим турларидан бири ҳисобланган таълим туризмини кенг йўлга қўйиш мақсадида қолаверса қуйидаги ишларни амалга ошириш ҳам мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- Туристларга нафақат таълим бериш, балки уларга янги маданий тажрибалар ҳам тақдим этиш керак, жумладан, тарих, санъат ёки урф-одатларга оид турлар ташкил этиш;

- Туризмга доир конференциялар, симпозиумлар ёки семинарлар ўтказиш ҳамда таълим туризмининг аҳамиятини тарғиб қилиш;

- Махсус таълим марказлари ёки академик туризм марказларини ташкил қилиш. Бу марказлар туристларга ёшга қарамай, турли соҳалардаги билимларни оширишга ёрдам беради;

- Туристик агентликлар ва таълим муассасалари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш. Бу, туристларга таълим олиш учун махсус пакетлар ва турлар таклиф этиш имконини беради.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон олий таълим муассасаларининг аксариятида рус тилида ҳам ўқитиш йўлга қўйилган бўлсада, Россия ва қўшни давлатлардан келиб таълим олаётган талабалар сони имкониятга нисбатан камчиликни ташкил этмоқда. Умуман олганда таълим туризмини ривожлантириш нафақат иқтисодиётга ижобий таъсир қилиб қолмасдан, мамлакатимизни жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнини топишга, таълим хабига айлантиришга, миллий қадриятларимизни, урф-одатларимизни хорижда тарғиб қилишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 18 июлдаги “Туризм тўғрисида”ги Қонуни № ЎРҚ–549 //www.lex.uz.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016-йил 2-декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сонли Фармони.

3. Литвинова Н.П. Маркетинг образовательних услуг.СПб., 2002.

4.Саъдуллаева Г. Туризм хизматлари бозоридан таълим туризми тушунчаси моҳияти ва уни ривожлантиришнинг хориж тажрибалари. Инновацион технологиялар журнали, 2020.

5.Боймуродов А.Х. (2019) Педагогик таълим инновацион кластери асосида таълим туризмини ривожлантириш//ББК 26.8. Редакционная коллегия - С.42.

6.Махмудова Н.Ў. Таълим туризми хизматларининг тамойиллари, вазифалари ва функциялари.”IQTISODIYOT VA TURIZM” халқаро илмий ва инновацион журнали №5(7) 2022.

7. Ибрагимова М.И. ”Ўзбекистонда таълим туризми хизматларини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги диссертация иши автореферати, Самарқанд, 2022 й.13 б.

УЎТ: 330.332.322.2

УЙ-ЖОЙ ҚУРИЛИШИ СОҲАСИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ф.Атаджанова, ўқитувчи, Тошкент архитектура-қурилиш университети, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада уй-жой қурилиши соҳасида инвестициялар ва уларни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари қараб чиқилади.*

Калит сўзлар: *уй-жой қурилиши, инвестициялар, бошқариш, ташкилий механизм, иқтисодий механизм, ипотека, лизинг, давлат-хусусий шериклиги, кредит, "шаффоф қурилиш", тендер.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается приоритетные направления совершенствования организационно-экономического механизма управления инвестициями в сфере жилищного строительства.*

Ключевые слова: *жилищное строительства, инвестиции, управления, организационный механизм, экономический механизм, ипотека, лизинг, государственно-частное партнерства, кредит, «прозрачное строительства», тендер.*

Abstract. *This article examines the priorities for improving the organizational and economic mechanisms of investments and their management in the field of housing construction.*

Key words: *housing construction, investments, management, organizational mechanism, economic mechanism, mortgage, leasing, public-private partnership, credit, "transparent construction, тендер.*

Жаҳонда кечаётган глобаллшув ва кескин рақобатчилик шароитида дунё қурилиш бозорида рақамли технологияларни жорий қилиш билан боғлиқ жиддий ўзгаришлар кузатилмоқда. McKinsey консалтинг компанияси маълумотлари бўйича қурилиш тармоғи дунё ЯИМнинг 13 фоизини ташкил қилгани ҳолда, яқин истиқболда халқаро Exploding Topics таҳлилларига кўра соҳа истиқболларини белгиловчи виртуал, йиғма модулли, экологик қурилиш, ақлли шаҳар, BIM (*Building Information Modeling*) технологиялар каби трендлар кузатилмоқда. The Business Research Companyга кўра, қурилишда моделлаштириш бозори 2027 йилда 14,9 млрд.АҚШ долларидан 2031 йилга бориб 23,9 млрд.АҚШ долларига етиши кутилмоқда [1].

Дунё уй-жой қурилиши (УЖҚ) бозоридаги энг муҳим тенденция ақлли шаҳарларнинг пайдо бўлиши бўлиб, Smart Cities Dive нашрига кўра, ақлли шаҳарлар қурилишига харажатлар 2020 йилда 124 млрд. АҚШ долларини ташкил қилган бўлса, 2024 йилда ақлли шаҳарларга инвестициялар 203 млрд. АҚШ долларини ташкил қилди ва Grand View Research халқаро консалтинг компанияси баҳолашича, ақлли шаҳарлар бозори 2028 йилда 676 млрд.АҚШ долларига, анъанавий қурилишга нисбатан анча самарали ва қурилиш вақти, чиқиндилар миқдорини камайтиришга имкон берувчи модулли қурилиш бозори ҳажми эса қарийб 130 млрд. АҚШ долларига етади [2].

Янги Ўзбекистонда ҳам қурилиш соҳаси, хусусан УЖҚни барқарор ва тизимли равишда ривожлантирилиб, ҳудудларда 1 млн.хонадонли уй-жойлар қуриш, «Янги Ўзбекистон» массивлари сонини 100 тага етказиб, қўшимча 200 мингта оилага мўлжалланган уйларни, республикада камида 140 минг оилага мўлжалланган ижтимоий уйларни барпо этиш ишлари амалга оширилмоқда. Шунингдек, "O'zbekiston-2030" Strategiyasining 48-maqsadida "қурилиш мате риалларини ишлаб чиқариш ҳажмини 2 мартага ошириш ва янги турдаги энергия тежамкор материалларни ишлаб чиқишни кенгайтириш, хизмат муддатини ўтаб, эскирган массив ва уй-жойларни янгилаш мақсадида кенг жамоатчилик фикри асосида реновация дастурларини ишлаб чиқиш, аҳоли зич бўлган ҳудудларда "*бўйига ўстириш*" тамойили асосида кўп қаватли уй-жойлар барпо этиш" устувор вазифалар сифатида эътироф этилган. Шунинг дек, ривожланган давлатларда УЖҚ соҳасида инвестиция жараёнларини

такомиллаштириш бўйича илғор тажрибаларни Ўзбекистонда қўллаш, ҳудудларда УЖҚ соҳасини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизм-ларини, ривожланиш ҳолатини социологик тадқиқотлар асосида баҳолаш, соҳада бошқариш самарадорлигини баҳолашнинг янги услубий ёндошув ва механизмларини ишлаб чиқишни тақозо қилмоқда.

Юқоридагилардан кўринадики, уй-жой қурилиши соҳасини жадал ривожлантириш ва соҳага хорижий ҳамда ички инвестицияларни киритиш ҳажмини ошириш Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг муҳим драйверларидан бири бўлиб хизмат қилади.

Миллий иқтисодиётда уй-жой қурилиш соҳасида амалга оширилган лойиҳалар ҳажми ва молиявий омилларга тўхталадиган бўлсак, 2018-2023 йилларда уй-жой қурилишига инвестицияларни киритиш ҳажми қарибйб 2,8 мартага ошиб, 2023 йилда 54.7 трлн сўмни ташкил этди [3].

Жорий 2025 йилнинг I чорагида ипотеканинг оммалашиши янада ошиб, соҳага 3.8 трлн сўм инвестиция киритилди ва умумий инвестициялар ҳажмининг қарийб 95 фоизи хусусий сектор ҳиссасига тўғри келган. Ўтган 2024 йилда қурилиш секторининг Ўзбекистон ЯИМдаги улуши 6–7 фоизни ташкил қилгани ҳолда биринчи ярим йилда соҳада 111 фоиз ўсишга эришилди.

Уй-жой қурилиши соҳасида ишлаб чиқариш ва инфратузилмавий нуқтаи назардан жорий 2025 йилнинг январ-феврал ойларида жами 26.3 трлн сўмлик қурилиш ишлари бажарилган бўлиб, умумий қурилишлар ҳажмининг 74 фоизи янги қурилишлар ҳисобидан амалг ошган. Бу эса қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчиларини қўллаб-қувватлайди, цемент ва темир-бетон буюмлари импортни камайтиради ва нархларни барқарорлаштиради.

Бундан ташқари, уй-жой қурилишининг ижтимоий мақоми ва самараси нуқтаи назаридан 2024 йилда давлат томонидан 100 минг оилага тўғри келувчи 21.4 млн м² уй-жой қурилган ва бу эса 350 000 кишини иш жойи билан таъминлашга имкон берди. Ҳар бир инсон учун яшаш майдони 16 м² дан 19 м² гача ортгани ҳолда бу ижтимоий инфратузилма сифатида катта самара берди ҳамда уй-жой қурилишлари орқали янги бозорлар очилди (мебель, электр, текстиль, материаллар) ва маҳаллий саноат қуввати кўтарилди [4].

Уй-жой қурилишига сарфланган манба ва маблағларни таҳлил қиладиган бўлсак, умумий инвестицияларнинг аҳоли маблағлари (52%), банк кредитлари (24.8%), давлат бюджет (12.5%), ташкилотлар (10.4%) маблағларини ташкил қилади. Ипотека дастурлари 17 трлн.сўм кредит ажратган, қурилиш компания-ларига 3 трлн. сўм жорий маблағ берилди ва 2024 йилда аҳоли тўловларини ҳимоя қилиш ва ўз маблағларини кафолатлаш тизими ишга туширилди [5].

Демак, уй-жой қурилиши соҳасининг ривожланиши ЯИМга улуш қўшган ҳолда иш ўринлари яратади ва хусусий секторни ривожлантиради, ипотекага асосланган уй-жой қуриши аҳоли учун қарз хизматини осонлаштиради ва сармояларнинг ижтимоий барқарорлигини таъминлайди ҳамда ижтимоий уй-жой сифатида давлат дастурлари аҳолининг эҳтиёжларини қондириш ва ҳудудлар орасида барқарор тараққиётга хизмат қилади.

Шунингдек, уй-жой қурилиши ривожланаётган мамлакатларда қурилиш соҳаси ЯИМга 3–8 фоиз ҳисса қўшади ва асосан қурилишда уй-жой соҳаси улуши 1/3ни ташкил этади. Инвестициялар уй-жойга эмас, балки кўп тармоқли ташқи таъсирларга боғлиқ: сметалар орқали ҳисоблагандан ташқари, иш ўринлари яратиш, материал ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш орқали мультипликатор таъсирларини яратиши мумкин.

Уй-жой қурилишида ўртача 7–10 фоиз ишчилар фаол аҳолига тегишли бўлиб, бу муддатли ва доимий иш ўринлари яратади. Бу соҳада, айниқса, кўникмасдан мойил ишчилар учун катта имконият бор—уй-жой қурилиши орқали уларнинг даромадлари ва иқтисодий фаоллик даражаси кўтарилади. Барқарор уй-жой — аҳолига психологик ва физиологик барқарорлик беради. Ижтимоий уй-жойлар (*social housing*) аҳолининг ижтимоий эҳтиёжини қондириш билан бирга, соғлиқ ва таълим натижаларини яхшилайди.

Ижтимоий уй-жойлар " инфратузилма" сифатида тан олинади – бу давлат учун ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий жиҳатдан муҳим бўлиб, солиқ тушумлари, ижтимоий хизматларга сарфланадиган харажатларнинг камайиши ва ипотека/ аренда тўловлари орқали иқтисодий фойда келтиради ҳамда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш секторларидаги фаоллик солиқ

базасини кенгайтиради. Шунингдек, "яшил иқтисодиёт" ва "яшил, ақлли уйлар" жиҳатидан уй-жойга сармоя ESG (энергетик, ижтимоий, бошқарув) мезонлари асосида жалб этилганда, бу нафақат молиявий, балки ижтимоий ва экологик фойдалар ҳам келтиради ҳамда яшил технологияларни жорий этиш (LEED, энергия самарадорлиги) қурилиш сарфини камайтиради, истиқболда эса хонандалар учун жуда муҳим бўлади.

Маълумки, иқтисодиётдаги исталган бир жараён ўзининг мультипликатив самарасини кўрсатади,шу жумладан, уй-жой қурилишида ҳар бир яратилган иш ўрни яна 2та бошқа соҳада мавжуд ички мултимультипликатор таъсирини келтиради. Мисол учун, Қозоғистонда коммунал хизматларни модернизация қилишда давлат-хусусий шериклик (PPP) орқали янги технологияларга инвестиция ажратилади ва бу эса жорий ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ечишда самарали восита саналади.

Умумий қилиб айтганда, уй-жой қурилишида инвестицияларни бошқаришда ижтимоий-иқтисодий механизмларни мукаммаллаштириш — давлат, хусусий сектор ва жамоатчилик ўртасида самарали ҳамкорлик ва тўлиқ интеграцияни талаб қилади ва албатта бунда қуйидаги **ташкилий-иқтисодий механизмлар** алоҳида аҳамиятга эга. Жумладан, ташкилий механизмлар сифатида қуйидагиларни таъкидлаш мумкин:

1. Ўзбекистонда лойиҳаларни босқичма-босқич мониторинг ва баҳолаш асосан **тўрт асосий босқичда ўрганилади:**

- *Дастлабки баҳолаш* – стратегик маълумот асосида грантлар/ихчамлаш керак
- *Имплементация босқичи* – идоравий мониторинг натижалари йил якунларига мос келиши
- *Оралиқ мониторинг* – лойиҳа ўрта йўлда белгиланган натижаларга мувофиқлигини текширади
- *Пост-инвентаризация* – иқтисодий ва ижтимоий барқарорлиги баҳоланади

2. Давлат бошқаруви ва ваколатли вазирликлар

- Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги давлат ва чет эл инвесторлари ўртасидаги ҳамкорликни мувофиқлаштиради, тендер, техник-иқтисодий асосларни шакллантиради;
- Маҳаллий ҳокимликлар (туман/шаҳар) эса хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва амалга оширишдан назарда тутади

3. Рақамли автоматлаштириш: "Шаффоф қурилиш"

2021 йилда тўлиқ жорий этилган "Шаффоф қурилиш" ахборот тизими:

- Лойиҳа-смета эксперт–реестри, реал вақт мониторинг, назоратнинг тўлиқ автоматлашуви
- Электрон ҳужжат айирбошлаш, ҳужжатларни рақамли имзо орқали тасдиқлаш, ҳолатларни онлайн кузатиш.

Бу холисликни таъминлайди, коррупцион рискларни камайтиради ва жамоатчилик назоратини кучайтиради.

4. Тендер ва қарор қўллашда DSS (Decision Support Systems)

- Халқаро тажрибада тендер жараёнларини ҳал қилишда DSS воситаларидан фойдаланилади.

Бу тизимлар субъектив қарорлар қабул қилиш ўрнига объектив ҳисоб-китоблар асосида қарор қабул қилишни таъминлайди.

5. Давлат-хусусий шериклик ва кластерлаш механизми

- Қурилиш материаллари ва уй-жой кластерларини алоҳида ҳудудларда шакллантириш, инфратузилмани давлат-хусусий шерикликда қуриш тизимини йўлга қўйиш тартиби мавжуд
- Махсус "Қишлоқ қурилиш инвест" каби муҳандислик-инфратузилма компанияларини солиқ имтиёзлари билан қўллаб-қувватлаш – бу таркибий механизм сифатида хизмат қилади

6. Инвестиция молияси ва назоратининг рақамли иқтисодий тизимлари

- Қурилиш лойиҳаларини финанслашда блокчейн асосида очиқ, шаффоф тўлов тизимлари мавжуд (Xiong'an мисоли) .
- Smart contract технологиялари тўлов бошқарувини мустаҳкамлашга хизмат қилади .

Ўзбекистонда уй-жой қурилиши соҳасида инвестицияларни бошқариш нинг **иқтисодий механизмлари** сифатида қуйидагиларни келтириб ўтамиз:

1. Кредит ва ипотека каналлари

- Давлат ва банклар мевасидаги кредитлар қурилиш лойиҳаларини молиялаштиришда асосий восита ҳисобланади. Масалан, Туркияда давлат хусусий сектор билан ҳамкорликда қурилиш компанияларига қолайтилган кредитлар ажратган ва шу орқали ипотекани кенгайтирган
- Бу механизм **«Risk-sharing»** моделини яратади — қурилиш кредитлари натижада ипотека тўловлари орқали қайтарилади. Шу билан истифодабўрувчи (охирги харидор) ҳам лойиҳада иштирок этади .

2. Молиявий лизинг ва облигациялар

- Исроил ва Европанинг тажрибалари мисолида, қурилишда молиявий лизингнинг жорий этилиши (**lease-to-own схемаси**), биринчи навбатда 10–20 фоиз% ўз маблағлар билан бошланиши, кейин банк кредитлар ва ижара асосида тўловлар амалга оширилади .
- Шунингдек, облигациялар ва мақсадли облигациялар («target bonds») орқали капитал жалб этиш, бу йил фаол ривожланаётган механизмлардан бири ҳисобланади .

3. Таркибий тизимлаштирилган молия (Structured Finance)

- Капитал хавфини тарқатиш учун ипотека кредитларини ёки қурилиш лойиҳаларини монетизациялаш активларига асосланган бўлиб (**ABS, MBS, CMO**) дастурлаштирилади .
- Бу молиявий воситалар орқали қурилиш лойиҳалари учун ликвидлик ва ресурс манбалари диверсификация қилинади .

4. Project Finance ва Blended Finance

- *Project Finance* – лойиҳаларни махсус СПЕ орқали ва фақат лойиҳа фойдаси негизида кредитлаш; лойиҳа активлари қарз учун гаров бўлади
- *Blended finance* – ижтимоий аҳамиятга эга қурилиш лойиҳаларини ривожлантиришда давлат-нодавлат ёки фойдаланувчи грантлар билан хусусий капитални жалб этади, бу SDG мақсадларига эришишга хизмат қилади .

5. Қиймат (value capture) ва солиқ рағбатлари

- Давлат томонидан амалга оширилган инфратузилма (*йўл, коммуникация ва ҳ.к.*)нинг қурилишга таъсири ҳисобга олинади; бу инфратузилма ўрнатилган жойларда ер қиймати ўсади. Бу тушумни мўлжаллаш орқали қурилишга қўшимча молиявий ресурслар йўналтириш мумкин .
- Шу билан бирга, **TIF (tax increment financing)** воситаси шаҳарда инфратузилма яратиш учун келажакдаги солиқлардан ижтимоий барқарор фойдаланиш пайтида қўлланилади .

6. REIT ва Crowdfunding

- *REIT (Real Estate Investment Trusts)* – қурилиш ва уй-жой лойиҳаларига пул жалб этиш учун жуда мувофиқ, айниқса ликвидликни таъминлайди — сармоядорлар учун дивиденд ва ликвид воситалар орқали даромад манбаи ҳисобланади.
- **Crowdfunding** усули ҳам оммавий сармояларни (*масалан, флип ва кичик уйлар қурилиши*) йиғишда хизмат қилади, онлайн платформа орқали жуда тез ва осон пул топиш имконини беради .

7. Банк-институт эҳтиёжли механизмлар

- Банк-институтлар қурилиш компаниялари ва ипотекага кредит беришда, кредитларни «pool»лаш, факторинг ва лизинг орқали молиявий жиҳатдан суғурталанган бўлиб, бу бозорни барқарорлаштиради ва кредит хавфини камайтиради .

Ушбу механизмм қурилиш секторини юқори кредителик имкониятлар билан таъминлашга хизмат қилади.

Бизнинг фикримизча, **у**й-жой қурилиши соҳасига инвестицияларни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш бўйича асосий устувор йўналишлар тавсия этилмоқда:

1. Public-Private Partnership (PPP) ва кластерлаш

• Давлат ва хусусий сектор ўртасида ҳамда қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчилари билан кластерлар тузиш PPP самарадорлигини ошириб, риск ва фойдани тенг тақсимлашга ёрдам беради .

• Ўнлаб замонавий технологияларни жорий этиш, энергия тежамкорлиги ва инфратузилма инвестицияларини рағбатлантиришда муваффақиятли механизм ҳисобланади .

2. Блокчейн ва смарт контраклардан фойдаланиш

• Молиялаштириш ва пул ҳаракатини бошқариш учун Xiong'an мисолида (Хитой) блокчейн асосида назорат тизимлари жорий этиш инвестиция хавфини камайтиради ва шаффофликни таъминлайди .

• Смарт-контрактлар билан тўлов автоматизацияси ва мониторинг йўлга қўйилиши йиллик аудит ва коррупция эҳтимолини камайтиради.

3. Adaptive management ва benefits realisation management (BRM)

• Лойиҳалар билан юқори иқтисодий ва ижтимоий натижа олиш учун доимий таҳлил, натижа ўлчовлари ва ўзгаришларни киритиш жараёнига асосланган adaptive management усули жорий этилиши керак .

• BRM орқали инвестиция натижалари ва ижтимоий таъсирларни режалаштириш ва мониторинг қилиш мумкин .

4. Қийматни қайтариш (value capture) ва молиявий механизмлар

• TIF (tax increment financing), солиқ имтиёзлари ва ер қиймати янада ошганидан келиб чиқиб молиялашиш – бу шаҳар инфратузилмасини молиялаштириш учун стратегик воситалар ҳисобланади .

• REIT ва crowdfunding воситаларини жорий қилиш — қурилиш лойиҳаларини оммавий молиялаштириш, ликвидликни ошириш ва ошкораликни таъминлашда кутилмаган ижтимоий эффектлар келтириши мумкин.

5. Иқтисодий рағбатлантириш ва турли бошқа имтиёзлар

• Солиқларни камайтириш, солиқ таътиллари бериш, қурилиш материалларини субсидия қилиш ва **Prefabrication** (бўйича) рағбатлантирувчи сиёсатлар — Хитой ва Сингапурда prefabricated housing тармоқларининг кенгайишини таъминлаган .

Албатта бу моделлар Ўзбекистон шароитига мослаштирилиб, қурилиш таннархини камайтириш устувор аҳамият касб этади.

6. Ижтимоий шериклик ва жамоатчилик кузатуви

Юқоридаги уй-жой қурилиш соҳасида инвестицияларни бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини республикамиз шароитига ва ўзига хос хусусиятларини инобатга олган самарали қўллаш соҳани ривожлантиришда муҳим қадам бўлади деб ўйлаймиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. https://digital-build.ru/8-mirovyh-tendenczij-stroitelnoj-otrasli-2024-2027/8 мировых тенденций строительной отрасли 2024−2027; ttps://tybet.ru/content/articles/index.php?SECTION_ID=597&ELEMENT_ID=133561

2. https://www.reportlinker.com/market-report/Smart-City/517853/Smart-City?term=smart%20city%20reports&matchtype=p&loc_interest=&loc_physical=9207614&utm_group=standard&utm_term https://www.thebusinessresearchcompany. com/ ; https://www.grandviewresearch.com/

3. researchgate.net.

4. uzdaily.uz.

5. researchgate.net.

ЎУК: 330.334.7.716

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ТЕХНИКАЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ЙИРИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИ ВА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ КООПЕРАЦИЯ АЛОҚАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АЙРИМ УСЛУБИЙ МАСАЛАЛАРИ

Ж.А. Атажонов, мустақил тадқиқотчи, Урганч давлат университети, Урганч

Аннотация*. Мазкур мақолада қишлоқ хўжалик техникалари ишлаб чиқарувчи йирик саноат корхоналари ва кичик бизнес субъектларининг кооперация алоқаларини шакллантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари қараб чиқилади.*

Калит сўзлар: *йирик бизнес, кичик бизнес, рақобатбардошлик, кооперация, кооперация алоқалари, кооперация самараси, кооперацияни амалга ошириш шартлари, кооперацияни амалга ошириш алгоритми*

Аннотация. *В данной статье рассматривается некоторые теоретико-методологические вопросы формирования кооперационных связей крупных промышленных предприятий производящие сельскохозяйственной техники и субъектов малого бизнеса.*

Ключевые слова: *крупный бизнес, малый бизнес, конкуренто способность, кооперация, кооперационные связи, эффект кооперации, условия осуществления кооперации, алгоритм осуществления кооперации.*

Abstract. *This article examines some theoretical and methodological issues of the formation of cooperative links between large industrial enterprises producing agricultural machinery and small businesses.*

Key words: *big business, small business, competitiveness, cooperation, cooperative links, cooperation effect, conditions for implementing cooperation, algorithm for implementing cooperation.*

Ўзбекистонда миллий саноатни ривожлантиришнинг зарурий таркибий қисми – бу республикамиз саноат корхоналари маҳсулотларининг рақобатбардошлигини ошириш бўлиб, бу албатта тўғридан-тўғри ишлаб чиқариш самарадорлигига боғлиқ. Эски хўжалик юритиш механизмлари замонавий бозор шароитида самарасиз ҳисобланади, янгилари эса Ғарб моделларидан кўчириб олинган бўлса-да, бир қатор сабабларга кўра республикамиз шароитида илдиз отмади, яъни яхши ривожланмади.

Шу сабабли бугунги кунда нафақат йирик бизнес, балки кичик бизнес учун ҳам бизнес ҳамкорлар билан самарали ва, энг муҳими, ўзаро манфаатли ҳамкорликнинг “янги” йўналишларини излаш ва жорий этиш эҳтиёжи долзарб бўлиб қолмоқда. Бу ерда гап йирик саноат корхоналари ва кичик хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги кооперация ва ўзаро ҳамкорлик ҳақида бормоқда.

Маълумки, кооперация тушунчаси оддий маънода корхоналарнинг умумий вазифани ҳал қилиш учун биргаликда фаолият юритишини англатади. Ресурслар чекланган ва корхоналарга (*масалан, давлат томонидан*) ташқи ёрдам кўрсатилмаётган шароитда, кооперацияни улар фаолияти самарадорлигини ошириш шарти сифатида тушуниш лозим. Чунки, бундай ҳамкорлик, ҳамкорнинг иқтисодий афзалликлари орқали ўз фаолиятидаги камчиликларни ўзаро биргаликда манфаатли бартараф этишни кўзда тутади. Масалан, кичик бизнес субъектларининг мослашувчанлигидан фойдаланган ҳолда, йирик корхоналар ўз ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, янги сотув каналларини йўлга қўйиш, илғор технологияларни ўзлаштириш ва жорий этиш имкониятига эга бўладилар.

Кичик бизнес тузилмалари ўртасидаги кооперацион алоқалар тизими яхлит муносабатлар мажмуасини ташкил этади. Шу билан бирга, бу мажмуа унинг алоҳида қисмларини шунчаки йиғиндиси эмас, балки бошқача айтганда, бутун тизимга хос бўлган хусусиятлар, унинг алоҳида қисмларида мавжуд бўлмаслиги мумкин. Шу сабабли айтиш мумкинки, бозорда мустақил равишда унчалик кучли иштирокчи бўлмаган айрим корхоналар, ўзаро кооперация орқали рақобатчиларга нисбатан устунлик берадиган хусусиятларга эга тизимни шакллантиришлари мумкин. Кооперация, кичик бизнес тузилмаси учун муҳим

бўлган, лекин унинг чегарасида мавжуд бўлмаган ресурсларни фирмалар ўртасидаги ҳамкорлик доирасида жалб этиш орқали рақобатбардош устунликларни излашга туртки беради.

Менежментга оид замонавий адабиётларда кўплаб муаллифлар, жумладан, Е.Г. Пугачёва ва К.Н. Соловьенко таъкидлашича, беқарорлик ва ўзгарувчанлик "деярли замонавий ҳаётнинг энг барқарор хусусиятига айланмоқда". Бу эса мутлақо янги бошқарув ёндашувларини талаб қилади. Яъни барқарор. қатъий тузилмалардан ўзгарувчан тузилмаларга, ягона ташкил этиш усулидан турли шаклларга, иерархик муносабатлардан тармоқли муносабатларга, рақобат ва ҳамкорлик муносабатларидан уларнинг комбинациясига ўтиш заруратини келтириб чиқаради [1]. Шу шароитда мураккаб тузилган бизнесни бошқариш фалсафаси айни пайтда энг долзарб йўналишга айланмоқда, чунки бу каби бизнес кўпинча юридик жиҳатдан мустақил ҳамкорлар мажмуасидан иборат бўлади.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес субъектлари нинг кооперацияси ривожланган Ғарб мамлакатларида қабул қилинган классик кооперациядан сезиларли даражада фарқ қилади. Ривожланган иқтисодиётга эга давлатларда ширкатлар, одатда, мураккаб ташкилий тузилмага эга бўлиб, уларнинг иштирокчилари ширкат ичидаги катта ҳажмдаги ахборот оқимларини қайта ишлайдилар, умумий пул маблағларига, ўзаро ёрдам жамғармаларига эга бўладилар ва бу жамғармалар ҳиссадорлик тўловлари ҳисобидан шакллантирилади. Бизнинг Ўзбекистонда эса бундай ўзаро ҳамкорлик шакллари жуда кам учрайди. Бир-биридан мустақил бўлган йирик ва кичик бизнес ёки кичик ва кичик бизне субъектларининг ресурсларни бирлаштириш асосидаги ҳамкорлиги вақтинчалик характерга эга бўлиб, иштирокчилар сони озчиликни ташкил этади. Оддий қилиб айтганда, бундай ҳамкорликлар кўпинча иштирокчиларнинг шахсий ташаббуси асосида, ҳиссадорларсиз шаклда ва тартибсиз равишда юзага келади [2].

Республикамизда иқтисодий тизимнинг ноқулай омиллари кичик бизнес субъектлари кооперация алоқаларини, турли тармоқдаги кластерларнинг ривожланишини маълум даражада чеклаб келмоқда. Чунки, кластерлар кўпроқ қишлоқ хўжалиги, яъни аграр соҳага кўпроқ хос бўлиб, уларни ҳам бир текис кейинги 2 йилда ривожланаяпти, тўлақонли ва самарали фаолият юритмоқда деб бўлмайди. Чунки, пахтачилик бўйича агрокластерлар жаҳон бозорида паҳта баҳосининг тушиб кетиши сабабли, улар билан кооперацияда ишловчи кўплаб фермер хўжаликларига етказиб берилган ҳосил учун паст баҳода тўлов қилдилар. Оқибатда кўпгина кластер ва фермер хўжаликларининг иқтисодий молиявий аҳволи танглашди. Аксинча, ривожланган давлатларда кичик бизнес субъектлари кластерлар ичида янги технологиялар тўғрисидаги маълумотлар билан ўзаро алмашинув ёки илмий-техникавий ишланмалар натижаларини биргаликда фойдаланиш имкониятларига эга. Шунингдек, Ўзбекистонда 2025 йил 1 январь ҳолатига кўра, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш мақсадида ташкил этилган агрокластерлар сони 651 тани ташқил этгани ҳолда, ушбу кластерлар пахта, ғалла, мева-сабзавот, чорвачилик, сут ва гўшт маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қамраб олади. Масалан, пахта ва ғалла етиштириш бўйича агрокластерлар республикадаги пахта майдонининг 100, мева-сабзавотчилик бўйича эса 40 фоиздан ортиғини ташкил этмоқда [3].

Агрокластерлар қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш, маҳсулотларни чуқур қайта ишлаш, экспорт салоҳиятини ошириш, бандликни таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш каби муҳим вазифаларни самарали амалга оширмоқда. Шунингдек, агрокластерлар фермерлар ва ишлаб чиқарувчилар ўртасида манфаатдорликни таъминлаш орқали иқтисодий ўсишга катта ҳисса қўшмоқда. Бироқ, Европа мамлакатларида эса кичик бизнес тузилмаларининг кооперацияси нафақат бизга нисбатан анча ривожланган, балки ахборот алмашиш ва инновацион фаолиятни биргаликда амалга оширишга йўналтирилган бўлади.

Ўзбекистонда кластерлар сони 2024 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра 437 тага етган. 2018–2022 йилларда мамлакатда 506 та кластер ташкил этилган бўлиб, уларнинг фаолияти натижасида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 32 баробарга ошган ва 28,7 триллион сўмга етган [4]. Шу билан бирга, 2023 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, Ўзбекистонда 21 та

махсус иқтисодий зона (МИЗ), 328 та кичик саноат зонаси (КСЗ), 23 та технопарк мавжуд бўлиб, уларнинг таркибидаги корхоналар сони МИЗда 768, КСЗда 2 494, технопаркларда эса 1 694 тани ташкил этган [5]. Кластерлар иқтисодиётнинг муҳим тармоқларини ривожлантириш, ишлаб чиқариш жараёнларини оптималлаштириш ва экспорт салоҳиятини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Аммо тадқиқотчилар таъкидлашича, бу ҳолатда кўпинча гап кластерлар ҳақида, яъни корхоналар ўртасида товарлар ёки ресурслар етказиб бериш даражасидаги ўзаро боғлиқлик мавжуд бўлган гуруҳлар ҳақида боради, биргаликда лойиҳаларни режалаштирувчи ва амалга оширувчи корхоналар гуруҳлари ҳақида эмас.

Ўзбекистондаги кўпчилик кичик бизнес субъектлари тенг ҳуқуқли шериклар ўртасида онгли цивилизациялашган кооперацияга тайёр эканлигини кўрсатмаяпти, чунки, кооперациядан фойда кўриш эҳтимолига паст баҳо берилиши муаммоли масала бўлиб қолмоқда. Шунга қарамасдан, фаолроқ кооперация юқори рақобатбардошликни таъминлашга ёрдам беради ва бу синергетик самаралар юзага келишига ишора қилади, ҳатто тадбиркорлик тузилмалари бундай самараларни аниқ баҳоламасалар ҳам. Бундан ташқари, бизнес муҳити билан фаол ҳамкорлик қилувчи кичик корхоналар орасида инновацион корхоналар улуши ҳамкорлик даражаси паст бўлган гуруҳга нисбатан юқори.

Кооперация алоқалари кичик бизнес тузилмаларини бирлаштириш шакли сифатида намоён бўлиб, улар *ишлаб чиқариш, иқтисодий, илмий-техникавий, ижтимоий* ва бошқа масалаларни ҳал этиш учун ҳамкорликда фаолият юритадилар.

Қуйидаги 1-расмда йирик ва кичик бизнес субъектларининг кооперацион алоқалари модели кўрсатилган. Бу алоқалар ихтиёрий келишувлар ва хусусий шартномалар асосида ресурсларни бирлаштириш ва улардан биргаликда фойдаланиш орқали ташкил этилади, бирлаштириладиган ресурслар эса турлича бўлиши мумкин

Улар қуйидагиларни ўз ичига олади:

• **молиявий ресурслар**: кооперацион жамоа ичидаги кредитлар, ўзаро ёрдам жамғармалари, лизинг, солиқ юкини оптималлаштириш масалалари;

• **моддий-техник ресурслар**: омбор ва офис бинолари, хомашё, материаллар ва бутловчи қисмлар захираси, жиҳозлар, ташкилот техникаси, транспорт воситалари;

• **ташкилий-бошқарув ресурслари**: бухгалтерия юритиш, ишлаб чиқариш жараёнининг маълум босқичини бошқариш, маркетинг, реклама;

• **интеллектуал капитал**: маълумотлар, билимлар, кўникмалар, компетенциялар ва тажриба алмашинуви.

Олинган кооперацион самарага қараб, ресурслар учун тўлов миқдори белгиланади, унинг энг паст чегараси эса ушбу ресурсларнинг шаклланган бозор баҳоси ҳисобланади.

Кооперация алоқалари доирасида бирлашган ҳолда йирик ва кичик бизнес субъектлари ягона тизимни шакллантиради ва яхлит объект сифатида улар бирлашув натижасида юзага келган афзалликлардан фойдаланган ҳолда ўз саъй-ҳаракатларини хом ашё, материаллар ва хизматлар етказиб берувчиларга, маҳсулот истеъмолчиларига, бир хил даражадаги бошқа тизимларга, ҳамда улар таркибига кирадиган кейинги иерархик даражадаги мураккаброқ тизим томон йўналтира олади.

Бундай кооперация таркибига кирувчи ҳар бир субъект ўзининг турли мақсадларини кўзлайди ва кўпинча йирки ва кичик бизнесдаги кооперация ўз харажатларини камайтириш мақсадида ўзаро субъектларнинг бирлашишини англатади. Кооперация тузилмасига аъзо ҳар бир иштирокчи бирлашиш натижасида қўшимча даромад олади, ва айнан шу ҳолат унинг ҳамкорликка бўлган иқтисодий манфаатдорлигини белгилайди.

Ташқи муҳитнинг тобора мураккаблашиб, янада динамик тус олиши турли хавф-хатарларнинг ошишига олиб келади. Бу ҳолат йирик, айниқса, кичик бизнес субъектларини бир-бири билан яқинроқ ҳамкорлик қилишга мажбур қилади, таҳлика ва хатарлар эса кооперация тузилмасининг барча иштирокчилари ўртасида бўлинади. Бундай ҳамкорлик орқали ҳар бир алоҳида корхона мураккаб шароитда бозорда барқарор позицияга эришади, ўз фаолиятини сақлаб қолади ва рақобатбардошлигини таъминлайди. Умумий ресурс базасини

яратиш ва ундан фойдаланиш орқали кичик корхоналар эҳтимолий мижозларнинг эҳтиёжларидаги ўзгаришларга тезда жавоб қайтариш, шунингдек, баҳо сиёсати ва талабни самаралироқ бошқариш имкониятига эга бўладилар [7].

1-расм. Йирик ва кичик бизнес кооперация алоқалари модели
Манба: Муаллиф ишланмаси

Илмий-техник кооперация ахборот, билим ва компетенциялар билан тезкор алмашинувни таъминлайди, бу эса янги билимнинг пайдо бўлишига олиб келиши мумкин. Шундай қилиб, кичик бизнес субъектлари ўртасида самарали кооперация алоқаларини ривожлантириш муносабатларнинг оддий ресурс алмашишдан инновацион жараён доирасидаги шерикликгача ривожла-нишини таъминлайди, ҳатто агар дастлаб ҳамкорликнинг асосий мақсадлари-дан бири сифатида инновациялар ривожи кўзда тутилмаган бўлса ҳам.

Йирки ва кичик бизнес ўртасида кооперация алоқаларини турли шаклда йўлга қўйиш орқали юқори натижаларга эришиш мумкинлигини синергетик самара билан изоҳлаш мумкин. Иқтисодий жараёнларга нисбатан "**синергизм**" самараси таҳлилига катта эътибор берган стратегик менежмент соҳасидаги машҳур назариячи И.Ансофф бу самарани қуйидагича таърифлаган: *ресурсларни биргаликда фойдаланиш натижасида олинадиган умумий самара билан улардан алоҳида-алоҳида фойдаланишда олинадиган хусусий самаралар йиғиндиси ўртасидаги фарқ.* Ҳозирги кунда илмий адабиётларда бу тушунчанинг икки хил талқини мавжуд: **соддалаштирилган ва мураккаб (батафсил).** Бу талқинлар бир-бирига зид эмас ва ҳар иккаласи ҳам ҳамкорлик самарадорлигини баҳолашда қўлланилиши мумкин.

Иқтисодий тадқиқотларда асосан қўлланиладиган **биринчи талқин** "**синергизм**"ни мутаносибликнинг бузилиши билан боғлайди. И. Ансофф ёзади: "бизнес адабиётида бу тушунча «**2+2=5»** эффекти деб аталади, чунки компания шундай товар-бозор комбинациясини

излайдики, унда умумий самара алоҳида қисмлар йиғиндисидан юқори бўлади [8]". Бу ерда пайдо бўладиган қўшимча бирлик (**5–4=1**) айнан синергизм ҳисобига юзага келади. Бу талқин тизимнинг фақат бошланғич ва якуний ҳолатларини кўриб чиқади, ўзаро кооперация жараёнида юзага келадиган оралиқ босқичларга эътибор қаратмайди. Шу сабабли, у кичик бизнес тузилмалари ўртасидаги ҳамкорлик самарадорлигини уларнинг кооперациясигача бўлган давр ва кооперациядан кейинги ҳолатини таққослаш орқали баҳолашда қўлланилиши мумкин.

Иккинчи талқин эса айнан кооперация жараёнидаги ўтиш жараёнларига йўналтирилган, яъни синергетик самара кооперация ичидаги чизиқли ҳамда чизиқсиз ривожланиш динамикаси билан боғлиқ ҳолда қараб чиқилади [9]. Ушбу талқин кооперациянинг оралиқ босқичларини баҳолашда ишлатилади. Чунки, йирик ва кичик бизнес субъектлари аввало кооперацияни бошлаганда дастлаб харажатларни кўпайиши ва иқтисодий кўрсаткичларнинг ёмонлашуви юз беради, кейин маълум бир вақт ўтгач, кооперация самараси орқали иқтисодий кўрсаткичлар яхшиланади.

Ҳар бир йирик ёки кичик бизнес субъекти кооперация алоқаларини бошлар экан, ундан



2-расм. Йирик ва кичик бизнес субъектларининг кооперация алоқаларининг мақсадли йўналтирилганлик тизими
Манба: Муаллиф ишланмаси

турли мақсадларни кўзлайди. Бироқ, шуни таъкидлаш керакки, кооперация жараёнида кичик ва йирик бизнес тузилмалари бевосита олинган **тўғридан-тўғри самаралардан** ташқари, иқтисодиётнинг умумий ҳолатига таъсир қиладиган **қўшимча самара** ҳам мавжуд. Фикримизча, кичик бизнесда кооперация алоқаларини мақсадга йўналтирилган тизимининг тузилмасини 4 даражадан иборат пирамида шаклида тасаввур этиш мумкин. Ҳар бир даража ўзига хос мақсадлар ва вазифаларни ўз ичига олади (*2-расмга қаранг*).

Биринчи даража - пирамида асоси - бу кичик ва йирик бизнес кооперация алоқалари тизимининг барча қатнашчиларининг мақсадлари: *харажатларни камайтириш орқали фойдани ошириш; савдони кенгайтириш, бозор улушини эгаллаш; бозорга чиқиш, янги маҳсулотни тақдим этиш; янги маълумот, билимлар, технологияларни олиш; корхонанинг рақобат курашида, пул маблағлари танқислиги даврида яшаб қолишини таъминлаш; номақбул қўшиб олиш ёки бирлаштиришдан қочиш ва ҳ.к.*



3-расм. КБСКАни шакллантириш алгоритми
Манба: Муаллиф ишланмаси

Кичик ва йирик бизнес кооперация алоқалари тизимидаги **иккинчи даража** — *умумий ишлаб чиқариш, иқтисодий, илмий-техник, ижтимоий ва бошқа вазифалар*дан иборат: умумий билимлар базасини яратиш, ахборотнинг тез алмашинуви; талабни бошқариш, баҳо сиёсатини ишлаб чиқиш; хавфларни шериклар ўртасида тақсимлаш; уни эксплуатация қилиш ва тиклаш харажатларини камайтириш учун умумий ресурс базасини шакллантириш;

синергетик самаралар пайдо бўлишидан олиб келадиган умумий даромадларни максималлаштириш; маркетинг, технологиялар, молиявий афзалликларни қўлга киритиш орқали рақобатбардошликни ошириш.

Учинчи даража - бу мақсадлар кичик ва йирик бизнеснинг кооперация жараёнларига эришиши ва ҳудудлар иқтисодиётининг соғломлашишига кўмаклашади: кичик бизнес секторининг шаклланиши ва ривожланиши, иқтисодиётнинг зарур бўлган элементи сифатида; бизнес тармоқлари ва стратегик альянсларни ривожлантириш ва уларни иқтисодиётнинг асосий фаолият юритувчи субъектларига айлантириш; соғлом рақобат муҳитини шакллантириш, антимонополия омиллари сифатида; чет эл товарларини бозордан максимал даражада камайтириш инновацияларни тарқатиш.

Тўртинчи даража - глобал мақсад - *миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш*. Ҳар бир олдинги даражадаги мақсадларга эришиш, кейинги даражадаги вазифаларни муваффақиятли ҳал қилишга ёрдам беради. Шундай қилиб, тақдим этилган мақсадга йўналишган тизим шундай кўрсатадики, йирик ва кичик бизнесда самарали кооперация алоқалари миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошликни ошириш омилларидан биридир.

Исталган бир кичик ёки йирик бизнес субъектлари учун мақсадга мувофиқ самарали кооперация алоқаларни шакллантириш, шерикларни танлаш — бу муайян ташкилий ва бошқарув саъй-ҳаракатларини талаб қиладиган жараён. Кичик бизнес субъектларининг кооперация алоқаларини шакллантириш жараёни алгоритм шаклида 3-расмда келтириб ўтилади.

Ушбу алгоритмдаги энг муҳим ва мураккаб босқич — бу кооперация учун шериклар танлаш масаласини ҳал қилиш босқичидир. Фарз қилайлик, N — бу кооперацияда иштирок этиши мумкин бўлган субъектларнинг якуний мажмуаси. Кооперация вариантларининг мумкин бўлган сони V миқдор билан аниқланади.

$$V(N) = \sum_{k=2}^{N} C_N^k ,$$

бу ерда k – кооперация алоқалари варианти қатнашчилари сони

C^k_N *– бу N дан k та элемент бўйича мумкин бўлган комбинациялар сони.*

КБСКА ёрдамида ҳал қилиши лозим бўлган вазифалардан келиб чиққан ҳолда, аввало қўйилган мақсадларга эришишга ёрдам бермайдиган вариантлар чиқариб ташланади. Кейин эса қолган вариантлар бўйича кооперация самарадорлигини дастлабки баҳолаш амалга оширилади. Демак, самарадорлик нинг дастлабки баҳосидан сўнг, кооперация натижасида **синергетик самара манфий** бўлган кичик бизнес субъектлари эҳтимолий шериклар рўйхатидан чиқариб ташланади. Шунда синергетик самара мусбат бўлган (*ёки нольга тенг, аммо бунда корхона дарҳол математик йўл билан баҳолаб бўлмайдиган айрим кичик фойдага эга бўладиган*) ҳолатлар учун $\tilde{v} \epsilon V(N)$) кўринишидаги вариантлар тўплами шакллантирилади. Ушбу тўплам кооперация алоқалари тизимини шакллантириш учун мумкин бўлган вариантлар сонини ифодалайди. Энг катта афзаллик, эҳтимол, айнан шу $\tilde{v}$ тўпламидан, кутилган ҳолда, максимал самара берадиган вариантларга берилади.

1-жадвал

Йирик ва кичик бизнес субъектларининг кооперация алоқалари турини танлаш матрицаси (Pij – кооперациянинг таққосланаётган муҳим кўрсаткичлари)

Кооперацион стратегия	Интеграция усули		
	Вертикал	Горизонтал	Диагонал
Ко-маҳсулот	$П_{11}$	$П_{12}$	$П_{13}$
Ко-инновацион	$П_{21}$	$П_{22}$	$П_{23}$
Ко-ихтисослашув	$П_{31}$	$П_{32}$	$П_{33}$

Манба: Муаллиф ишланмаси

Кооперация алоқаларининг оптимал моделини шакллантириш, энг катта умумий қийматни яратишни таъминлайдиган стратегик ва ташкилий жиҳатдан бир-бирини тўлдирувчи кооперация шаклини излашга қаратилган. Бунинг учун КБСКА турларини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ бўлиб, бунда базавий стратегияларнинг **вертикал, горизонтал ёки**

диагонал интеграция асосида амалга оширилишининг муқобил шакллари намоён бўлади ва мумкин бўлган энг юқори кооперацион самарага эришиш имконини беради (1-жадвал).

Кооперацион стратегия моделини шакллантириш, стратегияни белгилаб берувчи асосий омилларни аниқлаш ва иккинчи даражали хусусиятлар ва унсурларни мавҳумлаштиришни назарда тутади. Ушбу таҳлил доирасида *ко-инновацион қобилиятлар ва ко-ихтисослашув* қобилиятларини шакллантириш учун зарур бўлган шароитлар мавжудлигини кўриб чиқиш муҳимдир, чунки стратегик жиҳатдан муҳим бўлган натижалар, аввало, инновацион самаралар ва ноёб афзалликлар орқали қўлга киритилади.

Энг эҳтимолли ҳолат — бу 2 та йирик ва кичик бизнес субъекти ўртасида барқарор ва узоқ муддатли кооперация алоқаларини ўрнатишдир. Чунки, кооперацияда қатнашувчи субъектлар сони кўпайган сари ҳаракатларни мувофиқлаштириш ва кооперация тузилмасида ахборот алмашинуви жараёни мураккаблашади. Шунинг учун ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш имкониятини аниқроқ кўриб чиқамиз. Бу ҳолат Хоразм вилоятидаги қишлоқ хўжалик техникалари ишлаб чиқарувчи йирик корхона бўлган—"Ургенчкорммаш" АЖ ва шу йўналишда деталлар ва жиҳозлар ишлаб чиқарув чи ва етказиб берувчи "ЖасминЛитмаш" МЧЖ ўртасидаги кооперация алоқа лари мисолида таҳлил қилинади.

"Ургенчкорммаш" АЖ нинг асосий фаолияти қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган турли ҳажмдаги тиркамалар, плуглар, уруғ экадиган техника (сеялка) ва бошқа ўрадиган, ем хашак тарқатадиган техникаларни ишлаб чиқаришдан иборат. Ушбу корхонанинг энг асосий шерикларидан бири "Жасмин Литмаш" МЧЖ унга бутловчи қисмлар, деталлар, металл прокат ва бошқа хом ашёларни етказиб бериш билан боғлиқ. Демак, ушбу икки ташкилот ўртасида кооперация алоқалари ишлаб чиқарувчилар ва моддий ресурслар истеъмолчилари ўртасида воситачилик шаклида амалга оширилади.

Мижозларининг буюртмасига асосан, "Ургенчкорммаш" АЖ керакли қишлоқ хўжалик техника ва технологияларини ишлаб чиқариш, улар учун бутловчиларни харид қилиш, тўплаш ва вақтинча сақлаш ишларини амалга оширади. Ўз фаолиятини муваффақиятли ташкил этиш учун мазкур корхона доимий равишда фаол маркетинг ишлари билан шуғулланиши талаб этилади. Ушбу йирик корхона бўлган "Ургенчкорммаш" АЖ ўз фаолияти давомида бу йўналишда маълум муваффақиятларга эришган ва ўзаро кооперацияда ишлаб келаётган кичик бизнес субъектлари учун етарлича катта мижозлар тармоғига эга. Маркетинг тадқиқотлари, реклама ташкил этиш каби ишлар кичик корхоналар учун қимматга тушадиган ва етарлича мавжуд бўлмаган фаолият турларидир. Одатда, бу чора-тадбирлар дастлабки босқичда КБХТ субъектларининг иқтисодий кўрсаткичларини ёмонлашишига олиб келади.

"Ургенчкорммаш" АЖ учун бу босқич аллақачон ўтган бўлиб, тўпланган маркетинг ахбороти ҳозирги вақтда қўшимча даромад манбаси ёки харажатларни қисқартириш воситасига айланиши мумкин. Маркетинг ахбороти — бу шундай ресурски, корхона уни кооперацион ҳамкорликни амалга ошириш жараёнида бошқалар билан баҳам кўриши мумкин.

"Жасмин Литмаш" МЧЖ ишлаб чиқариш компанияси асосан "Ургенчкорммаш" АЖ нинг техник ва технологик талабларидан келиб чиққан ҳолда қишлоқ хўжалик техникалари ишлаб чиқаришда керак бўладиган металл прокат листлар, турли бутловчи эҳтиёт қисмлар етказиб бериш билан шуғулланади. Ҳар бир мижознинг техник талаблари ўзига хос бўлгани учун, улар асосида қишлоқ хўжалик техникаларини сериявий ишлаб чиқариш мумкин эмас, чунки улар фақатгина муайян манзилли буюртмачига керак бўлади холос.

"Жасмин Литмаш" МЧЖда етказиб берилган металл буюм ва хом ашёлар, деталлар, ишлаб чиқилган чизмалар ва қуйилган шакллар, одатда, чекланган вақт мобайнида, баъзида эса фақат бир мартагина ишлатилади. Бундай ишлаб чиқариш жараёни анчагина меҳнатталаб ҳисобланади. Бу эса йирик саноат корхонаси бўлган "Ургенчкорммаш" АЖда жуда майда, ноқулай ва тўмтоқ жараён ҳисобланади.

"Жасмин Литмаш" МЧЖда учун янги маҳсулотни бозорга чиқаришда зарур бўлган кўламдаги маркетинг фаолиятини амалга ошириш молиявий ресурслар етарли эмаслиги

сабабли имконсиз ҳисобланади. Маркетингга бўлган эҳтиёж ва унинг амалий имконияти ўртасидаги зиддият ушбу кичик корхона учун жуда долзарб муаммодир.



4-расм. “Ургенчкорммаш”АЖ ва “ЖасминЛитмаш” МЧЖ ўртасида маркетинг соҳасида кооперация чизмаси

(*маҳсулотни бозорда илгари суриш*)

4-расмда “*Ургенчкорммаш” АЖ ва “ЖасминЛитмаш” МЧЖ* ўртасидаги маркетинг маълумотларини биргаликда фойдаланиш асосидаги кооперация чизмаси берилган.

Ушбу чизмага кўра, ушбу корхоналар ўртасидаги кооперацион ҳамкорлик фақат харажатларни камайтириш ёки қўшимча даромад олиш орқали молия вий фойда келтирибгина қолмай, балки уларнинг бозордаги позицияларини мустаҳкамлаш ва стратегик мақсадларига яқинлашиш имконини ҳам беради.

Маркетинг соҳасидаги ҳамкорликдан ташқари, мазкур тадбиркорлик субъектлари моддий-техника ресурсларидан – аниқроғи, омборхона ва автотранспорт воситаларидан биргаликда фойдаланиш орқали ҳам кооперация қилишлари мумкин. 5-расмда “Ургенчкорммаш”АЖ ва “ЖасминЛитмаш” МЧЖ ўртасида омборхона ва автотранспортдан биргаликда фойдаланиш асосидаги кооперацион алоқа чизмаси келтирилган.

“ЖасминЛитмаш” МЧЖ ўз мулкида омборхона майдонига эга, бироқ бу омбор доимий равишда тўлиқ фойдаланилмайди. Шу билан бирга, баъзан омбор тўлиқ банд бўлиши туфайли, унинг муайян қисми бошқаларга ижарага берилиши мумкин эмас. Кооперацион алоқалар доирасида, баъзида ушбу ортиқча майдонлар “Ургенчкорммаш”АЖ ихтиёрига вақтинча фойдаланиш учун берилмоқда. Бу корхона ўз мижозлари буюртма қилган қурилиш материалларининг тўлиқ партияси шакллангунча уларни вақтинча сақлаш учун омборхонага эҳтиёж сезади, аммо ўз омборига эга эмас.

Бундай кооперация “Ургенчкорммаш” АЖ учун манфаатлидир, чунки вақтинча сақлаш — эпизодик жараён бўлиб, “ЖасминЛитмаш” МЧЖ билан омборхонани биргаликда фойдаланиш доимий ижарадан кўра анча иқтисодий самаралидир. Чунки, учинчи шахслардан омбор ижарага олинган тақдирда, у тез-тез бўш туриши мумкин. Шунингдек, ҳар 2 корхона —

"Ургенчкорммаш" АЖ ва "ЖасминЛитмаш" МЧЖ — ўз маҳсулотларини жанубий, шарқий ва марказий ҳудудларига поезд ёки автотранспортда етказиб беришга эҳтиёж сезади. Автотранспорт воситаларини биргаликда ижарага олиш эса ушбу харажатларни сезиларли даражада камайтириш имконини беради.

5-расм. Омбор биноси ва автотранспортдан биргаликда фойдаланиш бўйича "Ургенчкорммаш" АЖ ва "ЖасминЛитмаш" МЧЖ ўртасида кооперацион ҳамкорлик чизмаси

Хулоса қилиб айтганда, "Ургенчкорммаш" АЖ ва "ЖасминЛитмаш" МЧЖ каби йирик ва кичик бизнес субъектларининг кооперация алоқалари асосида ягона тизимга бирлашиши уларга мавжуд ишлаб чиқариш ресурсларидан самаралироқ фойдаланиш имконини яратади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. СПб.: Питер, 1999, с.123.

2. Голубев А.А. Организационные механизмы кооперации промышленных предприятий. Дисс. на соиск.канд.экон.наук. Саранск.2004.

3. Катенев В.И., Полонский С.Ю., Юлшева О.У. Межфирменная кооперация: сетевые формы организация бизнеса в условиях информационного общества и экономики знаний// Новости электроники, 2007, №2, С.22-26;

4. Колесникова Л., Перекрестов В. Организационные структуры и культура предпринимательства // Вопросы экономики. - 2000. - №8. - С. 15-30;

5. Лебедев В.В.Математическое моделирование соцтально-экономических процессов. Москва, Изограф, С.127

6. Майн Е.Р. Малый бизнес как форма привлечения трудовых ресурсов. Проблемы моделирования развития производственных систем. Материалы семинара (вып. 1) М., ЦЭМИ РАН, 1999

7. Пугачева Е.Г., Соловьенко К.Н. Самоорганизация социально-экономических систем: Учеб. пособие. — Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2003. — 172 с.

8. Попова О.В. Формироваия кооперационного взаимодействие субъектов малого предпринимательства. Дисс. на соиск.канд.экон.наук. Омск, 2012

9. Салаев С.К. Кичик ва йирик бизнес кооперацион алоқаларини моделлаштириш масалалари // Маъмун Академияси Ахборотномаси илмий журнали. – Урганч. 2007. - № 2. – Б. 38-43.;

10. Салаев С.К. Йирик бизнеснинг кучли ва заиф томонлари // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент. 2004. - № 5-6. – Б. 35-36.

11. Салаев С.К. Кичик бизнес кооперацион алоқаларини моделлаштириш // Бозор, пул ва кредит. – Тошкент. 2007. - № 6. – Б. 45-48.

12. https://uza.uz/uz/posts/galla-urugini-tezroq-erga-qadab-2025-yilda-galladan-yanada-mol-hosil-olaylik_628675?utm_source=chatgpt.com

13. Uza.uz+1Daryo.uz+1

14. Daryo.uz+1nuz.uz+1

УЎК 330

КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИ УЧУН ЭЛЕКТРОН МАНБАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ, СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ҚЎЛЛАНИЛАЁТГАН ДАСТУРИЙ МАҲСУЛОТЛАРНИНГ АХАМИЯТИ

М.А.Қурбонов, доц., DSc, Тошкент давлат иқтисодиёт Университети, Тошкент

Аннотация. *Мазкур тадқиқотда Республика давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини янада автоматлаштириш орқали тадқиқот давомида ишлаб чиқилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар берилган.*

Калит сўзлар*: Камерал назорат, риск анализ, ахборот-коммуникация технологиялари, маълумотлар базаси.*

Аннотация. *В данном исследовании представлены научные предложения и практические рекомендации, разработанные в ходе исследования, направленные на дальнейшую автоматизацию деятельности органов Государственной налоговой службы Республики.*

Ключевые слова: *камеральный контроль, риск-анализ, информационно-коммуникационные технологии, база данных.*

Abstract. *This study provides scientific proposals and practical recommendations developed during the research aimed at further automating the activities of the State Tax Service bodies of the Republic.*

Keywords: *desk audit, risk analysis, information and communication technologies, database.*

Кириш. Мамлакат иқтисодиётини узоқ муддатли ривожлантириш борасида кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилаётган шароитда самарали солиққа тортиш тизими ва давлат солиқ хизмати органларининг уйғунлашган фаолияти алоҳида аҳамият касб этади.

Бугунги кунда солиқлар йиғилувчанлигини ошириш учун коммерал назоратни амалга ошириш ва риск анализлар маълумотларини тўплайдиган базанинг такомиллашмаганлиги, давлат солиқ органларига мутасадди идора ва ташкилотлар томонидан ўз вақтида ва сифатли маълумотлар тақдим этилмаётганлиги, корхоналарнинг солиқ мажбуриятлари самарали усул орқали назорат қилинмаётганлиги, камерал солиқ текширувини оддий арифметик амаллар орқали амалга оширилиши оқибатида солиқ назорати кўпроқ инсон омилига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Бу эса ўз навбатида мамлакатда хуфёна иқтисодиётни юзага келтирувчи омиллардан бири ҳисобланади. Солиқ базасини яшириб, солиқдан қочиш, қинғир йўл билан даромадини кўпайтирган тадбиркор бозорда соғлом рақобат муҳитини бузади ва инсофли солиқ тўловчиларга ҳам иқтисодий ҳам ахлоқий зарар етказади. Бошқа томондан олиб қаралганда, солиқ органлари томонидан ҳуқуқбузарликка қарши кўрилган жазо-чоралари, хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳолатини ёмонлашишига, ўз бизнесини режалаштиришда изчиллик йўқолишига ҳам олиб келиши мумкин. Бизнинг фикримизча бунга асосий сабаб, солиқ рискларини аниқлаш, баҳолаш ва олдини олиш чора-тадбирлари тизимлаштирилмаганлиги, ушбу йўналишга маълумотлар базасидаги ахборотларни инсон омилисиз самарали таҳлил қилиш воситалари мавжуд эмаслиги, ушбу йўналишга узвий боғлиқ бўлган қонун хужжатларида бўшлиқлар мавжудлиги ва бошқа вазирлик ва идоралар билан ўз вақтида электрон ахборот алмашиш амалга оширилмаётганлигидадир.

Камерал солиқ текшируви тушунчаси Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг (2020) 138-моддасида қайд этилган бўлиб, солиқ тўловчи (солиқ агенти) томонидан тақдим

этилган солиқ хисоботини, молиявий хисоботни, шунингдек солиқ тўловчининг фаолияти тўғрисида солиқ органида мавжуд бўлган бошқа хужжатлар хамда маълумотларни тахлил қилиш асосида солиқ органи томонидан ўтказиладиган солиқ текшируви хисобланади.

Камерал солик текшируви солиқ Кодекснинг 88-моддасида белгиланган даъво муддати ўтмаган солик даврларига нисбатан ўтказилиши мумкин. Камерал солик текшируви жараёнида солик органи солик тўловчидан (солик агентидан, учинчи шахсдан) ҳисобга олиш хужжатларини, тақдим этилган солик хисоботига ва хисобга олиш хужжатларига доир тушунтиришларни, шунингдек солиқ ҳамда йиғимларни хисоблаб чикариш ва тўлаш билан боғлик бошка ахборотни солиқ Кодексда назарда тутилган тартибда сўраб олиши мумкин.

Агар ўтказилган камерал солик текшируви якуни билан тақдим этилган солик хисоботида тафовутлар ва (ёки) хатолар аникланган бўлса, солик органи солик тўловчига солиқ Кодексда белгиланган тартибда солик ҳисоботларига тузатишлар киритиш талабномасини юборади.

Солиқ ҳисоботига тузатишлар киритиш ҳақида талабнома юборилган сана камерал солик текшируви тугатилган сана ҳисобланади. Агар ўрганиш ва таҳлил қилиш якунларига кўра тафовутлар ва (ёки) хатолар аниқланмаган бўлса ҳам камерал солиқ текшируви якунланган ҳисобланади.

Солик тўловчи тузатишлар киритиш тўғрисидаги талабнома олинган кундан эътиборан ўн кунлик муддатда тегишли соликлар ва йиғимлар бўйича аниклаштирилган солик хисоботини ёхуд тасдиқловчи ҳужжатларни тақдим этган холда аникланган тафовутларнинг асосномасини солиқ Кодексда белгиланган тартибда тақдим этади.

Солиқ юки, қуйидаги тартибда аниқланади:

B = T x 100% / In

Бунда:

B — солиқ юки;

T — солиқ даври давомида тўланиши лозим бўлган солиқлар суммаси;

In — солиқ даврида товарларни (хизматларни) сотишдан тушган даромад.

Солиқ юки кўрсаткичи иқтисодий фаолият турлари бўйича аниқланади. Иқтисодий фаолият турлари бўйича ўртача солиқ юки кўрсаткичи Давлат солиқ қўмитасининг расмий веб-сайтида ҳар йили эълон қилиниб борилиши шарт. Солиқ хавфи даражаси солиқ хавфи мезонлари асосида аниқланади, уларга 1 дан 100 гача бўлган баллар берилади. Бунда ҳар бир мезон бўйича балл бериш Давлат солиқ қўмитаси томонидан солиқ тўловчиларнинг иқтисодий фаолият тури бўйича сегментланиши ва солиқ даври учун олинган даромад миқдорига қараб белгиланади.

Солиқ хавфи даражасига қараб солиқ тўловчилар Дастур орқали солиқ хавфи даражасини аниқлаш мезонига белгиланган баллар ва потенциал солиқ хавфи асосида баҳоланади ҳамда тоифаларга ажратилади.

Солиқ хавфи даражаси қуйидаги формула асосида ҳисобланади:

R = Sr / Sp x 100%

Бунда:

R — хавф даражаси (фоизда);

Sr — солиқ тўловчига берилган хавф баллари йиғиндиси;

Sp — хавф даражасини аниқлашда қўлланган потенциал солиқ хавфи баллари йиғиндиси.

Бунда солиқ хавфи даражаларини баҳолаш натижалари юқоридан камайиш тартибида, баҳолаш натижалари тенг бўлганда эса — тўланмаган солиқ суммаси эҳтимоли асосида қуйидагича тоифаланади:

81 фоиздан 100 фоизгача — юқори хавф;

30 фоиздан 80 фоизгача — ўрта хавф;

1 фоиздан 29 фоизгача — паст хавф.

Солиқ хавфи даражаси юқори бўлган солиқ тўловчиларга нисбатан солиқ аудити тайинланади. Солиқ хавфи даражаси ўрта ва паст бўлган солиқ тўловчиларга нисбатан солиқ

органлари томонидан Солиқ кодексида назарда тутилган бошқа солиқ маъмурчилиги тадбирлари қўлланилади.

2019 йил якунига қадар амалда бўлган солиқ Кодексининг 84-моддасида "Солиқ тўловчиларнинг мажбуриятлари юзага келганлиги тўғрисида ахборот тақдим этадиган органлар ва ташкилотлар ҳамда уларнинг мажбуриятлари" белгиланган эди.

2020 йилга келиб эса солиқ Кодексинин янги тахрири тасиқланиб солиқ тўловчиларнинг мажбуриятлари юзага келганлиги тўғрисида ахборот тақдим этадиган органлар ва ташкилотлар ҳамда уларнинг мажбуриятлари 133 ва 134- моддаларда белигилаб қўйилди.

Хулоса ва таклифлар. Смарт технологиялар маълумотлар базасини тўлиқ, мукаммал ва ўз вақтида шакллантирилишини таъминлаб бориш мақсадида Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 215/3-моддасига тегишли ўзгартиришлар китирилгани холда маълумотларни тақдим этадиган корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг масъулиятини солиқ агентлари масъулиятига тенглаштириш ҳамда жавобгарлигини ошириш, хато тақдим қилган, маълумотларни тўлиқ ёки умуман тақдим этмаган ташкилотларга нисбатан **кескин** чоралар кўрадиган механизмни назорат қилишни кучайтириш ва чора кўриш ваколатини **юқори турувчи** давлат органларига ўтказиш лозим.

АВ-1321-сонли низомига ўзгартириш киритган холда, хўжалик юритувчи субъектларни йирик микдордаги банк айланмаларни айланма амалга оширилган бир вақтнинг ўзида, айнан шу субъект томонидан йирик миқдордаги айланма амалга оширилгандан сўнг маълум муддат учун барча айланмаларини ва контрагент ташкилотнинг хам ўтказиб берилган пулни нима мақсадларга сарфланиши бўйича айланмаларни, миқдоридан қатъй назар, инсон омилисиз онлайн равишда Тижорат банкларнинг бош идоралари орқали эмас, Марказий банк томонидан Давлат солиқ қўмитасининг ташқи манба маълумотлар базасига тақдим этиш лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Artemenko D.A., Aguzarova L.A., Aguzarova F.S., Porollo E.V. (2017) "Causes of Tax Risks and Ways to Reduce Them". Pages 454-458.

2. OECD (2020), "Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration". Pages 10-24.

3. Кодекс (2019) Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Солиқ кодекси.

4. Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги "Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида" ПФ-6098-сон.

5. Қарор (2010) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 январдаги "Республика солиқ органлари тизимини янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-1257-сон.

УЎК 339.97

МИЛЛИЙ ХЎЖАЛИКНИ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ЙЎЛЛАРИ ВА УСТУВОРЛИКЛАРИ

А.А.Маматов, проф., Қарши Давлат Техника Университети, Қарши
А.Ф.Хуррамов, проф., Қарши Давлат Техника Университети, Қарши

Аннотация. *мақолада жаҳонда ва Ўзбекистонда табиий ресурслардан фойдаланишда вужудга келган экологик муаммоларнинг илмий-назарий ва амалий жиҳатлари тадқиқ этилиб, Ўзбекистонда "яшил иқтисодиёт"га ўтиш стратегияси ва давлат дастурининг устувор йўналишлари очиб берилган.*

Калит сўзлар*: экология, яшил иқтисодиёт, барқарор ривожланиш мақсадлари, ҳайвонот олами, стратегия, дастур, биосфера, энергетика.*

Аннотация. *в статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты экологических проблем, возникающих при использовании природных ресурсов в мире и в Узбекистане, а также раскрываются приоритетные направления стратегии и государственной программы перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане. Узбекистан.*

Ключевые слова: *экология, зеленая экономика, цели устойчивого развития, дикая природа, стратегия, программа, биосфера, энергетика.*

Abstract. *the article examines the scientific, theoretical and practical aspects of environmental problems arising from the use of natural resources in the world and in Uzbekistan, and also reveals*

the priority areas of the strategy and state program for the transition to a "green economy" in Uzbekistan. Uzbekistan.

Key words: *ecology, green economy, sustainable development goals, wildlife, strategy, program, biosphere, energy.*

Дунё иқтисодиётида сўнгги асрда инсоният экологияга ва атроф-муҳит ҳолатига тўғри ғамхўрлик қилмасдан иқтисодий фаолият олиб борди ва ривожланди. Сайёрада шаҳарлар йириклашиб, аҳолиси 20−35 миллионли мегаполислар кўпайиб бормоқда. Бу энергоресурслар, айниқса, ёқилғига бўлган талабни кун сайин ўсиб бормоқда. Инсон омили туфайли охирги юз йилда ер шарида экин экиладиган ер майдони тўртдан бир қисмга, ўрмонлар учдан икки қисмга қисқарди. Бунинг натижасида дунё бўйича кейинги 30 йил ичида ҳайвонот оламининг 8−10 фоизи қирилиб кетди. Сайёрамизда тропик ўрмонлар 14 фоизни ташкил қилган бўлса ҳозирда унинг 6 фоизи қолди. Сўнги 50 йил ичида дунёда аҳоли жон бошига тўғри келадиган ичимлик суви 60 фоизга камайди. Натижада бутун экотизимга антропоген тавсифдаги зарар етказилди, бу ҳолат инсоният истиқболига таҳдид солмоқда. Шиддат билан ўзгариб бораётган жаҳон иқтисодиётида "яшил" иқтисодиётга ўтиш муҳим ҳаётий эҳтиёжга айланди.

Табиатдан фойдаланиш – бу жамият эҳтиёжларини қондириш учун табиий ресурслардан фойдаланиш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва уни такрор ишлаб чиқаришни ўз ичига олади. Бу кўпинча тенгсиз экологик алмашинувга олиб келади, натижада бунда айрим мамлакатларнинг хўжалик субъектлари фойда кўради, шу билан бирга уларнинг иқтисодий фаолиятининг салбий оқибатлари зараридан дунёнинг бошқа минтақалари ва мамлакатлари талофат кўради. Табиатдан фойдаланиш, бир томондан, минтақавий хусусиятга эга, чунки у маълум бир давлат ҳудудида содир бўлади, иккинчи томондан, у глобал хусусиятга эга, чунки унинг салбий оқибатлари дунёнинг бошқа мамлакатлари ва минтақаларига таъсир қилади. Шунинг учун ҳам табиий жараёнлар биосферанинг барқарорлигини таъминлайдиган экологик салоҳиятини истеъмол қилиш даражасига эришиш учун дунё мамлакатлари ўртасидаги мувофиқлаштирилган ўзаро ҳамкорлик зарур.

Олимларнинг фикрича, "яшил иқтисодиёт" анъанавий "жигарранг иқтисодиёт"га қараганда қисқа муддатда ЯИМнинг ўсишини, аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромаднинг ортишини ва иш билан таъминланишни бир хил ёки ундан юқорироқ кўрсаткичда ошириши мумкин. Сўнгги пайтларда ўтказилган халқаро мунозаралар "яшил иқтисодиёт" тушунчасини аниқ ишлаб чиқиш, уни барча мамлакатлар манфаатлари нуқтаи назаридан амалга ошириш бўйича чора-тадбирларни чуқур таҳлил қилиш зарурлигини кўрсатади.

Иқтисодий фанда эндоген иқтисодий ўсиш назарияси ва экалогик муаммоларни ўзаро боғлиқлигини юқори ривожланиш даражасига олиб чиққан олимлардан бири Уильям Нордхаус ҳисобланади. Унинг "Интеграллашган баҳолаш моделида" (ИАМ) иқлим ўзгаришлари билан иқтисодий ўсиш моделини бир бири билан боғлади. У.Нордхаус ишлаб чиқариш функцияси моделига икки янги ўзгарувчини киритди: табиий ресурслар ва экологик зарар. Табиий ресурслар ишлаб чиқариш функцияси моделида ишчи кучи, капитал, асосий фондлар каби ишлаб чиқариш омили сифатида олинган; экологик зарар бирдан кичик бўлган кўпайтирувчи бўлиб у ишлаб чиқариш хажмини камайтиради. Бу моделда барча омиллар технологик тараққиёт натижасида ўсиб борса экологик зарар эса бирдан кичик бўлган кўпайтирувчи ҳисобига атмосферани ифлосланиш даражасига қараб камайиб боради[1].

"Яшил иқтисодиёт"га ўтиш стратегияси йирик инвестицияларни (йилига ЯИМнинг 2 фоизигача) талаб қиладиган мураккаб жараён бўлиб, иқтисодиётнинг деярли барча тармоқларига таъсир қилади[2]. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, "яшил иқтисодиёт" минтақавий ривожланишни рағбатлантиради, ижтимоий барқарорликка кўмаклашади, "яшил иқтисодиёт" тармоқларида янги иш ўринларини яратиш орқали иқтисодий салоҳиятни оширишга эришиш мумкин.

"Яшил иқтисодиёт" инсоният ва табиатнинг барқарор ва мувозанатли ўзаро таъсирини таъминлашга қаратилган иқтисодий ривожланиш консепциясидир. "Яшил иқтисодиёт"нинг

асосий ғояси атроф-муҳитга салбий таъсирларни камайтириш ва табиий ресурслардан унумли, барқарор фойдаланиш орқали бойлик яратиш ва аҳоли фаравонлигини таъминлаш ҳисобланади. Унинг мақсади табиий ресурсларни тежаш, ифлосланишни камайтириш, ҳозирги ва келажак авлодлар фаравонлигини таъминлайдиган барқарор иқтисодий моделларни яратишдир.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Атроф-муҳит ассамблеяси атроф-муҳит масалалари бўйича қарор қабул қилувчи халқаро ташкилотдир. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2015-йил 25-сентабрдаги "Бизнинг дунёмизни ўзгартириш: Барқарор ривожланиш бўйича 2030-йилгача кун тартиби" декларацияси катта аҳамиятга эга бўлиб, унда 17 та Барқарор ривожланиш мақсадлари (БРМ) белгилаб берилган. Улар орасида экологик барқарор ривожлантиришнинг 5 та асосий мақсади мавжуд (1.расм):



1 расм. Экологик барқарор ривожлантиришнинг 5 та асосий мақсади
Манба: Барқарор ривожланиш мақсадлари // БМТ: https://www.un.org/ .асосида муаллифлар томонидан тузилди

Экологик барқарорлик - бу барқарор таркибий тузилмани функцияларини экотизимнинг ички ва ташқи омиллар таъсиридан ташкилий тамойилларини сақлаб қолиш қобилиятидир. Ишлаб чиқилган БРМлари ҳозирги ва келажак авлодлар учун тенг экологик манфаатлар тамойилига асосланади. Барқарор ривожланиш табиий экотизимлар ва ижтимоий-иқтисодий тизимлар ўртасидаги яқин алоқадорлик муносабатларни ўз ичига олади. Шу билан бирга, инсонлар асосий бўғиндир, чунки улар глобал биосфера тизимидаги ўз ролини аниқлаш, барқарор ривожланишни таъминлаш учун уни сақлаш ва бошқариш учун жавобгардир.

Олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ҳавонинг ифлосланиши коронавирус инфекциясидан ўлим кўпайишига ҳисса қўшган. 2020-йилдаги карантин ва изоляция даврида дунё бўйлаб кўпчилик саноат корхоналари ўз фаолиятини тўхтатди, бу эса атмосферага ифлослантирувчи моддалар чиқарилишининг умумий 5,8 фоизга қисқаришига олиб келди, чунки энергияга бўлган талаб 4 фоизга қисқарди. Бу даврда экологик вазият сезиларли даражада яхшилана бошлади, карбонат ангидрид миқдори охирги марта фақат иккинчи жаҳон уруши даврида қайд этилган рекорд даражага кескин пасайди.



2 расм. "Яшил иқтисодиётга" киритилган йўналишлар
Манба: Муаллифлар тадқиқотлари асосида тузилган.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Атроф-муҳит бўйича дастурида "яшил" иқтисодиёт ижтимоий адолатни шакллантириш ва ривожлантириш, инсонлар турмуш

фаровонлигини ошириш, экологик муаммоларни камайтириш ва иқлим фалокати хавфини камайтиришга мўлжалланганлигини таъкидлайди. Шунинг учун бундай иқтисодиёт ресурстежамкор кам углеродли ва ижтимоий инклюзив бўлиб ҳисобланади ва "Яшил иқтисодиётга" киритилган йўналишларни ўз ичига олади.

Шундай қилиб, яшил иқтисодиёт ва рақамли иқтисодиёт замонавий иқтисодий трансформациянинг асосини ташкил этади. Рақамлаштириш - тўртинчи саноат инқилобининг асосий элементи бўлиб, яшил сектор эса яшил саноат инқилобига эришиш учун асосдир. Бу икки соҳа барқарор ривожланиш концепциясининг уч жиҳати ўртасида яхлит интеграциялашувчи ролни бажаради.

"Яшил" иқтисодиёт йўналиши бугунги кунда устувор ва энг истиқболли йўналишлардан бири ҳисобланади, шунинг учун деярли барча ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар ўз режалари, мақсадлари, вазифалари, иқтисодий трансформациялар ва яшил технологияларни жорий этиш, ишлаб чиқариш, инфратузилма, транспорт тизимини янгилаш, биоёқилғи ва ёпиқ цикл форматида ишлайдиган экологик тоза корхоналар яратиш ва қайта қуриш инструментлари ва усулларига эга.

Коронавирус пандемияси ва иқлим ўзгариши туфайли юзага келаётган салбий ҳолатларнинг сабоқлари иқтисодий ўсишни таъминлашда янада барқарор манбалар ва ёндашувларни қайта кўриб чиқиш, хусусан, мамлакатда «яшил» иқтисодиёт ва «яшил» иқтисодий ўсиш бўйича стратегик мақсадлар ва чора-тадбирлар амалга оширилишини самарали ташкил этиш заруриятини кўрсатмоқда.

1.жадвал

2030 йилгача Ўзбекистон Республикасида «яшил» иқтисодиётга ўтиш ва «яшил» ўсишни таъминлаш бўйича мақсадли кўрсаткичлари

Т/р	Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2022 йил	2024 йил	2026 йил	2028 йил	2030 йил
1.	Ялпи ички маҳсулот бирлигига тўғри келадиган энергия ҳажмини камайтириш *(2021 йилга нисбатан)*	%	5,0	14,0	22,0	27,0	30,0
2.	Саноатда электр энергияси истеъмоли, умумий истеъмолдаги улуши	%	26,0	25,0	23,0	21,0	20,0
3.	Қайта тикланувчи энергия манбаларининг электр энергиясини ишлаб чиқариш умумий ҳажмидаги улушини кенгайтириш *(гидроэнергетика билан бирга)*	%	8,0	9,0	24,3	29,0	30,5
		кВт/с	6,5	8,6	25,0	34,0	40,7
4.	Кичик қувватли қуёш фотоэлектр станцияларини қуриш	МВт	10,0	150,0	400,0	800,0	1500,0
5.	Яхшиланган ичимлик сув манбаларидан фойдаланиш имкониятига эга аҳоли, жами аҳоли сонига нисбатан	%	69,7	80,93	87,12	88,5	90,0
6.	Ўрмон фонди ҳудудларида дарахт ва буталар захираларини кўпайтириш	млн.м^3	64,2	68,1	77,0	85,5	92,3
7.	«Яшил макон» лойиҳаси доирасида шаҳарлардаги яшил майдонларни кенгайтириш *(аҳоли пунктининг умумий майдонига нисбатан)*	%	8,3	12,4	15,8	23,8	30,0
8.	Ҳосил бўладиган қаттиқ маиший чиқиндиларни қайта ишлаш даражаси	%	30,0	40,0	50,0	60,0	65,0

Манба: Муаллифлар тадқиқотлари асосида тузилган

"2030 йилгача Ўзбекистон Республикасида «яшил» иқтисодиётга ўтиш ва «яшил» ўсишни таъминлаш" стратегиянинг асосий мақсади мамлакатда амалга оширилаётган тузилмавий ислоҳотларга «яшил» иқтисодиёт тамойилларини интеграция қилиш орқали ижтимоий ривожланишга, иссиқхона газларининг ажратмалари даражасини пасайтиришга, иқлим ва экология барқарорлигига имкон берувчи мустаҳкам иқтисодий тараққиётга эришишдан иборат. Стратегияда 2030 йилга келиб Ўзбекистон Республикасида «яшил» иқтисодиётга ўтиш ва «яшил» ўсишни таъминлаш бўйича мақсадли кўрсаткичларини белгилаб берилган.

Стратегия мақсадларига эришиш учун қуйидаги асосий вазифаларни амалга ошириш зарур:

- технологик модернизациялаш ва молиявий механизмларни ривожлантириш орқали иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини ошириш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш;
- давлат инвестициялари ва харажатларининг устувор йўналишларига илғор халқаро стандартларга асосланган «яшил» мезонларни киритиш;
- давлат томонидан рағбатлантириш механизмларини, давлат-хусусий шериклигини ривожлантириш ҳамда халқаро молиявий институтлар билан ҳамкорликни фаоллаштириш орқали «яшил» иқтисодиётга ўтиш йўналишлари бўйича тажриба-синов лойиҳаларини амалга оширишга кўмаклашиш;
- таълимга инвестициялар киритишни рағбатлантириш, етакчи хорижий таълим муассасалари ва илмий-тадқиқот марказлари билан ҳамкорликни ривожлантириш ҳисобига «яшил» иқтисодиётдаги меҳнат бозори билан боғлиқ кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини ривожлантириш;
- Оролбўйидаги экологик инқирознинг салбий таъсирини юмшатиш чораларини кўриш;
- «яшил» иқтисодиёт соҳасида, шу жумладан икки томонлама ва кўп томонлама шартномалар тузиш орқали халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш.

Стратегияни амалга ошириш иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини ошириш соҳасида бошқарувни яхшилашга, табиий ресурсларни сақлаш ва улардан оқилона фойдаланишга, иссиқхона газларининг ажратмаларини камайтиришга, «яшил» энергиядан фойдаланишни таъминлашга, «яшил» иш ўринлари яратишга ва иқлим барқарорлигига эришишга хизмат қилади.

Хулоса сифатида стратегия республика иқтисодиётининг рақобатбардошлигини, молиявий барқарорлигини, энергетик ва экологик хавфсизлигини ошириш, шунингдек, энергия тежаш салоҳиятини кўтариш, модернизация қилиш, технологик ривожлантириш ва ёқилғи-энергетика ресурсларидан оқилона фойдаланиш ҳамда энергия самарадорлигини ошириш орқали аҳоли турмуш даражасини ва кўрсатилаётган хизматлар сифатини оширишга қаратилган. Стратегияда белгиланган чора-тадбирларнинг ижросини таъминлаш билан иқтисодиёт тармоқлари ва фаолият турлари бўйича ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг энергия сиғими кўрсаткичини 2026 йилга келиб 2022 йилга нисбатан 20 фоизга камайтиришга эришилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Nordhaus W. (2017b). Projections and uncertainties about climate change in an era of minimal climate policies. NBER Working Paper, No. 22933

2. Маматов Мамажон Ахматжанович, «ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА» И «ЗЕЛЕНЫЙ РОСТ» "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari: muammo va zamonaviy yechimlar. yosh olimlar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Гулистон. ГулДУ, 2024-yil. 54 стр

УЎК:334.75 (575.1)

АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ВА ЎЗБЕКИСТОНДА СОҲАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АЙРИМ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

М.Ў. Машарипова, етакчи мутахассис, Хоразм вилоят адлия бошқармаси Хива туман адлия бўлими, магистрант, Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада аёллар тадбиркорлиги тараққиётига таъсир қилувчи омиллар ва Ўзбекистонда соҳани ривожлантиришнинг айрим чора-тадбирлари келтирилган.*

Калит сўзлар: *тадбиркорлик, аёллар тадбиркорлиги, аёллар бизнеси, аёллар даромади, гендер тенглик, ижтимоий тенглик, менталитет*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены некоторые факторы прогресса и мероприятия по развитию женского предпринимательства в Узбекистане..*

Ключевые слова: *предпринимательство, женская предпринимательства, женский бизнес, женский доход, гендерное равентсво, социальная равенства, менталитет*

Abstract. *This article examines some factors of progress and measures for the development of women's entrepreneurship in Uzbekistan.*

Key words: *entrepreneurship, women's entrepreneurship, women's business, women's income, gender equality, social equality, mentality*

Аёллар тадбиркорлик фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ёритиб беришда бизнес жараёнларига уларнинг хос ёндашувлари, тамойиллари, фаолиятдаги фарқли жиҳатлари, тадбиркор аёллар дуч келадиган тўсиқлар ва тадбиркорлик билан шуғулланишга туртки берувчи омилларнинг назарий асосларини ўрганиш устувор аҳамиятга эга деб ҳисоблаймиз.

1970 йилларда содир бўлган гендер революциясидан кейин, фанга аёлларнинг иқтисодиётдаги иштироки бўйича кўплаб кўрсатгичлар аён бўла бошлади. Хусусан, масаланинг турли жиҳатларига оид бир қатор мақолалар, монографиялар ва бошқа турдаги илмий ишлар пайдо бўла бошлади.

Мавзуга оид илмий ишлар муаллиф томонидан ўрганилиб, аёллар юритаётган бизнеснинг бошқа тадбиркорлик субъектларидан фарқловчи ўзига хосликлари ҳақидаги қуйидаги чизма шакллантирилди(1-расм).

1-расмда тилга олинган хусусиятларга бирма-бир тўхталиб ўтамиз. АҚШлик олим Р.Л.Аринсон [1] ўзининг тадқиқотида аёллар одатда эркакларга қараганда фаолият давомийлиги қисқароқ бўлишини қайд этди. Табиийки, бу ҳолат аёлларнинг уй ишлари ва оилавий масъулиятлари натижаси, шунингдек, баъзи ҳолларда аёлларда ишлаш ҳохиши йўқ бўлиш эҳтимоли билан боғлиқ, деган фикрдамиз.

1-расм. Аёллар тадбиркорлигининг ўзига хос хусусиятлари [2]

Бошқа бир гурух олимлар эса уларнинг турли соҳаларда ўзларини синаб кўришга мойилликларини аниқладилар. Яъни, хотин-қизларнинг иш фаолияти эркакларга қараганда ўзгарувчан бўлиши аниқланди. Шунингдек, аёлларнинг бизнесни бошлашга қизиқишлари маданий омиллар ва дискриминация туфайли эркаклардан фарқ қилиши мумкин. Бундан ташқари, S.Каназаша мақоласида аёлларнинг эркакларга нисбатан ўз-ўзини банд турли соҳаларга оғувчанлик ўз-ўзини банд қилиш шаклига мойиллик ишчи кучига камроқ эҳтиёж

мувозанатлашган иш вақти нисбатан кичикроқ ҳажм нисбатан пастроқ ўсиш суръати фаолият давомийлиги қисқароқ камроқ иқтисодий фойда аёлларга хос фаолият турларида кенг тарқалганлик қилишни кўпроқ афзал кўришини исботлади [3]. Ўзбекистондаги ҳолат ҳам бунга мисол бўла олади: 2021 йилда жами банд аёлларнинг 49,2 фоизи, эркакларнинг эса 39,4 фоизи ўз-ўзини банд қилганлар сирасига кирди [4].

Аёллар юритадиган бизнес ҳажм жиҳатидан кичикроқ бўлишга мойиллиги ҳам илмий асосланган. ГЕМ(Global Entrepreneurship Monitor) ҳисоб-китобларига кўра, тадбиркор аёлларнинг қарийб 36,6 фоизи дастлабки босқичда якка тартибдаги тадбиркор сифатида ҳамкорларсиз ва ходимларсиз фаолият юритар экан, эркак тадбиркорларнинг эса 24,6 фоизига мазкуз хусусият хос [5].

Бундан ташқари, олимлар аёллар бизнеси эркакларникига қараганда камроқ фойда келтириши ва ҳатто бир хил соҳадаги таққослашларда ҳам аёллар камроқ савдо айланмасини яратишини кузатишган. Умумий маънода аёллар эркакларга нисбатан 24% камроқ даромадга эга [6].

Бошқа бир манбаада эса ОЭСD(Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти)га аъзо мамлакатларда касби ва таълим даражасидан қатъи назар, иш ҳақининг гендер фарқи салмоқли 16 фоизни ташкил этиши қайд этилган [7].

Бу каби контраргументлар аёллар тадбиркорлигининг маълум маънода иқтисодий фойдаси камлигини қиёсий таҳлил асосида қайд этсада, биз бу жиҳатларни аёллар тадбиркорлигининг ижобий ижтимоий-иқтисодий функцияларига таянган ҳолда, унинг ўзига хос хусусиятлари деб қарашни афзал кўрдик.

Мавзуга доир бошқа тадқиқотлар хотин-қизлар тадбиркорлигининг қуйидаги характерли жиҳатларини санаб ўтган [8]:

- тадбиркор аёллар кўп ишчи кучига эҳтиёж бўлмаган тармоқларда кўпроқ фаолият юритадилар;
- аёлларда меҳнат фаолияти билан бир қаторда уйдаги масъулиятлари ҳам бор ва шу сабабли улар учун иш вақтини мувозанатлаш жуда муҳим.
- аёллар тадбиркорлик соҳасига эркакларга қараганда кеч кириб келади ва ўз бизнесини ривожлантиришга улгурмайди.

Аммо бу ҳолатларнинг асл сабаби ва келиб чиқиши тўлиқ илмий асослаб берилмаган. Бошқа бир изланишда олим Ю.С.Семёнова катта ва ўрта ёшдаги олий маълумотли аёллар тадбиркорлик фаолиятида юқори натижаларга эришишга муваффақ бўлишади [9] деб хулоса қилган. Олимнинг фикрига қўшимча қилган ҳолда, олий маълумотли бўлмай туриб ҳам тадбиркорликда муваффақиятга эришаётган хотин-қизларнинг жамиятимизда кўп учратиш мумкинлигини қайд этиш зарур. Шунингдек, Семёновага тегишли фикрга ғарб олимлари хулосаларида ҳам контраргументлар учратдик. Масалан, Венчур бизнеси журналида чоп этилган Фишер ҳаммуаллифлигидаги эркак ва аёл меҳнат фаолияти ўртасидаги фарқлар ҳақидаги тадқиқотда маълум бўлдики, аёл раҳбарлик қиладиган корхоналарда уларнинг маълумоти пастлиги ёки тажрибаси йўқлиги тўсқинлик қилади деган фикр асоссиз. Қўшимча сифатида, тадбиркор аёллар учун мақсадли тармоқда шогирдликка тушиш ҳам фойдали бўлиши аниқланди.

Ю.Малйшевскаянинг фикрича, аёл тадбиркорларнинг қуйидаги ўзига хос хусусиятлари мавжуд [10]:

- асосан 25 ёшдан 50 ёшгача бўлган аёллар тадбиркор бўладилар;
- аёллар эркакларга қараганда ўз меҳнат маҳсулига масъулиятлироқдирлар;
- аёлларга хос ишлаб чиқариш фаолиятида хотин-қизлар кўпроқ иштирок этади.

Шунингдек, оилавий бизнесда ҳам аёллар эркакларга нисбатан анча фаол эканлигини кўрамиз. Бу шундан далолатки, кўплаб олимлар хулоса қилганидек, аёллар бизнесда ўзларини яхшироқ намоён қилишади. Аёллар тадбиркорлиги етакчилик, янги истиқболларини ўрганиш, мувофиқлаштириш, бошқариш ва назорат қилиш каби тамойилларга асосланишини айтиш мумкин. Тадбиркор аёллар, шунингдек, барча тадбиркорларга тегишли бўлган таваккалчилик, ташкилотчилик ва инноваторлик каби тамойилларга ҳам амал қилади.

Тадбиркорлик бўйича тадқиқот олиб борувчилар аёл тадбиркорларнинг иштироки ва ижро кўрсаткичларидаги фарқларга кўп йиллар давомида қизиқиб келишган. Кембриж университети олими С.Паркер қайд этишича, баъзи мустасно давлатлар бўлсада, деярли барча ривожланган мамлакатларда эркакларнинг аёлларга нисбатан кўпроқ улуши тадбиркорлик билан шуғулланади [11].

Ушбу фарқли жиҳатни, яъни, тадбиркорлик билан шуғулланишдаги гендер тафовутларини тушунтириш учун бир қатор олимлар илмий тадқиқотлар олиб боришган [12]. Ушбу ишлардаги хулосаларга кўра, тадбиркор ликда аёллар улушининг нисбатан камлиги уларнинг оила ва жамиятдаги ижтимоий роллари натижасида шаклланади ва турли хил чекловлар, айниқса, молиялаштириш манбааларига тўсиқлар борлиги билан изоҳланади.

Жахонда сўнгги йилларда олиб борилаётган тадқиқотларда ҳам аёллар тадбиркорлигини ўрганишнинг устувор масаласи сифатида тадбиркорлик фаолиятида аёллар дуч келадиган тўсиқларни тушунтирувчи изланишлар асосий ўрин эгаллайди. Жумладан, Н.Ю.Уткинанинг тадқиқотларида замонавий тадбиркор аёлларга хос бўлган ижтимоий ва маданий стереотиплар билан боғлиқ асосий гендер муаммоларига алоҳида тўхталиб ўтади [13].

"Ўзбекистон фуқароларини тинглаб" миллий сўровномаси маълумотларига кўра [14], айнан 25-30 ёшлилар орасида таълимни, касбий тайёргарликни давом эттирмайдиган ва ишламайдиганларнинг (НЕЭТ) улуши 54,6 фоизни ташкил қилади. Ёш аёллар учун НЕЭТ кўрсатқичи ушбу ёш гуруҳидаги йигитларга нисбатан доимий равишда юқори бўлиб, 24,8 фоизга нисбатан 74,0 фоизни ташкил этди. Ёш аёлларга ўз даромадларини топиш истагига тўсқинлик қилувчи омиллар - бу уй шароитида ва оилада ғамхўрлик қилиш вазифалари ва иқтисодий имкониятларни излаб, кўчиб кетиш имкониятининг пастлигидир. Шаҳар марказларида яшайдиган тенгдошлари билан таққослаганда, қишлоқ ёшлари ўқишни давом эттириш ёки иш билан таъминланиш учун камроқ имкониятларга эга бўлганлиги сабабли, тадбиркорлик билан шуғулланишга қизиқиш билдирмоқдалар. Умуман олганда, мамлакат бўйлаб ёшлар ўз ижтимоий ҳаракатчанлигини оширишда мавжуд алоқалар (ва оилалилик), оиланинг иқтисодий имкониятлари нақадар муҳимлигини таъкидлайдилар.

Аёллар иқтисодий фаоллигига таъсир этувчи омиллар кенг доирада Р.Убайдуллаева, Л.Максакова, Д.Артиқова, Н.Рахимова каби маҳаллий олимлар тадқиқотларида ҳам батафсил ёритилган. Тадқиқотчилар аёлларнинг иқтисодий фаоллигига, айниқса, демографик омил катта таъсир ўтказади, деб ҳисоблайдилар. Аслида ҳам олима М.Ирисова айтганидек, аёлларнинг иқтисодиётдаги ўрни жамият ривожлангани сари ўзгариб боради. Демак, хозирги рақамлаштирилган бозор иқтисодиёти тамойилларига асосланган жамиятимизда хотин-қизларнинг иқтисодиётга фаол хисса қўшишига тўсқинлик қилувчи омиллар бирмунча сустлашаётгани XXI асрнинг ўзига хослиги сифатида намоён бўлади.

Жамиятдаги институтларнинг аёллар ва эркаклар тадбиркорлигига таъсири ҳақидаги Олимлар С.Эстрин ва Т.Микиевич тадқиқотларида дунёнинг 55та давлатида ўтказилган Глобал тадбиркорлик мониторинги **(Global Entrepreneurship Monitor survey – GEM)** ва маҳаллий маълумотларни ўрганиб чиқиб қуйидагича хулосага келишди: "давлат сектори устунлик қиладиган мамлакатларда аёллар тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш эҳтимоли эркакларга нисбатан камроқ, қонун устуворлиги эса одатда гендер эффектларига эга эмас деб топилди, яни қонунларнинг ишламаслиги иккала жинс вакилларига ҳам бирдек салбий таъсир кўрсатади. Бироқ, аёлларга нисбатан дискриминациянинг кўчага чиқишни чеклаш каби кўринишлари, улар тадбиркорликни бошлаган тақдирда ҳам, иш билан бандликни ошириш нуқтаи назаридан фаолиятнинг юқори натижаларга эришиш эҳтимолини камайтиради, ўз-ўзини банд қилиш бундан мустасно [15]".

Бу хулоса мамлакатимиз хотин-қизларининг тадбиркорлик фаолиятини узоқ вақт кичик миқёсда қолиб кетишини маълум маънода изоҳламоқда. Хотин-қизларни тадбиркорликка жалб қилиш ва пировардида уларнинг ижтимоий-иқтисодий фаоллигини ошириш масаласи узоқ йиллар давомида ниҳоятда долзарб муаммо бўлиб келган. Вазиятнинг бу зайлда ривожланиши бир қанча омиллар таъсири билан изоҳланади. Олиб борилган тадқиқотлар

натижасида аёлларнинг тадбиркорлик фаолиятини бошлашларидаги асосий омилларни моҳиятига қараб қуйидагича гуруҳладик(2-расм).

2-расмдан аён бўляптики, аёллар тадбиркорлигига таъсир этувчи барча омиллар бир нуқтада – мотивацияда кесишади, яъни уч гуруҳга ажратилган кенг қамровли омиллар охир-оқибат аёлларнинг тадбиркорлик қилишга мотивациясини сўндириши билан тўсиққа айланади ва салбий таъсирини намоён этади ёки аксинча.



2-расм. Аёллар тадбиркорлигига таъсир этувчи омиллар тавсифланиши [16].

Замонавий тадқиқотчилар тадбиркорликни икки таркибий қисмдан ташкил топган конструкция деб ҳисоблайдилар: инструментал – эътиқодлар, фикрлар, рационал далиллар [17] ва аффектив - ҳиссиётлар, қониқиш, хулқ-атвор [18].

Олимлар ушбу конструкцияга таъсир қилувчи, хусусан аёллар томонидан ўз бизнесини бошлаш тўғрисида ҳал қилувчи таъсир кўрсатадиган бир қатор омилларни аниқлаганлар: институционал, ижтимоий-маданий ва индивидуал-шахсий.

Институционал омиллар. Институционал назария издошлари "жамиятдаги расмий – қабул қилинган қонунлар, нормалар ва норасмий ижтимоий институтлар – жамиятда шаклланган маданият, эркак ва аёл ролларини тақсимлаш анъаналари, индивидуализм, инфратузилманинг мавжудлигини ва уларнинг аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш ёки тўсқинлик қилишга ўз таъсирини кўрсатиши [19]" ни таъкидлайдилар.

Оила ижтимоий институт сифатида бошқа ижтимоийлашув агентликлари билан бир қаторда(кўплаб миллий анъаналарга содиқ жамиятларда оила доминант ролга эга) ёш авлоднинг касбий стратегиясини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди. Қизларнинг касбий танлов стратегиясини шакллантириш жараёнида ота-оналар ўз фарзандлари учун дастлабки намуна сифатида намоён бўлади ва улар учун билим, тажриба, маълумот ва қўллаб-қувватлаш манбаи бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Ишбилармон ота-оналар фарзандларининг оилавий бизнесни давом эттириши ёки ўз бизнесини очиши эҳтимолини оширади. Бу балоғат ёши(12-17 ёш) ва болалик (8-11 ёш) давридагига нисбатан ўсмирлик (18-21 ёш) даврида кўпроқ таъсирга эга бўлади [20].

Индивидуал-шахсий омиллар. Бир қатор олимлар фаолият турини танлашда индивиднинг шахсий хусусиятларининг муҳим ролига тўхталмоқдалар [21].

Маълумки, тадбиркорлик анъанага кўра кўплаб мамлакатларда эркакларнинг фаолият соҳаси ҳисобланади, чунки у мустақиллик, қатъият, талабчанлик, таваккалчилик каби фазилатларга эга бўлиш заруратини келтиради, аёллар эса улардан фарқли ўлароқ, заифлик, ҳиссиётлилик, таъсирчанлик каби фазилатлар билан гавдаланади, бу эса меҳнат бозори конъюнктурасини ва умуман бандликни шакллантирган ҳолда улар касб-ҳунар таълимини, фаолият соҳасини танлашига, бандлик ва карерага бевосита таъсир кўрсатади.

Ижтимоий-маданий омиллар. Ўз бизнесини бошлаш қарорига таъсир қилувчи шахснинг индивидуал хусусиятларидан ташқари, бошқа омиллар – маданият, менталитет, урф-одатлар, маълум бир жамиятдаги гендер роллари ҳақидаги ғоялар, эркаклар ва аёллар ҳуқуқларининг тенглиги, де юре, де факто муҳим ҳисобланади. С.С.Боун, Б.Л.Чуа, К.Э.Нойперт тадқиқотларида тадбиркорликнинг гендер жиҳатига эътибор қаратиб, маданий хусусиятлар

эркаклар ва аёлларга турлича таъсир қилишини таъкидладилар: тадбиркорлик маданияти юқори бўлган мамлакатларда тадбиркор аёллар кўпроқ бўлади [22].

Д.Дозе ва С.Г.Уолтерларнинг таъкидлашича, янги бошлаган тадбиркор тақлид орқали муваффақиятли тадбиркордан бизнес юритишнинг ижобий тажрибасини олиши унга билимлар, кўникмалар, компетенциялар тез трансмиссиясига хизмат қилади, ахборот ва ресурслардан фойдаланиш имконини беради ва шу орқали тадбиркорлик хатти-ҳаракатини рағбатлантиради. Шунингдек, "муваффақиятли фаолият кўрсатувчи бизнес билан яқинлик нафақат ўз бизнесини бошлаш учун ижобий туртки бўлади, балки ўша жамиятда тадбиркорлик маданиятини шакллантириб, тадбиркорлик тармоғини яратиш учун ёрдам беради [23].

Бизнинг ушбу мақола доирасида ўрган навбатдаги омилга кўра, бола парваришлаш таътилининг давомийлиги аёлларнинг тадбиркорлик фаоллигига таъсир кўрсатиши мумкин: ижтимоий сиёсати суст мамлакатларда болани парвариш қилиш ва тарбиялаш харажатларини қоплаш учун аёллар қисқа вақт ичида ишга қайтишга мажбур бўлишади ва нотўлиқ иш кунили ишни танлашади ёки, аксинча, ишдан бўшаб, ўз оналик вазифаларини мустақил тарзда бажаришади. Шу ўринда, ўз бизнесини бошлаш - бу бандликни ва бола парваришини бирлаштиришга имкон берадиган мувозанатли ечим сифатида юзага келади.

Бундан ташқари, жамиятлар ижтимоий тузилишининг ўзига хос хусусиятидан келиб чиққан "индивидуал/жамоавий" дихотомияси[24] ҳақида айтиб ўтиш зарур. Хусусан, индивидуалистик жамиятларда (АҚШ, Австралия, Буюк Британия) иқтисодиёт, бизнес, индивидуал ютуқлар ва муваффақият ларга, индивидуал онгнинг жамоавий онгдан устунлигига кўпроқ аҳамият берилади, бу эса шахсга жинсидан қатъи назар, ўз имкониятларини амалга ошириш учун имкониятларни очади, шу жумладан тадбиркорлик соҳасида ҳам [25]. Шунингдек, жамоавий жамиятларда (Чили, Греция, Мексика), унинг аъзолари бирдамлиги қайта ишлаб чиқариш ва анъанавий патриархал ҳаёт тарзи, ролларнинг гендер бўлиниши сақланиб, кенгайтирилган оила аъзоларига ғамхўрлик қилиш зарурлигини назарда тутади, бу эса ўз бизнесини бошлаш учун қўшимча сабаб бўлади. Оилани қўллаб-қувватловчи ижтимоий сиёсатга эга бўлган ижтимоий мамлакатларда(Дания, Швеция, Норвегия) болаларни парвариш қилиш бўйича нафақалар миқдори кам ёки умуман йўқ бўлган мамлакатлар (Канада, АҚШ, Австралия)га нисбатан аёлларнинг тадбиркорлик фаолиятининг паст даражаси мавжуд [26].

Қарангки, ижтимоий сиёсат жуда кучли мамлакатларда аҳолининг асосий эҳтиёжлари қондирилиши ҳисобига тадбиркорликда аёлларнинг фаоллиги бирмунча пастроқ экан. Бошқа томондан қараганда аёлларни бизнес бошлашларига таъсир қилувчи омилларни ташқи ва ички факторларга бўлиш мумкин. Ички омиллар жумласига қуйидагилар киради:

- мустақилликка интилиш;
- ўз-ўзини англаш ва назорат қилиш истаги;
- қатъиятлилик;
- янги фирма яратиш билан боғлиқ қийинчиликларни енгишга қизиқиш;
- ўз маҳорати ва тажрибасини ривожлантириш имконияти;
- ўз тақдирини ўзи ҳал қилиш хоҳиши.

Бир қатор олимлар аниқлашича, аёллар тадбиркорлик фаолиятини бошлашларининг энг муҳим руҳий омилларидан бири бу иш ва шахсий ҳаёт балансига эришиш имконини берувчи мослашувчан тартибли касбга эга бўлиш истагидир. Бошқача қилиб айтганда бизнес билан банд бўлиш – бу оилавий сабабларга кўра меҳнат бозорини тарк этган аёллар учун муқобил ечим бўла оладиган стратегия десак адашмаган бўламиз. Қизиғи шундаки, кўплаб тадқиқотлар оила ва иш ўртасидаги мувозанатни аёлларнинг тадбиркорлик бошлашига сабаб сифатида эътироф этса, олим Мрозковский ишида бу омил аёллар учун янги бизнесни яратишда энг катта тўсиқ дея бутунлай тескари аргумент берилган. Бу фикрларни юритиладиган бизнеснинг ҳажми ва сарфланадиган вақт билан изоҳлаш мумкин. Яъни бошланаётган фаолият аёлни жуда банд қилиб қўйиб оилавий мажбуриятларидан чалғитса Мрозковский айтганидек тўсиқ бўлади, аммо аёлларнинг кунига бир неча соат сарфлаб даромадли меҳнат фаолияти билан

шуғулланиши ва оиласига ҳам вақт ажрата олиши, қатъий режимли ишда бориб ишлагандан кўра афзал ва бунда туртки берувчи сабаб деса бўлади.

Ташқи омиллар, асосан, ўз-ўзини иш билан таъминлаш истаги ва шу билан бирга, ишсизлик ўрнига тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш истаги билан тавсифланади.

Бизнинг фикримизча, мамлакатимизда аёллар тадбиркорлигини ривожлантириш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш зарур:

1. Тадбиркорликка оид қонунчилик базасини такомиллаштириш ва тартибга солиш чораларини оптималлаштириш;

2. Банк-молия инфратузилмасини такомиллаштириш ва тадбиркор аёлларнинг молиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш;

3. Тадбиркорлик инфратузилмасини ривожлантириш, тадбиркорлик маданиятини тарғиб қилиш ва тадбиркор аёлларнинг молиявий саводхонлигини ошириш.

Юқорида санаб ўтилган вазифалар ва чора-тадбирларнинг амалга оширилиши қуйидаги натижаларга олиб келади:

- бизнес ассоциациялари ва бошқа уюшган гуруҳлар фаолиятига жалб қилинган аёллар сони ва ушбу нодавлат ташкилотларнинг қатор хизматларидан фойдаланиш даражаси ортиши;
- аёллар тадбиркорлиги учун етарли даражада ресурслар ва маълумотларга эга бўлган экотизимни ривожлантириш таъминлаш;
- аёлларнинг молиялаштириш манбааларидан фойдаланиш имкониятини чеклайдиган, ҳам банк ҳам тадбиркорлик субъекти томонида учраётган тўсиқларни бартараф этиш;
- гаров таъминотининг муқобил турларини жорий этиш;
- аёлларнинг молиявий саводхонлигини, ишбилармонлик кўникмаларини ва тадбиркорлигини комплекс қўллаб-қувватлаш;
- аёлларнинг иқтисодий қарамлик даражасини пасайтириш, гендер дискриминациясини бартараф этиш имкон беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 14 мартдаги 103-сонли "Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори// lex.uz

2. Allen, E., Langowitz, N. and Minniti, M. (2007) The 2006 Global Entrepreneurship Monitor Special Topic Report: Women in Entrepreneurship. Center for Women Leadership, Babson College. Babson Park, MA .

3. Bruton G., Ahlstrom D., Li H.L. Institutional theory and entrepreneurship: where are we now and where do we need to move in the future? // Entrepreneurship Theory and Practice. – 2010. – № 3. – p. 421-440. – doi: 10.1111/j.1540-6520.2010.00390.x.

4. Baughn C.C., Chua B.L., Neupert K.E. The normative context for women's participation in entrepreneurship: a multicountry study // Entrepreneurship Theory and Practice. – 2006. – № 5. – p. 687-708 .

5. Giménez D., Calabrò A. The salient role of institutions in women's entrepreneurship: a critical review and agenda for future research // International Entrepreneurship and Management Journal. – 2018. – № 14. – p. 857-882.

6. Dohse D., Walter S.G. Knowledge context and entrepreneurial intentions among students // Small Business Economics. – 2012. – p. 87 .

7. Жумаева М.А. Тадбиркорликни ривожлантиришда аёллар фаоллигини ошириш. Иқт.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.Т: ТДИУ, 2024 й.

8. Жумаева М.А. Тадбиркорликда аёллар иш билан бандлигини оширишнинг ўзига хос хусусиятлари. "Бизнес эксперт" илмий журнал, 5-сон, 2022 йил. 121б. 35

9. Жумаева М.А. аёллар тадбиркорлигини ривожлантиришда молия-банк тизими. "moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. T.: TDIU 2022. 196 b

10. Kanazawa, S. (2005) Is 'discrimination' necessary to explain the sex gap in earnings? Journal of Economic Psychology 26(2): 269–287.

11. GEM Report. Women's Entrepreneurship 2020/21: Thriving Through Crisis. 15p. .

12. Селим Джахан Доклад о человеческом развитии 2015. Труд во имя человеческого развития. России // Опубликовано для Программы развития Организации Объединенных Наций (ПРООН). – PBM Graphics, предприятие компании RR Donnelley, 2015. .

13. OECD Multilingual Summaries OECD Employment Outlook 2017. -[Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.oecd.org/els/oecd-employment-outlook-19991266.htm (22.11.2017). .

14. Кипервар Е.А. Женское предпринимательство: особенности и перспективы развития в регионах / Е. А. Кипервар, М. А. Савелова // Омский научный вестник. – 2009. – №2(76). – С. 97 .

15. Семенова Ю.А. О социальном механизме оптимизации женского предпринимательства // известия саратовского университета. Новая серия. Серия: Социология. Политология. 2013. N 13(1). С 33-35

16. Малышевская Ю.Ю. Особенности формирования социальной группы «женщины-предприниматели» / Ю. Ю. Малышевская // Социально политические науки. – 2013. – №4. – С. 27 . 32

17. Parker, S. C. (2009). The economics of entrepreneurship. Cambridge, MA: Cambridge University Press .

18. К.Браш, Brush, C. (2006). Women entrepreneurs: A research overview. In M. Casson, B. Yeung, A. Basu, & N. Wadesdon (Eds.), Oxford handbook of entrepreneurship. Oxford, UK: Oxford University Press ва М.Минити51

19 Minniti, M. (2009). Gender issues in entrepreneurship. Foundations and Trends in Entrepreneurship, 5(7–8), 497–

20.Уткина, Н. Ю. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России / Н. Ю. Уткина // Женщина в российском обществе. – 2017. – № 1 (82). – С. 17-27. . 33

21. Liñán F., Fayolle A. A systematic literature review on entrepreneurial intentions: Citation, thematic analyses, and research agenda // The International Entrepreneurship and Management Journal. – 2015. – № 114. – p. 907-933. – doi: 10.1007/s11365-015-0356-5.

22. Fernandes T., & Proença J. Reassessing relationships in consumer markets: Emotion, cognition, and consumer relationship intention // Journal of Relationship Marketing. – 2013. – № 1. – p. 41-58. – doi: 10.1080/15332667.2013.763719. .

23. Criaco G., Sieger P., Wennberg K., Chirico F., Minola T. Parents' performance in entrepreneurship as a "double-edged sword" for the intergenerational transmission of entrepreneurship // Small Business Economics. – 2017. – № 4. – p. 841-864. – doi: 10.1007/ S11187-017-9854-X. .

24. Hofstede G. Dimensionalizing cultures: the Hofstede model in context. Online Readings in Psychology and Culture. URL: https://scholarworks.gvsu. edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1014&context=orpc

25. www.stat.uz .

26.World Bank and UNICEF (2018)

27. https://www.researchgate.net/publication/254556146_Institutions_and_female_entrepreneurship .

УДК 338.48

ВКЛАД ПРИКЛЮЧЕНЧЕСКОГО ТУРИЗМА В ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Д.Ф.Тиловмуродов, преподаватель, Alfraganus University, Ташкент

Annotatsiya. *Markaziy Osiyo mamlakatlarida sarguzasht turizmi sezilarli darajada rivojlanmoqda. Tadqiqotda sifat parametrini tahlil qilish metodologiyasi qo'llanildi va natijalar shuni ko'rsatdiki, sarguzasht turizmi diqqat bilan ko'rib chiqish va joriy etishni talab qiladigan turizm turlaridan biridir. Sarguzasht turizmi Markaziy Osiyo turizm bozoriga, ayniqsa, mahalliy biznes salohiyati, transfer xizmatlari va ish o'rinlari yaratish nuqtai nazaridan muhim iqtisodiy hissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyodagi turizm bozori, sarguzasht turizmi, sarguzashtli turizm faoliyati, turizm hissasi, hard sarguzashtlar, soft sarguzashtlar.*

Аннотация. *Приключенческий туризм значительно растет в странах Центральной Азии. В исследовании использовался качественный подход, и результаты показали, что приключенческий туризм является одним из видов туризма, который требует тщательного рассмотрения и инноваций для внедрения. Приключенческий туризм вносит значительный экономический вклад в рынок туризма Центральной Азии, особенно с точки зрения местного бизнес-потенциала, услуг по пересадке и создания рабочих мест.*

Ключевые слова: *Рынок туризма в Центральной Азии, приключенческий туризм, приключенческая туристическая деятельность, вклад туризма, жесткие приключения, мягкие приключения.*

Abstract. *Adventure tourism is growing significantly in Central Asian countries. The study used a qualitative approach and the results showed that adventure tourism is one type of tourism that requires careful consideration and innovation to implement. Adventure tourism makes a significant economic contribution to the Central Asian tourism market, especially in terms of local business potential, transit services, and job creation.*

Keywords: *Tourism market in Central Asia, adventure tourism, adventure tourism activities, contribution of tourism, hard adventures, soft adventures.*

Введение. Приключенческий туризм оказывает значительное экономическое влияние на слаборазвитые страны. Приключенческий туризм может принести пользу этим странам, создавая большинство рабочих мест в этой отрасли. Приключенческий туризм предлагает широкий спектр мероприятий, включая подводное плавание, езду на велосипеде и рафтинг. Многочисленные увлекательные факты о природе могут служить ценным контентом для сайтов о приключенческом туризме. Приключенческий туризм является самым быстрорастущим рынком активного отдыха с годовым темпом роста 15,2% и прогнозируемым доходом в 483,3 млрд долларов к 2023 году [1,2].

Преимущества приключенческих путешествий включают привлечение ценных потребителей, продвижение устойчивых практик и помощь местной экономике за счет меньшей экономической утечки. Это исследование сосредоточено на 50 центрально азиатских туристических компаниях из Узбекистана, Казахстана, Таджикистана, Туркменистана и Кыргызстана. Для оценки спроса на туризм в регионе использовались такие экономические детерминанты, как доход, создание рабочих мест, стоимость упаковки, туристические потребности и спрос. Результаты исследования станут новым вкладом в туризм, имеющим практические последствия для роста туризма в Центральной Азии. Кроме того, результаты подчеркивают недостатки туризма и предлагают предложения для политиков по разработке эффективной туристической политики для увеличения числа международных посетителей в этих странах [3,4].

Литературный обзор. *Приключенческий туризм***.** Приключение как ряд взаимосвязанных элементов, включая неопределенность, риск, вызов, награды, новизну, волнение, эскапизм, исследование, фокус и контрастные эмоции. Ассоциация торговли приключенческими путешествиями (ATTA) определяет приключенческий туризм как «путешествие (путешествие за пределы обычной среды обитания человека в течение более 24 часов и не более одного года подряд), которое включает в себя по крайней мере два из следующих трех элементов: физическая активность, природная среда и культурное погружение» (Индекс развития приключенческого туризма, 2016). Опрос охватывает 34 вида деятельности, включая сложные мероприятия на свежем воздухе, общение, посещение исторических мест и участие в волонтерских туристических программах. [5].

*Виды приключенческого туризма***.** В последние годы приключенческий туризм вырос во всем мире, привлекая туристов в самые разные направления. Это позволяет новым местам представлять себя как действительно уникальные, привлекательные для потребителей, ищущих уникальный, меняющий жизнь опыт. Приключенческий туризм включает в себя такие виды деятельности, как спелеология, пешие походы, парусный спорт и трекинг. Что приключенческий туризм делится на две категории [6,7,8]. Тяжелые приключенческие мероприятия сопряжены с высоким риском и требуют значительных навыков и самоотверженности. Альпинизм, скалолазание, ледолазание, трекинг и спелеология все это примеры тяжелых туристических мероприятий. Тяжелые приключенческие мероприятия весьма опасны. Эти мероприятия требуют профессиональных гидов и высоких способностей. Многие посетители погибли во время восхождений или спелеологии. Вот несколько примеров [9,10].

Приключенческие мероприятия делятся на две категории: жесткие приключения и мягкие приключения. Возникли жаркие споры о том, какие мероприятия относятся к каждой категории. ATTA использовала свою основную деятельность как наиболее простой подход к классификации приключенческих поездок как жестких или мягких (таблица 1).

Методология. В этом исследовании будет использоваться качественный метод исследования. Всего будет проведено 20 интервью по телефону с туристическими компаниями из разных стран Центральной Азии, таких как Узбекистан, Казахстан, Таджикистан, Туркменистан и Киргизстан. Качественный анализ данных включает организацию идей и концепций, разработку тем, обеспечение надежности и обоснованности, выявление возможных объяснений и предоставление обзора.

Таблица 1.

Классификация приключенческих туров по месту их проведения

Наземные		**Воздушного базирования**	**На водной основе**	**Смешанный**
Спуск по веревке	Горный велосипед	Полеты на воздушном шаре	Бодибординг	Приключенческие гонки
Езда на велосипеде	Альпинизм	Банджи-джампинг	Виндсерфинг	Благотворительные вызовы
Пещера	Ориентирование	Прыжки со скалы	Гребля на каноэ	Сохранение экспедиции
Скалолазание	Катание на квадроциклах	Скольжение	Круизные экспедиции	Культурный опыт
Катание на собачьих упряжках	Скрамблинг	Дельтапланеризм	Каякинг	Путешествие в отпускной год
Пеший туризм	Катание на лыжах	Микро-освещение	Парусный спорт	Гедонистический Опыт
Охота	Сноубординг	Парапланеризм	Подводное плавание с аквалангом	Духовный просветление
Верховая езда	Катание на снегоходах	Парашютный спорт	Сноркелинг	Наблюдение за дикой природой
Сафари-джунгли Исследуя	Прогулки на снегоступах	Прыжки с парашютом	Серфинг	
Мотоциклетный спорт	Через Феррат а		Водные лыжи	
	Дикая природа а Опыт		Рафтинг по бурной воде	

Источник: Авторская разработка на основе анализа зарубежной литературы.

Результат и обсуждение. Интервью проводились с туристическими компаниями, и было опрошено 11 местных туристических компаний (55%) и 9 иностранных компаний, работающих в странах Центральной Азии (45%). На основе собранных данных из интервью, которые были расшифрованы и затем закодированы, были выявлены основные темы, которые были определены и классифицированы следующим образом:

Тема 1: Мотивы и предпочтительные виды приключенческого туризма в Центральной Азии

Все респонденты указали разные мотивы посещения курорта Амир Сой, среди которых острые ощущения и волнение, связанные с участием в зимних приключенческих мероприятиях; любовь к природе и отдыху на свежем воздухе; красота окрестностей; а также различные виды местной халяльной еды, которые можно попробовать на курорте.

Тема 2: Потребность в инструкторах и гидах по приключенческому туризму

На основании результатов интервью туристы жаловались этим туристическим компаниям, что инструкторы и гиды курортов приключений не говорят на нескольких языках, эксперты по экстремальным видам спорта нуждаются в дополнительной подготовке, персонал курорта не очень компетентен, курорты приключений должны предоставлять формы оценки и просить каждого туриста оценить свой персонал. На основании результатов они должны устранить проблемы и предоставить персоналу надлежащее обучение.

Заключение. Результаты показывают, что растет спрос на приключенческий туризм и что рынок приключенческого туризма в Центральной Азии. Направления приключенческого туризма привлекают значительный поток международных туристов со всего мира.

Предложение заключается в том, что, поскольку многие туристы или работодатели не хотели давать интервью из-за ограничений по времени, в будущих исследованиях также рекомендуется использовать телефонные интервью или онлайн-анкеты. Для проведения дальнейших исследований качественные интервью можно проводить либо с туристами, которые ранее занимались приключенческим туризмом, либо с неопытными людьми, которым показывали изображения или фильмы об этих событиях.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. ATTA Values Statement. (2015). Adventure Travel Trade Association.

2. Adventure Travel Trends to Watch in. (2018). Retrieved from https://cdn1.adventuretravel.biz/research/2018-Travel-Trends.pdf
3. Buckley, R. (2017). Rush as a key motivation in skilled adventure tourism: Resolving the risk recreation paradox
4. Beard, C., Swarbrooke, J., Leckie, S., & Pomfret, G. (2019). Adventure tourism: The new frontier. UK: Routledge
5. Global Market Insights. (2023). Adventure tourism market value
6. UNWTO – 2014. Adventure tourism annual report.
7. Beedie, P. (2015). Adventure tourism. Routledge International Handbook of Outdoor
8. Studies. https://www.routledgehandbooks.com/doi/10.4324/9781315768465.ch45
9. Bryman, A. (1999). The disneyization of society. The sociological review.
10. Buckley, R. (2010). Conservation Tourism. Cambridge: CABI. https://link.springer.com/referenceworkentry/10.1007/978-3-319-01669-6_350-1?noAccess=true

УЎТ: 330.32.338.49

САВДО-САНОАТ ПАЛАТАСИ ТОМОНИДАН КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ИНФРАТУЗИЛМАВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

А.Қ. Толипов, мустақил тадқиқотчи, Тошкент архитектура ва қурилиш университети, Тошкент

Аннотация. *Ушбу мақолада Савдо-саноат палатаси томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни инфратузилмавий қўллаб-қувватлашнинг устувор йўналишлари қараб чиқилади.*

Калит сўзлар: *кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик, инфратузилма, давлат томонидан қўллаб-қувватлаш*

Аннотация. *В данной статье рассматривается приоритетные направления инфраструктурной поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства со стороны Торгово-промышленной Палаты.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимателство, инфраструктура, государственная поддержка*

Abstract. *This article examines the priority areas of infrastructure support for small businesses and private entrepreneurship from the Chamber of Commerce and Industry.*

Key words: small business, private entrepreneurship, infrastructure, government support.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан амалга оширилаётган ислоҳотлар, айниқса тадбиркорлик ривожига қаратилаётган эътибор ҳаётнинг барча жабҳаларида янгиланиш ва туб ўзгаришларга олиб келмоқда. Булар Ўзбекистон тараққиётининг бугунги янги босқичида мамлакатимиз ва халқимизнинг дунёдаги энг ривожланган давлатлар қоторига кўтарилишга хизмат қиладиган улкан ўзгаришларга сабаб бўлади.

Бугунги Ўзбекистон ҳар жабҳада, хусусан иқтисодий ҳамкорлик борасида ҳам дунёга очилди, улкан салоҳиятини жаҳонга намоён қилиш имконига эга бўлди. Бунга сабаб сифатида - мамлакатда **2016 йилдан бошланган** очиқлик сиёсати, фаол инвестицияларни жаб этиш, бизнесни қўллаб қувватлашга қаратилган дастурларни амалиётга жорий этиш каби ўнлаб мисолларни келтириш мумкин. Хусусан, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқларини муҳофаза қилишни кучайтириш мақсадида, самарали тузилмалар шакллантирилди.

Мазкур тузилмалар қаторида **Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси** ҳам ўзининг муносиб ўрнига эга бўлиб келмоқда. Жумладан, 2017 йилда муҳтарам Президентимиз томонидан тегишли **ПФ-5087-сонли** Фармони ва **ПҚ-3068-сонли** қарори билан Савдо-саноат палатаси фаолияти тубдан қайта ташкил қилиниб, Палатага қўшимча ваколат ва вазифалар берилган бўлса, 2023 йилда давлат раҳбарининг **ПҚ-15-сон** қарори ҳамда 2024 йилда **ПҚ-126-сон** қарорлари билан Палатанинг вазифа ва ваколатлари янада кенгайтирилди.

Шу ўринда, амалдаги қонунчилик ҳужжатларига кўра Ўзбекистон Савдо-саноат палатасининг вазифа ва ваколатлари, асосий функциялари борасида тўхталиб ўтсак.

Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси тадбиркорлик фаолияти субъектларини бирлаштирувчи **нодавлат нотижорат ташкилот бўлиб,** тадбиркорлик ташаббусини амалга ошириш учун қулай ҳуқуқий, иқтисодий ва ижтимоий шарт-шароитларни таъминлаш, бизнес ҳамжамияти ҳамда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, бошқа органлар ва ташкилотлар ўртасида ўзаро манфаатли шерикликни ривожлантириш, ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яхшилашга ҳар томонлама кўмаклашиш, тадбиркорлик субъектларининг ташқи иқтисодий фаолиятини барча чоралар билан қўллаб-қувватлаш мақсадида ташкил этилган.

Қонун билан Палатанинг **қуйидаги 6 та** функцияси белгиланган:

1. *Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;*

2. *Ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яхшилаш;*

3. *Тадбиркорлик фаолиятига кўмаклашиш;*

4. *Давлат органлари ва ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиш;*

5. *Тадбиркорлик субъектларини ўқитиш ва кадрларни тайёрлаш;*

6. *Ташқи иқтисодий фаолият ва чет эл инвестицияларини жалб этиш.*

Ушбу вазифалардан келиб чиқиб, бугунги кунда Савдо-саноат палатаси мамлакатда тадбиркорликни ривожлантириш бўйича фаол ишлаб келмоқда.

Бугун Ўзбекистонда жаҳоннинг илғор мамлакатларида синовдан ўтган янги самарадор воситалар ва усулларни жорий этиш орқали **"Инсон манфаатлари - барча нарсадан устун"** деган эзгу ғояни ҳаётга жорий этишга ҳаракат қилинмоқда.

Айнан ҳозирги даврда мамлакатимизда бу масалага катта эътибор берилаётгани асло бежиз эмас. Негаки, жаҳон халқлари ва замонавий илғор мамлакатлар иқтисодиётининг натижадорлигини, ҳаракатчанлиги ва динамиклигини таъминлаш, соҳани ривожлантиришда тадбиркорликнинг ўзига хос ўрни борлиги аллақачон исботланган.

Тадбиркорлик бугунги тараққий этган мамлакатлар ҳаётининг асосий элементларидан бири ҳисобланади ва Ўзбекистон иқтисодиёти учун ҳам энг муҳим омиллардан бири сифатида ўз самарадорлигини кўрсатмоқда.

Бугун тадбиркорлик ҳаракати Ўзбекистон жамиятининг ўзига хос, иқтисодий жиҳатдан мустаҳкам янги ижтимоий қатламига ва Янги Ўзбекистон тараққиётининг ҳаракатлантирувчи кучига айланди. Энди тадбиркорлик шунчаки даромад олиш билан чекланиб қоладиган фаолият тури бўлиб қолмасдан, ижтимоий-иқтисодий соҳадаги бошқа йўналишларни ҳам ривожлантиришга туртки бўладиган муҳим бир тушунчага эга бўлмоқда.

Яъни, соҳалараро боғланиш тизимига асос солинди ва бугун тадбиркор маҳаллий ҳокимлик органлари билан, прокурорлар билан, солиқчилар билан ва барча даражадаги давлат органларини боғлайдиган занжирнинг марказида турадиган қисмига, яъни жамиятдаги барча бўғинларни уйғунлаштирувчи кучга, Янги Ўзбекистоннинг **мазмунан драйверига** айланди.

Буларнинг барчаси муҳтарам Президентимизнинг ушбу соҳага алоҳида эътибори қаратилгани, бу жабҳада ислоҳотларнинг аниқ-тиниқ стратегияси амалга оширилаётгани билан изоҳланади.

Хусусан, бундан **уч йил олдин** ниҳоятда яхши бир тажриба – Президентимизни соҳанинг энг илғор вакиллари билан очиқ мулоқот шаклидаги учрашувини ташкил этиб, йиғилиб қолган масалаларга биргаликда ечим топиш амалиёти йўлга қўйилгани ва ушбу анъана давом эттирилаётгани, шунингдек **20 августни** Ўзбекистонда "**Тадбиркорлар куни**" сифатида белгиланган бунинг яққол далилидир.

Маълумот учун: *2021 йилда бўлиб ўтган очиқ мулоқот натижалари бўйича бизнесни қўллаб-қувватлаш бораисда* ***57 та****, 2022 йили эса* ***55 та,*** *2023 йили* ***56 та*** *илгари сурилган эди*

Шунингдек, жорий йилда ўтказилган очиқ мулоқот тадбирида ҳам эса **60 та** норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини қабул қилиш, **28 та** янги ташаббусларни амалга ошириш белгилаб олинди.

Буларнинг ҳисобидан бизнесни юритишда нима енгилликлар бўлди, тадбиркорлар ҳаётида қандай ижобий ўзгаришларга эришилди умуман, ташаббуслар натижаси мамлакатимиз иқтисодиётига қандай ижобий таъсир кўрсатганига ҳам тўхталиб ўтсак.

биринчидан, очиқ мулоқот тадбирларида бизнес вакиллари томонидан берилган таклифлар асосида бизнес субъектлари **микро, кичик, ўрта** ва **йирик** тоифаларга бўлинди ва уларнинг ҳар бири билан алоҳида ёндашувлар асосида ишлаш тизими йўлга қўйилди.

Шунингдек, туман ва шаҳарлар ҳам **5 та тоифага** ажратилди, **60 та** туманга алоҳида солиқ, кредит ва молиявий ёрдам режимлари жорий қилинди.

иккинчидан, жорий йилдан бошлаб, қонунчилик талабларига риоя этган ҳолда фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектларини аниқлаш ва қўшимча рағбатлантириш мақсадида тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингини тизими жорий этилиб, **Барқарорлик рейтинги ахборот тизими платформаси** яратилди.

*Ҳозирда платформада **жами 550 мингта** тадбиркордан **9,9 мингтаси юқори (AAA – 1 352 та), 105,2 мингта – ўрта (B), 267 мингта – қониқарли (C), 169 мингта – қуйи (D) рейтингда жойлашган***

учинчидан, тадбиркорлик соҳасидаги мавжуд муаммоларни таҳлил қилиш ва бу борада қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг бизнесга таъсирини баҳолаш мақсадида Президент ҳузурида **Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича Жамоатчилик кенгаши** ташкил қилинди.

тўртинчидан, илгари янги тадбиркорлар учун "**кириш қийин бўлган**" **119 та** фаолият бўйича лицензия ва рухсатномалар бекор қилинди ёки хабардор қилиш шаклига ўтказилди. Бугунги кунда амалга оширилиши учун лицензияларни олиш талаб қилинадиган фаолият турлари **59 та**ни ҳамда амалга оширилиши учун рухсат этиш хусусиятига эга ҳужжатларни олиш талаб этиладиган фаолият турлари **123 тани** ташкил қилмоқда.

Умуман, ўтган бир йилда мамлакатда кичик тадбиркорлар сони **40 мингта**га кўпайиб, **490** мингга, ўрта тадбиркорлар сони **2 мингта**га ошиб, **10 мингга** етди. Йирик корхоналар сони эса бир йилда **400 та**га кўпайиб**, 1,5 мингта** бўлди.

Берилган енгилликлардан фойдаланиб, бир йилда **155 та** корхонанинг йиллик айланмаси **100 миллион долла**рдан ошди.

Киритилган йиллик хорижий сармоялар ҳажми эса илк бор **10 миллиард доллардан ошди**. Бу – 2017 йилга нисбатан **3 баробар** кўп демакдир.

Сўнгги икки йилда маҳаллий корхоналар томонидан **25 миллиард долла**рлик маҳсулотлар экспорт қилинди ва аввал импорт қилинган **10 миллиард долла**рлик маҳсулотни ўзимизда ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

Янги Ўзбекистон – **янгича иқтисодий муносабатлар, янгича иқтисодий дунёқараш**, дегани. Шу боис мамлакатимиз иқтисодий тизими тўлиқ қайта қурилмоқда, бозор механизмларини амалда жорий этиш бошланди.

Тадбиркорларга эътибор бундан кейин ҳам давлат сиёсатининг энг устувор вазифаси бўлиб қолади.

Булар ҳали ҳаммаси эмас. **2023 йил 1 январдан бошлаб** микро бизнес учун айланмадан олинадиган солиқнинг амалдаги **4 фоиздан 25 фоизгача** бўлган ставкалари ўрнига ягона **4 фоизли** солиқ ставкаси жорий этилди ва бугунги кунда айланмадан олинадиган солиқ тўловчилари сони **315 мингтадан** ошди.

Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta’minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni o‘zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish, bolalarni to‘garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o‘rganish va “nutq madaniyati” bo‘yicha kurslarni tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo‘nalishlari, havaskorlik san’ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ‘ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish kabi vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida belgilab berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish vazifasi belgilab berilgan.

Yuqorida keltiligan normativ hujjjatlarda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadidida mamlakatimizda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy qadriyatlarni umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida shakllantirishning innovatsion texnologiyalari yetarli darajada o‘rganilmagan pedagogik obyektlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Milliy qadriyatlar – bu muayyan xalqning asrlar davomida shakllangan, uning madaniyati, tarixi, urf-odatlari, diniy va ma'naviy e’tiqodlari asosida tarkib topgan axloqiy, estetik va ijtimoiy me’yorlar yig‘indisidir.Milliy qadriyatlar jamiyatning barqarorligi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ularni asrab-avaylash va targ‘ib qilish har bir fuqaroning burchidir. Milliy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, yosh avlod ongiga ularni singdirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Xalq og‘zaki ijodi esa milliy madaniyatni asrash va targ‘ib qilishning bebaho manbasi hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning milliy tafakkurini rivojlantirish, ularga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish imkoniyati paydo bo‘lmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlarni shakllantirish va saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki xalq og‘zaki ijodi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meros bo‘lib, millatning tarixi, urf-odatlari, ma’naviy qadriyatlari va hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Xalq og‘zaki ijodining milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini quyidagilar orqali anglab olishimiz mumkin:

- tarixiy xotira va milliy o‘zlikni saqlashda dostonlar, rivoyatlar va afsonalar orqali xalqning tarixi, buyuk ajdodlari va ularning qahramonliklari avlodlarga yetkaziladi;

- ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni singdirishda ertaklar va maqollar orqali yaxshi-yomonni ajratish, odob-axloq qoidalarini o‘rgatish an'ana sifatida davom etib keladi. Masalan, "Yaxshilik qilsang, yaxshilik topasan" degan maqol xalqning mehr-oqibatga asoslangan qadriyatlarini ifodalaydi;
- oila va jamiyatdagi munosabatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidagi qahramonlar orqali ota-onaga hurmat, qarindoshlik rishtalariga sadoqat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar tarbiyalanadi. Masalan, "Bola tarbiyasi beshikdan" degan maqol oilaviy qadriyatlarni aks ettiradi;
- vatanparvarlik va mardlikni targ‘ib qilishda qahramonlik dostonlari va xalq qo‘shiqlari orqali yosh avlodda vatanparvarlik ruhini uyg‘otadi. Masalan, "Shiroq", "Jaloliddin Manguberdi" kabi tarixiy rivoyatlar milliy iftixor hissini oshiradi;
- madaniyat va san'atni rivojlantirishda qo‘shiqlar, laparlar, askiyalar yordamga keladi va ular milliy madaniyat va san'atning ajralmas qismi bo‘lib, xalqning hayot tarzi va kayfiyatini aks ettiradi. Masalan, "Ustod-shogird" an'analari milliy san'at va hunarmandchilikning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlarning shakllanishi, rivojlanishi va avlodlarga yetkazilishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu ijodiy meros xalqning ma'naviyatini boyitib, milliy o‘ziga xosligini saqlashga xizmat qiladi. Shu sababli xalq og‘zaki ijodini o‘rganish va targ‘ib qilish har bir avlodning muhim burchidir.

Xalq og‘zaki ijodi nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- Ertaklar – axloqiy me'yorlarni singdirish va fantaziya orqali tafakkurni rivojlantirish;
- Topishmoqlar va tez aytishlar – tafakkur va til malakalarini shakllantirish;
- Maqollar va matallar – donishmandlik va hayotiy tajribalarni o‘rgatish;
- Qo‘shiqlar va laparlar – tarixiy xotirani saqlash va madaniy merosni targ‘ib qilish.

Xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining eng muhim omilidir. Innovatsion texnologiyalar esa ushbu janrlarni interfaol va samarali o‘rgatish uchun imkoniyat yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar – bu ilg‘or ilmiy va texnologik yutuqlarga asoslangan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlar bo‘lib, ular ishlab chiqarish, ta'lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va boshqa sohalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarga misol qilib quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Raqamli dasturlar va ilovalar: ta'lim jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalarini interaktiv tarzda o‘rgatish uchun maxsus mobil ilovalar va raqamli platformalar ishlab chiqilmoqda. Masalan:

- "Ertaklar olami" – bolalar uchun interaktiv ertak kitoblari, audio va video formatdagi ertaklar;
- "Maqollar va matallar" – o‘quvchilar maqollarni to‘ldirish, ularning ma'nosini topish yoki qo‘llash bo‘yicha o‘yinlar o‘ynashi mumkin;
- "Topishmoqlar va tez aytishlar" – aqliy rivojlanish va til ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlar.

Gamifikatsiya (O‘yinlashtirish) metodi ham hozirgi vaqtda xalq og‘zaki ijodini o‘rganish jarayonini o tashkil etishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Masalan:

- online viktorinalar – maqollar, topishmoqlar bo‘yicha test va musobaqalar;
- rol o‘ynash o‘yinlari – xalq ertaklaridan sahna ko‘rinishlarini yaratish va ularni raqamli formatda namoyish qilish;
- mobil ilovalardagi topshiriqlar – o‘quvchilar topishmoqlarning javoblarini izlash yoki maqollar bo‘yicha interaktiv topshiriqlarni bajarishlari mumkin.

Xalq og‘zaki ijodini innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish milliy qadriyatlarni samarali shakllantirishga yordam beradi. Bu holat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishida, irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishida, ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishida, faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishida, shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvida, fuqarolik pozitsiyasi, o‘zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat

asoslarining shakllanishida, milliy qadriyatlar, an'analarga hurmatning namoyon bo'lishida, o'zini-o'zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishida, o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qilishga intilishida, xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishida, axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e'tiqodning shakllanishida, pozitiv ijtimoiy mo'ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo'lidagi intilishlarida, ma'naviy-axloqiy prinsiplarning qat'iylashuvida, ichki his-tuyg'ularga e'tiborning oshishida, mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

3. Abdullayeva, G. A. (2020). The Importance of Moral Needs in the Upbringing of the Individual. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6).

4. Abdullayev Q., Yusupov M., Rahmonbekova S. O'qish kitobi. 2-sinf o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent, "Sharq", 2010.

5. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – Toshkent, "O'qituvchi", 2010.

6. Maxmudov, Y. F., & Xudoyqulov, X. J. (2011). Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni. – T., Dizayn-Press, 2011.

7. Ҳамрокулова, Ш., & Тушпулатов, Ғ. (2023). Оила–ижтимоий экологик тарбия субъекти. Results of National Scientific Research International Journal, 4(1)

8. Xudoyqulov X.J. Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2020.

9. Xolov O.Ch. Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | ISSUE 8, ISSN 2181-1784, Scientific Journal Impact Factor

UO'K 37.02

ADABIYOT DARSLARIDA IFODALI O'QISHNING TALAB VA ME'YORLARI

Sh.B.Ermanbetova, katta o'qituvchi, PhD, University of Business and Science, Namangan
G.M.Qo'ymurodova, o'qituvchi, University of Business and Science, Namangan

Annotatsiya. *Mazkur maqolada adabiyot darslarida ifodali o'qishning o'quvchilarning estetik didi, nutq madaniyati va badiiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rni, uning asosiy talab va me'yorlari, o'qituvchining bu jarayondagi metodik yondashuvlari yoritiladi. Ifodali o'qish madaniyatini shakllantirishda intonatsiya, pauza, tembr, sur'at kabi elementlarning ahamiyati hamda badiiy matn bilan ishlash usullari tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKT vositalarining ifodali o'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli ham yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *ifodali o'qish, adabiyot darsi, badiiy tafakkur, estetik tarbiya, nutq madaniyati, intonatsiya, metodika, tahlil.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль выразительного чтения на уроках литературы в формировании эстетического вкуса, культуры речи и художественного мышления учащихся. Освещаются основные требования и нормы выразительного чтения, а также методические подходы учителя в этом процессе. Анализируется значение таких элементов, как интонация, пауза, тембр, темп в формировании культуры выразительного чтения, а также методы работы с художественным текстом. Кроме того, рассматривается роль современных педагогических технологий и ИКТ-средств в развитии компетенций выразительного чтения.*

Ключевые слова: *выразительное чтение, урок литературы, художественное мышление, эстетическое воспитание, культура речи, интонация, методика, анализ.*

Abstract. *This article discusses the role of expressive reading in literature lessons in developing students' aesthetic taste, speech culture, and artistic thinking. It highlights the main requirements and norms of expressive reading, as well as the methodological approaches employed by teachers during this process. The article also analyzes the significance of such elements as intonation, pause, timbre, and pace in shaping expressive reading culture, along with effective techniques for working with*

literary texts. In addition, the paper emphasizes the role of modern pedagogical technologies and ICT tools in enhancing expressive reading competencies.
Keywords: *expressive reading, literature lesson, artistic thinking, aesthetic education, speech culture, intonation, methodology, analysis.*

Adabiyot darslarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda badiiy asarni chuqur anglash, uning estetik va ma’naviy g‘oyasini his etish, shuningdek, badiiy nutqni tushunish va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ifodali o‘qish san’ati nafaqat badiiy asar mazmunini yetkazish, balki tinglovchilarga estetik zavq ulashish vositasi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan adabiyot o‘qituvchilari ifodali o‘qishga alohida e’tibor berishlari zarur. Bu jarayon orqali o‘quvchilarning hissiy dunyosi kengayadi, ularning nutqi va tafakkuri boyiydi.

Ifodali o‘qish tushunchasi va uning ahamiyati— bu matn mazmuni, obrazlar, muallifning munosabati va asarning hissiy kayfiyatini to‘liq aks ettirgan holda badiiy asarni og‘zaki o‘qish san’atidir. U o‘quvchining asarni tushunish darajasi, o‘qish texnikasi, nutq madaniyati va his-tuyg‘ularini ifoda eta olish salohiyatini ko‘rsatadi. Ifodali o‘qish orqali o‘quvchilar asardagi obrazlarni jonlantirish, ularning kechinmalarini his qilish, matnni tinglovchiga ta’sirchan yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bu jarayon o‘quvchilarning estetik tarbiyasi va badiiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ifodali o‘qish – bu o‘quvchilarning psixologik va emotsional jihatdan matnga bog‘lanishini ta'minlaydi. Har bir satrni o‘z ruhiy olamidan o‘tkazgan holda o‘qish, bolalarning obrazlarni tasavvur qilish, empatiya hissini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ifodali o‘qish jarayoni o‘quvchining jamoat oldida nutq so‘zlashga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ularning sahna madaniyati, nutqiy ifoda, artikulyatsiya, pauza va urg‘ularni qo‘llay olish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ifodali o‘qish orqali o‘quvchilar nafaqat matn mazmunini chuqurroq tushunadilar, balki o‘z fikrlarini izchil, aniq va estetik shaklda bayon qilishga o‘rganadilar. Bu esa ularda tahliliy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, mustaqil fikr bildirish kompetensiyalarini shakllantiradi. Shu sababli, ifodali o‘qish adabiyot darslarining ajralmas metodik komponenti sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Ifodali o‘qishning asosiy talab va me’yorlari Adabiyot darslarida ifodali o‘qishga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

Matnni to‘liq tushunish: o‘quvchi asarni o‘qishdan avval uning mazmunini, syujetini, obrazlar tizimini tushunib olishi zarur.

Talaffuz aniqligi: har bir so‘z, tovush, urg‘u aniq va to‘g‘ri aytilishi kerak.

Pauza va sur’at: matn mazmuniga mos ravishda pauzalarni to‘g‘ri qo‘llay olish, o‘qish tezligini nazorat qilish muhim.

Intonatsiya: matndagi ruhiy holat, obrazlar kayfiyati, muallif fikriga mos ohangda o‘qish zarur.

Tovush tembri: har bir personajga mos ovoz tembrini topish, ularni farqlab o‘qish orqali obrazlar jonlanadi.

Ko‘z bilan kuzatish: matnni o‘qish jarayonida ko‘z bilan nazorat qilish o‘quvchining diqqatini saqlab qolishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ifodali o‘qishga o‘rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) keng imkoniyatlar yaratmoqda. Texnologiyalar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, matnni chuqurroq tushunish, tinglash va idrok qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim muhitida AKTdan foydalanish orqali o‘quvchilarni ifodali o‘qishga mustaqil va ijodiy yondashishga o‘rgatish mumkin.

Interaktiv doskalar yordamida matnni vizual tarzda ko‘rsatish, uning fonetik, morfologik va semantik jihatlarini ko‘rib chiqish imkoniyati mavjud. Bu metod nafaqat tinglovchi va o‘quvchining diqqatini tortadi, balki ifodali o‘qishga tayyorgarlik bosqichini samarali tashkil etadi.

Elektron audiokitoblar o‘quvchilarga professional aktyorlar tomonidan o‘qilgan badiiy matnlarni tinglash imkonini beradi. Bu orqali o‘quvchi intonatsiya, pauza, urg‘u kabi elementlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi. Ayniqsa, ovozli materiallar orqali har bir obrazning kayfiyatini, ruhiy holatini to‘g‘ri tasvirlashga oid bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Mobil ilovalar, jumladan, interaktiv o‘yinlar va mashqlar, o‘quvchilarni mustaqil ravishda ifodali o‘qishga tayyorlaydi. Ular bilan ishlash davomida o‘quvchi o‘z xatolarini aniqlaydi, tinglash va to‘g‘ri talaffuz qilishni amaliy ravishda mashq qiladi.

Online platformalar (masalan, Google Classroom, Zoom, Quizlet) orqali o‘qituvchi badiiy matnlar asosida topshiriqlar berishi, o‘quvchilarning ifodali o‘qishini videoyozuv orqali baholashi mumkin. Bu esa nafaqat o‘qish jarayonini kuzatish, balki uni tahlil qilish imkonini ham beradi.

Bundan tashqari, metaverse va sun'iy intellekt asosidagi vositalar yordamida o‘quvchilar virtual sahnalashtirishda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, badiiy asardagi muhim voqealarni jonli tarzda metaverse muhitida ijro etish, har bir obrazni ifodalash orqali ularning ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar ifodali o‘qish darslarining sifatini oshiradi, o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga qulay sharoit yaratadi va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Badiiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rni Ifodali o‘qish orqali o‘quvchi nafaqat matnni tushunadi, balki uni his qiladi, badiiy tasvir vositalari va obrazlar ustida mulohaza yuritadi. Bu esa badiiy tafakkurni, estetik zavqni, og‘zaki nutqni rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilarda empatiya, obrazli tafakkur, dramatik tasavvur kabi qobiliyatlar ham shakllanadi. Bu ko‘nikmalar kelajakda shaxsning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa Ifodali o‘qish — bu o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning nutq madaniyati va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vositadir. Shu sababli adabiyot darslarida ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berilishi, har bir bosqich puxta rejalashtirilgan holda olib borilishi lozim. O‘qituvchi esa bu jarayonni faqat o‘qish bilan cheklamay, balki o‘quvchilarning o‘ziga xos qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish orqali ularni ijodiy shaxs sifatida shakllantirishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. To‘xtaboyev S. “O‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Qurbonov Yo. “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Karimova M. “Nutq madaniyati va ifodali o‘qish”. – Samarqand, 2021.
4. G‘afurov B. “Adabiy tafakkur va o‘quvchining estetik tarbiyasi”. – Buxoro, 2020.

UDK 37.02

GOSPITAL PEDIATRIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

M.Sh. Ganiyeva, t.f.n., dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon
Z.U. Mirzayeva, katta o’qituvchi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon
X.Q. Xankeldiyeva, t.f.n., dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gospital pediatriya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati, ularning turlari va qo‘llash usullari yoritilgan. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash, mustaqil fikrlash va klinik tafakkurni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning roli tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv metodlar, AKT vositalari va reflektiv ta’lim usullari samaradorligi misollar asosida asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *gospital pediatriya, pedagogik texnologiyalar, tibbiy ta’lim, interfaol metodlar, klinik tafakkur.*

Аннотация. *В данной статье освещается значение внедрения современных педагогических технологий в преподавание госпитальной педиатрии, их виды и методы применения. Проанализирована роль инновационных подходов в укреплении теоретических знаний студентов, формировании клинического мышления и самостоятельного анализа. Также приведены примеры эффективного использования интерактивных методов, ИКТ и рефлексивного обучения.*

Ключевые слова: *госпитальная педиатрия, педагогические технологии, медицинское образование, интерактивные методы, клиническое мышление*

Abstract. *This article highlights the importance of integrating modern pedagogical technologies into the teaching of hospital pediatrics, discussing their types and application methods. The role of innovative approaches in reinforcing students' theoretical knowledge, developing independent thinking and clinical reasoning is analyzed. The effectiveness of interactive methods, ICT tools, and reflective learning techniques is supported by practical examples.*

Key words: *hospital pediatrics, pedagogical technologies, medical education, interactive methods, clinical thinking.*

Zamonaviy tibbiy ta'limda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, gospital pediatriya fanini o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarni klinik muhitga tayyorlash, shuningdek, ularning kommunikativ va diagnostik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion metodlar zaruratga aylanmoqda.

Gospital pediatriya — bu bolalar kasalliklarini chuqur o'rganish, tashxislash va davolash jarayonlarining bevosita amaliyotga yo'naltirilgan yo'nalishidir. Ushbu fan talabalardan chuqur nazariy bilim, muloqot madaniyati, tahliliy fikrlash va klinik qaror qabul qilish qobiliyatini talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar deganda, ta'lim jarayonini interaktiv, samarali, shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilish usullarining yig'indisi tushuniladi. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir.

Interfaol degani bu - o'qituvchi va talabalarni o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosobat bildirish ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda talaba o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalillarga asoslangan tibbiyot ma'lumotlari orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa talabalarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondoshiladi. O'qituvchi faqat fasilitator ya'ni yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Har bir dars turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etishi, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim.

Interfaol metod nechog'lik o'qitishning muayyan jarayonini tavsiflasa, u shunchalik ko'p o'qitish samarasini ta'minlaydi. Masalan, pedagog asosiy metod sifatida "munozara"ni tanlaydi va uni o'tkazish mantiqini quradi, shuningdek munozara davomida talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun "aqliy hujum" dan foydalanadi, bu esa kutilgan samarani beradi. Interfaol metodlarni tanlash mezoni ularning ta'lim-tarbiya rivojlantirish masalalarini echishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarning u yoki bu doiradagi vazifalarini echish imkoniyatlarini baholash yo'li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir.

Interfaol metodlarning barchasi talabalarning fikrlash mustaqilligini ta'minlaydi, o'qitishda bir qoliplikni va andozalikni yo'qotadi, o'quv materiallarini egallashda nazariy bilimlarning rolini birmuncha oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Interaktiv metodlar - o'quvchilarni faol ishtirokga jalb qiluvchi keys-stadi, rol o'ynash, debat metodlardir.

Simulyatsion ta'lim - klinik holatlarni sun'iy modellashtirish CPR manekenlari, virtual bemorlar.

Multimedia va AKT vositalari - vizual, audio va elektron materiallar, video-ma'ruzalar, animatsiyalar.

Problemaga yo'naltirilgan ta'lim (PBL) - talabalarni tahliliy fikrlashga yo'naltirish.

Blended learning (aralash ta'lim) - an'anaviy va onlayn ta'lim uyg'unligi Moodle, Google Classroom orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar.

Zamonaviy texnologiyalar orqali:

Talabaning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi (diagnostika, qaror qabul qilish, empatiya);

O‘quv jarayonida faollik va motivatsiya oshadi;

Klinik tafakkur, tezkor reaksiya va stressga bardoshlik shakllanadi;

Masofaviy ta’lim va mustaqil o‘rganish imkoniyatlari kengayadi.

Gospital pediatriyada zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash quyidagi afzalliklarni beradi:

Talabalar kasallik holatlarini amaliy o‘rganish orqali klinik tafakkurini rivojlantiradi;

Mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash malakalari shakllanadi;

Simulyatsion o‘yinlar yordamida real klinik vaziyatlarga yaqin sharoitlar yaratiladi.

Misol uchun, pnevmoniya kasalligini o‘rganishda keys-stadi usuli orqali bemorning klinik ko‘rinishlari, laborator natijalari va davolash yondashuvlari muhokama qilinadi. Bu talabani holatni tahlil qilishga, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va davolash rejasini tuzishga o‘rgatadi.

Gospital pediatriya fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish talabalar bilimini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ularni professional faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar va AKT vositalarini ta’limga integratsiyalash natijasida ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi. Dars jarayonini oxirgi qismida talabalar mavzuni qanchalik o’zlashtirganliklarini bilish uchun quyida keltirilgan interaktiv usullardan foydalanish orqali yaxshi samaraga erishildi.

«**SCAMPER**» usuli yangi fikrlarni yuzaga keltirishni stimullovchi ma’lum bir savollarni qo‘yish sxemasidir, boshqacha qilib aytganda – bu kreativlik uslubi.

«**SCAMPER**» – bu o‘rganilayotgan muammoning xususiyatlari ustida mustaqil ishlashni bayon qiluvchi so‘zlarning harflar bilan belgilangan abbreviaturasi hisoblanadi.

S — *Substitute* (*almashtirish).* Siz nimani almashtirishingiz mumkin? Buning o‘rniga nima ishlatilishi mumkin? Boshqa qanday jarayon bo‘lishi mumkin?

C— *Combine (birlashtirish).* Nimani birlashtirish mumkin? Nima bilan birlashtirilishi mumkin? Qo‘shimcha ravishda nima ishlatilishi mumkin?

A— *Adapt (moslashtirish).* Shunchaki boshqa kontekstda shunga o‘xshash narsa bormi? Nimani nusxalashim mumkin? Boshqa sohalarning qaysi fikrlarini qo‘llashim mumkin?

M— *Modify (o‘zgartirish).* Nimani o‘zgartirish mumkin? Shakllaysizmi? Rangmi? Nimani kuchaytirish mumkin? Nimani takrorlash mumkin?

P— *Put to Other Uses (boshqacha qo‘llash tavsiyasi).* Uni yana nimaga ishlatish mumkin? Buni yana kim ishlatishi mumkin? Bu fikrni bola yoki qariya qanday ishlatadi?

E— *Eliminate* (qisqartirish). spektrni toraytirish va asosiy narsani qoldirish uchun nima olib tashlanishi mumkin? qisqartirilishi yoki minimallashtirilishi mumkinmi?

R— *Rearrange/Revers* (tartibini o‘zgartirish).

Masalan, dars yakunida talabalarni darsni qanchalik o’zlashtirilganligini bilish uchun “SCAMPER” uslubi qo’llaniladi:

S-Substitute (almashtirish). Amoxicillin ? Penitsilinni? Boshqa qanday jarayon bo'lishi mumkin?

C-Combine (birlashtirish). Penitsilinni? Nima bilan birlashtirilishi mumkin? Qo'shimcha ravishda nima ishlatilishi mumkin? Gentamitsin

A- Adapt (moslashtirish) Agar u ham yordam bermasa sefalosporin guruhiga o'tiladi. Shunchaki boshqa kontekstda shunga o'xshash narsa bormi? Nimani nusxalashim mumkin? Boshqa sohalarning qaysi fikrlarini qo'llashim mumkin?

M-Modify (o'zgartirish). Ichak mikroflorasini tikkalovchilar bifido va laktobakterumlar. Nimani o'zgartirish mumkin? Shakllaysizmi? Rangmi? Nimani kuchaytirish mumkin? Nimani takrorlash mumkin?

P-Put to Other Uses (boshqacha qo'llash tavsiyasi). Agar kuchli intoktsikatsiya jarayon ketayotgan bo'lsa dezintiksikatsion terapiya Uni yana nimaga ishlatish mumkin? Buni yana kim ishlatishi mumkin? Bu fikrni bola yoki qariya qanday ishlatadi?

E - Eliminate (qisqartirish). Albatta bolani oziqlanishiga etibor berish lozim,spektrni toraytirish va asosiy narsani qoldirish uchun nima olib tashlanishi mumkin? qisqartirilishi yoki minimallashtirilishi mumkinmi?

R-Rearrange/Revers (tartibini o'zgartirish). Iloji boricha ona sutimuhim hisoblanadi

"Mental xarita" usuli . Mental xarita – g'oya, vazifa, tushuncha va boshqa xar qanday ma'lumotlarni tartibga solish usulidir. Mental xaritalari murakkab narsalarni vizual tarzda tuzish, eslab qolish va tushuntirishga yordam beradi. Barcha mental xaritalarning markazida asosiy g'oya turadi. Undan kalit fikrlar chiqib, ularni xam o'z navbatida barcha ma'lumotlarni namoyon qilguniga qadar tarmoqlarga bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Bu qaysidir jihati bilan daraxtni esga soladi. Uning tanasi – markaziy g'oya, shoxlari esa undan kelib chiqadigan tasavvurlar. Masalan, interaktiv keys-stadi asosida talabalar quyidagi bosqichlarda bilim oladi:

1. Bemor haqidagi qisqa klinik ma'lumotlar taqdim etiladi;
2. Guruhda muhokama qilinadi (differensial tashxis, asosiy shikoyatlar, anamnez);
3. Tashxis qo'yiladi va davolash rejalashtiriladi;4. O'qituvchi tahliliy yakun beradi (metakognitiv yondashuv).
5. Xorijiy va milliy tajribalar**.**

AQSh va Yevropa mamlakatlarida: Simulyatsiya markazlari, OSCE (Objective Structured Clinical Examination) sinovlari keng qo'llaniladi; O'zbekiston oliy tibbiy ta'limida: "Ta'lim-2030" strategiyasida raqamli texnologiyalar asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan; Mahalliy misol: Samarqand, Toshkent va Buxoro tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "virtual klinika" loyihalari yo'lga qo'yilgan.

Takliflar:

1. Har bir klinik fanni o'qitishda individual texnologik xarita ishlab chiqish;
2. AKT vositalaridan foydalanishni pedagoglar o'rtasida tizimli o'rgatish;
3. Virtual klinik holatlar bankini yaratish;
4. Klinik simulyatsiya markazlarini barcha tibbiyot OTMlariga joriy qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axunova N.A. va boshq. "Tibbiy ta'limda pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: 2021.
2. Harden R.M. "Approaches to curriculum planning". Medical Education, 2020.
3. Bekturdiev N.A., "Zamonaviy tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv". – Toshkent, 2022.
4. World Federation for Medical Education. "Global Standards for Quality Improvement". – 2020.
5. Yigitaliyeva D. "Simulyatsion texnologiyalarning pediatriya ta'limidagi o'rni". – TMA, 2023.
6. WHO. "Transforming and scaling up health professionals' education and training". – Geneva, 2013.
7. Meirbekova G.O. "Pediatriya amaliyotida klinik fikrlashni rivojlantirish usullari". – 2022.

UO'K 37.02

STILISTIK VOSITALARNING INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASIDAGI AHAMIYATI

G.L.Imamova, o'qituvchi, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda stilistik vositalarni o'rgatishning metodik asoslari yoritiladi. Metafora, ironiyadan tortib gipepbola, inversiya va boshqa ekspressiv vositalarning til o'rganuvchida emotsional tafakkur, estetik idrok va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi roli ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiy matnlar, muloqotga asoslangan metodlar va zamonaviy texnologiyalar orqali stilistik vositalarni o'rgatishning samarali usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *stilistik vositalar, ingliz tili metodikasi, metafora, emotsional idrok, adabiy matn, lingvomadaniy kompetensiya, didaktik yondashuv.*

Аннотация. *В статье рассматривается методическое значение обучения стилистическим средствам в преподавании английского языка. Анализируется роль выразительных средств — метафоры, иронии, гиперболы, инверсии — в формировании эстетического восприятия, эмоционального мышления и межкультурной компетенции учащихся. Также описываются эффективные методы обучения с использованием художественных текстов, коммуникативных подходов и современных технологий.*

Ключевые слова: *стилистические средства, методика преподавания английского языка, метафора, эмоциональное восприяте, художественные тексты, межкультурная компетенция, дидактический подход*

Abstract. *This article explores the methodological importance of teaching stylistic devices in English language instruction. It analyzes the role of expressive means such as metaphor, irony, hyperbole, and inversion in developing learners' aesthetic perception, emotional awareness, and intercultural competence. The article also outlines practical strategies involving literary texts, communicative methods, and digital tools to effectively teach stylistic elements in the EFL classroom.*

Keywords: *stylistic devices, English language methodology, metaphor, emotional cognition, literary texts, intercultural competence, pedagogical approach.*

Ingliz tilini o‘qitish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish, leksik boylikni kengaytirish yoki fonetik me’yorlarga amal qilishdan iborat, balki til vositalarining estetik va konnotativ imkoniyatlarini chuqur anglashni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, stilistik vositalar – ya’ni tildagi obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlikni ta’minlovchi birliklar – til o‘rganishda o‘quvchining nutq madaniyatini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Stilistik vositalarning metodik jihatdan o‘qitilishi esa o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani, madaniyatlararo idrokni, estetik tafakkurni va lisoniy sezgirlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Stilistik vositalar deganda metafora, metonimiya, ironiyadan tortib, epitet, personifikatsiya, parallelizm, inversion, litota, gipepbola, ellipsis kabi turli til birliklari tushuniladi. Ular, ayniqsa, adabiy matnlarda, publitsistik nutqda, nutq uslublarida keng qo‘llanadi. Ingliz tilini o‘rganishda bu vositalarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish o‘quvchining til madaniyatiga mos ravishda nutq qurishiga, emotsional kontekstni to‘g‘ri anglashiga va har xil matnlar uslubini tanib olishiga yordam beradi.

O‘quv jarayonida stilistik vositalarni o‘rgatish ikki asosiy yo‘nalishda olib boriladi: receptiv va produktiv. Receptiv yondashuvda o‘quvchi mavjud matnlarda stilistik vositalarni aniqlaydi, ularning semantik va pragmatik yukini anglaydi. Masalan, she’rda yoki badiiy matnda metaforaning estetik funksiyasi, ironiyaning kinoya vositasi sifatidagi o‘rni, giperbolaning bo‘rttirma effektini tushunib olish o‘quvchi tafakkurini kengaytiradi. Produktiv yondashuv esa o‘quvchining o‘z nutqida bu vositalardan ongli tarzda foydalanishiga qaratiladi. Bunday yondashuvlar ijodiy yozuv mashg‘ulotlarida, insho, hikoya yoki esse yozish jarayonida qo‘llaniladi.

Metodik jihatdan stilistik vositalarni o‘rgatishda ko‘rgazmalilik, kontekstual yondashuv va muloqotga asoslangan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rgazmalilik – stilistik vositalar haqidagi nazariy tushunchalarni konkret misollar asosida tushuntirishdir. Masalan, Shakespeare asarlaridan olingan sitatalar orqali metaforani anglash, yoki Charles Dickens uslubidagi ironiyani tahlil qilish stilistik vositaning tabiiy kontekstdagi ishlatilishini ko‘rsatadi. Kontekstual yondashuv esa har bir stilistik birlikni umumiy matn kontekstida talqin qilishni nazarda tutadi, ya’ni metafora qanday semantik ko‘chishga olib keladi, yoki gipepbola qanday emotsional ta’sir uyg‘otadi – bularning barchasi muhokama qilinadi.

Zamonaviy metodikada muloqotga asoslangan yondashuv (communicative approach) stilistik vositalarni faqat nazariy emas, balki amaliy yo‘nalishda o‘rgatishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida kundalik dialoglarda ishlatiladigan stilistik ifodalar – idiomalar, so‘z o‘yinlari, ironik iboralar – til o‘rganuvchining kommunikativ qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, audio-video materiallar asosida autentik matnlarni tahlil qilish orqali stilistik birliklar real nutq muhitida qanday ishlatilishini o‘rganish mumkin. Bu esa ingliz tilining nafaqat rasmiy, balki emotsional va obrazli qatlamlarini ham anglash imkonini beradi.

Hozirgi davrda chet tilini o‘qitish metodikasida muloqotga asoslangan yondashuv (communicative approach) yetakchi o‘rin egallamoqda. Bu yondashuv o‘quvchilarning tilni bilish darajasini oshirish bilan birga, ularning real hayotdagi muloqotga kirishish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tilning stilistik jihatlarini o‘rganishda ushbu yondashuv nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash imkonini beradi.

Stilistik vositalar, xususan idiomalar, metaforalar, ironik iboralar, so‘z o‘yinlari kabi birliklar ko‘pincha og‘zaki va norasmiy nutqda faol ishlatiladi. Aynan shu vositalar orqali til o‘zining obrazli, emotsional va ekspressiv qatlamlarini namoyon qiladi. Muloqotga asoslangan yondashuv bu

vositalarni faqat grammatik struktura yoki lug‘aviy ma’no doirasida emas, balki ularning kommunikativ funksiyasini hisobga olgan holda o‘rgatishni taklif etadi.

Masalan, ingliz tilida ishlatiladigan “hit the books”, “spill the beans”, “break the ice” kabi idiomalar oddiy tarjimada o‘z mazmunini yo‘qotadi, lekin ular muloqotning muhim pragmatik jihatlarini ifodalaydi. Shu bois, bu kabi stilistik birliklarni kundalik muloqot kontekstida o‘rgatish o‘quvchilarga nafaqat lingvistik, balki madaniy kompetensiyani ham shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda audio va video materiallardan, ayniqsa, autentik manbalardan keng foydalanilmoqda. Film, intervyu, podkast va seriallar asosida autentik nutqni tahlil qilish stilistik birliklarning real kontekstdagi ishlatilishini o‘rgatishda nihoyatda samarali vositadir. Talabalar bu orqali stilistik vositalarning intonatsion, konnotativ va emotsional jihatlarini anglaydi, bu esa ularning kommunikativ qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiy matnlar stilistik vositalarni o‘rgatishda eng samarali resurs hisoblanadi. Romandan parcha, she’r, drama yoki hikoyalarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar faqat til o‘rganmaydilar, balki ingliz madaniyati, mentaliteti va adabiy estetikasi bilan ham tanishadilar. Bunda o‘qituvchining vazifasi stilistik vositalarni ajratish va izohlashdan tashqari, ularni tahlil qilishga o‘rgatish, muhokama qilishni rag‘batlantirish, va talabalarni ijodiy fikrlashga undashdir. Masalan, Shakespeare asarlaridagi metaforalar yoki J.K. Rowling romanlaridagi ironiyalar o‘quvchilar bilan bahs-munozara qilish uchun boy material bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ingliz tili stilistik vositalarining o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan solishtirish orqali o‘quvchining lingvistik tafakkurini rivojlantirish mumkin. Bu o‘zaro tarjima mashqlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, “It’s raining cats and dogs” iborasi o‘zbek tilida “yomg‘ir quyayotgan” degan oddiy ifoda bilan almashtirilishi, stilistik o‘xshashlik va tafovutlarni tushuntirish orqali madaniy kontekstni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat tarjima ko‘nikmasini, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham shakllantiradi.

Yana bir muhim jihat – stilistik vositalarni o‘rgatishda bosqichma-bosqichlik va darajaga moslik tamoyillariga rioya qilishdir. Boshlang‘ich bosqichda oddiy epitetlar, tasviriy sifatlar, konversiya yoki inversiya kabi oddiy vositalar tanlanadi. O‘rta va yuqori bosqichlarda esa murakkab metaforalar, antonomaziya, ironik kontrast, parodiya yoki pastishlar o‘rganiladi. Har bir bosqichda mashqlar kontekstual va kommunikativ bo‘lishi lozim: savol-javoblar, gap tuzish, vaziyatli rollar, matn yozish va tahlil qilish kabi faoliyatlar bu jarayonni samarali qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar stilistik vositalarni o‘qitishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Interaktiv platformalarda stilistik birliklar asosida testlar, topshiriqlar, viktorinalar yoki mashqlar tuzish mumkin. AI (sun’iy intellekt) yordamida stilistik vositalarni avtomatik tahlil qilish, o‘quvchi yozgan matndan metafora, ironiyani ajratib beruvchi vositalar yordamida til tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarni mustaqil tahlil qilishga undaydi, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan til o‘rganishga moslashadi.

Xulosa qilib aytganda, stilistik vositalar ingliz tilini o‘rgatishda oddiy estetik unsurlar emas, balki chuqur lingvistik, pragmatik va madaniy funksiyalarga ega metodik vositalardir. Ularni o‘rgatish o‘quvchining faqat til bilimini emas, balki fikr estetikasi, emotsional tafakkuri, va madaniy sezgirligini shakllantiradi. Metodik jihatdan stilistik vositalarni kontekstual, kommunikativ, madaniyatlararo va texnologik yondashuvlar asosida o‘rgatish, ingliz tilini mukammal o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan muhim omillardan biridir. Shu bois bu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy-metodik tadqiqotlar va yangicha didaktik yondashuvlar ta’lim sohasida doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Leech G. N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969. – 250 p.
2. Wales K. A Dictionary of Stylistics. – London: Routledge, 2001. – 432 p.
3. Widdowson H. G. Stylistics and the Teaching of Literature. – London: Longman, 1975. – 214 p.
4. Lazar G. Literature and Language Teaching: A Guide for Teachers and Trainers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 263 p.
5. Carter R., Long M. Teaching Literature. – London: Longman, 1991. – 192 p.
6. Yuldasheva D. I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 188 b.
7. Crystal D., Davy D. Investigating English Style. – London: Longman, 1969. – 280 p.
8. Verdonk P. Stylistics. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 128 p.

9. Салахова З. А. Стилистика английского языка и методика её преподавания. – Ташкент: Университет нашриёти, 2014. – 156 с.

UO’K 37.02

BELBOG‘LI KURASH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA YANGI TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI

Sh.M.Isakov, dots., Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada belbog‘li kurash mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida zamonaviy va innovatsion ta'lim metodlarining ahamiyati tahlil qilingan. Yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol o‘qitish usullari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, talaba-sportchilarning jismoniy va nazariy tayyorgarligini yuksaltirish, ularda mustaqil fikrlash va tez qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yangi ta'lim metodlarining o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurash, yangi ta'lim metodlari, interfaol usullar, jismoniy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, innovatsion o‘qitish, oliy ta'lim, sport mashg‘ulotlari.*

Аннотация. *В данной статье проанализировано значение современных и инновационных методов обучения в процессе организации занятий по борьбе на поясах. Эффективное использование новых педагогических технологий, интерактивных методов обучения и информационно-коммуникационных средств способствует повышению эффективности тренировок. Освещена роль новых методов обучения в улучшении физической и теоретической подготовки студентов, развитии у них самостоятельного мышления и навыков быстрого принятия решений.*

Ключевые слова: *борьба на поясах, новые методы обучения, интерактивные методы, физическая подготовка, педагогические технологии, инновационное обучение, высшее образование, спортивные тренировки.*

Abstract. *This article analyzes the importance of modern and innovative teaching methods in the organization of belt wrestling training sessions. The effective use of new pedagogical technologies, interactive teaching methods, and information and communication tools helps to increase the efficiency of training. The role of new educational methods in improving students' physical and theoretical preparation, developing independent thinking, and decision-making skills is highlighted.*

Key words: *belt wrestling, new teaching methods, interactive techniques, physical preparation, pedagogical technologies, innovative education, higher education, sports training.*

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, milliy sport turlari orasida alohida o‘rin tutuvchi belbog‘li kurash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishda yangi ta’lim metodlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida bu sport turini o‘rgatishda faqatgina an’anaviy uslublarga tayanib qolmasdan, interfaol, innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar joriy etilishi talab etilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohalari nafaqat sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, balki yoshlarni tarbiyalash va ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, milliy sport turlari yosh avlodga milliy qadriyatlarni singdirishda, ularning jismoniy hamda ma’naviy barkamolligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, global texnologik taraqqiyot va ta’limning raqamlilashtirilishi zamonaviy ta’lim jarayonlariga yangi talablarga olib kelmoqda. Bu esa, sport mashg‘ulotlarida an’anaviy metodlarni yanada takomillashtirish va interfaol, innovatsion usullarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Zamonaviy dars jarayoni talaba-sportchilarni nafaqat jismoniy, balki intellektual va psixologik jihatdan ham tayyorlashni ko‘zda tutadi. Shu sababli, yangi pedagogik metodlardan foydalanish nafaqat mashg‘ulotlarning sifati va samaradorligini oshiradi, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi davrda oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini takomillashtirish, uni samarali va sifatli tashkil etish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlarida, xususan, *belbog‘li kurash* kabi milliy sport turlarini o‘rgatishda zamonaviy va innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Belbog‘li kurash kabi milliy sport turlarining rivojlanishi uchun o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va pedagogik yondashuvlarni doimiy ravishda yangilab borish zarur. Shu bois, ushbu sport turida yangi ta’lim metodlarini qo‘llashning ahamiyati va samaradorligini o‘rganish bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir.

Belbog‘li kurash — o‘zbek xalqining qadimiy meroslaridan biri bo‘lib, nafaqat sport turi, balki yosh avlodni vatanparvarlik, matonatlilik va jismoniy barkamollik ruhida tarbiyalash vositasidir. Bu sport turining texnikasi va taktikasini chuqur o‘zlashtirish uchun faqatgina an’anaviy uslublar yetarli emas, balki o‘qitishning interfaol va innovatsion shakllaridan keng foydalanish zarur.

Yangi ta’lim metodlari, jumladan:

- interfaol mashg‘ulotlar (klaster, aqliy hujum, “fikrlar almashinuvi” usullari),
- axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida taqdimotlar, videoanaliz, virtual sport dasturlaridan foydalanish,
- ko‘rgazmali vositalar, simulyatsiya va rolli o‘yinlar orqali o‘rgatish belbog‘li kurash mashg‘ulotlarini qiziqarli, sermazmun va samarali o‘tkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida sportchilarni baholashda ham yangi yondashuvlar qo‘llanilishi lozim. Baholash mezonlari faqatgina natija emas, balki texnikani to‘g‘ri bajarish, fikrlash tezligi, jamoaviy ishlash qobiliyati kabi omillarni ham qamrab olishi kerak.

1. “Peer Teaching” (Tengdoshlar o‘rtasida ta’lim). Talabalar o‘zaro kichik guruhlarda bir-birlariga mashqlarni o‘rgatadilar. Bu usul yordamida har bir sportchi o‘z bilimi va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, hamda o‘zini boshqarish va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. “Problem-Based Learning” (Muammo asosida o‘qitish). Mashg‘ulot davomida murakkab muammolar yoki vaziyatlar taqdim etiladi, sportchilar ularni yechish uchun jamoaviy va individual ravishda ishlaydi. Masalan, raqibning kutilmagan harakatlariga qanday javob berish yoki jarohat oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish.

3. “Gamification” (O‘yinlashtirish). Mashg‘ulotlarda o‘yin elementlarini qo‘shish orqali motivatsiyani oshirish. Masalan, ball tizimi, musobaqalar, maxsus mukofotlar, “level-up” kabi tizimlar sportchilarni faol va qiziqish bilan mashg‘ulotlarda ishtirok etishga rag‘batlantiradi.

4. “Interactive Video Analysis” (Interfaol video tahlil). Mashg‘ulotdan oldin yoki keyin sportchilarning kurash uslublari va texnikalari video orqali ko‘rib chiqiladi. Trener va sportchilar birgalikda harakatlarni tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlaydi va ularni tuzatish yo‘llarini muhokama qiladi.

5. “Collaborative Learning” (Hamkorlikda o‘qitish). Guruh a’zolari birgalikda muammolarni hal qilishadi, taktikalarni ishlab chiqishadi va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu, ayniqsa, belbog‘li kurashda jamoaviy ruhni oshirishda muhim.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yangi metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar talaba-sportchilarning:

- texnik ko‘nikmalarini tezroq egallashiga,
- o‘ziga bo‘lgan ishonchining oshishiga,
- musobaqalarga yuqori darajada tayyorlanishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchi-trenerning roli ham o‘zgaradi: u faqat bilim beruvchi emas, balki rahbar, motivator va maslahat beruvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ayniqsa sport mashg‘ulotlarida, talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan, *videoanaliz* orqali belbog‘li kurash elementlarini bosqichma-bosqich tahlil qilish, texnik xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash imkonini beradi. Bu usul talabalarga o‘z harakatlarini kuzatish va o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, *virtual simulyatsiya dasturlari* yordamida kurash texnikalarini xavfsiz muhitda mashq qilish mumkin bo‘ladi.

Yangi ta’lim metodlarining samarali qo‘llanilishi bevosita trener-o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va metodik yondashuvlariga bog‘liq. Trener nafaqat sport texnikalarini o‘rgatishi, balki motivatsiyani oshirish, shaxsiy yondashuv asosida talabaning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish kabi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Shu bois, trenerlar uchun malaka oshirish kurslarida innovatsion ta’lim texnologiyalarini amaliy qo‘llash bo‘yicha treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Belbog‘li kurash nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Mashg‘ulotlar jarayonida sportchilarda iroda, qat’iyat, hurmat, sabot kabi sifatlar shakllanadi. Yangi metodlar bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi, chunki ular talabaning shaxs sifatida rivojlanishini ham nazarda tutadi.

Belbog‘li kurash mashg‘ulotlarini tashkil etishda yangi ta’lim metodlaridan foydalanish hozirgi zamon ta’lim talablariga to‘liq javob beradi. Interfaol usullar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari talaba-sportchilarning bilimini chuqurlashtirish, ularning texnik va taktik tayyorgarligini oshirish, hamda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, yangi ta’lim metodlari orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar nafaqat texnik va jismoniy tayyorgarlikni oshiradi, balki sportchilarda mas’uliyat, o‘z-o‘zini baholash, muloqotga kirisha olish, ijtimoiy faol bo‘lish kabi hayotiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Aynan shu jihatlar belbog‘li kurashning nafaqat sport, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi.

Mashg‘ulotlarni faqat nazariy bilim yoki kuchga asoslangan holda emas, balki pedagogik mahorat, zamonaviy yondashuvlar va individual yondashuvlar bilan boyitish belbog‘li kurashda yuqori natijalarga erishishning muhim omilidir. Bu esa, o‘z navbatida, milliy sport turlarini rivojlantirish va yosh avlodni jismonan sog‘lom hamda ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim tizimida belbog‘li kurashni o‘rgatishda an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy metodlarni uyg‘unlashtirish, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiribgina qolmay, talabalarni musobaqalarga har tomonlama tayyorlash imkonini beradi. Shu boisdan, har bir trener-o‘qituvchi o‘z amaliy faoliyatida zamonaviy ta’lim yondashuvlaridan ongli va tizimli foydalanishi lozim. Tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar sportchilarni motivatsiya qiladi, ularda sportga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va ijobiy natijalarga erishishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ашуров, Қ. (2021). *Миллий кураш ва унинг педагогик аҳамияти*. Тошкент: “Fan va texnologiya” нашриёти.

2. Каримов, Б.Ж. (2020). *Жисмоний тарбия ва спортда интерфаол ўқитиш усуллари*. Тошкент: Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети.

3. Назаров, У.Н. (2018). *Белбоғли кураш асослари ва унда ўқитиш методикаси*. Самарқанд: СамДУ нашриёти.

4. Аҳмедов, Ж. (2022). *Жисмоний тарбия фанини ўқитишда АКТдан фойдаланиш усуллари*. Урганч: “Ziyo-Zukko”.

5. Mirzaev, B., & Rasulov, S. (2020). *Modern teaching methods in physical education and sports*. Tashkent: Academic Press.

6. Davletov, R., & Khodjaev, I. (2021). *Innovative pedagogical technologies in sports training*. Tashkent: University of Physical Culture Publishing.

7. Jononov, M. (2017). *Belbog‘li kurash bo‘yicha nazariy va amaliy asoslar*. Qarshi: Nasaf nashriyoti.

8. Egamberdiyev, A. (2019). *Sport pedagogikasida metodik yondashuvlar*. Andijon: “Sharq nuri”.

UO’K 37.02

INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O‘QITISHDA INDUKTIV VA DEDUKTIV YONDASHUVLARNING TAQQOSIY TAHLILI HAMDA ULARNING DIDAKTIK AHAMIYATI

N.B.Isomova, rahbar, “Infinity” Til o’qitish o’quv markazi, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini o‘rgatishda qo‘llaniladigan Induktiv* ***(inductive)*** *va Deduktiv* ***(deductive)*** *metodlarning samaradorligi taqqoslanadi. Induktiv va deduktiv metodlarga ta’rif belib uni misollar bilan tushuntiriladi va tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ikki xil*

*metod asosida ikki guruh o'quvchilarga dars berilib, natijalari test va kuzatuv asosida baholandi. Olingan ma'lumotlar grammatikani o'zlashtirishda induktiv (**inductive**) metod ko'proq interaktivlikni va mustaqil fikrlashni rag'batlantirishini ko'rsatdi, deduktiv (deductive) metod esa tezkor tushunishga yordam berdi.*

Kalit so'zlar: *Induktiv metod, kuzatish, talabaga yo'naltirilgan, tadqiq etish, xulosa chiqarish, deduktiv metod, tushuntirish, o'qituvchiga yo'naltirilgan, ko'rsatmalar*

Аннотация. *В данной статье сравнивается эффективность индуктивного (inductive) и дедуктивного (deductive) методов преподавания грамматики английского языка. Даются определения обоим методам, приводятся примеры и проводится их анализ. В ходе исследования двум группам студентов преподавались занятия по разным методикам, а результаты оценивались с помощью тестирования и наблюдений. Полученные данные показали, что индуктивный метод способствует более активному участию учащихся и развитию самостоятельного мышления, тогда как дедуктивный метод обеспечивает быстрое понимание грамматических правил.*

Ключевые слова: *Индуктивный метод, наблюдение, формирование правила, ориентированный на учащегося, исследование, вывод (умозаключение) дедуктивный метод, объяснение, ориентированный на учителя, инструкция.*

Abstract. *This article compares the effectiveness of **inductive** and **deductive** methods in teaching English grammar. Definitions of both methods are provided, supported by examples and analysis. During the study, two groups of students were taught using different approaches, and the results were assessed through testing and observation. The data showed that the **inductive method** encourages more interactivity and independent thinking, while the **deductive method** facilitates faster understanding of grammar rules.*

Keywords: *Inductive method, discovery, observation, rule, formation, student-centered, exploration, inference, deductive method, explanation, rule first, teacher-centered, instruction.*

Kirish. Grammatikani samarali o'qitish — ingliz tilini o'rgatishdagi eng dolzarb masalalardan biridir. Ta'limda keng qo'llaniladigan ikki asosiy metod - deduktiv va induktiv metodlar orasidagi farq o'quvchilarning bilimni qabul qilish va uni amaliyotda qo'llash uslubiga bevosita ta'sir qiladi. **Deduktiv metod** — bu o'qitishda **avval qoida (nazariya) berilib**, so'ngra **namunalar va mashqlar orqali qoida tadbiq qilinadigan** uslubdir. Bu metod **o'qituvchiga yo'naltirilgan (teacher-centered)** bo'lib, o'qituvchi asosiy axborotni beradi, o'quvchilar esa uni o'zlashtiradi va mashq qiladi.

Deduktiv metodning asosiy bosqichlari:

1. **Qoidani tushuntirish** – o'qituvchi grammatik yoki konseptual qoidani tushuntiradi.
2. **Namuna keltirish** – qoida asosida misollar ko'rsatadi.
3. **Mashqlar bajarish** – o'quvchilar shu qoidani mustahkamlash uchun amaliy topshiriqlar bajaradilar.

Present Simple Tense (Hozirgi oddiy zamon)

O'qituvchi mavzuni tushuntiradi:

"Present Simple" zamoni odatda doimiy harakatlar uchun ishlatiladi. 3-shaxs birlikda fe'lga -s qo'shiladi."

I play football. She plays tennis.

O'quvchilar quyidagi jumlalarni to'g'ri shaklga keltiradilar:

He (go) to school. They (watch) TV.

Deduktiv metodning afzalliklari:

- Tez o'rganiladi, ayniqsa qoidalar aniq va qat'iy bo'lsa.
- O'qituvchi nazoratni saqlaydi.
- Yangi mavzuni tushuntirish uchun ancha samarali.

Kamchiliklari:

- O'quvchi passiv bo'lishi mumkin.
- Qoidani tushunsa ham, real holatlarda qo'llashda qiynalishi mumkin.

- Yaratuvchanlik va mustaqil fikrlashni kamroq rivojlantiradi.

Induktiv metod — bu o‘quvchilarga grammatik qoida **to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmasdan**, ular **misollarni ko‘rib chiqib, o‘zlari qoidani aniqlashga harakat qiladigan** yondashuvdir.

Induktiv metodning mohiyati:

- O‘quvchi birinchi bo‘lib **konkret misollarni ko‘radi**
- U misollardan **umumiy grammatik qoidani o‘zi chiqaradi**
- O‘qituvchi jarayonni yo‘naltiradi, lekin qo‘idani boshidan tushuntirib bermaydi

Hozirgi oddiy zamon (Present Simple)

1. O‘quvchilarga quyidagi misollar beriladi:

- I play football every weekend. She plays the piano.
- They play video games after school. He plays chess very well.

2. O‘quvchilardan so‘raladi:

- Har bir gapda fe’l qanday ko‘rinishda?
- “play” so‘ziga nima qo‘shilgan va qachon?
- Qaysi olmoshlardan keyin “-s” qo‘shimchasi ishlatilgan?

3. O‘quvchilar javob topadi:

“He” va “She” olmoshlari bilan “play” fe’liga “-s” qo‘shilyapti.

4. Qoidani o‘zlari chiqaradilar:

“Present Simple” zamonida 3-shaxs birlik (he, she, it) uchun fe’lga “-s” qo‘shiladi.

5. O‘qituvchi qoidani aniqlashtiradi va mashqlar bilan mustahkamlaydi.

Deduktiv va induktiv metod farqlari

	Induktiv metod	**Deduktiv metod**
Avval nima beriladi?	Misollar, so‘ng qoida	Qoidani tushuntirish, so‘ng misollar
O‘quvchining roli	Qoidani topishda faol ishtirok qiladi	Tayyor ma’lumotni eslab qoladi
Mos keluvchi o‘quvchi	Faol, izlanishga moyil o‘quvchilar	Tez va aniq tushunishga muhtoj o‘quvchilar

Induktiv metodning afzalliklari:

- O‘quvchini darsda **faol ishtirok etishga** undaydi
- **Yaxshiroq eslab qolish** va tushunishni ta’minlaydi
- Tilni **tabiiy kontekstda o‘rganishga** yordam beradi
- **Topqirlik va nutqni** rivojlantiradi

Kamchiliklari:

- Ko‘proq vaqt talab qiladi
- Har doim ham o‘quvchilar to‘g‘ri qoida chiqarolmasligi mumkin
- Darsni yaxshi **rejalashtirish va yo‘naltirish** zarur

Metodologiya. Tadqiqot Toshkent shahridagi til markazida 2025-yil mart-aprel oylarida olib borildi. 40 nafar o‘rta darajadagi (B1) o‘quvchilar ikki teng guruhga bo‘lindi:

- **A guruhi (20 o‘quvchi)** — deduktiv metod asosida o‘qitildi: har bir darsda grammatik qoida tushuntirilib, so‘ng mashqlar bajarildi.
- **B guruhi (20 o‘quvchi)** — induktiv metod asosida o‘qitildi: o‘quvchilarga misollar va matnlar berildi, ular mustaqil ravishda qoida undaldi.

Har ikki guruhga 4 hafta davomida haftasiga 3 marta 90 daqiqalik darslar o‘tildi. O‘quvchilar dars boshida va oxirida **diagnostik test**, **kuzatuv varaqasi** va **qisqa so‘rovnoma** orqali baholandi.

Natijalar (Results)

Tajriba natijalari quyidagicha bo‘ldi:

Test natijalari:	**O‘quvchilarning fikrlari (so‘rovnoma asosida)**:	**Kuzatuv**:
A guruhi (deduktiv): o‘rtacha ball – **78%**	60% A guruhi o‘quvchilari “qoida tushuniladi, lekin tezda unutib yuboriladi” deb javob berdi.	
B guruhi (induktiv): o‘rtacha ball – **83%**	85% B guruhi o‘quvchilari darslarni “qiziqarli va tushunarli” deb baholadi.	B guruhi o‘quvchilari darsda faolroq ishtirok etdi va ko‘proq savollar berdi.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, **induktiv metod** o‘quvchilarda faol ishtirok, mantiqiy fikrlash va mustaqil qoidani shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu usul, ayniqsa, yoshlar va interaktiv o‘quv muhitida samaraliroq bo‘lib chiqdi. **Deduktiv metod** esa vaqt jihatdan tezroq natija beradi, ammo chuqurroq tushunish va uzoq muddatli eslab qolish darajasi pastroq bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, deduktiv yondashuv murakkab grammatik mavzularni tushuntirishda yoki yoshi katta o‘quvchilarda samaraliroq bo‘lishi mumkin. Ideal yondashuv — har ikkala metodni vaziyat va auditoriyaga qarab uyg‘unlashtirishdir.

Xulosa. Induktiv va deduktiv metodlarning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Grammatikani o‘qitishda bu metodlardan birini emas, balki ularning **kombinatsiyasi** eng yaxshi natija berishi mumkin. O‘quvchilarning yoshiga, tajribasiga va o‘rganish uslubiga qarab metod tanlash o‘qituvchining vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov, A. (2015). *O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching* (5th ed.). New York: Pearson Education.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Qodirova, N. (2020). *Zamonaviy dars metodikasi va pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Ellis, R. (2006). *Current Issues in the Teaching of Grammar: An SLA Perspective*. TESOL Quarterly, 40(1), 83–107.
6. Nasriddinova, M. (2018). "Grammatikani o‘qitishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanish samaradorligi." *Til va adabiyot ta’limi*, №2, 45–49.
7. Thornbury, S. (1999). *How to Teach Grammar*. Harlow: Longman.
8. Allwright, D., & Bailey, K. M. (1991). *Focus on the Language Classroom: An Introduction to Classroom Research for Language Teachers*. Cambridge University Press.

UO’K 37.02

MADANIYATGA OID MATERIALLARNING CHET TILINI O’RGATISHDAGI O’RNI VA AHAMIYATI

D.Israilova, o’qituvchi, Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tilini o‘qitish jarayonida madaniyatga oid materiallardan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy afzalliklari va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Lingvomadaniy yondashuv asosida olib borilgan tahlillar orqali o‘quvchilarning madaniy tafakkurini shakllantirish hamda xalqaro kommunikatsiya uchun zarur bo‘lgan sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *chet tili o‘qitish, madaniyatga oid materiallar, lingvomadaniy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, sotsiolingvistik ko‘nikma.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические преимущества использования материалов, связанных с культурой, в процессе обучения иностранному языку, а также их роль в формировании коммуникативной компетенции учащихся. На основе лингвокультурного подхода проанализированы пути формирования культурного мышления учащихся и развития социолингвистической компетенции, необходимой для международной коммуникации.*

Ключевые слова: *обучение иностранному языку, материалы по культуре, лингвокультурный подход, коммуникативная компетенция, социолингвистические навыки.*

Abstract. *This article explores the use of culture-based materials in foreign language teaching, focusing on how sociolinguistic competence is developed through communicative methods within CEFR-aligned curricula. Based on Uzbek policy and global practices, it highlights effective strategies for integrating folklore, traditions, and media texts. Findings indicate cultural content enhances motivation and intercultural understanding. Practical recommendations are offered for educators and curriculum developers.*

Keywords: *foreign language teaching, cultural materials, linguacultural approach, communicative competence, sociolinguistic skills.*

Kirish. XX asr oxirigacha "Til va tafakkur" muammosi keng miqyosda tadqiq qilindi. Ushbu nazariyani inkor qilmagan holda, chet til o'qitish metodikasida "Til va madaniyat" uyg'unligi masalasi tadqiqot ob'yektiga aylandi. Ilk yondashuvda tilni o'rganish orqali dunyoni idrok qilish bo'lsa, keyingi tushuncha til orqali xalqlarga xos madaniyatga tegishli barcha me'yorlarni egallash nazarda tutilgan. Chet tillarini o'rganish jarayoni lingvistik bilimlarni, madaniy tafakkurni o'z ichiga oladi. Til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning madaniy merosi, dunyoqarashi va qadriyatlarini ham aks ettiruvchi vositadir. Shu sababli chet tilini o'qitishda madaniyatga oid materiallardan samarali foydalanish til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda madaniy komponentdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, uning afzalliklari hamda ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Horijiy mamlakat madaniyati bilan tanishish orqali yoshlarning madaniy saviyasini oshirish muammosi hozirgi kunda alohida ahamiyatga ega. Faqat til va madaniyatning kombinatsiyasi samarali muloqotni ta'minlaydi. "Chet tilini samarali o'qitish zamonaviy axborot texnologiyalari, CEFR talablari va lingvokulturologik yondashuvni talab etadi. O'zbekiston ta'lim tizimida lingvistik hamda sotsiolingvistik kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun moddiy-texnik baza yaratildi va ilg'or xorijiy tajribalar joriy etilmoqda" [1]."Madaniyatga oid materiallarni jalb qilish chet tilini o'rganish motivatsiyasini keskin oshiradi, bu esa juda muhim, chunki motivatsiyasiz o'rganish samarasizdir."[2]

Madaniyat va til: uzviy bog'liqlik. Til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik – bu lingvomadaniy yondashuvning asosi hisoblanadi. Til orqali insonlar axborot almashadi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlari, tafakkuri va dunyoqarashini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, chet tilini o'rganayotgan shaxs til bilan birga shu til egalarining hayot tarzi, madaniyati va mentaliteti bilan ham tanishadi. Masalan, nemis tilini o'rgangan o'quvchi Germaniya yoki nemiszabon davlatlarni madaniyatiga oid materiallarni o'zlashtirmasdan to'laqonli muloqot qobiliyatiga ega bo'la olmaydi.

Madaniy komponentdan foydalanishning afzalliklari:

-Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi*:* O'quvchilar madaniy kontekstda so'zlashuv me'yorlarini o'rganib, real hayotiy vaziyatlarga tayyorlanadi.

-Motivatsiyani oshiradi*:* Madaniyat bilan bog'liq qiziqarli faktlar, urf-odatlar va an'analar o'quvchilarda tilni o'rganishga qiziqishni orttiradi.

-Interaktivlikni kuchaytiradi*:* Rasm, video, musiqa va interaktiv topshiriqlar orqali darslar jonlanadi.

-Xalqaro dunyoqarashni shakllantiradi*:* O'quvchi boshqa madaniyat vakillarini tushunishga va hurmat qilishga o'rganadi.

Madaniy materiallar turlari va ularni qo'llash usullari. Ta'lim jarayonida foydalaniladigan madaniyatga oid materiallar quyidagilarga bo'linadi:

-Audiovizual vositalar*:* Filmlar, hujjatli lavhalar, intervyular, qo'shiqlar.

-Matnli materiallar*:* Madaniy mavzudagi maqolalar, aforizmlar, hikoyalar, ocherklar. Bu turdagi materiallar orqali o'quvchi o'qish va tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

-Rolli o'yinlar va dramalar*:* Turli milliy bayramlar, mehmondo'stlik sahnalari asosida o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning lisoniy va ijtimoiy kompetensiyasi oshiriladi.

-Taqdimotlar va tadbirlar*:* O'quvchilar turli millat madaniyatiga oid tadbirlar tashkil etish orqali mavzuni chuqurroq o'zlashtiradi.

O'zbekistonda chet tilini o'qitishda madaniy komponentdan foydalanish holati. O'zbekistonda til o'qitish metodikasi tobora interaktiv va kommunikativ yo'nalishga o'tmoqda. Prezidentimizning "Chet tillarini o'rganishni ommalashtirish va rivojlantirish"ga oid qarorlari asosida umumta'lim maktablari, akademik litseylar hamda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy yondashuvlar joriy qilinmoqda. Shu jumladan, dars jarayonida ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarga oid madaniy materiallardan foydalanish ommalashmoqda. "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhim"[3] ustuvor vazifa etib

belgilandi. Masalan, nemis tili darslarida "Weihnachten", "Ostern", "Oktoberfest", kabi mavzularda interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Bu o'quvchilarda tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda albatta "Ramadanfest", "Opferfest", "Navrusfest" kabi o'z milliy va diniy bayramlarimiz, an'ana va qadriyatlarimiz bilan taqqoslash, tafovut va o'xshashliklarni o'rganish ham e'tibor markazida bo'lishi muhim. "Har qanday chet tilni o'rgatishda asosiy e'tiborni xorijiy til vositasida madaniyatga oid ma'lumotlarni inobatga olish lozim. Bularga o'rganilayotgan mamlakat haqidagi an'analar, turmush tarzi, jamiyatda insonlarning yashash tarzi, o'zga mamlakatlar tarixi, iqtisodi va yutuqlarini ifodalovchi barcha me'yoriy ma'lumotlarni o'zlashtirish kiradi."[4] Sotsiolingvistik kompetentsiya – kommunikantning shaxsiy xislatlari, autentik nutqning milliy xususiyatlarini, o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o'rganilayotgan har bir xalq, millat vakillarining o'ziga xos barqarorlashgan urf-odatlari, rasm-rusumlari bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Shaxsning til soxibi bilan uning qaysi millat, elat, etnik, diniy yoki madaniy muhitga tegishli ekanligini xis etgan tarzda kommunikatsiyani amalga oshirishga doir bilim, ko'nikma va malakalari majmui mazkur kompetentsiyani tashkil qiladi. Bu jarayonda *"til va madaniyat"* uyg'unligiga asoslangan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki madaniy kontekstni inobatga olmasdan samarali kommunikatsiya imkoni cheklangan [5].

Qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari. Chet tilini o'qitishda madaniyatga oid materiallardan foydalanish jarayonida quyidagi muammolarga duch kelinadi:

-Materiallar yetishmasligi*:* Aksariyat o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar madaniy ma'lumotlar bilan yetarlicha boyitilmagan.

-O'qituvchilarning tayyorgarligi*:* Ba'zi pedagoglar zamonaviy metodikaga mos ravishda madaniy komponentni integratsiya qilishda qiynalishadi.

-O'quvchilarning tayyorlik darajasi*:* Madaniy kontekstni tushunish uchun yetarli til bilimiga ega bo'lmaslik.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etish mumkin: O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida lingvomadaniy yondashuv asoslarini chuqur o'rgatish, darslik va qo'shimcha o'quv materiallarini milliy va xorijiy madaniyat elementlari bilan boyitish, o'quvchilarning bosqichma-bosqich madaniy savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqish.

Xulosa. Chet tilini o'rganish nafaqat til strukturasi va leksikasini o'zlashtirish, balki shu til orqali madaniyat, mentalitet va ijtimoiy kontekstni ham tushunish demakdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, umuman chet tilini va xususan chet el madaniyatini muvaffaqiyatli o'rganish uchun quyidagilar shart: chet tillarini o'rganishda talabalarning dunyoqarashini madaniy boyitishga integrativ yondashuv, ya'ni madaniyatning bitta sohasini emas, balki bir nechtasini o'rganish. Masalan, musiqa, teatr, kino, san'at, adabiyot va boshqalarni birgalikda; ko'p madaniyatli va ikki tilli ta'limga yo'naltirish, ta'lim tizimlarida madaniy izolyatsiyadan chiqish. Bu shuni anglatadiki, chet tili nafaqat o'rganilayotgan til mamlakatlari madaniyatini tanishtiradi, balki uni taqqoslash orqali milliy madaniyatning xususiyatlarini ochib beradi, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Madaniyatga oid materiallardan foydalanish o'quvchilarning lingvistik salohiyatini oshiradi, muloqotga tayyorlaydi va global tafakkurni shakllantiradi. Shu boisdan, til o'rgatish jarayonida madaniy komponentdan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xalq so'zi» gazetasi, № 174 (7373), 24.08.2019. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi.

2. Ye.P. Turbina, "Rol kulturologicheskogo podxoda v protsesse obucheniya inostrannim yazikam", MP FGBOU VO «Shadrinskiy gosudarstvenniy pedagogicheskiy universitet»g. Shadrinsk, Rossiya.

3. M.Sh. Ruzmetova, "Chet til egallashning tayanch darajasida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning lingvodidaktiv tadbiqi". Monografiya, Toshkent 2022. – 172 b.

4. Ippolitova, N.V. Razvitie lichnosti budushego pedagoga v kontekste professionalnoy podgotovki : monografiya / N. V. Ippolitova [i dr.]. - Shadrinsk : ShGPI, 2010. - 244 s.

5. Kolmogorova, I.V. Kulturologicheskiy podxod v nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov : dis. ... kand. ped. nauk / I.V. Kolmogorova. - Yekaterinburg, 2000. -193 s.

6. Krasilnikova, V.S. Lingvostranovedcheskiy podxod v opredelenii soderjaniya obucheniya angliyskomu yaziku doshkolnikov i mladshix shkolnikov / V.S. Krasilnikova, T.N. Chaynikova // Inostrannie yaziki v shkole. -1993. № 1. S. 11-19.

7. Lopasova, J.Ya. Rol i mesto lingvostranovedcheskogo aspekta pri obuchenii inostrannim yazikam / J.Ya. Lopasova // Inostrannie yaziki v shkole. 1985. № 2. 24-54-betlar

8. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2012. –B.429

9. Jalolov J.J. Chet til o'qitish zamonaviy metodikasiga bir nazar// Aktualnie problemi filologii: Materiali regionalnoy nauchnoy konferentsii. –Namangan: 2009. 25–28-betlar

10. Ikromxonova F.I. Ingliz tilidan kommunikativ–kognitiv korrektiv kurs nazariyasi va amaliyoti (nolisoniy oliy o'quv yurtlari misolida). P.f.n. dar.olish uchun Diss.... –T: 2012. –156-bet.

11. Ishmuxametov R., Abduqodirov A., Pardaev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Ta'lim muassasalari pedagog o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. –T.: 2008. 182-bet.

UO'K 37.015.3

TIL O'RGANISHDA XAVOTIR VA QO'RQUV TADQIQOTI

G.F. Jabborova, Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi. Toshkent.

Annotatsiya. *Xorijiy tilni o'rganishda til o'rganish xavotiri keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda video kamera vositasida turli bosqichlarda so'z yodlash topshirig'i davomida yuzaga kelgan xavotir holatlari o'rganildi. Birinchi bosqich talabalaridan iborat 40 nafar ishtirokchi to'rt guruhga taxminiy ajratildi.Har to'rt guruhda xavotir holatlari ancha oshgani va bu so'z boyligini o'zlashtirishda pasayish bilan bog'liq bo'lgani kuzatildi. Xulosa shuki, xavotir aynan qaysi bosqichda paydo bo'lishi uni bartaraf etish choralari uchun muhim hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Til xavotiri, ingliz tili, til o'rganish.*

Аннотация. *Языковая тревожность — распространенное явление при изучении иностранных языков. В данном исследовании состояния тревожности, возникающие во время задания на запоминание слов разными способами, изучались с помощью видеокамеры. 40 участников, состоящих из студентов первого курса, были случайным образом разделены на четыре группы.Во всех трех группах состояния тревожности значительно возросли, и это было связано с уменьшением усвоения словарного запаса. Вывод заключается в том, что этап, на котором возникает тревожность, важен для мер по ее устранению.*

Ключевые слова: *языковая тревожность, английский язык, изучение языка.*

Abstract. *Language anxiety is a common phenomenon in foreign language learning. In this study, anxiety states that occurred during a word memorization task in different ways were studied using a video camera. 40 participants, consisting of first-year students, were randomly divided into four groups.In all three groups, anxiety states increased significantly and this was associated with a decrease in vocabulary acquisition. The conclusion is that the stage at which anxiety occurs is important for measures to eliminate it.*

Key words: *Language anxiety, English language, language learning*

Yillar davomida ikkinchi tilni o'rganishda xavotirning roli haqida turli xil, ba'zan ziddiyatli xulosalar berilgan (Scovel, 1978). Bunday qarama-qarshiliklarning asosiy sababi qo'rquvga bo'lgan turlicha yondashuvlardir. Ilmiy adabiyotda qo'rquvni o'rganishda uchta asosiy yondashuv mavjud:
Xarakterga xos xavotir (trait anxiety) – bu kishining turli vaziyatlarda xavotirlanishga moyilligi.

Holatga xos xavotir (state anxiety) – bu ma'lum bir vaziyatga nisbatan momental hissiy reaksiya sifatida yuzaga keladigan xavotir.

Vaziyatga xos xavotir (situation-specific anxiety) – bu aynan test topshirish, matematik masala yechish yoki ikkinchi tilda so'zlashish kabi vaziyatlarda yuzaga keladigan xavotir turidir.

MacIntyre va Gardner (1991) til xavotiri boshqa qo'rquv turlaridan farqli bo'lib, alohida holatda o'rganilishi kerakligini ta'kidlaydilar. Horwitz va Cope (1986) til xavotirini o'ziga xos o'rganish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan hissiy, psixologik va xulqiy jihatlar majmuasi sifatida ta'riflaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til xavotiri:

* tinglab tushunish qobiliyatining zaiflashuvi,* so‘z boyligining kamayishi,* grammatik xatolar,* baholarning pasayishi* va test natijalarining yomonlashuvi bilan bog‘liq.

Til o‘rganish bu murakkab aqliy faoliyat bo‘lib, xavotir natijasida odam o‘ziga nisbatan salbiy fikrlar ishlab chiqaradi: “Men buni hech qachon eplay olmayman”, “Men bunga yaramayman”, “Bu vaziyatdan tezroq qutulsam bo‘ldi” kabi. Bu fikrlar miyadagi resurslarni band etib, til o‘rganishdagi asosiy vazifalarni bajara olmay qoladi.

Tobias (1979, 1986) ta’limdagi qo’rquvning ta’sirini uchta bosqichda ko‘rsatadi:

Kirish (Input) – dastlabki tanishish bosqichi

Qayta ishlash (Processing)– tushunish va yodlash

Chiqarish (Output) – so‘zlash yoki yozma javob

Har bir bosqichda yuzaga kelgan xavotir aqliy faoliyatni cheklab, keyingi bosqichlarga ham salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqotda TIIU universitetining birinchi kurs ingliz filologiyasi yo’nalish talabalari ishtirok etishdi. Umumiy 40 nafar talaba tasodifiy tarzda to‘rtta eksperimental guruhga taqsimlandi:

- **Nazorat guruhi** – hech qanday tashqi xavotir omiliga duch kelmadi.
- **Kirish (Input) guruhi** – xavotir kamera orqali dastlabki bosqichda, ya’ni inglizcha so‘zlarni ilk ko‘rganida yuzaga keltirildi.
- **Qayta ishlash (Processing) guruhi** – xavotir o’zbekcha-so‘z juftliklarini ko‘rib, ma’nolarini o‘rganish bosqichida paydo bo‘ldi.
- **Chiqarish (Output) guruhi** – talabalardan o’zbekcha so‘zga inglizcha tarjima aytish so‘ralgan bosqichda xavotir yuzaga keltirildi.

Materiallar. Tadqiqotda quyidagi vositalar va testlar ishlatildi:

a)So‘z juftligini o‘rganish dasturi

Talabalar 20 ta o’zbekcha-inglizcha otlar juftligini o‘rganishlari kerak edi. Bu uch bosqichda olib borildi:

- **Kirish bosqichi** – faqat inglizcha so‘zlar ko‘rsatildi.
- **Qayta ishlash bosqichi** – inglizcha va o’zbekcha juft so‘zlar birgalikda taqdim etildi.
- **Chiqarish bosqichi** – o’zbekcha so‘z ko‘rsatilganida, talabadan inglizchasini yozish so‘raldi.

b) Xavotirni o‘lchash usuli (Anxometer). Xavotirni baholash uchun “anxometer” nomli o‘lchov vositasi qo‘llandi – bu kompyuter ekranidagi termometr ko‘rinishidagi grafik bo‘lib, talabalar xavotir darajasini belgilovchi tugmalar orqali ko‘tarish yoki tushirishlari mumkin edi. Har bir bosqich oldidan va so‘ngida bu test o‘tkazildi.

c) Oraliq topshiriqlar.So‘z yodlash va so‘zni esga tushirish oralig‘ida vaqt o‘tkazish maqsadida uchta qo‘shimcha topshiriq berildi:

- **Raqamlarni eslab qolish testi (Digit Span)** – talabalar 6–9 ta raqamni bir marotaba eshitib, xotirada saqlab yozishlari kerak edi (o’zbekcha va inglizchada alohida).
- **Kategoriya testi (Thing Category Test)** – talabalar 1 daqiqa ichida belgilangan toifadagi so‘zlarni yozishlari kerak edi (masalan, "chemodanga solinadigan narsalar").
- **O‘zini ta’riflash topshirig‘i (Self-Description)** – talabalar avval o’zbek tilida, keyin ingliz tilida 1 daqiqa davomida o‘zlarini og‘zaki ta’riflashdi.

d) So‘zlarni eslab qolish testi (Vocabulary Recall) So‘nggi bosqichda talabalar oldin o‘rgangan so‘zlar asosida savollarga javob berishdi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — tajriba davomida yuzaga keltirilgan xavotir holatlarining so‘z yodlashga va boshqa oraliq topshiriqlarga ta’sirini o‘rganish edi. Quyida turli bosqichlarda olingan asosiy natijalar bayon etiladi.

Qo’rquvning til o‘rganishga ta’siri to‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra:

- **So‘zlarni ma’no jihatdan yod olish bosqichi (Processing)**: Eng yaxshi natijani nazorat guruhi ko‘rsatdi. Qayta ishlash guruhi esa sezilarli darajada past natija qayd etdi.
- **So‘zlarni esga tushirish bosqichi (Output)**: Nazorat guruhi bu bosqichda ham eng yuqori ball to‘pladi. Ushbu bosqichda qo’rqqan guruh eng past natijaga ega bo‘ldi.

• **Yakuniy esga tushirish topshirig'i**: Nazorat guruhi yana eng yuqori natijaga erishdi. Boshqa uch guruhda ballar biroz pastroq bo'lib, ularning umumiy ishlashi xavotirga bog'liq tarzda yomonlashgan.

Bu natijalar xavotir aynan qaysi bosqichda yuzaga kelgan bo'lsa, eng katta zarar o'sha bosqichdagi o'rganish faoliyatiga yetkazilganini ko'rsatadi.Bizning tadqiqotda xavotir sun'iy ravishda to'rt bosqichdan birida yuzaga keltirildi va u keying bosqichga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq, bu xavotir keyingi oraliq bosqichlargacha davom etmadi – demak, xavotir vaqtincha, lekin o'sha bosqichdagi ishga kuchli ta'sir ko'rsatgan.Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, xavotirning yo'qolishi o'zi kifoya emas.

Xulosa.Tadqiqotdan olingan eng muhim natija shuki: xavotirning yuzaga kelishi aynan o'rganishning qaysi bosqichida sodir bo'lsa, o'sha bosqichdagi bilimni egallashga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

• Agar talaba dastlabki bosqichda xavotirga tushsa (ya'ni *input* bosqichida), bu asosiy so'zlarni tanib olish jarayonini sekinlashtiradi.

• Agar xavotir *processing* bosqichida paydo bo'lsa – ya'ni so'z ma'nolarini anglash va bog'lash vaqtida – bu yodlash va tushunish samaradorligini pasaytiradi.

• Xavotir *output* bosqichida yuzaga kelsa – bu so'zlarni og'zaki yoki yozma tarzda qo'llashga to'sqinlik qiladi.

Bu holatda xavotir o'z-o'zidan kamaygan bo'lsa ham, avvalgi bosqichda boy berilgan bilim keyinchalik avtomatik tarzda tiklanmagan. Shuning uchun faqat xavotirni kamaytirish yetarli emas. Agar o'quvchi xavotir sababli ma'lumotni to'liq o'zlashtirmagan bo'lsa, bu bo'shliqni to'ldirish uchun qayta o'rganish zarur.Bu yondashuv orqali xavotirni faqat hissiy holat sifatida emas, o'rganishga ta'sir qiluvchi kognitiv omil sifatida ham hisobga olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aida, Y. (1994). An Analysis of Horwitz, Horwitz, and Cope's Foreign Language Anxiety Construct: The Case of Students Learning Japanese. *The Modern Language Journal*, 78(2), 155–168.

2. Cattell, R. B., & Scheier, I. H. (1963). *Handbook for the IPAT Anxiety Scale (2nd ed.)*. Champaign, IL: Institute for Personality and Ability Testing.

3. Cook, J. R. (1985). The Role of Repression and Sensitization in Predicting Responses to a Laboratory Stressor. *Journal of Personality and Social Psychology*, 49, 759–773.

4. Cotton, J. L., Baron, R. S., & Borkovec, T. D. (1980). Caffeine Consumption, Misattribution Therapy, and Speech Anxiety. *Journal of Research in Personality*, 14, 196–206.

5. Djigunovic, J. M. (2006). Language Anxiety and Language Processing. *EUROSLA Yearbook*, 6, 191–212.

6. Eysenck, M. W. (1979). Anxiety, Learning, and Memory: A Reconsideration. *Journal of Research in Personality*, 13, 363–385.

7. Gardner, R. C., Day, B., & MacIntyre, P. D. (1992). Integrative Motivation, Induced Anxiety, and Language Learning in a Controlled Environment. *Studies in Second Language Acquisition*, 14, 197–214.

8. Graves, R., & Bradley, R. (1988). Millisecond Timing Applications for IBM Computers. *Behavior Research Methods, Instruments, and Computers*, 20, 408–412.

9. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign Language Classroom Anxiety. *The Modern Language Journal*, 70, 125–132.

UDC 37.02

THE ROLE OF PEER FEEDBACK IN ENHANCING ARGUMENTATIVE WRITING SKILLS AMONG EFL STUDENTS

Z.K.Jo'rayeva, teacher, Chirchik state pedagogical university, Chirchik

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tili xorijiy til sifatida o'rgatiladigan muhitda talabalar orasida argumentativ yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda tengdosh fikr bildiruvining (peer feedback) pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif fikricha, peer feedback o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, metakognitiv anglash va yozuvdagi mantiqiy izchillikni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada samarali tengdosh fikr bildiruvini yo'lga qo'yish uchun zarur metodik shart-sharoitlar, texnologik platformalar va baholash usullari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *tengdosh fikr bildiruv, argumentativ yozuv, EFL talabalari, yozuv metodikasi, metakognitsiya, til o'rganish, yozuv baholash.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль обратной связи от сверстников в развитии навыков аргументированного письма у студентов, изучающих английский язык как иностранный. Подчеркивается значение peer feedback в формировании критического мышления, метакогнитивного осознания и логической структуры текста. Также анализируются методические подходы, цифровые платформы и формы оценки, способствующие эффективной реализации взаимной рецензии.*

Ключевые слова: *обратная связь от сверстников, аргументированное письмо, студенты EFL, методика письма, метапознание, обучение языку, оценка письма.*

Abstract. *This article investigates the role of peer feedback in improving argumentative writing skills among EFL students. It argues that peer review fosters critical thinking, metacognitive awareness, and rhetorical development. The paper discusses pedagogical strategies, digital tools, and assessment practices to implement effective peer feedback. It emphasizes the collaborative and reflective nature of writing when students engage in structured peer response activities.*

Keywords: *peer feedback, argumentative writing, EFL students, writing pedagogy, metacognition, language learning, writing assessment.*

The development of argumentative writing skills is one of the most essential yet complex objectives in the context of English as a Foreign Language (EFL) instruction. This form of writing requires learners to not only construct grammatically accurate sentences, but also to develop coherent reasoning, present evidence, engage with counterarguments, and maintain a persuasive rhetorical stance. As such, teaching argumentative writing demands more than mere grammar drills or vocabulary expansion—it requires strategic scaffolding, critical thinking cultivation, and interactive engagement. Within this pedagogical framework, peer feedback has emerged as an effective and dynamic strategy to enhance students' argumentative writing competence.

Peer feedback, in its most basic sense, refers to a process in which students read, assess, and provide constructive commentary on one another's written texts. Unlike teacher feedback, which tends to be authoritative and one-directional, peer feedback fosters collaborative learning, reciprocal responsibility, and learner autonomy. It transforms writing from an isolated task into a dialogic and socially-mediated process. Particularly in argumentative writing, where idea development and logical structure are central, peer feedback enables learners to recognize and reflect on their rhetorical decisions, consider audience expectations, and revise accordingly.

One of the main advantages of peer feedback is its ability to promote critical reading skills alongside writing development. When students engage with their peers' arguments, they are prompted to evaluate claims, assess the relevance of evidence, and detect flaws in reasoning or organization. This analytical engagement naturally transfers to their own writing, as they begin to internalize criteria for effective argumentation. For instance, EFL learners who are trained to identify weak thesis statements or underdeveloped supporting points in their peers' essays become more adept at recognizing and addressing such issues in their own drafts.

Furthermore, peer feedback offers cognitive benefits by fostering metacognitive awareness. Through the process of giving and receiving feedback, learners become more reflective about their writing strategies, linguistic choices, and communicative intentions. This metacognition is crucial for EFL learners, who often struggle with both content generation and language accuracy. When students articulate what is effective or problematic in a peer's essay, they engage in higher-order thinking that reinforces their own understanding of argumentative structure, coherence, and cohesion. Moreover, exposure to different writing styles and perspectives broadens their sense of audience and purpose.

Socially and affectively, peer feedback contributes to a supportive learning environment that empowers students to take risks and view writing as a process rather than a product. In cultures where teacher authority is traditionally dominant, the introduction of peer review shifts the classroom dynamic, encouraging collaboration and mutual respect. For EFL learners who may be anxious about linguistic errors or unsure of their ideas, peer feedback can provide a less intimidating space for revision and growth. When managed effectively, peer feedback enhances motivation, reduces reliance on teacher correction, and fosters a sense of ownership over the learning process.

To maximize the benefits of peer feedback in argumentative writing, however, pedagogical guidance is essential. Simply asking students to "comment on each other's work" is insufficient. Educators must scaffold the process by establishing clear objectives, providing training in giving constructive and focused feedback, and integrating peer review into the overall writing cycle. For example, checklists or rubrics that highlight key features of argumentative writing—such as thesis clarity, logical organization, evidence support, use of counterarguments, and language use—can serve as practical tools for guiding student reviewers. Peer feedback should also be structured in multiple stages, allowing for drafting, reviewing, revising, and reflection.

Another important consideration is the quality of the feedback provided. Research shows that peer comments tend to be more focused on surface-level issues—such as grammar and spelling—unless students are explicitly taught to engage with higher-level content and organization. Therefore, writing instructors must emphasize the importance of substantive feedback, modeling how to pose questions, suggest alternatives, and justify evaluations. Sentence starters such as "Your thesis would be stronger if…", "One counterargument you might consider is…", or "This paragraph would be more persuasive with…" can help students move beyond correction toward dialogue.

Technology can also play a crucial role in facilitating peer feedback, particularly in online or blended learning environments. Platforms such as Google Docs, Turnitin PeerMark, or Moodle allow students to exchange drafts, comment in real time, and track revisions. Digital peer review can be more convenient, organized, and transparent than paper-based methods. Moreover, asynchronous feedback provides learners with more time to read carefully, formulate responses, and reflect before revising. Technology-enhanced peer feedback has the potential to extend writing communities beyond the classroom and promote intercultural exchange in global EFL contexts.

Nevertheless, the implementation of peer feedback is not without challenges. Some EFL students may feel reluctant to critique their classmates' work due to cultural norms, limited language proficiency, or lack of confidence in their evaluative skills. Others may dismiss peer comments as less valid than teacher feedback. To address these concerns, teachers must foster a classroom culture of trust, mutual respect, and shared responsibility. It is also important to monitor peer exchanges, provide feedback on the feedback itself, and highlight successful examples to build students' confidence and competence.

Moreover, peer feedback must be integrated as a consistent and valued part of the writing curriculum, not as an occasional activity. When students understand that peer review is part of a process aimed at growth rather than judgment, they are more likely to engage meaningfully. Reflection activities—such as asking students to write about how peer feedback influenced their revisions—can reinforce the developmental purpose of the activity and help learners become more strategic and independent writers.

In terms of assessment, the impact of peer feedback on argumentative writing can be measured through both qualitative and quantitative means. Comparative analysis of drafts before and after peer review, rubric-based evaluations, and learner self-assessments can all provide insight into progress. Furthermore, collecting student perceptions about the usefulness of peer feedback offers valuable information for refining instructional practices. Numerous studies have shown that students who regularly participate in peer review demonstrate improved organization, clarity of argument, and engagement with counterpoints in their writing.

In conclusion, peer feedback serves as a powerful pedagogical tool for enhancing argumentative writing skills among EFL students. It promotes critical thinking, metacognitive awareness, and learner autonomy, while also creating opportunities for meaningful interaction and reflection. When implemented with clear structure, supportive training, and technological integration, peer feedback can transform the writing classroom into a collaborative space for growth and exploration. By reimagining writing as a dialogic process rather than an isolated performance, educators can help EFL students become more confident, competent, and persuasive writers in both academic and real-world contexts.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 260 p.
2. Rollinson P. Using peer feedback in the ESL writing class. // ELT Journal. – 2005.– Vol. 59, No. 1. – P. 23–30.

3. Liu J., Hansen J. Peer Response in Second Language Writing Classrooms. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2002. – 144 p.

4. Min H. T. Training students to give quality peer feedback. // ELT Journal. – 2006. – Vol. 60, No. 1. – P. 34–41.

5. Topping K. Peer Assessment. – Theory Into Practice. – 1998. – Vol. 48, No. 1. – P. 20–27.

6. Lundstrom K., Baker W. To give is better than to receive: The benefits of peer review to the reviewer's own writing. // Journal of Second Language Writing. – 2009. – Vol. 18. – P. 30–43.

UDC 378.147

DIFFERENT ISSUES ON ASSESSING STUDENTS AND POSSIBLE SOLUTIONS

G. Juraboyeva, teacher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. *Baholash har qanday o'qitish va o'rganish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U shakllantiruvchi va yakuniy baholash kabi bir qator maqsadlarga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot sinf xonasidagi baholash bilan bog'liq qiyinchiliklar va muammolarni, shuningdek, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan o'zgartirishlarni o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *baholash, tizim, sinf xonasi, o'lchov, masala, savol-javob.*

Аннотация. *Оценивание является важнейшим аспектом любого процесса обучения и преподавания. Оценивание служит нескольким целям, включая формирующую и итоговую оценку. В данном исследовании рассматриваются проблемы и трудности оценивания в классе, а также текущие внедренные изменения.*

Ключевые слова: *оценивание, система, класс, измерение, проблема, вопрос и ответ.*

Abstract. *assessment is an essential aspect of any teaching and learning process. Assessment serves multiple purposes, including formative and summative evaluation. This study examines classroom assessment challenges and concerns, as well as the current modifications implemented.*

Tajriba qismi (tadqiqotni amalga oshirish). Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilarda mustaqil izlanish, masalalarni hal qilish va yechim topish malakasini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvdir. Bu texnologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Muammo qo‘yish:** O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarni qiziqtiradigan, ularning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini oshiradigan muammolarni ilgari suradi.
2. **Muammoni mustaqil tahlil qilish:** O‘quvchilar muammoni tushunish, taxminlar ilgari surish va ularni tahlil qilish orqali javob topishga harakat qiladilar.
3. **Muqobil yechimlarni taklif qilish:** O‘quvchilar muammoga bir nechta yechimni ko‘rib chiqib, eng maqbul variantni tanlashadi.
4. **Xulosa chiqarish va natijani muhokama qilish:** Olingan natijalar umumlashtirilib, mantiqiy xulosa chiqariladi. [1, 4]

Tabiiy fanlar darslari bolalar uchun eng qiziqarli va amaliy fanlardan biri hisoblanadi. Chunki bu darslar o‘quvchilarning atrof-muhit, tabiat hodisalari va organizmlar dunyosi haqidagi bilimlarini shakllantiradi. Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish darslarni yanada jonli va interaktiv qilishga yordam beradi. [2]

Muammoli ta’limdan foydalanish bosqichlari

1. Muammoli vaziyat yaratish:

O‘qituvchi darsning mavzusiga oid muammoli savollarni beradi.

1. Nima uchun daraxtlarning barglari kuzda sarg‘ayib, qishda to‘kilib ketadi?
2. Nega issiq choy ichganimizda bug‘ hosil bo‘ladi, lekin sovuq suvdan bug‘ chiqmaydi?
3. Nima uchun yulduzlar osmonning har xil joylarida turadi?
4. Nega ba’zi hasharotlar kechasi yorug‘likka uchadi?

2. Taxmin va farazlarni ilgari surish: O‘quvchilar muammoga yechim topishga harakat qilishadi.

1. **Nima uchun daraxtlarning barglari kuzda sarg‘ayib, qishda to‘kilib ketadi?**

Kuz faslida harorat pasayib, kun yorug‘ligi kamaygani sababli o‘simliklar fotosintez jarayonini sekinlashtiradi. Barglardagi xlorofill parchalanib, sariq va qizil pigmentlar (karotinoidlar va antosiyaninlar) ko‘zga tashlanadi. Qishda suv tejash maqsadida daraxtlar barglarini to‘kadi.

2. **Nega issiq choy ichganimizda bug‘ hosil bo‘ladi, lekin sovuq suvdan bug‘ chiqmaydi?**

Suvning bug‘lanishi haroratga bog‘liq. Issiq choyning harorati yuqori bo‘lib, uning yuzasidagi suv molekulalari tez harakatlanadi va bug‘lanadi. Sovuq suv esa past haroratda bo‘lgani uchun bug‘lanish juda sekin kechadi.

3. **Nima uchun yulduzlar osmonning har xil joylarida turadi?**

Yer Quyosh atrofida harakat qilgani sababli yulduzlarning joylashuvi kechayu kunduz va fasllarga qarab o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, Yerdagi kuzatuvchilar har xil kengliklarda turli yulduzlarni ko‘rishadi.

4. **Nega ba’zi hasharotlar kechasi yorug‘likka uchadi?**

Hasharotlarning aksariyati tabiiy yorug‘lik (oy va yulduzlar nuri) bo‘yicha yo‘naladi. Sun’iy chiroqlarni ular tabiiy yorug‘lik deb qabul qilgan holda, o‘z harakat yo‘nalishini chiroq tomon o‘zgartiradi va unga yaqinlashib qoladi.

O‘quvchilar shu kabi javob taxminlarini berishadi.

3. Tajriba va kuzatuvlar o‘tkazish:

- O‘quvchilar o‘z taxminlarini isbotlash uchun tajribalar o‘tkazadilar.
- Masalan, tuproqning havo bilan qanday ta’sirlanishini kuzatish uchun oddiy tajriba o‘tkazishadi.

4. Xulosa chiqarish va muhokama qilish:

- Olingan natijalar asosida xulosalar chiqariladi va o‘quvchilarning xatosi yoki to‘g‘ri javoblari aniqlanadi.
- O‘qituvchi o‘quvchilarni faol muhokamaga chorlab, ular orasida mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. [3]

Muammoli ta’lim texnologiyasini tabiiy fanlar darslarida quyidagi usullar orqali samarali tatbiq etish mumkin. Bular:

Savol-javob usuli – o‘quvchilarni o‘ylashga undaydigan savollar orqali muammoli vaziyat yaratish.

Eksperimental izlanish – laboratoriya ishlarida yangi natijalar topish orqali mustaqil tahlil qilish.

Keys-stadi (kauzis keys) – real hayotdagi holatlar asosida muammolarni hal qilish.

Muammoli topshiriqlar – muayyan vaziyatlar bo‘yicha echim topish uchun guruhli yoki individual ish olib borish.

Muammoli ta’lim jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

O‘quvchilarning faollik darajasining pastligi.

O‘qituvchining muammoli vaziyatni to‘g‘ri yaratish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emasligi.

Darsning vaqti cheklanganligi sababli muammoli ta’limni to‘liq tatbiq etish qiyinligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish uchun interaktiv metodlar qo‘llash lozim, bundan tashqari o‘qituvchilar uchun muammoli ta’lim texnologiyasi bo‘yicha qiziqarli seminar-treninglar o‘tkazish xam yaxshi natijalarni beradi. Shuningdek dars jarayonida vaqtni samarali taqsimlashga e’tibor qaratish lozim.

Olingan natijalar tahlili. Muammoli ta’lim texnologiyasida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlashga yordam beradi. Quyida samarali interaktiv metodlar keltirilgan:

- **“Aqliy hujum”** – muammoli savollar bo‘yicha o‘quvchilarning turli xil g‘oyalarini tinglash va ulardan eng maqbul echimni topish.
- **“Debat va munozara”** – o‘quvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatlar yuzasidan bahslashishga undash.

- **“Rol o‘ynash” (Role-playing)** – o‘quvchilarni darsda turli ilmiy rollarga ajratib, muammoli vaziyatlarni jonlantirish.

- **“Tadqiqot loyihalari”** – o‘quvchilarga mustaqil yoki guruhda ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyatini berish.

- **“Konstruktiv muhokama”** – guruh bo‘lib muayyan mavzu bo‘yicha xulosa chiqarish. [5]

Bu usullar yordamida o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, ularning mustaqil tahlil qilish va muammoni echish qobiliyatlari rivojlanadi.

O‘qituvchilarning muammoli ta’lim texnologiyasidan samarali foydalanishini ta’minlash uchun seminar-treninglar tashkil etish muhimdir. Ushbu seminarlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- **Amaliy mashg‘ulotlar** – dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish bo‘yicha amaliy topshiriqlar.

- **Muammoli vaziyat yaratish bo‘yicha treninglar** – o‘qituvchilar o‘quvchilarga muammoli savollar berish va ularning echimlarini muhokama qilish usullarini o‘rganadilar.

- **Dasturiy ta’minot va texnologik vositalar** – muammoli ta’limni qo‘llashda zamonaviy texnologiyalar va platformalar.

- **Tajriba almashish** – ilg‘or o‘qituvchilarning muvaffaqiyatli tajribalarini o‘rganish va muhokama qilish.

Seminar-treninglar natijasida o‘qituvchilar o‘z darslarini yanada interaktiv va samarali o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Muammoli ta’lim texnologiyasining afzalliklari o‘quvchilarning fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, ularni mustaqil izlanishga o‘rgatadi, darslarni jonli va interaktiv qiladi, o‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va o‘rganilgan bilimlarni hayotiy tajriba bilan bog‘lash imkonini yaratadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va amaliy tajribalar orqali bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘qituvchi darslarni shunday tashkil qilishi kerakki, o‘quvchilar nafaqat ma’lumot olishsin, balki ularni mantiqiy tahlil qilish, yechim topish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham egallashsin.

Muammoli ta’lim tabiiy fanlar o‘qitish jarayonida muhim o‘rin tutadi. U o‘quvchilarning ilmiy izlanish qobiliyatini rivojlantirib, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Shu boisdan, o‘qituvchilar muammoli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishlari zarur.

Bu kabi muammoli ta‘lim texnologiyasini samarali qo‘llash orqali tabiiy fanlar darslarini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 2020. - 256 b.
2. Xodjayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Samarqand, 2018. - 310 b.
3. Vygotsky L.S. Thought and Language. MIT Press, 1986. - 312 p.
4. Савченко А.И. Проблемое обучение в современнои школе. Москва, 2019. - 280 с.
5. Novak J.D. Learning, Creating, and Using Knowledge. Routledge, 2010. – 340 p.

UO’K 378.14

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O‘QITISHDAGI ENG ZAMONAVIY METODLAR TAHLILI

O.S.Mamajonova, PhD, Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fundamental fanlarni o‘qitishda qo‘llanilayotgan eng zamonaviy metodlar tahlil qilinadi. Maqolada interaktiv o‘qitish texnologiyalari, problemaga asoslangan ta’lim (PBL), simulyatsiya asosidagi o‘quv metodlari, raqamli platformalardan foydalanish, masofaviy ta’lim va integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar fikrlari asosida amaliy tahlil o‘tkazilib, mavjud muammolar va takliflar bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *fundamental fanlar, tibbiy ta'lim, zamonaviy pedagogika, problemaga asoslangan ta'lim, raqamli texnologiyalar, o'qitish metodlari.*

Аннотация. *В данной статье проводится анализ наиболее современных методов преподавания фундаментальных наук в учреждениях высшего медицинского образования. Рассматриваются интерактивные технологии обучения, проблемно-ориентированное обучение (PBL), методы, основанные на симуляциях, использование цифровых платформ, дистанционное обучение и интегрированные подходы. Эффективность этих методов раскрывается с научной точки зрения. Также представлены результаты практического анализа, основанные на мнениях преподавателей и студентов, освещаются существующие проблемы и предлагаются пути их решения.*

Ключевые слова: *фундаментальные науки, медицинское образование, современная педагогика, проблемно-ориентированное обучение, цифровые технологии, методы преподавания.*

Abstract. *This article analyzes the most modern teaching methods used in the instruction of fundamental sciences at higher medical education institutions. It explores interactive teaching technologies, problem-based learning (PBL), simulation-based educational approaches, the use of digital platforms, distance learning, and integrated teaching strategies. The effectiveness of these approaches is examined through a scientific lens. The article also includes a practical analysis based on the perspectives of both instructors and students, highlighting existing challenges and proposing practical solutions.*

Keywords: *basic medical sciences, medical education, modern pedagogy, problem-based learning, digital technologies, teaching methods.*

Kirish. Tibbiy ta'lim inson salomatligini saqlash va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, oliy tibbiy ta'lim muassasalarida beriladigan fundamental fanlar – anatomiya, gistologiya, biokimyo, fiziologiya, patofiziologiya, mikrobiologiya, biofizika va boshqalar – talabaning kelajakda shifokor sifatida shakllanishida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Bu fanlar nafaqat nazariy bilimlarni, balki klinik tafakkur, analitik fikrlash, muammoli holatlarni hal qilish, kasallikni chuqur tushunish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ushbu maqolada fundamental fanlarni o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlarning amaliyotdagi afzalliklari, ularning samaradorligi, pedagogik jarayonga ta'siri va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Maqsad – fundamental fanlar bo'yicha zamonaviy yondashuvlar asosida tibbiy ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Metodlar: Ushbu tadqiqot tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fundamental fanlarni o'qitish jarayonida joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik metodlarning amaliyotdagi qo'llanilishi, samaradorligi va yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, aralash metodologiyaga asoslangan bo'ldi. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy yondashuvlar uyg'unlashtirilib, natijalar ishonchli va chuqur tahlil etilishi ta'minlandi.

Tadqiqot 2024-yil yanvar–aprel oylarida respublikaning beshta yirik tibbiyot oliy ta'lim muassasasida amalga oshirildi: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon va Nukusda joylashgan tibbiyot institutlarida. Tanlangan muassasalar o'quv-metodik bazasi, raqamli resurslar darajasi va innovatsion dars metodlarining joriy etilish darajasiga ko'ra farqlanadi, bu esa tahlilda turli pedagogik yondashuvlarni solishtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda birinchi bosqichda xalqaro va milliy ta'lim standartlari, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), Yevropa tibbiy ta'lim assotsiatsiyasi (AMEE), AQSh milliy tibbiy ta'lim forumi (AAMC) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida zamonaviy o'qitish metodlariga doir talqinlar saralab olindi.

Keyingi bosqichda amaliy empirik ma'lumotlar yig'ishga kirishildi. Bunda so'rovnoma, intervyu va real dars jarayonlarini kuzatish metodlari asos qilib olindi. So'rovnomalarda 120 nafar 2–3 kurs talabalari va 40 nafar fundamental fanlar o'qituvchilari qatnashdi. So'rovnomalar anonim

shaklda, oldindan sinovdan o‘tkazilgan savollar asosida tashkil etildi. Savollar talabalarning o‘zlashtirish darajasi, pedagogik metodlardan qoniqish darajasi, faol ishtirok va mustaqil o‘rganishga bo‘lgan munosabatini aniqlashga qaratildi.

Yarim tuzilgan intervyular orqali esa o‘qituvchilarning chuqur fikrlari, darsga tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalardan foydalanishdagi yondashuvlari, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar va takliflari tahlil qilindi. Intervyular yozib olinib, matn shakliga keltirildi va tematik tahlil metodi orqali asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha kodlandi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning zamonaviy metodlarni tanlashdagi sabab-motivlari, metodik bilimlar darajasi, institut tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlandi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologik yondashuv tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fundamental fanlar bo‘yicha o‘qitishning hozirgi holatini tizimli ravishda baholash, zamonaviy ta’lim metodlarining qamrovi va samaradorligini aniqlash, shuningdek, pedagogik faoliyatda innovatsiyalarni joriy etish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot davomida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fundamental fanlarni zamonaviy pedagogik metodlar asosida o‘qitish bo‘yicha to‘plangan empirik ma’lumotlar har tomonlama tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘qitish yondashuvlari ta’lim jarayoniga asta-sekin kirib kelayotgan bo‘lsa-da, ularning joriy etilishida tizimlilik, pedagogik tayyorgarlik darajasi va moddiy-texnik baza holati muhim omil sifatida ajralib turadi.

Tadqiqotda qatnashgan talabalarning aksariyati, an’anaviy ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlariga nisbatan interaktiv va amaliy faoliyatga asoslangan metodlarning samaradorligini yuqori baholadilar. Jumladan, 120 nafar tibbiyot talabasi ishtirok etgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ularning 74 foizi problemaga asoslangan ta’lim (PBL) metodini chuqur fikrlash, klinik tafakkur va tahlil ko‘nikmasini shakllantirishda an’anaviy yondashuvlardan ustun deb hisoblaydi. Ayniqsa, kichik guruhlar formatida tashkil etilgan PBL darslarida talabalar o‘zini erkin, faol va teng huquqli ishtirokchi sifatida his qilganini bildirganlar.

Simulyatsiya asosidagi o‘qitish usullari – xususan, 3D anatomik modellar, virtual laboratoriyalar va elektron atlaslardan foydalanish – talabalar tomonidan yuqori baholandi. Ushbu metodlar vizual materiallar yordamida murakkab mavzularni oson o‘zlashtirish, strukturaviy tushunishni chuqurlashtirish hamda darsga qiziqishni kuchaytirishda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatildi. 65 foiz talaba simulyatsiyalarga asoslangan darslarda o‘zlashtirish darajasining oshganini, amaliyotga tayyorgarlik hisining kuchayganini ta’kidlagan.

Raqamli platformalardan foydalanish, ayniqsa Moodle va MedSpace kabi tizimlar orqali ta’lim materiallarini uzatish, testlar, forumlar va video ma’ruzalar taqdimoti orqali mustaqil o‘rganish uchun qulay muhit yaratgan. Biroq, kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, interaktivlik elementi yetarlicha rivojlanmagan, aksariyat hollarda raqamli platformalar faqat materiallar ombori sifatida ishlatilmoqda. Bu esa talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rag‘batlantirish darajasini cheklaydi.

Ushbu natijalar zamonaviy o‘qitish metodlarining fundamental fanlarni o‘zlashtirishda muhim omil ekanini, ayniqsa talabalarning mustaqil fikrlash, klinik tafakkur va tahliliy salohiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu metodlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun texnik baza, metodik resurslar va pedagog kadrlarning uzluksiz tayyorgarligi muhim ekani ham aniqlandi.

Xulosa. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fundamental fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik metodlarning joriy etilishi bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqot asosida aniqlanishicha, tibbiy ta’limda an’anaviy o‘qitish metodlari o‘rnini bosuvchi interaktiv, amaliy va talaba markazida qurilgan yondashuvlar talabaning bilim sifati, kasbiy tafakkuri va mustaqil ishlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, problemaga asoslangan ta’lim (PBL), simulyatsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar, integratsiyalashgan yondashuvlar va raqamli platformalardan foydalanish orqali fundamental fanlar talabalarning klinik fikrlash salohiyatiga bevosita bog‘langan holatda o‘zlashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, fundamental fanlarni zamonaviy metodlar asosida o‘qitish — bu faqat didaktik uslubni yangilash emas, balki zamonaviy va raqobatbardosh tibbiy kadrlarga zamin yaratish,

ularning kasbiy, axloqiy va ilmiy salohiyatini shakllantirishdir. Bu jarayon har bir tibbiyot ta'lim muassasasi uchun ustuvor yo'nalish bo'lishi va tizimli yondashuv asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Harden, R. M., & Laidlaw, J. M. (2013). *Essential skills for a medical teacher: An introduction to teaching and learning in medicine*. Elsevier Health Sciences.

2. Dent, J. A., Harden, R. M., & Hunt, D. (2017). *A practical guide for medical teachers* (5th ed.). Elsevier.

3. World Federation for Medical Education (WFME). (2015). *WFME Global Standards for Quality Improvement in Medical Education: Basic Medical Education*. https://wfme.org

4. Wood, D. F. (2003). ABC of learning and teaching in medicine: Problem based learning. *BMJ*, 326(7384), 328–330. https://doi.org/10.1136/bmj.326.7384.328

5. McLean, M., Gibbs, T., & Slater, J. (2004). Reflections on problem-based learning: Balancing the books. *Medical Teacher*, 26(7), 565–568. https://doi.org/10.1080/01421590400016308

6. Ruiz, J. G., Mintzer, M. J., & Leipzig, R. M. (2006). The impact of e-learning in medical education. *Academic Medicine*, 81(3), 207–212. https://doi.org/10.1097/00001888-200603000-00002

UDC 371.3

BLENDING TRADITION WITH TECHNOLOGY: EXPLORING THE LANDSCAPE OF BLENDED LEARNING IN TESOL

M.Sh.Mardonova, teacher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilini boshqa tilini boshqa til foydalanuvchilariga o'qitish yo'nalishida aralash ta'limning kengayib borayotganli haqida soz yuritilgan. Aralash ta'lim — bu ananaviy yuzma-yuz ta'limni onlayn o'qitish faoliyatlari va resurslari bilan birlashtiradigan pedagogik yondashuv bo'lib, til o'rganish natijalarini yaxshilash uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqola aralash ta'limning foydalari, jumladan, moslashuvchanlik, individual o'qish tajribalari va ishtirokning oshishi haqida ma'lumot beradi. Til o'rganish ilovalari, video darslar, onlayn muhokama platformalari va virtual haqiqat muhitlarini TESOL dasturlariga qanday samarali qilib integratsiya qilish mumkinligini ko'rib chiqadi.*

Kalit so'zlar: *Aralash ta'lim, TESOL (Ingliz tilini o'rgatish), Tilni o'zlashtirish, O'qitish dizayni, Pedagogika, Sun'iy intellekt, Virtual haqiqat, LMS (O'qitish boshqaruv tizimlari (masalan, Moodle, Canvas), Onlayn muhokama forumlari, Farqlangan o'qitish*

Аннотация. *Эта статья рассматривает растущее применение смешанного обучения в обучении английскому языку носителей других языков (TESOL). Смешанное обучение, педагогический подход, который сочетает традиционное очное обучение с онлайн-учебной деятельностью и ресурсами, предлагает множество возможностей для улучшения результатов изучения языка. В статье рассматриваются потенциальные преимущества смешанного обучения, включая повышенную гибкость, персонализированный опыт обучения и улучшенное вовлечение. Исследуется, как языковые приложения, видеоуроки, онлайн-платформы для обсуждений и виртуальные среды могут быть эффективно интегрированы в учебные программы TESOL.*

Ключевые слова: *Смешанное обучение, TESOL (Обучение носителей других языков), Приобретение языка, Инструкционное проектирование, Педагогика, Искусственный интеллект, Дополненная реальность, Виртуальная реальность, LMS (Системы управления обучением, например, Moodle, Canvas), Онлайн-форумы для обсуждений, Дифференцированное обучение.*

Abstract. *This article examines the growing adoption of blended learning in Teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL). Blended learning, a pedagogical approach that combines traditional face-to-face instruction with online learning activities and resources, offers numerous opportunities to enhance language learning outcomes. This article delves into the potential benefits of blended learning, including increased flexibility, personalized learning experiences, and enhanced engagement. It explores how language learning apps, video lessons, online discussion platforms, and virtual reality environments can be effectively integrated into TESOL curricula.*

Key words: *Blended learning, TESOL (Teaching Speakers of Other Languages), Language Acquisition, Instructional design, Pedagogy, Artificial Intelligence, Argumented Reality, Virtual Reality, LMS (Learning Management Systems (e.g., Moodle, Canvas), Online Discussion Forums, Differentiated Instruction*

Introduction. The global language learning market is witnessing an unprecedented surge, fueled by the pervasive adoption of digital learning tools. In 2023, the market reached an estimated $76.8 billion and is projected to reach $115.3 billion by 2028 (Global Industry Analysts, 2023). This remarkable growth reflects a significant shift in how individuals and institutions approach language acquisition, increasingly leveraging technology to supplement and enhance traditional learning methods. Imagine a dynamic classroom where students effortlessly transition between engaging group discussions facilitated by the instructor and personalized online exercises adapted to their unique learning styles – this is the compelling promise of blended learning, a pedagogical approach that is rapidly transforming the landscape of Teaching English to Speakers of Other Languages (TESOL).

Blended learning, in the context of TESOL, is defined as the strategic integration of face-to-face classroom instruction with carefully selected online learning activities and resources. This is not merely a superficial addition of technology to existing teaching practices; rather, it is a deliberate and thoughtful combination of the most effective elements of both traditional and digital learning environments (Graham, 2013). It acknowledges the inherent strengths of in-person interaction, such as immediate feedback and collaborative learning, while simultaneously harnessing the flexibility, personalization, and accessibility offered by online platforms (Garrison & Vaughan, 2008). Effective blended learning goes beyond simply digitizing existing materials; it requires a fundamental rethinking of instructional design to maximize the synergistic potential of combining these two approaches.

The integration of technology in language learning is not a new phenomenon. Its evolution can be traced back to the introduction of early audio-visual aids, such as language laboratories equipped with tape recorders, designed to enhance pronunciation and listening comprehension. The advent of personal computers in the late 20th century ushered in the era of Computer-Assisted Language Learning (CALL), characterized by software programs aimed at grammar instruction, vocabulary building, and reading comprehension. The proliferation of mobile devices and wireless internet access further revolutionized language learning with the emergence of Mobile-Assisted Language Learning (MALL). MALL facilitated ubiquitous learning opportunities, allowing students to access language learning materials and engage in communicative practice anytime, anywhere. The current trend towards blended learning represents a synthesis of these previous approaches, leveraging the best aspects of each to create a more comprehensive and effective learning experience.

While blended learning offers significant potential to enhance language acquisition in TESOL, successful implementation requires careful consideration of its benefits and challenges. This article argues that thoughtful integration of technology, appropriate teacher training, and addressing issues of equity and access are crucial for realizing the full potential of blended learning. A poorly designed blended learning program can actually hinder language acquisition and exacerbate existing inequalities. To explore this complex landscape, this article will delve into the multifaceted nature of blended learning in TESOL. It will examine the potential benefits, including increased flexibility, personalized learning experiences, and enhanced engagement. Furthermore, the article will showcase examples of successful blended learning implementations in TESOL classrooms, highlighting the strategies and tools that contribute to positive learning outcomes. By providing a comprehensive analysis of both the opportunities and obstacles, this article aims to equip TESOL professionals with the knowledge and insights necessary to effectively implement blended learning and ultimately improve language learning outcomes for their students.

Benefits of Blended Learning in TESOL

Increased Flexibility and Accessibility

One of the most significant advantages of blended learning in TESOL is its inherent flexibility, which allows students to learn at their own pace and on their own schedules. Online components of blended learning enable learners to access materials and complete assignments outside of the constraints of a traditional classroom setting. Research has shown that self-paced learning can lead to improved retention and understanding of language concepts. A study conducted by Zhao et al. (2005) found that students who engaged in self-paced learning environments demonstrated higher achievement levels compared to those in rigidly scheduled classes. This flexibility is particularly beneficial for adult learners who may be balancing work, family, and educational commitments. Additionally, blended learning effectively addresses geographical barriers that can hinder access to language education. Students in remote areas or those with scheduling constraints can participate in language courses without the need for physical attendance. According to a report by the Pew Research Center (2019), 77% of rural Americans believe that access to online learning opportunities is crucial for educational advancement. By utilizing online resources, blended learning programs can reach a wider audience, ensuring that learners from diverse backgrounds have the opportunity to acquire language skills.

For example, a blended learning program might allow students to review video lectures and complete online exercises outside of class time. This approach caters to different learning styles and schedules, enabling students who need additional time to process information to revisit materials as necessary. Such flexibility not only accommodates various learning preferences but also promotes a more personalized educational experience.

Personalized Learning Experiences

Blended learning also facilitates personalized learning experiences through the use of technology. Adaptive learning platforms, which adjust content and assessments based on individual student performance, are particularly effective in catering to diverse learning needs. These platforms can analyze students' strengths and weaknesses, providing tailored instruction that aligns with their specific skill levels. Teachers can leverage data analytics from online learning platforms to identify students who require additional support. By monitoring engagement and performance metrics, educators can intervene early and provide targeted assistance to those struggling with specific language concepts. For instance, a language learning app may employ adaptive algorithms to personalize vocabulary lessons based on a student's performance. If a student consistently struggles with certain words, the app will offer more practice opportunities and targeted feedback, ensuring that learners receive the support they need to succeed.

Enhanced Engagement and Motivation

Technology's role in enhancing engagement and motivation in language learning cannot be overstated, especially among younger learners who are digital natives. Blended learning environments often incorporate gamification, simulations, and interactive activities that create immersive and enjoyable educational experiences. According to a study by Hamari et al. (2016), gamification can significantly increase student engagement and motivation, leading to improved learning outcomes. For example, a classroom utilizing virtual reality (VR) simulations allows students to practice ordering food in a restaurant in a foreign country. This immersive experience not only enhances engagement but also provides a realistic context for language practice, enabling students to apply their skills in real-world scenarios. Such interactive experiences can make language learning more relevant and enjoyable, fostering a positive attitude towards acquiring new language skills.

Improved Learning Outcomes

Research supports the effectiveness of blended learning in improving language proficiency. A meta-analysis conducted by Means et al. (2013) found that students in blended learning environments outperformed their peers in traditional face-to-face classrooms in various subjects, including language acquisition. The study indicated that blended learning can lead to improved vocabulary acquisition, grammar skills, and communicative competence.

However, it is essential to critically analyze these studies and acknowledge potential limitations or confounding variables. For instance, factors such as instructor experience, course design, and

student motivation can significantly influence learning outcomes. Therefore, while blended learning demonstrates promise, its effectiveness is contingent upon thoughtful implementation and consideration of these variables.

The benefits of blended learning in TESOL are multifaceted, encompassing increased flexibility and accessibility, personalized learning experiences, enhanced engagement and motivation, improved learning outcomes. By effectively integrating technology into language instruction, educators can create dynamic learning environments that cater to diverse student needs, ultimately leading to more effective language acquisition.

Challenges of Blended Learning in TESOL

While blended learning offers numerous advantages in TESOL, it is crucial to acknowledge and address the challenges that can hinder its effective implementation. Overlooking these obstacles can lead to inequitable learning experiences and diminished outcomes.

Teacher Training and Professional Development

Another critical challenge is the need for robust teacher training and professional development. TESOL professionals must be equipped with the skills and knowledge necessary to effectively design, implement, and manage blended learning programs. This requires a shift in pedagogical approaches, as teachers transition from traditional lecturers to facilitators of online and offline learning experiences. Many teachers may lack the technical skills necessary to navigate online learning platforms, create engaging digital content, or effectively facilitate online discussions. A survey conducted by the Office of Educational Technology (2017) revealed that a significant percentage of teachers feel unprepared to integrate technology effectively into their instruction. Ongoing support and professional development opportunities are essential to help teachers stay abreast of new technologies and pedagogical approaches. For instance, a school might offer a series of workshops and training sessions for teachers on how to use specific language learning apps, create engaging online content, and facilitate online discussions. These sessions could cover topics such as instructional design principles for blended learning, effective strategies for online assessment, and best practices for fostering student engagement in virtual environments.

Designing Effective Online Content

The effectiveness of blended learning hinges on the quality and relevance of the online content. It is crucial to design online materials that are engaging, interactive, and aligned with the learning objectives. Simply replicating traditional classroom activities online can be ineffective and may even detract from the learning experience. Instead, teachers should leverage the unique capabilities of technology to create innovative learning experiences that enhance student understanding and engagement. For example, instead of simply posting textbook chapters online, a teacher might create interactive quizzes, video tutorials, and online discussion forums to engage students with the material in a more dynamic way. These resources could incorporate multimedia elements, such as images, videos, and audio recordings, to cater to different learning styles and preferences. According to research by Mayer (2009), the use of multimedia can significantly enhance learning outcomes by reducing cognitive load and promoting deeper processing of information. Teachers should also ensure that online content is accessible to all students, including those with disabilities, by adhering to accessibility guidelines such as those outlined in the Web Content Accessibility Guidelines (WCAG).

Student Motivation and Self-Regulation

The self-directed nature of online learning can pose challenges for some students, who may struggle with motivation and self-regulation skills. In a blended learning environment, students are often required to manage their time effectively, complete assignments independently, and participate actively in online discussions. Students who lack these skills may fall behind or become disengaged from the learning process. To promote student motivation and self-regulation, teachers should provide clear expectations, set achievable goals, and offer regular feedback. Explicitly teaching time-management strategies and organizational skills can also be beneficial. Incorporating gamification elements, such as points, badges, and leaderboards, can make learning more engaging and motivate students to complete assignments and participate in online activities. For example, a teacher could provide students with a detailed syllabus outlining the expectations for the online components of the

course and offer regular feedback on their progress. Goal-setting activities could be incorporated, encouraging students to track their own learning and celebrate their achievements.

In conclusion, this article has explored the multifaceted landscape of blended learning in TESOL, examining its potential benefits, addressing its inherent challenges, and showcasing examples of successful implementations. While blended learning offers significant potential to transform language education by increasing flexibility, personalizing learning experiences, and enhancing engagement. Teachers must be adequately trained and supported, online content must be thoughtfully designed, student motivation and self-regulation must be fostered.

REFERENCES:

1. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines. John Wiley & Sons.

2. Global Industry Analysts. (2023). Language Learning - Global Strategic Business Report.

3. Graham, C. R. (2013). Emerging practice and research in blended learning. In M. G. Moore (Ed.), Handbook of distance education (3rd ed., pp. 333-350). Routledge.

4. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2016). Does gamification work? a literature review of empirical studies on gamification. 2014, 47th Hawaii international conference on system sciences, 3025-3034.

5. Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning (2nd ed.). Cambridge University Press.

6. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., & Baki, M. (2013). The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of the empirical literature. Teachers College Record, 115 (3), 1-47.

7. Office of Educational Technology. (2017). Reimagining the Role of Technology in Education: 2017 National Education Technology Plan Update. U.S. Department of Education.

8. Pew Research Center. (2019). The Internet and Rural America.

9. Web Content Accessibility Guidelines (WCAG).

10. Zhao, Y., Pugh, K., Sheldon, S., & Byers, J. (2005). Conditions for classroom technologies innovations. Teachers College Record, 107 (8), 1836-1870.

UDK 81-13

LOTIN TILINI O‘QITISHDA INTERAKTIV USULLAR

M.H. Maxmurova, o‘qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro

Annotatsiya*. Mazkur maqolada lotin tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, loyihaviy faoliyat, kommunikativ yondashuv hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini o‘rgatish jarayonida kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv loyihalari orqali talabalar bilimini chuqurlashtirish, mustaqil fikrlash, tibbiy terminologiyani o‘zlashtirish va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: zamonaviy darslar, yangi o‘qitish strategiyalari, zamonaviy metodlar, an’anaviy metodikalar, kommunikativ yondashuv, lotin tili, loyihaviy ta’lim, tibbiy terminologiya, zamonaviy metodlar, interaktiv yondashuv.*

Аннотация *– В данной статье раскрываются теоретические и практические основы использования современных педагогических технологий при обучении латинскому языку, в частности, проектной деятельности, коммуникативного подхода, а также информационно-коммуникационных средств. Рассматриваются возможности углубления знаний студентов, развития их самостоятельного мышления, усвоения медицинской терминологии и формирования коммуникативных компетенций через профессионально ориентированные учебные проекты в процессе преподавания латинского языка в медицинских высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *современные уроки, новые стратегии обучения, современные методы, традиционные методики, коммуникативный подход, латынь, проектное обучение, медицинская терминология, современные методы, интерактивный подход.*

Abstract. *This article explores the theoretical and practical foundations of using modern pedagogical technologies in teaching Latin, particularly project-based learning, the communicative approach, and information and communication tools. It examines the opportunities for deepening students' knowledge, developing independent thinking, mastering medical terminology, and*

enhancing communicative competences through professionally oriented educational projects in the process of teaching Latin in medical higher education institutions.

Key words: *modern lessons, new teaching strategies, modern methods, traditional methodologies, communicative approach, Latin Language, Project education, medical terminology, modern methods, interactive approach.*

Kirish. Chet tilini o‘qitishda yangi asosiy metodlarni o‘rganish ham yangi boshlayotgan, ham tajribali o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan ko‘plab sabablar mavjud. Quyida o‘qituvchiga eng mashhur o‘qitish uslublarini o‘zlashtirishga yordam beradigan bir nechta usullar keltirilgan: O‘qituvchining vazifasi – talabaga faqat bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish emas, balki o‘quv-tarbiyaviy ishni shunday tashkil qilishdirki, talaba bilimni shaklan (ya’ni, faqat bilim uchun) emas, balki atrof-muhit va o‘zini anglash vositasi sifatida o‘zlashtirsin [1].

Boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi va chet tili o‘qituvchisining hamkorlikdagi faoliyati orqali o‘quvchilarda o‘qish kompetensiyasini shakllantirish va zamonaviy texnologiyalar yordamida motivatsion o‘quv muhitini yaratish muhim bo’lganidek,lotin tilining ham boshqa tibbiy fanlar bilan integrasiyalashuvi muhimdir. Lotin tili qadimiy ilmiy va tibbiy terminologiyaning negizini tashkil etgan bo‘lib, zamonaviy tibbiy ta’limda ushbu tilni o‘rgatish nafaqat bilim olish, balki kasbiy muloqot asoslarini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy yodlash va tarjima metodlaridan farqli o‘laroq, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining lotin tiliga moslashtirilgan variantlari o‘rgatuvchi-ijodiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Pedagogikani anglash chet tili darslarini samarali rejalashtirish va materiallar ishlab chiqishga yordam beradi, chunki bu o‘quvchilarga foydali bo‘lgan faoliyat turlarini strategik tanlash va o‘qitish maqsadida ularni qo‘llash imkonini beradi. Garchi audiolingvistik va bevosita metodlar kabi an’anaviy metodikalarda ham foydali elementlar mavjud bo‘lsa-da, ular zamonaviy sinflarda eskirgan hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining lotin tiliga moslashtirilgan shakllari uni o’rgatish uchun muhitni yaratishga xizmat qiladi.Shulardan biri “Loyihaviy faoliyat“ metodidir. Loyihaviy ta’lim texnologiyasi lotin tilini o‘rgatishda real kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali tibbiy terminologiyani chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, talabalar “Tibbiy atamalar ensiklopediyasi”, “Lotin tilidagi dori nomlari katalogi”, yoki “Anatomiya terminlarining lotincha-nomi rus-uzbek tarjimasi” kabi loyihalar ustida ishlashlari orqali mustaqil tahlil qilish, izlanish olib borish, jamoada ishlash va natijani taqdim etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bunday metodlardan yana biri “Kommunikativ yondashuv “asosida o‘qitish. Lotin tili “o‘lik til” sifatida qaralgan bo‘lsa-da, tibbiyotda uning faol ishlatilishi uni o‘rganishga kommunikativ yondashuvni joriy etishni talab qiladi. O‘quvchilar lotincha tibbiy iboralar bilan kasbiy muloqot holatlarini modellashtiradi, masalan, retsept yozish, klinika yozuvlarini tarjima qilish, yoki tibbiy konsilium tillarini tushunish orqali o‘z bilimini amaliy holatga tatbiq etadi. Bu esa passiv yodlashdan ko‘ra yuqori darajadagi o‘zlashtirishga olib keladi. Lotin tilini o’rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.” Multimedia platformalari**”** (Quizlet, Kahoot, Wordwall) va elektron resurslar yordamida lotin tilini vizual va eshituv kanallari orqali o‘rganish samaradorligini oshirish mumkin. Interaktiv mashqlar, testlar va simulyatsion topshiriqlar talabalarni fan bilan faol muloqotga jalb qiladi, ularning bilimini tahlil qilish va baholash imkonini beradi.

Tahlil va muhokamalar: Zamonaviy talabalar ehtiyojlari o‘qituvchilarning va kitob nashriyotchilarning eng yaxshi strategiyalaridan ham ustunroq ekani ayon bo‘ldi. Lotin tili an’anaviy jihatdan quruq va murakkab til sifatida qaralgan bo‘lsa-da, zamonaviy metodlar orqali uni o‘rgatish yanada faol, amaliy va samarali jarayonga aylanmoqda. Loyihaviy yondashuv talabalarni o‘qituvchi markazidan o‘quvchi markaziga yo‘naltiradi va ular o‘z bilimlarini real loyihalar orqali mustahkamlashga intiladi. Masalan, lotincha dori vositalari yoki anatomik atamalar katalogi ustida ishlash nafaqat til, balki kasbiy bilimlarni ham kengaytiradi. Kommunikativ yondashuvning lotin tilida qo‘llanilishi avvaliga g‘ayrioddiy tuyulishi mumkin, biroq tibbiyotdagi retseptlar, tashxislar va hujjatlar orqali bu yondashuv o‘z samarasini beradi. Lotin tili “tirik” bo‘lmasa ham, kasbiy til sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda. AKT vositalarining dars jarayoniga qo‘shilishi esa ayniqsa ,yangi

avlod talabalarining texnologiyaga bo‘lgan qiziqishini o‘quv jarayoniga yo‘naltiradi. Interaktiv vositalar orqali bilim berish, testlarni avtomatik baholash va materiallarni vizual yetkazish o‘quv samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, lotin tilini o‘rgatishda metodik yondashuvlar to‘g‘ri tanlansa, u nafaqat samarali, balki talaba uchun qiziqarli ham bo‘lishi mumkin.

Loyihaga asoslangan yondashuv. Topshiriqqa asoslangan yondashuvga o‘xshash tarzda, loyihaga asoslangan yondashuv ham talabalar shaxsiy va kasbiy ehtiyojlarini qondirish uchun tilni moslashtirishga qaratilgan[2].Bu usul talaba yoki guruh uchun umumiy maqsadni belgilashdan boshlanadi. Masalan, lotin tili darsini o‘tishda talabalar nima uchun bu darsni o‘zlashtirishi kerakligini hisobga olgan holda rejalashtirish lozim. Har bir dars bo‘limi uchun zarur bo‘lgan lug‘at va grammatikani, hamda talabalarning darsda duch kelgan qiyinchiliklarni muhokama qilganman. Yakuniy loyiha sifatida ular yakunlangan hisobot taqdim etishgan. Hisobot tayyorlash uchun me’zonlar ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o’quv dasturi asosida ishlab chiqilgan edi.Bu loyiha og‘zaki taqdimotdan tortib o‘yinlar va boshqa mahsulotlargacha bo‘lishi mumkin. Har bir kichik topshiriq yakuniy maqsadga xizmat qilishi va baholash me’zonlari aniq bo‘lishi kerak.

Lug‘at dasturi. Avvalgi ikkita yondashuv ko‘nikmalar va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, bu yondashuv talabalar yaratishi kerak bo‘lgan til, ya’ni real so‘zlarga e’tibor qaratadi[3].Ushbu usulda talabalar o‘z ehtiyojlariga mos asosiy til bazasini bilishi kerak. Tibbiy yo‘nalishdagi talabalar uchun esa maxsus terminologik lug‘at zarur bo‘ladi.Masalan: “therapia” – muhim atama, xuddi “skalpeldan” foydalanish kabi tibbiyot talabalariga zarur bo‘lgan so‘zdir. Bundan tashqari, asosiy til bazasidan tashqarida o‘rgatiladigan har qanday til faqat qo‘shimcha va boshqa sohalar bilan aloqador bilimlarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.Olib borilgan tahlillar va tajriba asosida quyidagi natijalarga erishildi:

Loyihaviy faoliyat metodi lotin tilini o‘rgatishda talabalarning mustaqil izlanuvchanligini, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini va tibbiy terminologiyaga qiziqishini oshirdi.

Kommunikativ yondashuv orqali talabalar lotin tilidagi tibbiy iboralarni real kasbiy vaziyatlarda qo‘llashga harakat qildilar, bu esa o‘zlashtirishni yuqori darajaga olib chiqdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan faolligini oshirdi, interaktiv testlar, onlayn platformalar va vizual materiallar yordamida o‘quv jarayonini soddalashtirdi va qiziqarli qildi.

An’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, zamonaviy yondashuvlar orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifoda etish, matn bilan ishlash va tahlil qilish kompetensiyalariga ega bo‘ldilar. Ushbu metodlar lotin tilining “quruq nazariya” emas, balki amaliy kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida o‘zlashtirilishini ta’minladi. Talabalar nafaqat til bilimiga, balki mustaqil ishlash, axborot bilan ishlash va tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar.

Xulosa. Pedagogikani anglash chet tili darslari va materiallarini samarali ishlab chiqishga yordam beradi, chunki bu o‘quvchilarga foydali bo‘lgan faoliyat turlarini strategik tanlash va ulardan foydalanish imkonini beradi [5].

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития нравственных качеств у школьников на основе предмета военной подготовки. Проанализированы содержание, формы и методы воспитания таких качеств, как дисциплина, ответственность, патриотизм и мужество посредством военной подготовки. Также освещается роль учителя, содержание учебных занятий и воспитательное воздействие военного обучения. Результаты исследования показывают пути эффективной организации военно-нравственного воспитания в школьной системе.*

Ключевые слова: *военная подготовка, нравственные качества, духовное воспитание, школьники, патриотизм, дисциплина, мужество, педагогическое влияние, воспитательный процесс.*

Abstract.*This article explores the issues of shaping and developing moral qualities among school students through the subject of military training. The content, forms and methods of instilling values such as discipline, responsibility, patriotism and courage through military education are analyzed. The article also discusses the role of teachers, the content of training sessions and the educational impact of military training. The findings suggest effective ways of organizing military and moral education within the school system.*

Key words: *military training, moral qualities, spiritual education, school students, patriotism, discipline, courage, pedagogical influence, educational process.*

Zamonaviy jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, jismonan sog'lom, aqliy salohiyatli va ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ichki dunyosini boyitish, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlariga ko'maklashish — zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ma'naviy va axloqiy tarbiya har bir o'quvchining shaxs sifatida kamol

topishida asosiy omil bo‘lib, uni turli fanlar orqali, xususan, harbiy tayyorgarlik faniga integratsiyalashgan holda olib borish o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Chunki harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, o‘z burchini his qilish, intizomli bo‘lish, jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni mustahkamlash kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Harbiy tayyorgarlik fani bu borada muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda intizom, jasorat, mas'uliyat va jamoaviylik kabi sifatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Harbiy tayyorgarlik fani nafaqat jismoniy va amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarni fuqarolik burchini anglashga, intizomli bo‘lishga, har qanday holatda o‘zini tutishni bilishga o‘rgatadi. Shu sababli ushbu fan orqali axloqiy tarbiya berish, ayniqsa o‘smir yoshidagi o‘quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, ular jamiyat oldidagi vazifalarini his qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Harbiy tayyorgarlik fani o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, fuqarolik burchini anglash, jismoniy va ruhiy chidamlilik, intizom, tartib va mas'uliyat kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu fan orqali yoshlar hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallab, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladi. Harbiy fan – bu nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy hayotiy tayyorgarlik vositasi hamdir.

Axloqiy fazilatlar deganda insonda halollik, odob, vijdon, mehr-oqibat, hurmat, mas’uliyat, sabr-toqat, matonat kabi insoniy sifatlarning shakllanishi tushuniladi. Bu fazilatlar harbiy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilganda, yoshlarning ichki dunyosi boyiydi, ongli intizom va irodaviy sifatlar rivojlanadi. O‘quvchi o‘zini jamiyat a’zosi sifatida anglaydi va har bir harakatini mas’uliyat bilan amalga oshirishga harakat qiladi.

Axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda quyidagi metodlar keng qo‘llaniladi:

- Suhbat va munozaralar – axloqiy mavzularda fikr almashish, tahliliy yondashuv.
- Harbiy-intellektual o‘yinlar – o‘quvchilarda tezkor fikrlash, jamoada ishlash, yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi.
- Amaliy mashg‘ulotlar (paradlar, mashqlar) – intizom va jismoniy bardoshlilikni mustahkamlaydi.
- Vatanparvarlik tadbirlari (uchrashuvlar, ekskursiyalar, bayramlar) – milliy qadriyatlarni anglashga yordam beradi.
- Rolga kirish asosidagi topshiriqlar – o‘quvchilar harbiy rollarni bajarish orqali axloqiy holatlarni chuqur tushunadi.

Harbiy tayyorgarlik darslarida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki murabbiy, tarbiyachi va motivator sifatida faoliyat yuritadi. Uning shaxsiy namunasi, nutqi, muomalasi, intizomi o‘quvchilar uchun axloqiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchining zamonaviy metodlardan foydalanishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, har bir o‘quvchining ichki dunyosiga kirib borishi ham axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Harbiy tayyorgarlik darslarini o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan amaliy faoliyatlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi metodlar dars jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin:

1. Harbiy-sport musobaqalari tashkil etish. Bu tadbirlar o‘quvchilarda sog‘lom raqobat, jamoaviylik, bardoshlilik, tezkorlik va jasoratni shakllantirishga yordam beradi. Musobaqalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O‘q otish bo‘yicha simulyatsiya
- Tibbiy yordam ko‘rsatish (jang maydonida shartli yaradorni qutqarish)
- To‘siqlardan o‘tish bo‘yicha estafeta
- Harbiy saf ko‘rinishlari (safga turish, safda yurish)

2. “Vatan himoyachisi kim?” mavzusida suhbat va munozaralar. Sinfda ochiq darslar shaklida tashkil etilgan bu turdagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni erkin mulohaza yuritishga va o‘z nuqtai nazarini asoslashga o‘rgatadi.

3. Vatanparvarlik haftaliklari. Maktabda harbiy va axloqiy ruhda tarbiyalashga yo‘naltirilgan maxsus tematik haftaliklar o‘tkaziladi. Unda quyidagilar tashkil etiladi:

- Harbiy xizmatni o‘tagan mehmonlar bilan uchrashuvlar
- Vatan haqidagi videoroliklar, hujjatli filmlar namoyishi
- Ma’naviyat darslari – o‘qituvchi tomonidan Vatan, burch, jasorat haqida nutqlar

4. Harbiy kiyimda o'tkaziladigan amaliy kunlar. Ma’lum kunlarda o‘quvchilar harbiy kiyimda qatnashishadi va amaliy topshiriqlar bajarishadi. Bu nafaqat qiziqish uyg‘otadi, balki o‘zlarini haqiqiy harbiy xizmatchidek his qilishlariga yordam beradi.

5. “Ochiq eshiklar kuni” – harbiy qismlar va muzeylarga ekskursiyalar. Qurolli Kuchlar qismlariga sayohatlar, yurt himoyachilari bilan jonli muloqot o‘quvchilarning qalbida kuchli taassurot qoldiradi. Ular o‘z ko‘zlari bilan harbiy xizmat hayotini ko‘radi, bu esa ularda Vatanga xizmat qilish istagini uyg‘otadi.

Tajriba asosida aniqlanganidek, yuqorida keltirilgan amaliy faoliyatlar o‘quvchilarning:

- intizomlilik darajasini oshiradi,
- jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi,
- axloqiy javobgarlik va o‘z-o‘zini nazorat qilish sifatlarini rivojlantiradi,
- ijtimoiy faolligini oshiradi.

O‘qituvchi bu jarayonlarda o‘quvchilarning ishtirokini doimiy kuzatib borishi, ularning ijtimoiy va axloqiy holatini tahlil qilishi zarur. Shu asosda individual yondashuvni ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq va begonalashuv holatlari uchrayotgan bir paytda, harbiy-ma’naviy tarbiya ularni sog‘lom jamiyat fuqarosi sifatida shakllantirishda muhim vositaga aylanadi. Harbiy tayyorgarlik orqali yoshlar Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat, mustaqil fikrlash, va fidoyilikni anglab yetadilar. O‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ularning yosh xususiyatlari, ruhiy holati, ijtimoiy muhit bilan munosabati inobatga olinishi lozim. Harbiy tayyorgarlik darslarida quyidagi psixologik-pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Individual yondashuv – har bir o‘quvchining xarakteri, qiziqishi va intellektual salohiyatini hisobga olgan holda tarbiyaviy usullarni tanlash;
- Rag‘batlantirish va motivatsiya – harbiy tartibda o‘zini intizomli tutgan o‘quvchini maqtov, diplom yoki kichik sovg‘a bilan rag‘batlantirish;
- Ruhiy holatni muvozanatga solish – darsdan oldin motivatsion videoroliklar yoki musiqalar orqali o‘quvchining ichki ruhiy holatini ijobiy yo‘naltirish;
- Refleksiya – har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng qisqa suhbat orqali o‘quvchilarning o‘z fikrini aytishiga imkon berish.

Harbiy tayyorgarlik fani boshqa fanlar bilan uyg‘un holda olib borilganda, tarbiyaviy samaradorlik ortadi. Fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilar bilimni yanada chuqurroq o‘zlashtiradi, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Harbiy tayyorgarlik darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash axloqiy fazilatlarni tarbiyalash jarayoniga yangi sifat olib kiradi:

- Multimedia vositalari – vatanparvarlik ruhidagi video, film va taqdimotlar orqali o‘quvchilar ruhiy jihatdan ta’sirlanadi.
- Interaktiv metodlar – “fikrlar jangi”, “rolli o‘yinlar”, “hayotiy holatni tahlil qilish” kabi usullar orqali axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.
- Virtual simulyatsiyalar – jangovar holatlar, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha virtual mashg‘ulotlar o‘quvchilarda tezkor reaksiya, murosasizlik va halollikni rivojlantiradi.
- Telegram / Google Classroom guruhlari – harbiy tarbiya bo‘yicha onlayn topshiriqlar va o‘zaro munozaralar platformasi sifatida foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarida harbiy tayyorgarlik fani asosida axloqiy fazilatlarni shakllantirish — bu zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda nafaqat jismoniy va amaliy ko‘nikmalar, balki ma’naviy barkamollik, intizom, mas’uliyat, jasorat, vatanparvarlik kabi muhim fazilatlar mustahkamlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu fan samarali metodik yondashuv asosida olib borilganda, o‘quvchilarning axloqiy qarashlari chuqurlashadi, fuqarolik ong va burch hissi shakllanadi. Bu esa yosh avlodni sog‘lom, irodali, ongli va ma’suliyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, harbiy tayyorgarlik darslarida o‘qituvchining tarbiyaviy roli, darsdan tashqari tadbirlarning mazmunan boy bo‘lishi va o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish orqali bu jarayon yanada samarador bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularning ichki dunyosini boyitish va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his qilishiga erishish — zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev Q. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2002.
2. Xolboev N., Jo‘rayev Sh. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2015.
3. Mahmudov N. Axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.
4. Rasulov Z. Zamonaviy maktabda harbiy tayyorgarlik. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Xayrullayev M. O‘zbekiston yoshlari va ularning tarbiyasi. – T.: Sharq, 2003.
6. Tursunov B. Ma’naviyat asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2006.
7. Axmedov M., Toshpo‘latov R. O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2010.

UDC 37.02

TEACHER IDENTITY FORMATION IN THE UZBEK EFL CONTEXT: NAVIGATING CULTURAL VALUES AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT

A.Ne’matov, teacher, Fergana state university, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi ingliz tilini chet tili sifatida o‘qituvchi (EFL) o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini qanday shakllantirishlarini, an’anaviy ta’lim qadriyatlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi ziddiyatda qanday harakat qilishlarini o‘rganadi. Sotsiomadaniy va shaxsiy identifikatsiya nazariyalariga asoslangan holda, u post-Sovet ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni yoritadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy qadriyatlar va zamonaviy EFL amaliyotlarini uyg‘unlashtirish uchun madaniy sezgirlik, institutsional yordam va uzluksiz kasbiy rivojlanish muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi identifikatsiyasi, EFL ta’limi, O‘zbekiston, kasbiy rivojlanish, madaniy kontekst*

Аннотация. *В данном исследовании рассматривается, как узбекские преподаватели английского языка как иностранного формируют свою профессиональную идентичность, преодолевая противоречия между традиционными образовательными ценностями и современными педагогическими подходами. Основываясь на социокультурной теории и теории идентичности, статья освещает трудности, с которыми сталкиваются учителя в условиях стремительных реформ постсоветской образовательной системы. Результаты подчеркивают важность культурной чувствительности, институциональной поддержки и постоянного профессионального развития для успешной интеграции личных ценностей с современной практикой преподавания английского языка.*

Ключевые слова: *идентичность учителя, преподавание английского языка, Узбекистан, профессиональное развитие, культурный контекст*

Abstract. *This study explores how Uzbek EFL teachers construct their professional identities while navigating the tension between traditional educational values and modern pedagogical approaches. Grounded in sociocultural and identity theories, it highlights the challenges faced in a post-Soviet context undergoing rapid educational reform. The findings emphasize the importance of cultural sensitivity, institutional support, and continuous professional development in helping teachers reconcile personal values with contemporary EFL practices.*

Keywords: *teacher identity, EFL education, Uzbekistan, professional development, cultural context*

Introduction. Teacher identity has emerged as a critical area of research in second language education, particularly in contexts where educators must navigate complex cultural and pedagogical landscapes. In Uzbekistan, English as a Foreign Language (EFL) teachers face unique challenges in forming their professional identities within a rapidly evolving educational system. The country's transition from a Soviet-era educational model to a more internationally aligned approach has created tensions between traditional teaching methods and modern communicative language teaching practices (Hasanova, 2019).

The formation of teacher identity is not merely an individual process but occurs within broader social, cultural, and institutional contexts (Beijaard et al., 2004). For Uzbek EFL teachers, this process involves negotiating between deeply rooted cultural values emphasizing respect for authority and hierarchical relationships, and contemporary EFL methodologies that promote student-centered learning and interactive communication. Understanding how these teachers construct their professional identities is crucial for improving teacher education programs and supporting professional development initiatives in the region.

Literature Review. Teacher identity is understood as a dynamic process involving ongoing negotiation between personal and professional roles (Varghese et al., 2005). It encompasses teachers' beliefs about their work, roles, and relationships within the educational community (Beijaard et al., 2004). In second language education, identity formation is especially complex as teachers balance their roles as language instructors, cultural mediators, and professionals. According to sociocultural theory, these identities are shaped through participation in communities of practice (Wenger, 1998). In post-Soviet contexts like Uzbekistan, teachers face tensions between traditional, teacher-centered methods and new communicative approaches (Karimova, 2020). Educational reforms aiming to modernize practices often clash with entrenched cultural norms, making identity development difficult. Uzbek cultural values such as respect for authority and hierarchical relations further complicate the adoption of interactive, student-centered methodologies (Hasanova, 2019).

Methodology and Analytical Framework. This article employs a comprehensive literature review approach, synthesizing existing research on teacher identity, EFL education, and cultural contexts specific to Uzbekistan and Central Asia. The analysis draws on sociocultural theory to examine how Uzbek EFL teachers negotiate their professional identities within competing cultural and pedagogical frameworks.

The analytical framework considers three key dimensions of teacher identity formation: personal identity (individual beliefs and values), professional identity (pedagogical knowledge and skills), and contextual identity (institutional and cultural factors). This multidimensional approach allows for a nuanced understanding of the complex processes involved in identity construction among Uzbek EFL teachers.

Findings and Discussion. Uzbek EFL teachers face challenges in balancing traditional authority-based methods with communicative, student-centered approaches, often feeling conflicted between their training and institutional demands (Karimova, 2020). This tension is visible in classroom management, where maintaining authority must coexist with fostering interaction. The traditional model views teachers as the main source of knowledge, whereas modern pedagogy sees them as facilitators. Cultural values emphasizing hierarchy and respect can conflict with methods that promote collaboration and questioning (Hasanova, 2019). Teachers often struggle to preserve their cultural identity while meeting modern professional expectations from students, parents, and administrators. Professional development is essential for identity formation but is often limited in availability and relevance to local challenges (Djumabaeva, 2021). Effective programs must be culturally sensitive and offer practical tools for integrating new methods. Teachers who receive such training report greater confidence in aligning traditional values with modern pedagogy.

Implications and Recommendations. Teacher education and professional development programs in Uzbekistan should foster cultural reflection, encourage adaptation of modern EFL methods, and support identity formation through collaboration and mentoring. Rather than imposing foreign pedagogies, initiatives must be culturally responsive, providing sustained guidance as

teachers integrate new practices. Educational policies should allow gradual transitions and invest in long-term support systems to ensure meaningful and lasting reform.

Conclusion. Teacher identity formation among Uzbek EFL educators involves navigating between traditional values and modern teaching expectations, requiring culturally sensitive support and context-aware professional development. This dynamic process is deeply shaped by personal, institutional, and societal factors, demanding ongoing negotiation to build coherent professional identities. Future longitudinal research on identity evolution can offer valuable guidance for improving teacher development in Uzbekistan and similar multicultural or post-Soviet contexts.

REFERENCES:

1. Beijaard, D., Meijer, P. C., & Verloop, N. (2004). Reconsidering research on teachers' professional identity. *Teaching and Teacher Education*, 20(2), 107-128. https://doi.org/10.1016/j.tate.2003.07.001

2. Hasanova, D. (2019). Cultural dimensions of English language teaching in Uzbekistan. *Journal of Language and Cultural Education*, 7(2), 89-105. https://doi.org/10.2478/jolace-2019-0017

3. Karimova, V. (2020). Teacher identity and professional development in post-Soviet Central Asia. *International Journal of Educational Development*, 78, 102-115. https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2020.102115

4. Norton, B. (2013). *Identity and language learning: Extending the conversation* (2nd ed.). Multilingual Matters.

5. Pennington, M. C., & Richards, J. C. (2016). Teacher identity in language teaching: Integrating personal, contextual, and professional factors. *RELC Journal*, 47(1), 5-23. https://doi.org/10.1177/0033688216631219

6. Richards, J. C. (2017). Teaching English through English: Proficiency, pedagogy and performance. *RELC Journal*, 48(1), 7-30. https://doi.org/10.1177/0033688217690059

7. Sachs, J. (2005). Teacher education and the development of professional identity: Learning to be a teacher. In P. Denicolo & M. Kompf (Eds.), *Connecting policy and practice: Challenges for teaching and learning in schools and universities* (pp. 5-21). Routledge.

8. Varghese, M., Morgan, B., Johnston, B., & Johnson, K. A. (2005). Theorizing language teacher identity: Three perspectives and beyond. *Journal of Language, Identity & Education*, 4(1), 21-44. https://doi.org/10.1207/s15327701jlie0401_2

9. Xu, H. (2012). Challenges native Chinese English teachers face in teaching English. *English Language Teaching*, 5(3), 184-191. https://doi.org/10.5539/elt.v5n3p184

10. Zembylas, M. (2003). Emotions and teacher identity: A poststructural perspective. *Teachers and Teaching*, 9(3), 213-238. https://doi.org/10.1080/13540600309378

UDK 81-13

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA ROLI

N.N. Ochilova, dots., Innovatsion texnologiyalar universiteti, Nukus

Annotatsiya. *Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan innovatsion metodlar asosida amalga oshiriladi.*

Kalit so’zlar: innovatsiya, texnologiya, kreativ, mantiq, modernizatsiya, intellektual, akmeologiya, pedagogik, novatorlik, loyihalash, boshqaruv.

Аннотация. *Инновационные технологии - это нововведения, изменения в педагогическом процессе и деятельности педагога и воспитательницы, и при его реализации осуществляются преимущественно на основе инновационных методов.*

Ключевые слова: *инновация, технология, креатив, логика, модернизация, интеллектуальный, акмеология, педагогический, новаторский, дизайн, менеджмент.*

Abstract. *Innovative technologies are innovations, changes in the pedagogical process and the activities of the educator and educator and in its implementation are carried out mainly on the basis of innovative methods.*

Key words: *innovation, technology, creative, logic, modernization, intellectual, acmeology, pedagogical, innovation, design, management.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar, xususan, raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, ingliz tili

kabi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan fanni o‘qitish va o‘rganish jarayonida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi til o‘rgatuvchi va o‘rganuvchining faol ishtirokini, samaradorlikni va motivatsiyani sezilarli darajada oshirmoqda.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda leksik ko‘nikmalarni shakllantirish muhim o‘rin tutadi, chunki lug‘at boyligi til egallashning asosi hisoblanadi. An’anaviy yondashuvlar bu borada yetarlicha samaradorlikni ta’minlamayotgani sababli, innovatsion texnologiyalar — mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi vositalar, vizual va interaktiv resurslardan foydalanish zaruratga aylanmoqda.

Innovatsion ta’lim sharoitida talabalarni leksik ko’nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ta’lim, tarbiya, kasbiy vazifalarni sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni ishlab chiqish darajasida boshqalar bilan maqsadli o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati; kasbiy jihatdan muhim maqsadlarga erishish uchun zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda shaxslararo muloqot va shaxslararo o‘zaro ta’sir o‘tkazish qobiliyati; axborot texnologiyalari sohasidagi o‘quv, ilmiy va ish jarayonlari ishtirokchilari bilan ushbu malakani doimiy ravishda oshirish va kasbiy ishda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha samarali pedagogik shart-sharoitlarini o‘rnatish, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga tayyorlikdan iboratligini J.S.Pustavalova o‘zining tadqiqot ishlarida keltirib o‘tgan.

Leksik kompetensiyasini rivojlantirish tizimida quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatamiz: ta’lim mazmunining maqsadli komponenti, prosessual, ijobiy natija berish. Komponentlarning har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Tizimning maqsadli komponenti odatda o‘qitish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishga yordam beruvchi muayyan tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladigan maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tizimning maqsadi leksik kompetensiyani rivojlantirish va va motivasion ta’lim bazasini shakllantirish jarayonini integratsiyalashdan (birlashtirishdan) iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni yechish kerak:

1. O‘qish/o‘qitishga bo‘lgan rag‘bat/motivlarini rag‘batlantirish.

2. Talabalarning kognitiv jarayonlarini faollashtirish va maksimal darajada ishga tushirish/jalb qilish.

3. Mobil lug‘at zaxirasini/boyligini yaratishni ta’minlash va ichki leksikonni tashkil etish va uning amal qilishi qonuniyatlarini hisobga olgan holda uning chiqib ketishining oldini olish.

4. Lug‘at zaxirasidan/boyligidan nutqda muloqotning maqsad va sharoitlariga ko‘ra tegishli tarzda/adekvat tarzda foydalanishni mashq qilish/tarbiyalash/ta’minlash.

5. Leksika ustida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. Leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘qitishning umumta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari ham amalga oshiriladi.

Leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi talabalarning dunyoqarashini shakllantirish, o‘rganilayotgan til madaniyati va tarixiga hurmat, xulq-atvorning axloqiy me’yorlarini o‘zlashtirish va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy maqsad, birinchi navbatda, talabalarning nutq xulq-atvorini takomillashtirishda, jumladan, ularning lug‘at boyligiga/zaxirasiga "o‘z nutqining vaziyatli va tematik yo‘nalishiga mos keladigan, kommunikativ vazifalarni yechish/bajarishga yordam beradigan semantik qimmatli so‘zlarni" kiritishdan, shuningdek so‘zlashuv formulalari, klishelar va etiket/odob me’yorlarini o‘zlashtirishdan iborat. Leksikaga o‘qitishning tarbiya beruvchi tabiati, avvalambor, mashg‘ulotlar uchun tanlangan leksik materialning mazmunida o‘z aksini topadi.

Rivojlantiruvchi maqsad leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida psixik jarayonlar, diqqat, xotira, tafakkur va irodaning tarangliligini (jadal ishlashini) taqozo etadi. Talabalarning leksik bilimlari, ko‘nikma va malakalari ularning faol aqliy faoliyati jarayonida shakllanadi. O‘qitishning rivojlantiruvchi komponenti talabalarda leksik materialni o‘rganishda ma’lumotnoma adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘qitish belgilangan mavzu doirasida eng ko‘p ishlatiladigan leksikani o‘rganishga qaratilgan. Bu tamoyil materialni shunday tashkil qilishni taqozo qildiki, u muloqotning hayotiy vaziyatlarida amal qilishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirsin. O‘qitish uchun ushbu kontingent (tahsil oluvchilar) uchun eng odatiy/tipik va hayotiy ahamiyatli vaziyatlar va muloqot mavzulari, shuningdek, ularga xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar, nutq klishelari tanlab olinadi. Mashg‘ulotlarda real muloqotni imitatsiya/taqlid qiluvchi muhit yaratiladi. Leksikaga o‘rgatishning o‘zi "ikki madaniyatli (bikultural) lisoniy shaxs xususiyatlarini shakllantirishga" qaratilgan, va u kelajakda talabaga "madaniyatlararo muloqotda teng va avtonom ishtirok etish" imkonini beradi [Galskova, Gez, 2004: 150]. Bu tamoyil talabalarning turli vaziyatlarda ingliz tilida muloqot qilish qobiliyati va tayyorligini, boshqa madaniyat vakillari bilan mavjud leksik zaxira/fond asosida o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini zaruriy ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi.

O‘yin topshiriq o‘quv faoliyatiga uyg‘otish/qo‘zg‘atish, rag‘batlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan o‘yin vaziyatlarini yaratishga qaratilgan. O‘yin: a) mashg‘ulotlarning psixologik iqlimini yaxshilashga; b) ta’limni xususan qiziqarli va jozibali qilishga; v) barcha talabalarni ta’lim jarayoniga jalb qilinganligini ta’minlash; g) ularning ijodiy qobiliyatlarini ishga jalb qilish/ishga tushirish; d) xorijiy tilda nutqqa tabiiy motivatsiyani yaratish imkonini beradi. O‘yin faoliyatining yuqori darajadagi motivatsiyasi uning ixtiyoriyligi, tanlov imkoniyatlari, musobaqachilik elementlari, o‘z kuchlarini/ qobiliyatlarini ko‘rsatish/isbotlash va o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish bilan shartlangan. Bundan tashqari, o‘yin faoliyati o‘quv kommunikatsiyasini asl/haqiqiy kommunikatsiyaga uning spontanligini kuchaytirish, muayyan emosional/hissiy-psixologik fonni yaratish, paralingvistik vositalarni (qo‘l imo-ishoralari, yuz imo-ishoralari, pozalar (tanani muayayn tarzdat tutib ko‘rsatish), harakatlarni)) ishga kiritish/jalb qilish maksimal tarzda yaqinlashtiradi. O‘yinlardan foydalanish talabalarni nafaqat rag‘batlantiradi, balki leksik bilimlarni, amaliy faoliyat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantiradi, mustaqillikni tarbiyalaydi, hamkorlikka o‘rgatadi, kommunikativ/muloqot malakalarining rivojlanishiga, ijodiy amalga oshishga yordam beradi, diqqatning, xotiraning, nutqning, fikrlashning, tasavvurning rivojlanishi ta’minlaydi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, leksik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, interaktiv dasturlar, multimedia vositalari, onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi ilovalarning qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish, ularning so‘z boyligini kengaytirish va real kommunikativ vaziyatlarda tilni samarali qo‘llashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yadgarova Ozoda Ibragimovna, Abduraxmonova Nilufar Hayitmurod qizi. (2022). Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kommunikativlikni shakllantirish va rivojlantirish ko‘nikmalari. Fan, Ta’lim va Amaliyotning Integrasiyasi.

2. Tuxtayeva N. (2024). Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari.

3. Даниярова Т.М. Формирование лексических навыков английского языка посредством применения интерактивных образовательных платформ.

Рассматриваются современные цифровые инструменты (Wordwall, Quizlet, Memrise) и их роль в развитии лексических навыков у студентов.

4. Адилбекова А. Инновационные методы преподавания английского языка. Описываются современные подходы, включая ролевые игры и мозговые штурмы, направленные на развитие коммуникативных и лексических навыков.

5. Abdullayev Alisher Farxodovich. (2024). Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(26).

6. Yoqubjonova Diyora Uchqunovna. (2023). Ingliz tili o‘qitishning innovatsion metodikasi. Intellectual Education Technological Solutions and Innovative Digital Tools, 2(18).

7. Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna. (2024). Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar: tahlil va natijalar. Biruni Journal, 3(2).

UDC 37

PROJECT-BASED LEARNING AS A TOOL FOR INTERDISCIPLINARY TEACHING

B.X.Omonov, dots., Qo'qon Universiteti, Qo'qon
M.M.Matkomilovich, o'qituvchi, Qo'qon universiteti, Qo'qon
F.S.Saidvaliyeva, o'qituvchi, Qo'qon Universiteti, Qo'qon

Annotatsiya*. Loyiha asosidagi o'qitish (Project-Based Learning – PBL) – bu o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi, ularni haqiqiy hayotdagi, mazmunli loyihalarga jalb etish orqali o'rganishga undaydigan innovatsion pedagogik yondashuvdir. Ushbu magistrlik ishi PBL'ning an'anaviy fanlar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilib, o'quvchilarga yaxlit bilim olish imkonini beruvchi fanlararo (interdisiplinar) ta'limda qanday samarali vosita sifatida xizmat qilishini o'rganadi.*

Kalit so'zlar*: Loyiha asosidagi o'qitish (PBL), fanlararo ta'lim, faol o'rganish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, yaxlit ta'lim.*

Аннотация*. Проектное обучение (PBL) — это инновационный педагогический подход, способствующий активному обучению за счёт вовлечения студентов в реальные, значимые проекты. В данной работе исследуется, как PBL служит эффективным инструментом для междисциплинарного обучения, разрушая традиционные границы между предметами и создавая целостный образовательный опыт.*

Ключевые слова*: проектное обучение (PBL), междисциплинарное обучение, активное обучение, критическое мышление, сотрудничество, целостное образование.*

Abstract. *Project-Based Learning (PBL) is an innovative pedagogical approach that fosters active learning by engaging students in real-world, meaningful projects. This thesis explores how PBL serves as an effective tool for interdisciplinary teaching, breaking down traditional subject barriers to create a holistic learning experience.*

Keywords: *Project-based learning (PBL), Interdisciplinary Teaching, active learning, critical thinking, collaboration, holistic education.*

Education in the 21st century demands innovative teaching methodologies that prepare students for complex, real-world problems. Traditional teaching methods often compartmentalize knowledge into distinct subjects, limiting students' ability to see connections between different disciplines. As industries and societies become increasingly interconnected, there is a growing need for an educational approach that mirrors these real-world complexities. Project-Based Learning (PBL) emerges as an effective strategy that fosters interdisciplinary learning by bridging the gaps between various subjects and encouraging students to engage in collaborative, hands-on projects. PBL is an instructional approach that places students at the center of their learning experience by engaging them in real-world challenges and meaningful tasks. Unlike traditional rote learning methods that emphasize memorization, PBL encourages students to apply their knowledge creatively and critically. By working on interdisciplinary projects, students not only gain subject-specific knowledge but also develop essential skills such as teamwork, communication, and problem-solving, which are crucial for success in both academic and professional domains. Moreover, PBL aligns with contemporary educational philosophies that prioritize experiential and inquiry-based learning. By engaging students in sustained inquiry and reflective practices, PBL helps them make meaningful connections between different disciplines, fostering a deeper understanding of concepts and their applications. This approach not only enhances academic performance but also cultivates a lifelong learning mindset, equipping students with the adaptability needed to thrive in an ever-evolving world. This thesis examines how PBL functions as a tool for interdisciplinary teaching, exploring its theoretical basis, benefits, challenges, and practical applications. By analyzing literature and case studies, this study aims to provide insights into how educators can effectively implement PBL to promote interdisciplinary learning and better prepare students for the complexities of the modern world.

Theoretical Foundations of Project-Based Learning PBL is rooted in constructivist learning theories, particularly those of John Dewey and Jean Piaget. Dewey emphasized experiential learning,

where students learn by doing and reflecting on their experiences. Piaget's theory of cognitive development supports PBL by promoting active engagement and discovery-based learning. Additionally, Lev Vygotsky's social constructivism highlights the importance of collaboration and scaffolding in knowledge acquisition. These theories collectively underpin PBL's ability to create meaningful interdisciplinary connections.

Theoretical Foundations of Project-Based Learning PBL is rooted in constructivist learning theories, particularly those of John Dewey and Jean Piaget. Dewey emphasized experiential learning, where students learn by doing and reflecting on their experiences. Piaget's theory of cognitive development supports PBL by promoting active engagement and discovery-based learning. Additionally, Lev Vygotsky's social constructivism highlights the importance of collaboration and scaffolding in knowledge acquisition. These theories collectively underpin PBL's ability to create meaningful interdisciplinary connections.

Benefits of PBL in Interdisciplinary Teaching PBL facilitates interdisciplinary teaching in several key ways:

1. **Holistic Understanding:**
   - PBL helps students integrate knowledge from multiple subjects, promoting a broader and deeper understanding of concepts.
   - It allows students to see how different disciplines intersect, making learning more meaningful and contextual.
   - By working on interdisciplinary projects, students develop the ability to transfer knowledge from one domain to another, strengthening their cognitive flexibility.
2. **Critical Thinking and Problem-Solving:**
   - PBL encourages students to analyze and evaluate information from multiple disciplines to solve complex, real-world problems.
   - It fosters higher-order thinking skills such as analysis, synthesis, and evaluation, which are essential for lifelong learning.
   - By navigating challenges in projects, students learn resilience and adaptability, key skills in a rapidly changing world.
3. **Collaboration and Communication:**
   - Interdisciplinary projects require students to work in teams, fostering cooperation and collaboration.
   - Students develop essential communication skills, including active listening, articulating ideas effectively, and resolving conflicts within a group.
   - PBL promotes the ability to work with diverse perspectives, preparing students for professional environments that require teamwork and interdisciplinary cooperation.
4. **Engagement and Motivation:**
   - Hands-on learning experiences in PBL enhance student engagement and motivation.
   - Real-world relevance in projects makes learning more interesting and encourages curiosity.
   - The sense of ownership over projects increases intrinsic motivation, leading to deeper learning and greater academic success.
5. **Real-World Application:**
   - PBL connects classroom knowledge to practical applications, helping students understand the relevance of their learning.
   - Students engage in authentic tasks that prepare them for future careers and societal challenges.
   - By working on real-world issues, students develop a sense of responsibility and a commitment to contributing meaningfully to their communities.

Challenges of Implementing PBL in Interdisciplinary Teaching Despite its advantages, PBL poses several challenges:

1. **Curriculum Alignment:** Integrating multiple subjects into a single project can be difficult due to rigid curriculum structures.

2. **Assessment Difficulties:** Evaluating interdisciplinary projects requires diverse assessment strategies, which can be complex to design and implement.

3. **Resource and Time Constraints:** PBL often demands more time and resources than traditional teaching methods, making it challenging for educators to execute effectively.

4. **Teacher Preparation:** Successful PBL implementation requires teachers to be trained in interdisciplinary teaching strategies and project management.

Best Practices for Implementing PBL in Interdisciplinary Teaching To maximize the effectiveness of PBL in interdisciplinary settings, educators can adopt the following best practices:

1. **Careful Planning and Collaboration:** Teachers from different disciplines should collaborate to design projects that align with learning objectives across subjects.

2. **Scaffolded Learning:** Providing structured guidance at different stages of the project helps students navigate complex interdisciplinary tasks.

3. **Authentic and Relevant Projects:** Projects should be designed to address real-world problems that resonate with students' experiences and interests.

4. **Diverse Assessment Strategies:** Combining formative and summative assessments, such as self-reflection, peer evaluations, and rubrics, ensures a comprehensive evaluation of student learning.

5. **Use of Technology:** Digital tools and online platforms can enhance collaboration, research, and presentation of interdisciplinary projects.

Case Studies of PBL in Interdisciplinary Teaching Several schools and institutions have successfully implemented PBL in interdisciplinary settings. For example:

1. **STEM and Humanities Integration:** A high school project combining science, technology, engineering, mathematics (STEM), and history to design sustainable urban spaces.

2. **Environmental Sustainability Projects:** Students working across disciplines such as biology, chemistry, geography, and economics to develop solutions for environmental issues.

3. **Business and Social Studies Collaboration:** A project where students create business plans addressing social issues, integrating economics, ethics, and marketing concepts.

Project-Based Learning serves as a transformative approach to interdisciplinary teaching by fostering collaboration, critical thinking, and real-world application of knowledge. By integrating multiple subjects into meaningful projects, PBL equips students with the skills necessary for success in an increasingly interconnected world. While challenges such as curriculum alignment and resource constraints exist, these can be mitigated through careful planning, teacher collaboration, and diverse assessment strategies. The effectiveness of PBL has been demonstrated in various educational settings, reinforcing its potential as a valuable teaching method.

REFERENCES:

1. Ladson-Billings, G. (1995). *The dreamkeepers: Successful teachers of African American children*. Jossey-Bass.

2. Fotima, S. (2025). The role of poetry in the study of learning english literature. *Modern educational system and innovative teaching solutions*, *1*(7), 95-103.

3. Saidvaliyeva, F. (2025). The comparative research on conjunctions of comparison of english and uzbek languages. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, *14*, 221-224.

4. Saidvaliyeva, F. (2025). Flipped classrooms and their impact on integrated learning models. *Академические исследования в современной науке*, *4*(26), 201-204.

5. Saidvaliyeva, F. (2025). Virtual and augmented reality as tools for interdisciplinary learning. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, *4*(12), 30-33.

6. Saidvaliyeva, F. (2025). Cultural responsiveness in integrated curriculum design. *Молодые ученые*, *3*(16), 68-70.

UO’K 373.1

TALABLARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLAR TIZIMI

B.Yu.Rahmonova, tayanch doktorant, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent

Annotatsiya*. Mazkur maqolada talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv topshiriqlari tizimi yoritilgan. Unda tanqidiy fikrlashning zamonaviy ta’limdagi ahamiyati, bu ko‘nikmani rivojlantirishda qo‘llaniladigan topshiriq turlari hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Jumladan, sabab-oqibat aloqasini tushunishga, fakt va fikrni ajratishga, muqobil yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan topshiriqlar misolida tanqidiy fikrlash qanday rivojlanishi tushuntirilgan. Shuningdek, topshiriqlarning talabaning mustaqil fikrlashi, dalillashga asoslangan qarorlar qabul qilishi va ijtimoiy ongini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Tanqidiy fikrlash, o‘quv topshiriqlari, mustaqil fikrlash, sabab-oqibat tahlili, fakt va fikr, ijodiy yondashuv, baholash mezonlari.*

Аннотация*. В статье рассматривается система учебных заданий, служащих для формирования и развития навыков критического мышления у учащихся. Анализируется значение критического мышления в современном образовании, типы заданий, используемых для развития этого навыка, их практическая эффективность. В частности, на примере заданий, направленных на понимание причинно-следственных связей, разделение фактов и мнений, разработку альтернативных решений, объясняется, как развивается критическое мышление. Также раскрывается роль заданий в формировании самостоятельного мышления учащихся, принятия обоснованных решений и общественного сознания.*

Ключевые слова*: Критическое мышление, учебные задания, самостоятельное мышление, причинно-следственный анализ, факты и мнения, творческий подход, критерии оценки.*

Abstract*. This article discusses the system of educational tasks that serve to form and develop critical thinking skills in students. It analyzes the importance of critical thinking in modern education, the types of tasks used to develop this skill, and their practical effectiveness. In particular, it explains how critical thinking develops using the example of tasks aimed at understanding cause-and-effect relationships, separating facts and opinions, and developing alternative solutions. It also reveals the role of tasks in the formation of a student's independent thinking, evidence-based decision-making, and social consciousness.*

Keywords*: Critical thinking, educational tasks, independent thinking, cause-and-effect analysis, facts and opinions, creative approach, assessment criteria.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishga qobiliyati va muammolarga turlicha yondashuvlarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi — bu nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, solishtirish, shubha bilan qarash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikma talabaning ijodiy yondashuvi va hayotiy masalalarni yechishdagi mustaqilligini ta’minlaydi. Masalan, ochiq savollar, bahsli vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, voqea-hodisalarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish — bularning barchasi tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Ayniqsa, "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollarni o‘z ichiga olgan topshiriqlar orqali talabalar chuqur fikrlashga undaladi. Har bir topshiriq faqat bilimni emas, balki fikrni asoslashni, dalillashni va qaror qabul qilishni ham o‘rgatadi.

